MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

COLLECTION

of materials of the International conference on:

«PROBLEMS OF RESEARCH AND EDUCATION OF THE UZBEK LANGUAGE»

TASHKENT - 2024

O‘ZBEK TILI TADQIQI VA TA‘LIMI MUAMMOLARI. XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI ILMIY MAQOLALARI VA TEZISLARI TO‘PLAMI (2024 yil 18 Oktyabr). – T.: O’ZMU, 2024.

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalari va tezislari to‘plamida o‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalarini tahlil qilish, o’zbek tilini turkiyshunoslik muammolari bilan uzviylikda o‘rganish, o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish, o‘zbek tilining boshqa tillar bilan munosabatini ilmiy tadqiq etish, jahondagi o‘zbek tili va turkologik markazlari bilan aloqalarni keng yo‘lga qo‘yish, o‘zbek tilini o‘qitishning samarali usullarini ishlab chiqish, tilshunoslik yo‘nalishida xalqaro aloqalar istiqbolini belgilash, o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini belgilash kabi qator masalalar bo‘yicha ilmiy, uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ushbu ilmiy maqola va tezislar to‘plami tilshunoslik, turkologiya, til ta‘limi yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tayanch doktorantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, professor-o‘qituvchilar, magistrantlar, talabalar va soha mutaxassislari uchun mo‘ljallangan.

Ma‘sul muharrir: f.f.d., prof. Muxabbat Kurbanova

Tahrir hay‘ati:
Prof., f.f.d. Alfiya Yusupova (Rossiya)
Prof., f.f.d. Hikmat Korash (Turkiya)
Prof. Ravshangul Avakova (Kazakhstan)
Prof., f.f.d. Qarlig’ash Serekenova (Qozog‘iston)
Prof., f.f.d. Aynur O‘z O‘zjan (Turkiya)
Dots., f.f.n. Gulchehra Keldiyorova
Dots., f.f.n. Alisher Ubaydullaev
P.f.d. Nodira Alavutdinova
PhD Maxfuzaxon Xomidova
PhD Maxbuba Xujamkulova
PhD Saodat Israilova

To‘plamga kiritilgan maqolalar va tezislar mazmuni hamda sifatiga mualliflar mas‘uldir.

PROBLEMS OF RESEARCH AND EDUCATION OF THE UZBEK LANGUAGE. A COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES AND THESES OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE. (October 18, 2024). - T.: UZMU, 2024.

In this collection of scientific articles and abstracts of the International Scientific and Practical Conference, scientific, stylistic and practical recommendations have been developed on a number of issues, such as: analysis of theoretical and practical issues of Uzbek linguistics, the study of the Uzbek language in harmony with the problems of Turkic studies, increasing the prestige of the Uzbek language at the international level , scientific research on the relationship of the Uzbek language with other languages, the Uzbek language and Turkic studies in the world, the development of scientific, methodological and practical recommendations on a number of issues, such as establishing broad contacts with centers, developing effective methods for teaching the Uzbek language, developing such areas as applied linguistics and computational linguistics in Uzbek linguistics, determining the prospects for international relations in the field of linguistics, determining the stages of the historical development of the Uzbek language.

This collection of scientific articles and abstracts is intended for basic doctoral students, doctoral students, independent researchers, professors, teachers, graduate students, students and specialists in the field of linguistics, Turkology, Language education.

Managing Editor: DSc., Prof. Mukhabbat Kurbanova
Editorial team:
DSc., Prof. Alfiya Yusupova (Russia)
DSc., Prof. Hikmat Korash (Turkey)
Prof. Ravshangul Avakova (Kazakhstan)
DSc., Prof. Karligash Serekenova (Kazakhstan)
DSc., Prof. Ainur Oz Ozjan (Turkey)
C.e.s., Prof. Gulchehra Keldiyorova
C.e.s., Prof. Alisher Ubaydullayev
C.e.s., Prof. Nodira Alavutdinova
Ph.D. Makhfuzakhan Khomidova
Ph.D. Makhbuba Khujamkulova;
Ph.D. Isroilova Saodat.

The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

MUNDARIJA
*****
TABLE OF CONTENTS

M.M. KURBANOVA, S.I. SAATOVA. TILSHUNOSLIKDA LISONIY SHAXS TUSHUNCHASIGA TURLI ASPEKTDA YONDASHUV 8

R.R. SAYFULLAYEVA, N.I. G‘AYBULLAYEVA. MILLIY QADRIYATLARDA TIL BIRLIKLARINING MADANIY TALQINI....13

PROF. DR. HIKMET KORAŞ. BABÜR’ÜN HATIRATINDA SEMERKANT VE CİVARINDAKİ YERLEŞİM YERLERİ, SEMTLER, MİMARİ YAPILARIN İSİMLERİ ÜZERİNE BİR İNCELEME 17

K.C. ФӘТХУЛЛОВА, Ә.Ш. ЮСУПОВА. ЗАМАНЧА ТУГАН ТЕЛ УКЫТУЧЫСЫНЫҢ МЕТОДИК ОСТАЛЫГЫ 25

DR. FARHAD RAHIMI. SENGLAH SÖZLÜĞÜNÜN FERAĞI’DEN YANLIŞ AKTARMALARI ÜZERINE 30

Э.Х. КАДИРОВА. КАЗАН ХАНЛЫГЫ ЧОРЫ ЯЗМА ИСТӘЛЕКЛӘРЕНДӘ САННАР ..38

М.К. АХМЕТОВА. ҚАЗАҚ ТІЛТАНЫМЫНДАҒЫ ПСИХОЛИНГВИСТИКАЛЫҚ ЗЕРТТЕУЛЕР 44

G.S. KELDIYOROVA. LINGVOKULTUROLOGIYA TILSHUNOSLIK TADQIQOTLARINING YETAKCHI YO‘NALISHLARIDAN BIRI SIFATIDA 51

A.A. UBAYDULLAYEV. ATOIY G‘AZALLARIDA QO‘LLANILGAN BA’ZI LEKSEMALARNING LISONIY TAHLILI 54

M.F. XOMIDOVA. INTERTEKSTUALLIK VA BADIIY MATN MAZMUNIY IDROKI....59

M.B. XUJAMKULOVA. SUBYEKTIV EMOTSIYANING IFODALANISHIGA KO‘RA TURLARI HAQIDA....63

S.T. ISRAILOVA. TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA “KO‘K YADROLI BIRLIKLARNING SEMANTIKASI 67

Г.Ч. ФАЙЗУЛЛИНА. ЯНБАЕВСКИЕ МЕТРИЧЕСКИЕ ЗАПИСИ КАК ОБЪЕКТ ИСТОРИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ 70

Л.С. САТТАРОВА. НОМИНАЦИИ ЧЕЛОВЕКА В «РУССКО-ТАТАРСКОМ РАЗГОВОРЕ» 1905 ГОДА В ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ....72

N.G. ALAVUTDINOVA. O‘QUVCHINING IJODIY FIKRLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA YOZMA NUTQNING O‘RNI....76

Л.Ә. ЕСПЕКОВА. АССОЦИАЦИЯ – ТІЛДІК ФЕНОМЕНДЕРДІ ЗЕРТТЕУ ӘДІСІ 80

С.А. КОСЦОВА. КАРГЫШ ‘ПРОКЛЯТИЕ’ В СОВРЕМЕННОМ ТАТАРСКОМ ЯЗЫКЕ: ЛЕКСИЧЕСКАЯ СОЧЕТАЕМОСТЬ 84

SH.M. TOSHMIRZAYEVA. SINONIMLAR TADQIQI VA MENTAL SINONIMLAR MA’NOSINI O‘ZLASHTIRISH 88

O.U. SHUKUROV. O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING BERILISHI 94

S.E. TURDIMURODOV. EVFEMIK GAPLARNING SEMANTIK - SINTAKTIK XUSUSIYATLARI 98

I.F. MAMARAJABOVA. “VAQT” KONSEPTINING SO‘Z BIRIKMALARI ORQALI IFODALANISHI 103

F. TOPILDIYEVA, M. RAXIMJONOV. DAVLAT TILINING HUQUQIY MAQOMI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR 108

A.KH. MURODOVA. LINGUOCONSEPTUAL STUDY OF PHRASEOLOGISMS REPRESENTING “BEAUTY” IN UZBEK LANGUAGE 113

N.RASULOV. O‘ZBEK TILIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID BA’ZI MULOHAZALAR 116

S.S. SHAMSHADDINOVA. QOŃİRAT RAYONİ ETNOTOPONIMLERI 121

D.N. SARBAROVA. LISONIY TIZIMDA DEYKSISNING O‘RNI VA UNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 124

M.A. KARIMOVA, F.A. SAIDOVA. ALLYUZIV BIRLIKLARNING MAZMUNIY VA SHAKLIY XUSUSIYATLARIGA KO‘RA TURLARI TAHLILI 128

N.A. TOSHPO‘LATOVA. ULUG‘BEK HAMDAM ASARLARIDA INTERTEKSTUAL BIRLIKLAR TAHLILI 132

X.G‘. RAXIMBOYEVA. O‘ZBEK TILI IERARXIK KORPUSI(TREEBANKI) DA TEGLASH TUSHUNCHASI VA UNING NLP DAGI ROLI 136

O.YU. USMONOVA. BO‘LAJAK MUHANDISLARDA KASBIY YO‘NALTIRILGAN MULOQOT KOMPETENSIYASINIHG AHAMIYATI 140

N.A. KUDRATXODJAYEVA. DIDAKTIK TAHLIL USULINING AHAMIYATI 145

M.E. BOBOZARIPOVA, N.YU. SUYARAVA. JAHON VA O’ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TEZAURUS LUG’ATLARNING SHAKLLANISHI VA AHAMIYATI 149

R.J. NABIYEVA. OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARIDA SINONIMLIK VA OMONIMLIK HODISASI HAQIDA 155

G.A. QURBONOVA. NAZAR ESHONQULNING “BAHOVIDDINNING ITI” HIKOYASIDA IT OBRAZI 158

N.S. FARMONOVA, D.O. BOBOJONOVA. 5-SINF ADABIYOT DARSLIGIDA MAQOLLARNING QO’LLANISHI VA UNING SEMANTIC, LINGVISTIK TAHLILI 163

D.N. SULAYMANOVA. QO‘SHMA GAPLARDA LISONIY STRUKTUR KENGAYTIRUVCHILAR MAQOMI 168

SH.T. MAMADALIYEVA. O’ZBEK TILI TARIXI VA RIVOJLANISHI 173

D.SH. ABDURASULOVA. ERGONIMLARNING ONOMASTIK TIZIMDAGI O‘RNI VA TADQIQI 177

У.А. БУРИЕВА. ЭЛЛИПСИС И ИХ СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ДИСКУРСИВНОМ АНАЛИЗЕ 181

O.R. RADJABKULOV. THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF EUPHEMISMS 186

SH.T. TOSHMURODOVA. INTERNET LEKSIKASINING TARAQQIYOTI VA KISHILIK JAMIYATIDAGI O‘RNI 189

Z.YO. BOLTAYEVA, S.F. NE’MATOVA. TA’LIM JARAYONLARIDA TIL VA YOZUV MUAMMOLARI 192

N.N. HAMROYEVA. COGNITIVE-SEMANTIC APPROACHES OF THE ACT OF GRATITUDE IN COMMUNICATION 196

D.R. SOBIROVA. REKLAMA MATNLARINING VAZIFAVIY TAVSIFI 199

Z.R. NORMURODOVA. EPITETNI YONDOSH HODISALARDAN FARQLASH MASALASI 202

G. KELDIYOROVA, M. TOJIYEVA. TURKIY TILLARDA ALIFBO VA IMLO ISLOHOTLARI 205

S.T. ISRAILOVA, G.O. RAYHONOVA. TEZAURUS TUSHUNCHASI. UNING LINGVISTIK KO‘LAMI HAMDA SHAXS OTLARINING BAZASINI YARATISH TAMOYILLARI 209

R.O. MASHARIBOVA. DRAMATIK ASARLARDA MUROJAAT IFODALOVCHI BIRLIKLARNING SOTSIAL XOSLANISHI 212

D.I. QO‘SHMURODOVA. O‘ZBEK REKLAMA MATNLARINING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI 216

D.A. JUMANOVA. TARIXIY SHAXS NOMLARINING SHE’RIY ASARLARDA QO‘LLANILISHI 222

G.A. TURSINBAYEVA, G.S. KELDIYOROVA. TOG‘AY MUROD ASARLARINI LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTDA TAHLIL QILISH 227

SH.K. MALIKOVA. ULUG‘BEK HAMDAM ASARLARIDA EPIGRAFNING UNIVERSAL INTERTEKST SIFATIDA QO‘LLANILISHI 232

M.X. DIYOROVA. TURK TILIDA SIFATLARNING O‘RGANILISHI 237

G.S. QO‘ZIBOYEVA. REALIYALARNING SEMANTIK-STRUKTUR XUSUSIYATLARI 241

D.A. JUMABOYEVA. “TA’VIZ-UL OSHIQIN” DEVONIDAGI ANTONIMIK BIRLIKLAR TAHLILI 246

Q.N. ISOQULOVA. O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA MODAL SO‘Z-GAPLAR 250

N.M. MIROBIDOVA. O‘ZBEK AYOLLAR NUTQIDA NUTQIY AKTNING VOQELANISHI 255

M.Q. ABDULLAYEVA. MEDIAMATNLARDAGI INTERTEKSTUAL BIRLIKLARNING TIL XUSUSIYATLARI 259

S.J. SHAROFOVA. FONOPOETIK VOSITALARNING OMON MATJON SHE'RIYATIDA QO'LLANILISHI 262

G.S. KELDIYOROVA, X.U. SULTANOVA. XURSHID DAVRON PUBLITSISTIKASINING LEKSIK O'ZIGA XOSLIKLARI 268

SH.SH. ERGASHOVA. QASHQADARYO VILOYATI QIPCHOQ LAHJASIGA OID BA'ZI LEKSEMALAR LISONIY TAHLILI 273

H. MO'YDINOVA. MADANIYATLARARO MULOQOTDA BILINGVIZMNING O'RNI 278

G.O. TOLIBOVA. O 'ZBEK TILINI O'QITISHDA MATNNING AHAMIYATI 281

SH.SH. QURBONOVA. SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA PRESUPPOZITSIYA 286

O.A. TURAKULOVA. O'ZBEK TILI MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARDA ADABIY O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH ……...… 290

X. HEYDƏROVA. VAQİFİN DİLİNDƏ BƏZİ SEMANTİK VƏ QRAMMATİK XÜSUSİYYƏTLƏR……295

S. SƏFƏROVA. AZƏRBAYCAN ƏDƏBİ DİLİ VƏ KÖMƏKÇİ ADLAR……...…..……300

TILSHUNOSLIKDA LISONIY SHAXS TUSHUNCHASIGA TURLI ASPEKTDA YONDASHUV

Kurbanova Muhabbat Matyoqubovna
O‘zMU “O‘zbek tilshunosligi kafedrasi” mudiri, f.f.d., prof.
E-mail: qurbanova2007@mail.ru

Saatova Surayyo Ismailovna
O‘zMU “O‘zbek tilshunosligi kafedrasi” o‘qituvchisi.
E-mail: surayyosaatova23@gmail.com

Annotation: The anthropocentric paradigm made the image of the speaker the main object of research. This approach to language learning paved the way for the development of linguopersonology, which defines the concept of linguistic person as a central concept, among other directions of anthropocentric linguistics. Lingvopersonology as a new field was formed at the intersection of sociolinguistics, cognitive linguistics, pragmalinguistics, psycholinguistics, and linguocultural sciences. In this respect, the linguistic personality is studied in terms of different aspects in linguistics. The article examines aspects of the approach to the concept of linguistic personality in different aspects.

Keywords: language personology, linguistic entitiy, linguistic ability, tip, speech, text, age, factor. Aspect

Аннотация: Антропоцентрическая парадигма сделала образ говорящего основным объектом исследования. Такой подход к изучению языка проложил путь развитию лингвоперсонологии, которая выделяет понятие языковой личности как центральное среди других направлений антропоцентрической лингвистики. Лингвоперсонология как новое направление сформировалась на стыке социолингвистики, когнитивной лингвистики, прагмалингвистики, психолингвистики и лингвокультурологии. В связи с этим языковая личность изучается в разных аспектах лингвистики. В статье рассматриваются аспекты подхода к понятию языковая личность в разных аспектах.

Ключевые слова: лингвоперсонология, языковая личность, лингвистические способности, тип, речь, текст, возраст, фактор, аспект.

Til – xalqning ma’naviy boyligi, madaniy an’analar saqlovchisi va davomchisidir. Shu bilan birga ti shaxsning jamiyatda rivojlanishi, shakllanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Til shaxsning milliy-madaniy hamda ma’naviy rivojiga xizmat qiluvchi vazifalarni bajarishi bilan ham ahamiyatli.

Antroposentik tilshunoslikning yangi sohasi bo‘lgan lingvopersonologiyaning asosiy tushunchasi lisoniy shaxs hisoblanadi. Zero, shaxs tushunchasi turli fanlarning o‘rganish obyekti hisoblanib, har bir soha o‘z nuqtayi nazaridan yondashadi. *Lisoniy shaxs* tushunchasi ko‘p qirrali va murakkab hodisadir, chunki shaxs tushunchasining o‘zi murakkab va ko‘pqirralidir. “*Shaxs* tushunchasi falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, psixiatriya, psixologiya, tilshunoslik va psixolingvistika kabi fanlarning kontseptual apparatiga kiritilgan”. Lisoniy shaxs tushunchasining

ko‘pqirrali va murakkab tabiati uni turli aspektlarda o‘rganishni taqozo etadi. Shuning uchun ham lisoniy shaxs nafaqat lingvopersonologiyaning, balki lingvodidaktika, lingvokulturologiya, sotsilolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika va boshqa sohalarning diqqat markazida turadi va turlicha aspektda yondashiladi.

Ko‘pgina tadqiqotlarda lisoniy shaxs tushunchasiga sotsiolingvistik jihatdan yondashilgan. Jumladan, A.P.Sedyih, T.A.Sidorova Y.V.Bolgova N.S. Bolgovalar tomonidan siyosatchi lisoniy shaxsi o‘rganilib, siyosatchi lisoniy shaxsining namoyon bo‘lishida kommunikativ salohiyat hamda institutsional komponentga ega til birliklarining semantikasi tahlil qilingan [Sedykh, 2020; 347-358]. S.V.Sokolovskaya Devid Kameronning rasmiy bayonotlaridagi nutqida siyosiy diskursning ahamiyatini, siyosatchi til tizimining muhim xususiyatlarini kognitivlik darajada baholab chiqqan. [Соколовская Киев, 2014; 9]

L.A.Kaufova Tereza Meyning siyosiy lisoniy shaxsini o‘rgangan, siyosatchining mamlakatning juda og‘ir tarixiy davrida hokimiyat uchun bo‘lgan kurashlardagi nutqining adresatga kuchli ta‘sir ko‘rsatishidagi pragmatik sotsiopragmatik ahamiyatini tahlil qilgan. [Атьман, 2011;103] A.M.Nexorosheva ham Germaniya yetakchisi Angela Merkel lisoniy shaxsini o‘rganar ekan, rahbarning hokimiyat ichida o‘rnatgan tartibida nutqlarining ahamiyatiga, ayniqsa, ularning ko‘proq kognitiv tomoniga e‘tibor qaratgan. [Нехорошева, 2012; 150].

Keyingi yillarda zamonaviy telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari, Internetning keng rivojlanishi jamiyat va til faoliyatiga sezilarli darajada o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ushbu holat tadqiqotchilarning ijtimoiy tarmoq, jurnalist, blogerlarning lisoniy shaxsini o‘rganishga qiziqishini orttirmoqda. G.N.Trofimova zamonaviy axborot texnologiyalarining keng tarqalishi oddiy texnologik taraqqiyot doirasidan tashqariga chiqib, inson shaxsiyatining muhim jihatlariga ta‘sir qilishi natijasida insonlarda lingvistik maqomning ham o‘zgarganligini ta’kidlaydi. Shuningdek, tadqiqotchi Internetda shaxslar va ommaviy auditoriyalarning nutq ehtiyojlarini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari, Internet lisoniy shaxsining shakllanishi haqida munosabat bildiradi [Трофимова, 2004;15]. O.Akay boshchiligidagi bir guruh olimlar ijtimoiy tarmoq lisoniy shaxsining pragmatik darajasini amalga oshirishga xizmat qiladigan nutqiy aktlarning ifodalanish masalalariga to‘xtalgan [Okay, 2017;6]. L.V.Kudrina ijtimoiy tarmoqlardagi lisoniy shaxs so‘z boyligini tahlil qilgan. Instagram foydalanuvchilari matnlarining leksik va stilistik xususiyatlariga, adresatga pragmatik ta‘sir ko‘rsatish uchun muloqotda til vositalarini maqsadli qo‘llashi hamda zamonaviy internet muloqotida paralingvistik vositalardan foydalanishiga ahamiyat qaratadi [Кудрина, 2021;47]. S.S.Galstyan ommaviy axborot vositalari tili, televizion nutq madaniyatini o‘rganishning asosi sifatida jurnalist lisoniy shaxsining kontseptual tomonlariga murojaat qilgan. Jurnalist lisoniy shaxsining lingvistik va kommunikativ kompetensiyalari, shaxsning til madaniyati bilan bog‘liq muammolarini chuqur tahlilga tortgan.[Галстян, 2008;23]

Lisoniy shaxs mavzusi haqida olib borilgan tadqiqotlarda mutaxassislar badiiy matnda lisoniy shaxsning voqelanishiga alohida ahamiyat qaratishgan. Yozuvchilarning personaj yaratishda tildan foydalana olish mahorati asosida yozuvchi lisoniy shaxsiga baho berishgan. Ma’lumki, lisoniy shaxs millati, kasb-kori, yoshi, ijtimoiy mavqeyi, jinsi va yosh xususiyatlariga ko‘ra xilma-xil bo‘lib, ularga xosliklarni berishda yozuvchining tildan foydalana olish mahorati, kuzatuvchanligi muhim sanaladi. Badiiy asar tili haqida qator tadqiqotlar olib borgan V.V.Vinogradov lisoniy shaxs konsepsiyasini ishlab chiqqan va badiiy asarda lisoniy shaxs, muallif obrazi va badiiy obrazning o‘zaro munosabati masalasini o‘rtaga tashlagan [Виноградов,

980;61]. V.V.Katermina badiiy matnda muallif lisoniy shaxsi faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rib chiqadi. Muallif lisoniy shaxsiyatining mohiyatini tushunish – bu idiolekt va idiotil muallifning niyatlarini amalga oshirish usullarini aniqlash deb baholaydi. Tadqiqotchi muallifning lisoniy shaxsi ijodkor shaxsining to‘laqonli tasvir turi bo‘lib, u aqliy, ijtimoiy va axloqiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi va uning tili matnlarida nutqi orqali ifodalanadi deya ta‘kidlaydi. [Катермина, 2016; 205-213]

Bugungi kunda lisoniy shaxs nafaqat Yevropa, rus tilshunoslarini, balki Sharq va turkiy xalqlarni ham qiziqtirmoqda. Qozoq tilshunosligida ham lisoniy shaxs muammosiga doir turli aspektlarda yondashilgan bir qator ishlar mavjud. Qozoq zamonaviy tilshunosligida lisoniy shaxsni o‘rganishga sezilarli darajada qiziqish paydo bo‘layotgani, lisoniy shaxs konsepsiyani aniqlash, uni tahlil qilishda har tomonlama yondashilayotgani kuzatiladi. S.S.Sayaxmet, I.T.Kushegenova, A.B.Tumanovalar tomonidan lisoniy tushunchasining shakllanishi va uning tilshunoslikdagi maqomi haqidagi ilmiy ma’lumotlarning qisqacha tavsifini bergan. Mualliflar lingvistik shaxs, xususan, professional lingvistik shaxs tushunchasini tushunish va talqin qilishlarini taqdim etganlar [Саяхмет, 2022] Shuningdek, Sh.Mazhitayeva, D.Rapisheva, Y.Tuite, N.Nygmetova, Z.Sholpan, S.Karmanovalar lisoniy shaxs tuzilishi uning xarakter-xususiyatlari; lisoniy shaxs nutqidagi psixologik, falsafiy, etnomilliy, ijtimoiy, tarixiy va madaniy xususiyatlarni belgilash masalalariga e’tibor qaratgan [Mazhitayeva 2019].

Yuqoridagi ishlardan ham ma’lumki, lisoniy shaxs haqida bajarilgan ishlar turlicha aspektda olib borilgan. Chunki nutqiy muloqot insondan tashqarida amalga oshmaydi inson kommunikatsiyani yuzaga keltiruvchi bosh tashkilotchi sifatida tilga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Nutqiy muloqotga shaxs bilan bog‘liq turli omillar ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida shu til materiallari misolida monografik planda qilingan ishlar hali yetarli emas. Bu borada qilingan dastlabki ishlardan biri N.Normurodovaning nomzodlik dissertatsiyasi bo‘lib, tadqiqotchi nomzodlik dissetatsiyasida ingliz tili materiallari asosida, xususan, dialogik nutqda lisoniy shaxsning namoyon bo‘lish holatlari, lisoniy shaxs tiplari haqida bahs yuritgan. Tadqiqotchi lisoniy shaxsni pragmatik, lingvokognitiv, lingvokulturologik, genderologik aspektlarda ishlab chiqqan. Olimaning izohlashicha, lisoniy shaxs– shaxsning ma’naviy qiyofasida birgalikda aks etuvchi semantik, pragmatik, kognitiv, gender, milliy-madaniy jihatlarning lisoniy shaklda ifodalanishidir [Нормуродова, 2012;26]. Sh.Usmanova lisoniy shaxsni lingvokulturologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida baholab, lisoniy shaxs jamiyatda milliy madaniyat tashuvchisi sifatida baholangan [Usmanova, 2019;.178-181]. D.Niyazova lisoniy shaxsni lingvopersonologiyaning asosiy tushunchasi deya baholab, lingvopersonologiya sohasi shakllanishiga oid nazariy qarashlar yoritilgan. O‘zbek tilida lisoniy shaxs tiplarini ajratish prinsiplari ishlab chiqilgan. Shuningdek, tadqiqotchi o‘zbek tilida lisoniy shaxs tiplariga ishora qiluvchi maxsus birliklarni tavsif qilib, badiiy matnda uchraydigan lisoniy shaxs tiplari, yozuvchi va qahramon lisoniy shaxsining o‘ziga xosliklarini O‘.Hoshimov asarlari misolida yoritib bergan [Ниязова, 2020;143]

M.Umurzoqova bir qator maqolalarida lisoniy shaxs strukturasining pragmatik darajasiga e’tibor qaratib, badiiy diskursda lisoniy shaxsning namoyon bo‘lishida oilaning ta’siri, uni ifodalashda matn yaratuvchining mahorati, badiiy matnda lisoniy shaxs shakllanishining yosh, gender xususiyatlari kabi masalalarni lingvomadaniy va sotsiopragmatik aspektda tahlil qilgan. [Umurzoqova, 2024;3]

Demak, inson tildan foydalanish jarayonida unga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Insonga xos xususiyatlar tili orqali nutqiga ko‘chadi. Inson nutqiy muloqot jarayonida nafaqat tilni nutqqa ko‘chiradi, balki o‘z shaxsiy individual xususiyatlarini nutqiga namoyon etadi. Lisoniy shaxs muammosi turli aspektlarda o‘rganiladi. Bu tushuncha lingvopersonologiya, psixolingvistika, lingvodidaktika, lingvokulturologiya, sotsilolingvistika, pragmalingvistika kabi sohalarning diqqat markazida turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. P Sedykh, O.N.Ivanishcheva, T.A.Sidorova, Y.V.Bolgova, N.S.Bolgova. Politician's linguistic personality as key figure of institutional discourse. Revista inclusiones issn 0719-4706 volumen 7 - numero especial - octubre/diciembre 2020.pp. 347-358
2. С. В. Соколовская. Языковая личность политического лидера: на материале дискурса Дэвида Кэмерона//Статя. Киев, 2014. 9 с
3. О.В.Атьман. Вербализация стратегии самопрезентации в президентских предвыборных теледебатах как агональном жанре политического дискурса // Политическая лингвистика. Екатеринбург, 2011. Вып. 1(35). 267 с. С. 96-103.
4. А. М. Нехорошева. Особенности языковой личности политического лидера Германии Ангелы Меркель // Политическая лингвистика / Гл. ред. А. П. Чудинов. – Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т, 2012. – Вып. 1(39). – С. 147- 150.
5. Г.Н. Трофимова. Языковая личность и массовая киберкоммуникация в рунете. Cuadernos de Rusfstica Espafiola. – 2004. –15 с.
6. O.Akay, A.Kalashnikova, I.Kalashnikov, A.Golubeva. Pragmatic Level Of Language Personality In Social Networks. Advances in Social Science, Education and Humanities Research (ASSEHR), volume 97//Proceedings of the 7th International Scientific and Practical Conference Current Issues of Linguistics and Didactics: The Interdisciplinary Approach in Humanities (CILDIAH 2017). 6 p.
7. В.В.Виноградов. Избранные труды. О языке художественной прозы. – М.: Наука, 1980. – С. 61 с.
8. В.В.Катермина Языковая личность автора в художественном тексте. Человек. Культура. Образование. 2016.– 1/19. –С. 205-213
9. В.Чжан. Языковая личность носителя молодёжного сленга. Журнал Современная наука: актуальные проблемы теории и практики. Гуманитарные науки №2 февраль 2021 г. С 186-189. © Чжан Вэй (xiaotuzhangwei@163.com)
10. S. Uluo‘g‘li Dilsel Kişilik (Linguistic Personality), Bireysel Dil (Idiolect) ve Bireysel Üslup (Idiostyle) Kavramlarına Genel Bir Bakış. Dil ve Edebiyat Eğitimi Dergisi. – 2015.– 13, – S.35- 43.
11. В.Богданов. Речевое общение: прагматические и семантические аспекты. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1990. – С. 28-29.
12. D.Ниязова. “Бадиий матнда лисоний шахс типлари” –Қарши. Филол.фан. бўйича фалсафа док. дисс. 2020 – Б.33.
13. Н. Нормуродова.Выражение языковой личности в художественном диалоге (на материале английского языка): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Самарканд, 2012.– 26 с.

14. Ш.Сафаров.Таржимоннинг лисоний шахс сифатида бажарадиган фаолияти // Хорижий филология. 2018. №3. – Б. 9-21.
15. Sh. Usmanova. Lingvokultrologiya. – Toshkent, 2019. – B.178-181.
16. Kurbanova M.M., Xujamkulova M.B. COMMUNICATIVE-PRAGMATIC UNITS EXPRESSING SUBJECTIVE PURPOSE IN UZBEK LANGUAGE. CONRADO | Revista pedagógica de la Universidad de Cienfuegos | ISSN: 1990-8644. Fecha de presentación: abril, 2023, Fecha de Aceptación: junio, 2023, Fecha de publicación: agosto, 2023.
17. Kurbanova, M. M., & Xomidova, M. F. (2024). The Influence Of Allusive Names On The Perception Of Artistic Text. SPAST Reports, 1(1).
18. Karimova, M. (2023). The history of the development of allusion and its importance in literature. Golden Brain, 1(10), 275-279.
19. Karimova, M. A. (2023). MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA NAVOIY ANTROPINIMINING TARIXIY ALLUZIYA SIFATIDA QO 'LLANILISHI. Educational Research in Universal Sciences, 2(16 SPECIAL), 287-289.
20. Хужамкулова М.Б.Коммуникатив типлар прагматик аспектда.//Сўз санъати халқаро журнали. 5 жилд 1-сон. Тошкент-2022. Б.92.
21. Xomidova, M. F. (2019) "The problem of intertextuality in modern linguistics." Central Asian Problems of Modern Science and Education 3.4: 259- 263.
22. Saatova, S.I. (2024). O'ZBEK TILIDA LISONIY SHAXSNI SHAKLLANTIRUVCHI IJTIMOIY OMILLAR. Philological research: language, literature, education, 3(3), 37-41.
23. Surayyo, S. (2023). BADIIY MATNDA PERSONAJ LISONIY SHAXSINING NAMOYON BO'LISHI. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 1071-1076.
24. UMURZAKOVA M. SOCIOPRAGMATIC FEATURES OF THE LANGUAGE IDENTITY "MOTHER" International Scientific-Methodological Electronic Journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2024, vol. 10, No 3, pp. 53-64 https://journal.fledu.uz ISSN: 2181-8215 (online)
25. Sarbarova D.N. MATN VA DISKURS TUSHUNCHALARI MUNOSABATI "Science and innovation" international scientific journal. ISSN:2181-3337 https://doi.org/10.5281/zenodo.7998832.

MILLIY QADRIYATLARDA TIL BIRLIKLARINING MADANIY TALQINI

Sayfullayeva Ra'no Raufovna
O'ZMU professori, filologiya fanlari doktori.

G'aybullayeva Nafisa Izatullayevna
BuxDU dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc).
E-mail: nafisa.ped@mail.ru

Ma'lumki, tafakkur va til ongning alohida olingan va o'zaro chambarchas bog'langan ikki sohasidir. Inson o'z tushunchalarini til bilan ifodalashga qadar dunyo bilan ma'lum darajada tanishadi, dunyoni hissiy bilish xususiyatidan kelib chiqib, ularni boshqa turdagilardan farqlashga intiladi. Barcha sohadagi tadqiqotlarning negizida inson va uni o'rab olgan cheksiz olam turar ekan, til ham uning bu olamda yashashi va faoliyati uchun katta imkoniyatlar yaratib beradi. Inson shuuridagi eng teran qatlami bo'lmish olamning lisoniy manzarasi aynan til bag'rida shakllanadi, tilning o'zi olam manzaralarining boshqa turlarini ifodalaydi va namoyon qiladi. Alohida individlar qo'lga kiritilgan tajribaviy bilimlar faqat til yordamida xalq tajribasiga va madaniyatiga aylanadi. Inson faoliyati davomida to'plangan bilim uning ongida aks etadi. Binobarin, bunday mental tasvirlar milliy-madaniy faoliyatning aks etishi ekanligi haqida dunyo olimlarining qimmatli fikr-mulohazalari mavjud.

Qadriyat tushunchasi, bizningcha, ma'lum bir millatning kelib chiqishi, uning tarixi, turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlarini o'zida mujassam etgan muhim ahamiyatga molik nafaqat falsafiy, balki lisoniy hodisadir.

Qadriyatlar yaqinda paydo bo'lib qolmagan, asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros qilib qoldirilgan, uzoq tarixiy jarayonda shakllangan an'analar, urf-odatlar jamlanmasidir. So'nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyekti sifatida inson, til, millat va madaniyat o'rtasidagi aloqaga alohida e'tibor qaratilayotganligi bejiz emas. Tilshunoslik hamda madaniyatshunoslik kesishmasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar o'zaro uyg'unlashib, ularning asosini tashkil etuvchi yangi yo'nalish sifatida lingvomadaniyatshunosliksohasi yuzaga keldi.

Har bir tilda millat va uning milliy qadriyatlariga murojaat qilgan holda, xalqlarning madaniy elementlarini aks ettiruvchi maxsus bo'linmalar bo'ladi. Bunday birliklar ma'lum bir millatga xos bo'lgan etnik, ijtimoiy-madaniy qarashlarni, milliy urf-odatlarni, odob-axloq me'yorlarini ifodalaydi. Bunday qo'shimcha lisoniy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan birliklar milliy-madaniy birliklar yoki *milliy-madaniy* ***unikal*** *~o'ziga xos birliklar deyiladi.*

O'zbek tilshunosligida D. Xudoyberganova badiiy asarlar, filmlar, folklor materiallari kabi ommabop matnlarni milliy-madaniy ramzlarni bir avloddan boshqasiga uzatuvchi vosita sifatida ko'rib chiqadi[1].

Uning so'zlariga ko'ra, taqlid, metafora, maqollar va frazeologik birliklar, nutq odob-axloqi, ibodatlar bu milliy va madaniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan lisoniy va madaniy hodisadir.

Milliy-madaniy ifodalar turli til birliklarida turlicha aks etadi. Ba'zi birliklar to'g'ridan-to'g'ri milliy o'ziga xoslikni anglatadi, ba'zi birliklarda esa bu belgi bilvosita paydo bo'ladi.

[1] Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. дисс. – 243 б.

Ba’zilarida so‘zlar, madaniy semema leksik ma’no bilan birga yashaydi, boshqalarda esa ular orqali ko‘chma ma’no paydo bo‘ladi.

Masalan, o‘zbek tilidagi ***isiriq*** leksemasi milliy-madaniy birlikdir. Xalq tilida «ming bir dardga davo» deb nom olgan bu giyohni ta’riflashga hojat bo‘lmasa kerak. Abu Ali ibn Sino o‘z asarlarida “quymich asablari shamollashiga tizza va suyaklar qaqshab og‘riganida, og‘riq qoldiruvchi dori sifatida isiriqni tavsiya etgan. Parishonxotirlik, istiqo, qo‘lanj, falaj, ya’ni, tananing bir qisminng ishlamay qolishiga isiriqdan olib, uning vaznidan uchdan bir miqdorda tuyilib unga zanjabilni ituzum bargi bilan xamir qilib quyoshga qo‘yib qayta-qayta bog‘lash kerakligi” aytib o‘tilgan[2]. Isiriq qaynatmasi ham ming dardga shifo ekanligi quyidagi misralarda tasvirlangan.

Isiriqni ivitib, ichilgan zamon,
Savdoiy moddalar ketadi ayon!
Qoningni tozalab, musaffo qilar,
Iching qotgan bo‘lsa yumshatar har on[3]**.**

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan ***isiriq tutatish marosimi*** nafaqat kasallikka davo sifatida balki, o‘zbeklarning deyarli barcha marosimlarida (chaqaloq tug‘ilganda, xatna to‘ylarda, kelin-kuyovlar chimildiqqa kirganida) an’ana sifatida tutatiladi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari*da “*isiriq – isiriq, bolalarning boshlariga toshadigan yaralarda yoki ko‘z tegishidan, kasallarni davolaganda tutatiladi va bolaning yuziga tutunini «isriq-isriq” (“e jin, es-hushingni yo‘qot!” deb tutiladi”)” deb yozgan bo‘lib [DLT 1960, 1: 125][4], qozoqlar “adiraspan”, Onado‘li turklari esa “yuzarlik” deb ishlatadigan “isriq” so‘zi va u bilan bog‘liq an’analar bugungi kunda ko‘proq o‘zbeklarda uchraydi. O‘g‘uz turklari “isriq” tutatish bilan bog‘liq irim-sirimlarni deyarli unutgan bo‘lsalar, o‘zbeklar, xoh yirik shaharlarda yashasin, xoh chekka qishloqlarda – bu an’anani “Devon”da qanday keltirilgan bo‘lsa, shu ko‘rinishda qo‘llab keladilar. Ushbu so‘z Buxoro viloyatining ko‘pgina hududlarida *hazorispand (ming dardga davo)* deya ishlatilib, tutatish jarayonida quyidagi aytimlar aytilgan:

Hazorispanda dud kardem, baloyi ofata daf kardem,
Chashmi xesh, chashmi pesh, hamsohoyi girdi pesh, so‘zat dar olavi tez.

Ma’nosi: isiriq tutatkisi balo-ofatlar (kasalliklar)ni yo‘q qil, qarindoshlar, qo‘shnilar, atrofimizdagi yaqinlarning ko‘z qilganlari sening olovingda yonsin.

O‘zbek milliy qadriyatlar obrazli semantik maydonida ***salomatlik*** konsepti – oliy ne’mat, boylik, aql, oltin, baxt, tinchlik, yaxshi yashash, shuningdek, ***kasallik*** konsepti – tubanlik, dard, g‘am, qashshoqlik, omadsizlik, aqlsizlik kabi tushunchalarni anglatuvchi leksik birliklar orqali voqelanadi.

Semantik maydon – yadro, markaz va periferiyadan tashkil topgan bo‘lib ular o‘zaro pog‘onali aloqada joylashadi[5]. Yadro o‘zida birmuncha umumlashgan semantik mazmunni mujassamlashtirsa, markaz aniq, konkret ma’noli birikmalardan tashkil topgan va periferiya ushbu

[2] Назаров Қ. Қадрият тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси (аксиологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари): ф.ф.ф д (PhD) дисс... – Т., 1996. – Б.105.
[3] **Абдуқодир Саттор.** Шифобахш гиёҳлар, исириқ фойдаси, қандли диабет давоси ва гижжалар зарари ҳақида. 2021. № 12 – С.. 23.
[4] ДЛТ 1963, I – Кошғарий, Маҳмуд. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк) / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. 2- том. – Тошкент: Фан, 1963.
[5] Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: ф.ф.ф.д (Ph.D) дисс. Автореф. – Т. – 2016. – Б 34.

maydonga kirishi shart bo‘lmagan yoki boshqa semantik maydonga ham taalluqli bo‘laveradigan, ko‘p ma’noli, eskirgan leksik birliklarni o‘z ichiga oladi. Ma’lum bir maydonga nisbatan «yadro» hisoblangan leksik birliklar boshqa bir maydonda «markaz» yoki «periferiya» vazifasini o‘tay oladi.

Milliy qariyatlar obrazli maydondagi yadro hamda periferiya makon va zamon holatiga ko‘ra faol. Milliy qadriyatlar obrazli maydoni prototip tushunchalar va stereotip obrazlar orqali millat lisoniy tafakkurini harakatga keltiradi.

Lisoniy ongda estetik bahoni va milliy qariyatlar obrazli maydonni aniqlashtirish uchun lingvomadaniy konseptlarning bir necha tadqiqiy tahlillarini amalga oshirish lozim. Bular quyidagilardir: konseptlar nomlarini atovchi so‘zlarning etimologik, semantik va statistik tahlili, ularni hosil qiluvchi so‘zlarning konnotativ assotsiativ ma’nolarining semantik tahlili; konseptlarni bildiruvchi so‘zlar ishlatilgan matnlarning interpretativ semantik va madaniy interpretativ tahlili; shu qatorda leksik-semantik maydondagi leksik birliklarning mavzuviy guruhlarga ajratib ulardan qadriyatlar hamda milliy obrazlarni aniqlashtirish zarurdir. Chunki milliy qadriyatlar obrazli maydoni etnik mentallikni yaratib, leksik-semantik maydonning faollashuvini tushuntira oladi hamda *so‘z-tushuncha-ma’no* munosabatlarini *ma’no-so‘z-tushuncha* sifatida talqin etilishiga sabab bo‘ladi[6]. “Ma’no va olam o‘rtasida yana bir bog‘lovchi tugun mavjudligini ham unutmaslik lozim. Bu tugun – inson va uning olamni idrok etishi faoliyati”, deydi Sh.Safarov. Ishimizda yuqoridagi mulohazalarga tayanib, bu tugun qadriyatlar olami, milliy qadriyatlar obrazli maydoni ekanligini ta’kidlamoqchimiz. Zero, Sh.Safarov e’tirof etganidek: “Inson faqat biologik mavjudot emas, uning milliy-ijtimoiy “o‘z” ligi ham bor”[7].

Milliy qadriyatlar obrazli maydon nazariyasi masalasini o‘rtaga tashlashning sababi – salomatlik va kasallik konseptiga oid mazmunni tushuntirish uchun ularning leksik-semantik maydonidagi so‘zlarning o‘zigina yetarli emasligi va bu maydonning yadrosini, shuningdek, periferiyasi tahlilga tortildi. Yadro obrazlarning milliy estetik o‘ziga xosligi asosidagi kognitiv baza, periferiya esa belgi va timsollarning yadrodan uzoqlashib borib, yangicha individual milliy qadriyatli mazmun kasb etib borishi asosida yaraladi. *Masalan*, kasallik leksemasi – dard, og‘riq, kambag‘allik, baxtsizlik, omadsizlik leksemalari bilan obrazli maydon sferasini yaratadi.

Tilda milliy-madaniy birliklar birinchi navbatda milliy madaniyatning vakillari sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, tilda madaniy ifoda jarayonida ona tilida so‘zlashuvchilarning psixologik tushunchasi, madaniyatga bo‘lgan subyektiv munosabati kabi omillar ham paydo bo‘ladi.

Ma’lumki, dunyoning milliy-madaniy, obrazli manzarasining yaratilishida lingvomadaniy jihatdan aniqlangan birliklarning o‘rni beqiyosdir. Bunday birliklarni *milliy-madaniy semaga ega bo‘lgan* va *nutqda milliy-madaniy xususiyatga ega bo‘lgan* birliklar sifatida ajratish maqsadga muvofiqdir.

Milliy madaniy semaga ega bo‘lgan birliklar – muqobili bo‘lmagan leksika yoki voqelik deb yuritiladi. O‘zbek tilida beshik, *do‘ppi, atlas (mato), yaktak, belbog‘, karnay-surnay, nog‘ora* kabi madaniy semaga ega bo‘lgan leksik birliklar mavjud bo‘lib, bunday leksemalar bevosita o‘zbek xalqi, uning milliy urf-odatlari va tiliga bog‘liq sanaladi. Masalan, o‘zbek tili uchun milliy-madaniy birlik bo‘lgan **beshik** so‘zi lingvomadaniy birlik bo‘lib xizmat qiladi. **Beshik** – bu o‘zbek

[6] Б.Р.Шамсематова. Инглиз ва ўзбек тилларида миллий қадриятларни ифода этувчи тил бирликларини лингвомаданий тадқиқи (инглиз, америка ва ўзбек ёзувчилари асарлари асосида) ф.ф.ф.д (Ph.D) дисс.– Т. – 2009. – Б 146.
[7] Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: ЎзМЭ, 2013. – 185 б.

xalqi madaniyatining ramzi, lingvomadaniy birlik sifatida tilda shunday gavdalanadi. Chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun mo‘ljallangan yo‘rg‘a oyoqli maxsus moslama. Beshikda yotganda bolaning tagi quruq, toza turadi. Beshikning bir maromda tebranishiga ona allasining hamohangligi bolaga yaxshi ta’sir etadi, uning tinch, osuda uxlashini, ruhan sog‘lom yaxshi rivojlanishini ta’minlaydi. Shu o‘rinda *salomatlik* konseptual obrazli maydonida yana bir stereotipi sifatida *beshik* leksemasi ham voqelanadi.

Demak, ongda har bir tushunchaning o‘z surati bor, ya’ni har bir so‘z o‘z freymiga ega. Jumladan, *beshik, isiriq va daraxt* leksemalarining stereotiplari sifatida kishi tafakkurida qanday freymlar hosil qilishini kuzatamiz*: beshik* freymi sog‘lom rivojlanish; *isiriq* freymi shifobaxshlik; *daraxt* freymi esa (chinor – daraxti uzoq-umr, mevali daraxt – farzand) semalari bilan idrok etiladi va hislar orqali tuyg‘ularga ta’sir etib lisonda voqelanadi, ularning ongda aks etishi, albatta subyektiv, lekin adresant uchun muayyan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуқодиров С. Шифобахш гиёҳлар, исириқ фойдаси, қандли диабет давоси ва гижжалар зарари ҳақида. 2021. № 12 .– С.. 23.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. Тошкент: Фан,. 2013. – Б.264
3. Воробьёв В.В. Лингвокультурология (теория и методы): монография. –М.: Изд-во РУДН, 2006.
4. Гумбольдт В. фон. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человечества // Избранные труды по языкознанию. М.: Прогресс, 1984.
5. Шамсематова Б.Р.. Инглиз ва ўзбек тилларида миллий қадриятларни ифода этувчи тил бирликларини лингвомаданий тадқиқи (инглиз, америка ва ўзбек ёзувчилари асарлари асосида) ф.ф.ф.д (Ph.D) дисс.– Т. – 2009. – Б 146.
6. Ибрагимова Р.С. Француз ва ўзбек тилларида АЁЛ концептининг лингвокогнитив тадқиқи: Филол. фанлар номзоди... дис.автореф. –Тошкент, 2012.
7. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 10.
8. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учебное пособие. – М.: Academia, 2001. – 208с
9. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док-ри дисс. – Тошкент, 2000. – 236 б.
10. Назаров Қ. Қадрият тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси (аксиологиянинг ижтимоий-фалсафий муаммолари): ф.ф.ф д (PhD) дисс... – Т., 1996. – Б.105.
11. Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербиал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: ф.ф.ф.д (Ph.D) дисс. Автореф. – Т. – 2016. – Б 34.
12. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. дисс. – 243 б.

BABÜR'ÜN HATIRATINDA SEMERKANT VE CİVARINDAKİ YERLEŞİM YERLERİ, SEMTLER, MİMARİ YAPILARIN İSİMLERİ ÜZERİNE BİR İNCELEME

Prof. Dr. Hikmet Koraş
Niğde Ömer Halisdemir Üniversitesi FEF ÇTLE Bölümü.
E-mail: hikmetkoras@gmail.com
ORCİD: 0000-0001-7045-2510

Özet: Zahirüddin Muhammed Babür, henüz çocukken tahta geçmiştir. Tahtta kalabilmek için kendisinden büyük hükümdarlarla veya hükümdar adayları ile savaştı. Kısa süren ömrüne büyük işler sığdırdı. Şüphesiz bunlardan birisi kendi adıyla anılan imparatorluktur. Ancak onun adını ölümsüzleştirme konusunda ondan çok daha önemli başka bir eser vardır. Bu eser, kendisinin adını açıkça koymadığı ve günümüzde farklı isimlerle anılan hatıratıdır. Babür hayattayken farklı dillere çevrilmiş olan bu hatırat, yazıldığı dönemle ilgili olarak Türkistan ve Hindistan tarihine de ışık tutmaktadır. Bu kitabı önemli yapan sadece içindeki bilgiler değil, onun bir hükümdar tarafından yazılmış olmasıdır. Babür'ün kişiliği dikkate alındığında değerlendirmelerin hem padişah, komutan ve asker, hem iyi bir sanatçı, hem ince ruhlu iyi bir insan olarak yapıldığı görülür. Babür'ün hatıratında özel bir öneme sahip olduğu anlaşılan şehirlerden birisi Semerkant'tır. Bu durum, hatıratında onu uzun uzun ve ayrıntılı bir şekilde anlatmasından anlaşılmaktadır. Bu bilgiler içinde, şehrin çevresindeki diğer yerleşim birimleri, şehrin konumu, iklimi, şehrin adını duyuran ürünler, şehirdeki mimari yapılar, akarsu ve göller, piknik ve mesire yerleri ile şehrin askeri konumu vardır. Babür dönemi ve sonrasında şehir savaşlara sahne olmuş ve sık sık el değiştirmiştir. Buna, bölgenin Rus çarlığı ve Sovyetler Birliği dönemini de ilave etmek gerekir. Bu hatıratta verilen bilgiler, şehrin maceralı uzun hayatındaki değişikliklere ışık tutmaktadır. Bunlar dikkate alındığında Semerkant, dünyadaki en şanslı şehirlerden birisidir.

Anahtar Kelimeler: Zahirüddin Muhammet Babür, Babür Hatıratı, Semerkant, Semerkant tarihi

Abstract: Zahirüddin Muhammed Babür came to the throne when he was still a child. He fought with sultans or candidate sultans who were older than him in order to stay on the throne. He fit great things into his short life. Undoubtedly, one of them is the empire named after him. However, there is another work that is much more important in immortalizing his name. This work is a memoir that he did not explicitly name and is known by different names today. This memoir, which was translated into different languages while Babur was alive, also sheds light on the history of Turkestan and India regarding the period in which it was written. What makes this book important is not only the information in it, but also the fact that it was written by a sultan. When Babur's personality is taken into consideration, it is seen that the evaluations are made as both a sultan, a commander and a soldier, a good artist and a good person with a kind soul. One of the cities that seems to have a special importance in Babur's memoirs is Samarkand. This can be understood from the fact that he describes him at length and in detail in his memoirs. This information includes other settlements around the city, the location of the city, its climate, the products that make the city famous, architectural structures in the city, rivers and lakes, picnic and recreation areas, and the military location of the city. During and after the Mughal period, the city

was the scene of wars and changed hands frequently. To this, it is necessary to add the region's period of Russian Tsarism and the Soviet Union. The information given in this memoir sheds light on the changes in the adventurous long life of the city. Considering these, Samarkand is one of the luckiest cities in the world.

Keywords: Zahirüddin Muhammet Babür, Memoirs of Babur, Samarkand, History of Samarkand

Giriş

14 Şubat 1483 tarihinde Fergana'da doğan Zahirüddin Muhammed Babür'ün babası Timur'un torunlarından Fergana hâkimi Ömer Şeyh, annesi Cengiz'in torunlarından Yunushan kızı Kutlug Nigar'dır [Konukçu, 1991: 395). Babür, henüz on iki yaşında 9 Haziran 1494, babasının ölümü üzerine çocuk yaşta tahta oturmuş ve taht mücadelesi vermeye başlamış bir hükümdardır [Konukçu, 1991: 395].

Çocuk yaşta tahta geçen Babür, at binmekte, kılıç kullanmakta ve ok atmada oldukça yeteneklidir. İnsanları tanıma, hükmetme ve devlet idaresindeki başarısını, iyi bir askeri komutanlığını, ileri görüşlülüğünü kısa sürede kazandığı başarıları da göstermektedir. Babür, zeki ve kültürlü birisi olup spor ve ava düşkün, fikri ve edebi meselelerle uğraşmaktan zevk alan, aynı zamanda ince ruhlu bir şairdir. Maiyetindekilere gösterdiği şefkat ve merhamet yanında gerektiğinde ağır cezaları uygulayan, idarî ve askerî işlerde tavizsiz, daima halkı için çalışan, hükümdarı olduğu ülkenin gelişmesi için çabalayan bir devlet adamıdır [Konukçu, 1991: 396].

Yazdığı hatıratın Türkistan, Afganistan ve Hindistan için birinci el önemli bir kaynak olmasından dolayı kendisini bir tarihçi veya vakanüvis olarak nitelemek mümkündür. Ancak Babür tarihçiliği yanında iyi bir edebiyatçı ve divanı olan başarılı bir şairdir. Ayrıca güzel sanatların bütün dalları ile ilgilenmiş, hatt-ı Babürî diye anılan yazı stilini icar edecek kadar iyi bir hattat olduğu gibi bestelerinin olduğu da bilinmektedir [Konukçu, 1991: 396].

Babür'ün bu özelliklerinin yansıması olarak Babürlü İmparatorluğu, büyük kısmı Hindistan'da olmak üzere 3,2 milyon kilometre kareye yayılmış, tahmin olarak 100-150 milyon civarında tebaaya sahip dünya tarihindeki en büyük devletlerden birisidir. Karşılaştırıldığında aynı dönemdeki Osmanlı ve Safevî'lerden imkân açısından çok ilerde, hükmettiği nüfus ve toprak genişliği bakımından Çin'deki Ming İmparatorluğuyla denk tutulabilecek bir devlettir [Basuğuy, 2013: 29].

Hükümdarlığa Fergana'da on iki yaşında başlayan başlayan Babür, tahta geçtiği yıl başlayarak ölümünden bir yıl öncesine kadar yani 9 Haziran 1494 ila 7 Eylül 1529 arasında yaşadığı bütün olayları, başından geçenleri, kısaca hayatında verdiği mücadeleyi kaleme aldığı eser [Akün 1991: 404], en az kurduğu imparatorluk kadar önemlidir.

Eserin ortaya çıkmasında aslı kayıp olan Babür'ün dedesi Timur'un yazdığı Tüzük-i Timurî'nin ilham olduğu ve örneklik ettiği söylenebilir [Akün, 1991: 407]. Babürname adı yaygınlaşmış bir kullanım olmakla birlikte eser, *Vekayi, Vakıaname, Vakıat-ı Babürî, Vekayi'name-i* Padişahî ve *Babüriyye* gibi adlarla da anılmıştır. Farsçaya yapılan tercümelerde Tüzük-i Babürî adı kullanılmıştır. Farsçadaki bu isimlendirmenin ise Timur'un hatıratına *Tüzük-i Timurî* isminin verilmesi etkili olmuştur denilebilir. Eserin girişinde yazarı tarafından kullanılan bir isim yazılmamış olmasına rağmen eserin içinde iki yerde *vekayi* bir yerde de *tarih* kelimelerini

kullanmış olmasından dolayı son zamanlarda eserden Vekayi' adıyla bahsedenler olmuştur [Akün, 1991: 404].

Eserin özgün şekli olmadığı için eksik olan kısımların yazılıp yazılmadığı konusunda şüpheler olsa da eksik bölümlerin eserin özgün şeklini gören Mirza Muhammed Duglat'ın Tarih-i Reşidi'sindeki hatıralar yardımıyla tamamlanabilmesi, eksik olan bölümlerin yazıldığını fakat sonradan kaybolduğunu göstermektedir [Akün, 1991: 404].

Babürname'yi, Babür'ün hayatı dikkate alındığında üç bölümde değerlendirmek mümkündür. Bunlardan birincisi doğduğu ve hükümdarlığa başladığı Fergana dönemi (1494-1503)dir. Bu bölümde Fergana'da yaşadığı olaylar ve çevresindeki kişilerle ilgili değerlendirmeleri ile hayatının bu döneminde herşeyin merkezine koyduğu Semerkand'ı ele alarak sosyal ve coğrafi olarak değerlendirir [Akün, 1991: 404-405]. İkinci bölümü Fergana'dan ayrılıp Kabil'de yeni bir siyasî birlik kurduğu Şeybanî Han'la mücadeleye giriştiği dönem (1504-1520) oluşturur. Üçüncü bölüm ise Babür'ün Hindistan'a ayak bastığı 1525 yılında başlayıp Hindistan'da Hindistan Türk İmparatorluğunu kurduğu ve 1530 yılında Agra'da vefatına kadar olan dönemi içine alır [Konukçu, 1991: 400-401; Akün, 1991: 405].

Genel itibariyle değerlendirildiğinde herkesin bir otobiyografi olduğu konusunda anlaştığı eser başlangıçta bir hatırat olarak yazılmaya başlanmış, ilerleyen zamanda bir günlüğe dönüşmüş, seyahatler ve savaşlarla bağlantılı olarak gidilen yerlerle ilgili verilen bilgilerle coğrafik, etnografik, botanik, zoolojik ve folklorik bir ansiklopedi özelliği kazanır. Bunların yanında savaşları ve dönemindeki hükümdarları değerlendirdiği yerlerde bir tarih kitabı, şairlerden ve önemli şahsiyetlerden bahsettiği yerlerde ise bir tezkere görünümü sergiler [Akün, 1991: 405].

Türkistan başta olmak üzere, Afganistan ve Hindistan tarihi için birinci el önemli bir kaynak olan Babürname, tarihi değerinin dışında edebi değeri yönüyle de paha biçilmez bir önemi sahiptir. Bu edebî değer bir yandan onun üslubu, diğer yandan dili kullanmasındaki başarısındandır. Bu başarı, eserde kullanılan dilin zengin kelime kadrosu ile olgun ve işlenmiş dildir. Bu özellikler onu, Çağatay nesrinin zirve eserlerinin üzerine yükseltmiştir [Akün, 1991: 406].

Hatırattaki her bilgi birbirinden değerli olmakla birlikte Türkistan'da akrabaların birbiri ile olan iktidar mücadelesi ve şehir devletlerinin bölgedeki istikrarsızlığını, buna bağlı olarak Türkistan'daki toplumsal durumu anlattığı birinci dönem önemlidir. Aradan altı asır geçmiş ve coğrafya pek çok maceraya sahne olmuştur. Babür'ün anlattığı yerler değişmiş, eserlerin bir kısmı yok olmuş veya harabe vaziyettedir. Babürname bugünkü Maveraünnehir bölgesinin beş yüz yıl öncesine ışık tutmaktadır. Anlatılan bu bölge içinde Semerkant önemli bir yer tutmaktadır. Bu şehrin önemini Babür'ün şehrin güzelliği ve başka özelliklerini dile getirdiği cümlelerde görebiliriz ama onu Babür için özel kılan sebep "Yuz kırk yıla yakın, Semerkand payitahtı bizim ailede idi." [Babür, 1970: 128] cümlesinde gizlidir. Diğerleri buna bağlı olarak göreceli değerlerdir.

Babür, Semerkant'ı tanıtmaya "Semerkant kadar güzel bir şehir dünyada az bulunur." [Babür, 1970: 68] cümleleriyle başlar. Başka bir yerde "Semerkant şehri fevkalade müzeyyen bir şehirdir." [Babür, 1970: 73], "Dünyada en iyi kağıt Semerkant'tan çıkar" [Babür, 1970: 73], "Üzerinde pek fazla durulmayan bir konu ise Semerkant'ta üretilen kırmızı bir kadifedir. Her tarafa ihraç edilir" [Babür, 1970: 74] cümleleri onun Semerkant'a bakışını ve ona karşı beslediği duyguları açıklar.

İlk defa İskender tarafından kurulduğu belirtilen Semerkant [Babür, 1970: 69] ilk defa Babür'ün büyük dedesi Timur tarafından başkent yapılmıştır [Babür, 1970: 69]. Hiç kimse zorla ele geçiremediği için Semerkant, "Belde-i Mahfuza" [Babür, 1970: 68], diye anılmaktadır. Türkler ve Moğollar da şehre Semiz Kent demektedirler [Babür, 1970: 69]. Sahabeden Kusen bin Abbas burada medfun olup Ahenin kapısı dışında olan mezarına "Mezar-ı Şah" denilmektedir [Babür, 1970: 69].

Babür, Semerkant'ın konumunu "Beşinci iklimdendir. Tulu 99, remz-i nucumu 56 derece ve dakika, arzı 30 derece ve dakikadır." [1970: 68] cümleleriyle belirtir. Komşusu olan şehirleri "Semerkand'ın şarkında Fergana,ve Kaşgar, garbında Buhara ve Harzem, şimalinde Taşkend ve Şahruhiye (kitaplar Şaş ve Benaket yazarlar) ve cenubunda Belh ve Termiz bulunmaktadır." [Babür, 1970: 69] cümleleriyle anlatır. Bu ifadeler Babür'ün kafasında Semerkant'ı bu şehirler için merkez kabul ettiğini göstermektedir. Bu, babün'ün bu şehri hayatının merkezine oturttuğunu göstermektedir.

O‘zbek tili tarixiga oid asarlarni tadqiq etish, yozma manbalarning ilmiy, ma’rifiy, axloqiy-ma’naviy qiymatini belgilash, badiiy jihatlarini yoritish, til xususiyatlarini o‘rganish filologik sohaning asosiy masalalaridan hisoblanadi. Sir emaski, ko‘hna yozma manbalarda xalqimizning turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli, urf-odati, an’analari aks etadi. Atoiy asarlari leksik tarkibini tadqiq etish nafaqat o‘zbek xalqining uzoq o‘tmishini ilmiy asosda yoritish, shuningdek, o‘zbek tili va adabiyoti tarixini o‘rganish nuqtai nazaridan ham g‘oyat muhimdir.

XV asrning birinchi yarmida ijod qilgan Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy nazmiy asarlarining tili Movarounnahr, Xuroson va Sharqiy Turkiston aholisining jonli nutqi xususiyatlarini, hamda eski uyg‘ur adabiy tilining o‘ziga xos belgilarini ozida aks ettiradi. Atoiyning Tanlangan asarlari 1958 va 1960-yillarda e’lon qilingan. Shoir devonining to‘liq va mukammal nashri 2008 yilda S.Rafiddinov tomonidan amalga oshirilgan [S.Rafiddinov, 2008]. Atoiy o‘zbek adabiyotining atoqli ijodkorlaridan biri bo‘lib, turkiy va fors tillarida ijod qilgan. Atoiy asarlari tilini lisoniy jihatdan tahlil etish orqali o‘sha davr o‘zbek tilining o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarini aniqlash mumkin. “Atoiy devoni”da qo‘llangan leksik birliklarni, asosiy lug‘aviy qatlamni o‘sha davr o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan so‘z va iboralar tashkil etganligi kuzatiladi. Atoiy g‘azallarida leksik jihatdan qadimgi turkiy tilga xos quyidagi so‘zlarni uchratish mumkin: ***ukush - ko‘p, arig‘ - toza, baqmaq, meŋ - xolning kattasi, qamuq -hamma, asruk - mast, dudaq - lab, ajun - dunyo, neŋ - narsa, iydgah - sayilgoh, qopu-eshik, tegru va*** b.sh. kabilar.

Umidim erdiki bo‘lsam ***qopung‘a*** *yuz qo‘yg‘och,*
Quyoshdek avj tutub sabr balandi davron man.
Chekarmu erdi tun-kun zillati sargashtalik gardun,
Qopungda *topsa erdi qadr xoki ostoningcha.*
Lutf etib ***ilgimni*** *tutdiyu, takallum boshladi,*
Har so‘zin Iso damidek jonfizo ko‘rdim bukun.
Istasang ***uqbo*** *nishotin xotiri xurram bila,*
Tashla dunyo ishratin, qil xo‘y dardu g‘am bila.
Qachong‘a ***tegru*** *bu vodida yerga past o‘loyin,*
Jabini sajda bila naqshi po kibi go‘loyin…

Atoiy asarlarining tili Oltin O‘rda yodgorliklarining tilidan farq qiladi. Chunki Atoiy asarlarida qipchoq tili unsurlari ustun darajada edi [U.Tusrsunov., B.O‘rinboyev., A.Aliyev, 1995: 107]. Shoir g‘azallarida jo‘nalish kelishigining **-a, ä, -ğa, -gä, -kä, -qa, -na,** tushum kelishigining **-ni, -in** affikslari uchraydi**:** ***odamg‘a, köŋlümä, yüzinä, maŋa, shukriga, elga, alamğa, bog‘ig‘a, bahrïna, qa’rïna, xirmānni, hamdamin, tilin,*** *qadr****in.***

*Xudoyiki chun berdi odam**g‘a** jon,*
Tilini takallumga qildi ravon .
Mim ag‘zi bila zulfi qaddi lam-alifdin
*Ey vay, netay, xasta ko‘ngul qaldi alam**g‘a.***
*Tolpinib ko‘nglum yeta olmas murodi bog‘i**g‘a,***
Ko‘yi bu qush bo‘ldi g‘am changida shahparin judo.
*Ki to hamd ila shukri**ga** til ochib,*
Ko‘ngul maxzanidin jabohir sochib.
*Til**in** so‘zda mu’jiz nishon aylabon,*
*So‘zi qadr**in** el**ga** ayon aylabon.*
*Nazm bahrina cho‘m, qa’ri**na** et durdek, Ataiy,*
*Darya yuzi**na** chun xasu xashak keraktur.*

Shuningdek, qaratqich kelishigi qo‘shimchasi belgili va belgisiz qo‘llanilganligini uchratish mumkin:

*Bargdek kuydurgusi yeti falak**ning** xirmanin,*
Har sharorkim chiqar ko‘k sori afg‘onim aro.
*Ishq xurram murg‘zori**ning** g‘azoli sho‘xidur,*
Har g‘azalkim, Ogahiy, sabt o‘ldi devonim aro.
*Ogahiy**ning** zor ko‘nglin vasl aro shod aylakim,*
Bulbuli g‘amgingadur gulshan aro g‘amxora gul.
*Magar aflok**ning** burjidin*
Adam o‘lmishdurur mahi shavvol.
***Ogahiy** pandin eshitib zinhor*
Ayla ul azm uzra sur’at, e ko‘ngul.
*Lola**ning** bag‘rig‘a tushkay rashk o‘tidin dog‘lar,*
Xol ruxsoring ochib bog‘ ichra gar qo‘ysang qadam.
*Yuzlari**ning** shaklini anglab guli gulzori lutf,*
*Ko‘zlari**ning** suratin ayni inoyat ko‘rmisham.*
Qarordi ro‘zg‘orim hajr shomida, yuz ochqilkim,
*Hamul tun zulmati**ning** dofi’idur bu mahi tobon.*

O‘rin-payt va chiqish kelishigi qo‘shimchalaridan oldin bir **n** tovushi orttiriladi: ***nazmidin, jondin, karamdin, boridin, lutfidin, shafootidin, nedin, huzuringda, lolazorinda, yaqasinda, nazuklukindin.***

*Bo‘lub nazmi**din** shavq o‘ti ayon,*
Yoqib ishq elin ul sifatkim samon.
Rasuliki so‘z derda afsah durur -
*So‘zi sharbati jon**din** amlah durur.*
*Karam**din** berib fazl elig‘a rivoj-*
*Ko‘tardi bori**din** g‘ami ihtiyoj.*
*Maqomin huzuring**da** aylab rafi’,*
Bori ahli isyong‘a qilg‘il shafi’.
Ulusg‘a necha ko‘b esa shumlig‘,
*Oning lutfi**din** berma mahrumlig‘.*

*Shafooti**din** aylama noumid -*
Yuzim ro‘zi mahshar aro qil safid.
*Garchi ohuyi Xo‘tandir bexato bilmon ne**din**,*
*Chinu Mochin lolazorin**da** qilur sayron ko‘zing.*

Sifatdosh yasovchi qo‘shimcha ***-g‘an, -an*** shakllarida uchraydi. Masalan: ***bag‘ishlag‘an, yorutg‘an, ochilg‘an,*** **qilan, alan, qilg‘an, alg‘an** kabi.

*Bag‘ishla**g‘an** so‘z ila xasta jonga yuz lazzat,*
Ul oyg‘a la’li shakar bormu ekan oyo.
*Ko‘zim yorut**g‘an** o‘shal mahsuvor chobukning*
Boshida toji guhardormu ekan oyo.
*Ko‘rmagan ersang balo naxli ochil**g‘an** gullarin,*
Qil tamosho toza dog‘in jismi uryonim aro.

Buyruq fe’lining birinchi shaxs ko‘pligi fe’l negizlariga ***-aliŋ, -aliŋ*** qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi: ***baraliŋ, kelaliŋ, alaling*** va hokazo. Fe’lning buyruq mayli III shaxs birligi **-sun** bilan yasalgan: *bo‘lsun, mutarrolanmasun, tamannolanmasun, zebolanmasun, da’volanmasun, yolanmasun, paydolanmasun, orolanmasun.*

*Ilohi har kuning navro‘z bo‘l**sun,***
*Hamisha toli’ing feruz bo‘l**sun**.*
Yuz jahon savdosi turrang iqdida muzmardurur,
*Voqif o‘l oqim eli birla mutarrolanma**sun.***
Aylagil qadding niholin jilvagar bog‘ ichrakim,
*Sarv ra’nolanmasun, shamshod zebolanma**sun.***
Nargis olida yoshurg‘il yuznikim, u loch ko‘z
*Kom olurg‘a xoni husnungdin tamannolanma**sun.***
Gahi - gahi ko‘rguz quyoshqa chehrakim, ul xira sar
*Bilsun o‘z haddiniyu husn ichra da’volanma**sun.***
Kirpiging jon qasdi aylar qoshing imosi bila,
*Yo rab, andoq o‘q muningdek yo bila yolanma**sun.***
Istasang zohid baqoyi jovidoni o‘zlugung,
*Ayla foni o‘ylakim to hashr paydolanma**sun.***
Bu chamanning rangu bo‘yida baqo yo‘q, e sabo,
*Aytg‘il ghullarg‘akim, ko‘b zebu orolanma**sun.***

Fe’lining orttirma nisbat shakllari **-dur, -dür, -tur, -tür** bilan hosil bo‘lgan: ***dilkashdur, g‘alatdur, kerakdur, ermastur, bo‘libdur, qirmishdur*** va b.sh. kabi.

*Sabrin qilding shi’oring emdi erma**stur** ajab,*
Ayshu ishratda badal bo‘lsa g‘amu kulfat sanga.
Tob topmish o‘zgacha o‘tlig‘ yuzi may tobidin,
*Qilg‘oli emdi nazora kimda bor**dur** tob anga.*
Hajr shomida yuzing mahtobini ko‘rguz desam,
*Noz ila derkim, kerak**dur** didai bexob anga.*
*Dard bog‘i gullari ranginu dilkash**dur** basi,*
Hayfkim mehru vafo bo‘yi erur noyob anga.
Jo‘ybori vaslidin serob o‘o olmas dami,

*Garchi ko‘b muddat bo‘lib**dur** Ogahiy mirob anga.*
*Shaker demak g‘alat**dur** la’linga jonbaxshlig‘ ichra,*
Qachon Isou Mar’yam mo’jizin shakkar qilur paydo.
*Mastona chiqib bir sho‘x, din ahlini qirmish**dur**,*
E dil, xabar ol bizning kofarmu ekan oyo.

Xulosa qilib aytganda Atoiyning so‘z boyligini lingvistik nuqtayi nazardan o‘rganish yodgorlik tilidagi leksik birliklarning qo‘llanishi yuzasidan aniq ma’lumotga ega bo‘lish, turkiy so‘zlar va o‘zlashgan qatlamlarning miqdor bo‘yicha nisbati to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritish, so‘z qo‘llash mahorati hamda o‘ziga xos jihatlari haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Asarning til xususiyatlarini atroflicha o‘rganish ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan qardosh turkiy tillar leksikasining, xususan, o‘zbek adabiy tilining morfologik shakllanishi va rivojlanishi borasidagi qarashlarga aniqlik kiritadi hamda o‘zbek tili tarixiy leksikologiyasi va morfologiyasi uchun qimmatli ma’lumotlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan.-T.: O‘zbekiston, 1994.
2. Abdushukurov B. O‘zbek tili tarixi (darslik).-Toshkent, 2021
3. Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmonova Z. O‘zbek adabiy tili leksikasi tarixi.-Toshkent. Fan, 2007
4. Rafiddinov S. Mavlono Atoyi. Devoni shayxzoda Atoyi. -T.: Fan, 2008.
5. U.Tursunov., B.O‘rinboyev., A.Aliyev. O‘zbek adabiy tili tarixi.-T.: 1995.
6. T.Qurbonov. Tarixiy badiiy asar va davr tili masalalari.-Toshkent, 2006.-B. 10.

INTERTEKSTUALLIK VA BADIIY MATN MAZMUNIY IDROKI

Xomidova Maxfuzaxon Farxodjon qizi
O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti.
E-mail: mahfuzaxon.xomidova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada intertekstual birlik sifatida badiiy matnlarda uchraydigan tarixiy, ijtimoiy, shaxs nomlari va ularning xususiyatlari, badiiy matn mazmuniy idrokiga bevosita ta’siri haqida fikr yuritilgan. Tarixiy, geografik, ijtimoiy va madaniy ma’lumotlarga ega bo‘lish ham badiiy matnni to‘g‘ri idrok etish va talqin qilishni ta’minlashi badiiy matnlardan olingan misollar yordamida izohlangan.

Kalit so‘zlar: intertekst, badiiy matn, mazmuniy idrok, vertical, gorizontal o‘q.

Annotation: This article discusses the historical, social, and personal names found in artistic texts as an intertextual unit and their characteristics, as well as their direct impact on the meaningful perception of the artistic text. The fact that having historical, geographical, social and cultural information also ensures the correct perception and interpretation of the literary text is explained with the help of examples taken from literary texts.

Keywords: intertext, artistic text, meaningful perception, vertical, horizontal axis

Аннотация: В данной статье рассматриваются исторические, социальные и личные имена, встречающиеся в художественных текстах как интертекстуальная единица, их характеристики, а также их непосредственное влияние на смысловое восприятие художественного текста. Тот факт, что обладание исторической, географической, социальной и культурной информацией обеспечивает также правильное восприятие и интерпретацию художественного текста, объясняется с помощью примеров, взятых из художественных текстов.

Ключевые слова: интертекст, художественный текст, смысловое восприятие, вертикаль, горизонтальная ось.

Tarixiy, geografik, ijtimoiy va madaniy ma’lumotlarga ega bo‘lish ham badiiy matnni to‘g‘ri idrok etish va talqin qilishni ta’minlaydi, muvaffaqiyatli kommunikatsiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki aksariyat badiiy matnlarda muayyan tarixiy voqealarga, geografik hududlarga, ijtimoiy va madaniy hodisalarga ishora qiluvchi matn parchalari uchrab turadi.

Qarang, qadim
Samarqand*ning*
Yo‘llari qon, sirg‘alar.
Moziydan bir
Padarkushning
Qo‘llari qon, sirg‘alar.
Tig‘ yaltirar,

***Ulug‘bek**ning*
Bo‘g‘ziga jon sirg‘alar.... (Muhammad Yusuf)

Muhammad Yusufning *“Ey, dil…”* she’ridan olingan yuqoridagi parchada ham geografik nom, ham tarixiy voqeaga ishora qiluvchi allyuziv nomlar mavjud. Samarqandda hukmronlik qilgan temuriy hukmdor Mirzo Ulug‘bekning o‘z o‘g‘li tomonidan o‘ldirilishi voqealariga ishora qilish o‘zbek badiiy matnlarida juda ko‘p uchraydi.

Shu she’rdan olingan quyidagi parchada esa buyuk shoir Hamza Hakimzoda Niyoziyning Shohimardonda toshbo‘ron qilingani haqidagi ijtimoiy-tarixiy hodisaga ishora mavjud:

Shohimardon
Tog‘larida
Bir tosh yotar beomon.
Bir mard o‘g‘lon,
Jo‘mard o‘g‘lon,
Yurtdosh yotar pahlavon.
Sho‘roni she’r
Qilib endi
*Kuylay olmas **Hamzaxon**... (Muhammad Yusuf)*

Mana shu umumiy ma’lumotlarning barchasi badiiy matnda intertekstuallik hodisasini tashkil qiladi. Bu ma’lumotlar badiiy matn tarkibida boshqa bir matn yoki voqea-hodisaga ishora qilib, o‘z navbatida asosiy matn mazmunining idrok qilinishida ochqich, kalit vazifasini bajaradi.

A. Popovich badiiy matn ikkita o‘q asosida harakatlanishini, ya’ni tashkil topishini aytadi. Bularning birinchisi gorizontal o‘q bo‘lib, u operativ (tezkor) o‘q deb ataladi. Uning tarkibiga so‘zlar, syujet, kompozitsion qurilish va boshqalar kiradi. Ikkinchisi – vertikal o‘q bo‘lib, u matn ichida boshqa matn parchasining kelishi orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy matn tabiatini, “iqlimini” o‘zgartiradi, ma’lum bir davrga yo‘nalish beradi, ko‘rsatadi[12]. Bizningcha, ana shu vertikal o‘q matn intertekstualligining asosi, ya’ni intertekstning aynan o‘zidir. Intertekstlar A. Popovich talqin qilganidek, badiiy matn iqlimini o‘zgartirib, uning tushunilishida, mazmuniy idrok qilinishida o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan kuchga ega bo‘ladi.

Badiiy matnni idrok etish jarayoni nihoyatda murakkab va shu bois ko‘p qirrali o‘rganishni talab qiladi, shuning uchun intertekstual aloqalarni anglamasdan turib matnni tushunishni to‘liq deb bo‘lmaydi. Intertekstuallik vertikal (oldingi davrlar matnlari bilan) va gorizontal (boshqa madaniyatlar matnlari bilan) kontekstni hosil qiladi. Vertikal kontekst bu – matn birligining o‘ziga xosligi, bu adabiy asarning tarixiy va filologik kontekstidir[13].

Muhammad Yusufning *“Qora quyosh”* dostonidan olingan quyidagi satrlarda intertekst orqali vertikal kontekst yaratilganini ko‘rish mumkin:

O‘lgan o‘ldi-ketdi.
Hech kim qaytmaydi. Nega?
Nima uchun?

[12] Ямпольский М. Б. Память Тиресия. Интертекстуальность и кинематограф Текст. / М.Б. Ямпольский. – М.: РИК Культура, 1993. – С. 464.
[13] Гюббенет И. В. К проблеме понимания литературно-художественого текста (на английском материале). – М.: МГУ, 1981. – С.108.

Bu ham muammo. Tarix soqov kampir,
Dardin aytmaydi, Aytolmas,
Unutib ham bo‘lmas ammo.

Mana, ***Qodiriyni*** *qilishar so‘roq:*
“O‘tgan kunlar” *degan she’r siznikimi?*
— Ha.

Ammo u she’r emas…
— Jim bo‘ling, axir.
She’rmi yo boshqami, avtori siz-da.
Tamom.
Boshqa gapga qolmaydi hojat.

Ko‘zimga yosh to‘lar mana shu yerda.
Qo‘ynimga tosh to‘lar mana shu yerda.
Ko‘zimga tor bo‘lib qoladi olam,
Oh, oltin bobom-a, voh tillo bobom…
O‘tgan kuning qursin*, Abdullo bobom*!

Badiiy matnning lingvopoetikasini monografik tarzda tadqiq qilgan olim M. Yo‘ldoshev o‘rinli ta’kidlaganidek, “har qanday nobadiiy matnni tushunish uchun tegishli til qonuniyatlarini bilishning o‘zi yetarli bo‘lsa, badiiy matn ma’nosining tagiga yetish uchun ayni paytda badiiy matnning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari, qonuniyatlarini, shuningdek, matn oid bo‘lgan davr, matn ijodkorining shaxsiyati, qarashlari, u mansub bo‘lgan adabiy oqimning asosiy xususiyatlari, ustivor milliy-madaniy qoidalar va boshqa jihatlarni ham bilish lozim bo‘ladi”. [Yo‘ldoshev M., 137]

She’riy matnda ajratib ko‘rsatilgan birliklar tarixiy va filologik kontekst sifatida ishtirok etib, uni o‘zidan oldin yaratilgan matn va tarixiy davr bilan bog‘lash uchun xizmat qilgan. Bu o‘rinda shoir *“O‘tkan kunlar”, “Abdulla Qodiriy”* kabi allyuziv nomlarni keltirib, ular orqali tariximizdagi mash’um qora kunlar, ya’ni jadid ziyolilari, shoir va yozuvchilar qatag‘onga uchragan davrga ishora qilgan. “O‘tkan kunlar” asarining she’r emas, roman ekanligidan ham bexabar tergovchining maqsadi aniqligi, arzimagan ayblar bilan o‘limga hukm qilingan ijodkorlar qismati shu ikkitagina intertekst orqali chiroyli ochib berilgan. Shuingdek, keltirgan parchamizning oxirgi misrasi intertekstning vertikal kontekstni yaratish xususiyatiga yaqqol misol bo‘la oladi. Muallif “*o‘tgan kuning qursin”* jumlasi orqali ham Qodiriyning asariga, ham uning shaxsiy hayoti, taqdiriga, ham o‘sha davrga ishora qilish orqali kitobxonni tarixiy davrga olib kirgan.

Gorizontal kontekst badiiy matnni boshqa madaniyat bilan, aniqrog‘i, boshqa bir xorijiy tilda yaratilgan matn, madaniyat bilan o‘zaro bog‘lanishini ta’minlovchi intertekstuallikdir.

Usmon Nosirning mashhur *“Sevgi”* monologi gorizontal kontekstlar, ya’ni o‘zga madaniyatga daxldor intertekstual birliklar bilan to‘la:

Balki, ***Hamlet*** *oydin tunlarda*
Ofeliyani *erkalatardi.*

Balki, uzun sochini silab
Azongacha ertak aytardi….
***Dezdemona**, gunohsiz dilbar,*
Jigar qonlaringni ichgan kim?
*Bilaman, **Otello**, bilaman,*
Otello haqlimi?..
Shoir - jim!.. Jim!..

Berilgan she'riy matn parchasida ingliz adibi Uilyam Shekspirning mashhur dramalari *"Hamlet" va "Otello"* dagi voqealar rivojiga ishora qiladigan allyuziv nomlar mavjud. *Hamlet, Ofeliya, Otello, Dezdemona* kabi boshqa bir madaniyatga daxldor matnlarning bir qismi sanalgan nomlar ham intertekstuallikning bir ko'rinishidir. Ma'lum bir asarning qahramonlari orqali butun asar matniga ishora qilish va shu orqali uning qayta tiklanishi hamda yangi matn bilan birgalikda tushunilishi intertekstuallik hodisasining asosiy vazifalaridan biridir. Shu bois she'rning mohiyatini yanada yaxshiroq anglash, matnni to'liq idrok qilish uchun bu nomlar ishora qilayotgan asl matn g'oyasini bilish muhimdir. Aks holda bu she'riy parcha shunchaki so'zlarning grammatik ketma-ketligidan iborat matn holida qabul qilinadi. [Xomidova, 2023]

Demak, badiiy matndagi intertekstuallikka nafaqat muallif va o'quvchi o'rtasidagi, balki turli madaniy kontekstlar o'rtasidagi muloqot sifatida qarash mumkin. Badiiy adabiyot, badiiy matn mazmuniy persepsiyasida kitobxon intertekstuallik qobiliyatining roli shunchalik kattaki, tegishli vertikal kontekstni bilmaslik badiiy asarni yoki uning qismini mutlaqo ma'nosiz qiladi, intertekstuallik matn olamining vertikal kontekstida boshqa bir badiiy asarni va u orqali tarixiy davrni o'z ichiga oladi, matnni izohlashni, tushunishni kengaytiradi hamda uni diqqatga sazovor o'rganish obyektiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арнольд И. В. Проблемы диалогизма, интертекстуальности и герменевтики (в интерпретации художественного текста) Текст. / И.В. Арнольд. – СПб.: 1995
2. Karimova, M. (2023). The history of the development of allusion and its importance in literature. Golden Brain, 1(10), 275-279.
3. Kurbanova, M. M., & Xomidova, M. F. (2024). The Influence Of Allusive Names On The Perception Of Artistic Text. *SPAST Reports*, *1*(1).
4. Qurbonova, M., & Yo'ldoshev, M. (2014). Matn tilshunosligi. *Toshkent: Universitet*, *115*.
5. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. Ўқув қўлланма. – Т., 2008.
6. Xomidova, M.F.(2019). INTERTEXTUALITY AND LITERARY TRANSLATION. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, *1*(6), 309-311.
7. Surayyo, S. (2023). BADIIY MATNDA PERSONAJ LISONIY SHAXSINING NAMOYON BO'LISHI. Innovations in Technology and Science Education, 2(10)
8. Xomidova, M. F. (2019). The problem of intertextuality in modern linguistics. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, *3*(4), 259-263.
9. Xujamkulova Maxbuba Bobonazarovna. Question Classification of Speech Act in Speech//Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 24 May 2022. ISSN 2694-9970.

SUBYEKTIV EMOTSIYANING IFODALANISHIGA KO‘RA TURLARI HAQIDA

Xujamkulova Maxbuba Bobonazarovna
O‘zMU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dots.v.b.
E-mail: m.xujamqulova@nuu.uz
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-9589-497X/print

Annotation: According to the purpose of expression, the types of sentences are said with a special intonation, which means the speaker's inner emotions and different attitude to reality.

Keywords: emotion, sentences, exclamation, exhortation meanings, context

Аннотация: По цели выражения виды предложений произносятся с особой интонацией, что означает внутренние переживания говорящего и различное отношение к действительности.

Ключевые слова: эмоция, предложение, значение восклицания, увещевания, контекст.

Ma’lumki, ifoda maqsadiga ko‘ra gap turlari maxsus intonatsiya bilan aytilib, so‘zlovchining ichki his-hayajonini, voqelikka bo‘lgan turlicha munosabatini anglatishi mumkin, ya’ni his-hayajon gaplarga aylanishi mumkin. Masalan, *Bahor keldi.- Bahor keldi!* Ammo bu turdagi gaplarda darak, so‘roq buyruq mazmuni asosiy, yetakchi hisoblanadi. Shuning uchun ham ular maxsus intonatsiya bilan emotsional gaplarga aylanib ketmaydi: *Hammasi mehnatkashning kuchidan. Bo‘lmasa Xudo osmondan tashlarmidi?* (Oybek).

An’anaviy tilshunoslikda undov gap termini orqali tasniflangan gapning bu turi boshqa adabiyotlarda his-hayajon gap, emotsional gap termini orqali ta’riflangan. («O‘zbek tili grammatikasi»da his-hayajonni ifodalovchi gaplarga undov gaplar termini orqali ta’rif berilgan. «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» (R.Sayfullaeva, B.Mengliev…va b. -2009)da his-hayajon gaplar nutqiy emotsionallikka ko‘ra ajratiladi va shu asosda tasnif qilinadi. Umuman, grammatikaning bu birligining undov gaplar termini ostida talqin qilinishi shakliy va mazmuniy jihatdan nomuvofiqlikka olib kelishi mumkin. B.Egamberdiev tadqiqida his-hayajon gapning turlicha atalishi, unga muvofiq va nomuvofiq terminlarning qo‘llanilishi haqida munosabat bildirilgan[14]. Unga ko‘ra, rus tilidagi «vosklitsatelnoe predlojenie» (undov gap, vosklitsatelnoe – undash, xitob) terminining aynan muqobili hisoblangan undov gap termini biz tadqiq qilmoqchi bo‘lgan his-hayajon gaplarning o‘rganilish ob’ektiga ko‘ra farq qiladi, ya’ni his-hayajonni ifodalovchi gaplarni emas, undov, undash gaplarini tadqiq etishi lozim bo‘lib qoladi.To‘g‘ri, his-hayajon gaplarda ko‘proq kimga yoki nimagadir undash mazmuni ifodalanishi mumkin (*Bahor! Bunchalar go‘zalsan! Barakalla, o‘g‘lim!*), lekin shunchaki subyektning emotsiyasini ifodalovchi his-hayajon gaplar ham shular sirasiga kiradi (*Taqdir bunchalar beshafqat!*).

Xitob, undash mazmunini anglatgan gaplar sub’ektning ma’lum bir maqsadini ifodalaydi, his-hayajon gaplar esa to‘lig‘icha vaziyat natijasida yuzaga keladigan tabiiy hodisa hisoblanadi, ya’ni «vaziyatdan tashqari his-tuyg‘uni sun’iy ravishda paydo qilib bo‘lmaydi ».

[14] Эгамбердиев Б. Эмоционалликка кўра гап турлари// Ўзбек тили ва адабиёти. №1. 1993й.

His-hayajon gaplar subyektning his-tuyg‘usini, g‘azab-nafrati, shodlik-quvonchini anglatar ekan, tilshunoslikning bu birligiga sof nutqiy hodisa deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Grammatik tahlilda emotsional gaplarning asl mohiyati ochilmaydi. Gaplarning bu tipiga yozuvda undov belgisi qo‘yilsa-da, emotsionallikning turli ma’nolarini pragmatik tahlil ochib beradi. His-hayajonni ifodalovchi gaplar boshqa birliklardan farqli ravishda, to‘lig‘icha subyekt bilan bog‘liq holdagi hodisadir. Shunga qaramay, an’anaviy tilshunoslikda uning semantik-struktur jihati tadqiq etilgan bo‘lsa-da, bu birliklarni kontekstual sharoitda tahlil qilish birmuncha nazardan chetda qolgan. Zero, his-hayajon gaplarni o‘rganishda kontekst muhim tadqiqot ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi. *Men dushmanimdan voz kechmayman!* Alohida olinganda ushbu sodda gap tushunarsizlikni ifodalashi mumkin - kim ham dushmanidan voz kechmaydi. Lekin kontekstda ushbu sintaktik birlik o‘z ifodasini topadi:

- Bu bola sizga xiyonat qildi.

-U mening bolam.

-Tushuning, axir, u sizga dushmanlik qildi.

-Nima bo‘lgandayam men dushmanimdan voz kechmayman!

Aytib o‘tganmizdek, his-hayajonni ifodalovchi gaplar sub’ekt bilan bog‘liq holdagi hodisa bo‘lgani uchun so‘zlovchining emotsional holatini ifodalaydi. His-hayajon gaplar so‘zlashuv nutqida yanada «jonlanadi». Shuning uchun, bu tiplarni shaxs va uning holati bilan tadqiq etish mavzuning asosiy ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, his-hayajon gapda fikr bilan birgalikda, so‘zlovchining kuchli his-tuyg‘ulari ham namoyon bo‘ladi. Lekin his-hayajon gaplar his-hayajonsiz gaplardan biroz farq qilib, unda so‘zlovchining aqliy fikrlash holatiga nisbatan emotsiya kuchliroq bo‘ladi va birlamchi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, nutqiy emotsionallikni ifodalashiga ko‘ra kommunikativ birliklarni intellektual (aqliy) holatni ifodalaydigan birliklar va emotsional holatni ifodalovchi birliklar kabi turlarga ajratib tadqiq etishimiz mumkin.

Intellektuallik ustuvorlik qiladigan gaplarda shaxsning aqliy faoliyati asosiy bo‘lib, emotsiya deyarli neytral xususiyat kasb etadi. Masalan, *Qayg‘u uxlab yotgan quvonchni qo‘zg‘atuvchi omil (Muallif).* Bunda shaxs ortiqcha emotsiyadan holi. Bunda shaxs relevant emotsiyadan holi fikrlaydi va har bir vaziyatni intellektual darajada baholaydi. Masalan, *Baxt uchun belgilangan vaqt bor –inson u vaqtdan oldin baxtga erisha olmas ekan.* Misolda har qanday holatda ham muammoga aqliy yondashishga, ya’ni, deylik, baxtga erisha olmaganlikni tushkunlik kayfiyati bilan qabul qilishga emas, balki uni to‘g‘ri baholashga undalmoqda.

*E*motsional holatni ifodalovchi birliklarda so‘zlovchi aqliy holatidan ko‘ra uning his-tuyg‘ulari ustun turadi. Emotsiya salbiy holatni ham, ijobiy holatni ham ifodalashi mumkin. Emotsionallikning turli ko‘rinishlari (qahr-g‘azab, shodlik, hayajon, g‘am-qayg‘u kabilar) mavjud bo‘lib, shaxsning intellektual holatini “chetga surib qo‘yadi”. Masalan, *Farzandining bu qilmishlarini eshitgan ona yig‘lab yubordi: Seni tuqqandan ko‘ra qornimni yorib tashlasam bo‘lmasmidi.* Ushbu misolda so‘zlovchining g‘azablanish tuyg‘usi kuchayib, aqliy salohiyatini “zaiflashtirgan”. Salbiy holatni namoyon qtluvchi bu kabi qator omillar mavjudki, ular ham shaxsning intellektual vazifasini cheklab qo‘yadi. Salbiy holatni aks ettiruvchi nafrat tuyg‘usini ifodalagan ushbu misolni ko‘raylik. *Mening nafratimni o‘g‘irlama! Sendan qolgani – bor-yo‘g‘im shu!* (“If qal’asining mahbusi”). Misolda rafiqasining o‘zi qamalib, bir necha yildan so‘ng unga aytayotgan gaplari ifodalangan. G‘am-qayg‘u mazmunini ifodalovchi misolni tahlil qilaylik. *Yo,*

Rabbim, bu kunlarni ko‘rsatgandan jonimni olsang bo‘lmasmidi?! Ushbu nutqiy birlik shaxsning g‘am-qayg‘uga tushgan, kuchli tushkunlik va emotiv holatdagi nutqi. Me’yoriy fikr va me’yoriy vaziyatda kishi o‘z jonidan kechishni istamaydi. Salbiy emotsiyani anglatuvchi ushbu misol ham mazmuniy jihatdan yuqoridagiga yaqin: *Jismimga mehmon bo‘lgan ruhimni azoblarlan halos et!* (Ya’ni jonimni ol ma’nosida). Emotiv va fikriy holatning nomuvofiqligi yuqoridagi misollarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ya’ni noamaliy istak emotik nutqiy qiyofada kasb etadi.

So‘zlovchining ijobiy holatini ifodalovchi shodlik, quvonch kabi xursandchilik tuyg‘ulari ifodalanganda ham shaxsdagi emotiv jarayon aqliy jarayondan kuchliroq kechishini kuzatishimiz mumkin. Shaxsning xursandchilik holatini ifodalovchi misolni ko‘raylik: *Suyunchi! Oyim qiz tug‘dilar! (“Suyunchi”).* Shodlikni ifodalovchi his-tuyg‘uning eng “yuqori cho‘qqi”si borki, bunda garchi atrofdagi holat bunday vaziyatni taqozo etmasa-da, shaxs xursandchiligini o‘zi bilmagan holda yuqori kayfiyatda chiqaradi. Bunday vaziyat har xil tarzda ifodalanishi mumkin. Turli his-hayajonli so‘zlar, undov-xayqiriq ovozlari, chapak chalish, sakrash kabi holatlar bilan. Masalan, *Oliygoh o‘rtasiga ilingan e’lonlar taxtasini o‘rab olgan olomon o‘rtasini yorib chiqqan Akrom azbaroyi xursandchiligidan qo‘llarini musht qilib, tepaga niqtar, ba’zan og‘ziga karnay qilib qichqirardi: “Uuuv! Yetti yil deganda o‘qishga kirdim! Men ham talaba bo‘ldim!!!”.*

Shodlik, quvonch xursandchilik kabi shaxsning ijobiy tuyg‘ularini ifodalovchi holatlar salbiy holatni ifodalovchi tuyg‘ulardan biroz farq qilib, ijobiy nutq birliklarda so‘zlovchining intellekt holati uning emotsiyasi bilan bir vaqtda yoki undan biroz quyi holatda voqelanadi. Ijobiy emotsiyaning voqelanish jarayonida shaxsning intellektual funksiyasi batamom yo‘qolib ketmaydi yoki bu kamdan-kam hollarda ro‘y berishi mumkin.

So‘zlovchi intellektual va emotsional holatining o‘zaro munosabati yoki nisbati kontekst, ya’ni nutqiy vaziyat bilan bog‘liq. Shu sababdan, pragmatik hodisalar talqinida ularning biriga boshqalariga nisbatan mutlaq ustuvorlik berish, ya’ni aynan bir fikrni muayyan qat’iylashtirish mumkin emas. Chunki, bu sohaning ob’ekti hisoblangan nutqiy vaziyat, shaxs bilan bog‘liq bo‘lgan voqelik turli vaziyatda turlicha namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, yuqorida keltirgan nutqiy emotsionallik ifodalanishining darajalanishi aqliy va emotiv holatlar nisbati bilan bog‘liq ravishda yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тили грамматикаси.Тошкент. 1976й.111б.
2. Эгамбердиев Б. Эиоционалликка кўра гап турлари// Ўзбек тили ва адабиёти. №1. 1993й.
3. Сайфуллаева Р.Менглиев Б.,Боқиева Г., Қурбонова М. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент. 2009й. Б.386.
4. Kurbanova, M. M., & Xomidova, M. F. (2024). The Influence of allusive names on the perception of artistic text. Spast reports, 1(1).
5. Xomidova M.F. (2019). Intertextuality and literary translation. Scientific bulletin of Namangan State university, 1(6), 309-311.
6. Хужамкулова М.Б.Коммуникатив типлар прагматик аспектда.//Сўз санъати халқаро журнали. 5 жилд 1-сон. Тошкент-2022. Б.92.
7. Xujamkulova Maxbuba Bobonazarovna. Question Classification of Speech Act in Speech//Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 24 May 2022. ISSN 2694-9970.

8. Kurbanova M.M., Xujamkulova M.B. COMMUNICATIVE-PRAGMATIC UNITS EXPRESSING SUBJECTIVE PURPOSE IN UZBEK LANGUAGE. CONRADO | Revista pedagógica de la Universidad de Cienfuegos | ISSN: 1990-8644. Fecha de presentación: abril, 2023, Fecha de Aceptación: junio, 2023, Fecha de publicación: agosto, 2023.

TURK VA O‘ZBEK TILLARIDA “KO‘K YADROLI BIRLIKLARNING SEMANTIKASI

Israilova Saodat Turapovna
O‘zbekiston Milliy universiteti dots.v.b., f.f.f.d.
E-mail: israilovas404@gmail.com

Annotatsiya: Jamiyat rivojlanishining qizg‘in pallasiga kirgani sari tilimizda o‘ziga xos taraqqiyot yuz berishi tabiiydir. Binobarin, tildagi so‘zlarning shakl va ma’no jihatdan taraqqiy etishi ulardagi ushbu munosabatlarni kengroq tadqiq etishni taqozo etadi. So‘zlarning o‘zaro shakl va ma’no munosabatlari turlicha. Ayrim so‘zlar shaklan har xil, lekin ma’no jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lsa, boshqalari shaklan bir xil, ammo ma’nolari turli xil, ba’zilari esa bir-biriga qarama-qarshi so‘zlar ham bo‘lishi mumkin. Semantik paradigma ma’no shakllanish jarayoni haqida ma’lum ilmiy tasavvur beradi. *“Ko‘k”* leksemasi ishtirokidagi iboralar tahlilini leksemaning semantik imkoniyatlarini unga yondosh, u bilan bog‘langan boshqa birliklar semantikasi orqali ochib berishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: semantika, paradigma, semantik tahlil, semantik paradigma, sintagmatik munosabatlar, “ko‘k” yadroli birliklar.

Abstract: It is natural that as the society enters the hot stage of development, a unique development takes place in our language. Therefore, the development of words in the language in terms of form and meaning requires a wider study of these relationships. Words have different forms and meanings. Some words are different in form but close in meaning, others are the same in form but have different meanings, and some are opposite words possible. Semantic paradigm provides a certain scientific idea about the process of meaning formation. We will try to reveal the semantic possibilities of the lexeme through the semantics of other units related to it and related to it.

Keywords: semantics, paradigm, semantic analysis, semantic paradigm, syntagmatic relations, “kok” core units.

Аннотация: Естественно, что по мере того, как общество вступает в горячую стадию развития, в нашем языке происходит уникальное развитие. Поэтому развитие слов в языке по форме и значению требует более широкого изучения этих связей. Слова имеют разные формы и значения. Некоторые слова различны по форме, но близки по значению, другие одинаковы по форме, но имеют разное значение, а некоторые являются противоположными словами. Семантическая парадигма дает определенное научное представление о процессе смыслообразования. Мы попытаемся раскрыть семантические возможности лексемы через семантику других родственных ей и связанных с ней единиц.

Ключевые слова: семантика, парадигма, семантический анализ, семантическая парадигма, синтагматические отношения, «кок» основные единицы.

Sintagmatikada lisoniy birliklar orasidagi munosabatlar aniqligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Qiyoslang: *Ekilgan ko‘chatlar viqor bilan ko‘kka bo‘y cho‘za boshladi.* Ko‘rinib turibdiki,

nutq faoli-yatida muayyan “yotiq chiziq”qa joylashib, muayyan tartibda, mantiqiy ketma-ketlikda kelgan birliklar orasidagi munosabatlar sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintagmatik munosabatlar doimo yaqqol ta’sir qilishi insonda lisoniy sezgi uyg‘otishi bilan ham o‘ziga xosdir.

Turk tilshunosligida ham gцk leksemasi bilan bog‘liq juda ko‘p birliklar mavjud: göklere çıkarmak – ko‘klarga ko‘tarmoq, göklere çıkmak – samolarga chiqmoq, gцk delinmek – osmonning teshilishi, gцk gьrlemek – momaqaldiroq chaqishi, göğe merdiven dayamış – ko‘kka narvon qo‘ymoq, gцk ada – osmon oroli; gök atlası – osmon atlasi; gцk bilimi – osmonshunoslik; gök boylamı – samoviy uzunlik; gцk cismi – osmon jismi; gцkdelen – osmono‘par bino; gökdoğan – ko‘kdog‘; gцk ekseni – osmon o‘qi; gök eşleği – samoviy o‘yin; gцk gцzlь – ko‘k ko‘zli; (gцkgьvercin, gцkkandil, gök kır, gцk kubbe, gцk kumu, gökkuşağı, gцk kutbu, gцkkuzgun, gцk kьresi, göksoğan, gök taşı, göktırmalayan, gök tırmalayıcı, gцk yakut, gцkyolu, gцkyьzь, kьresel gцk bilimi, gцk delinmek[15]).

Bu birikmalar va iboralar o‘zbek tiliga qiyoslaganda ikki xil holat kuzatiladi. Bir qator birikmalar, ya’ni ko‘k leksemasining valentlik imkoniyatlari o‘zbek tilida ham kuzatiladi:

O‘zbek tilida	Turk tilida
ko‘k ko‘zli	gцk gцzlь – ko‘k ko‘zli
ko‘k yuzi	gцk yьzь
ko‘klarga chiqmoq	göklere çıkmak
ko‘klarga chiqarmoq	göklere çıkarmak – samolarga chiqmoq
ko‘k toqiga narvon qo‘ymoq	göğe merdiven dayamış – ko‘kka narvon qo‘ymoq
Ko‘ktog‘	gökdoğan – ko‘kdog‘

Bir qator birikuvlar o‘zbek tilida kuzatilmaydi: gцk gьrlemek –momaqaldiroq chaqishi degan birikma o‘rnida o‘zbek tilida “osmon gulduragi”, “osmon guldurashi” birikmalari qo‘llanadi. Turk tilida turkiy *“ko‘k”* leksemasi ishlatiladi. O‘zbek tilida fors-tojik tilidagi *osmon* so‘zi ishlatiladi: gцkdelen – osmono‘par bino. Gцkgьvercin “ko‘k kaptar” ma’nosidagi so‘z. Rang tushunchasi bir xil, gьvercin (kaptar) so‘zi farqlanadi. Gцkkuzgun – ko‘kquzg‘un. *Quzg‘un* zoonimiga nisbatan turklarda “ko‘k” rang sifati berilgan. O‘zbek tilida *quzg‘un* so‘zi qora rang bilan sifatlanadi: qora quzg‘un. Gök atlası “ko‘k atlasi” degan tushuncha o‘zbek tilida, deyarli, qo‘llanmaydi. Bu tushuncha turk tilida kamalakka nisbatan qo‘llanadi. gцk bilimi – osmonshunoslik. Turk tilidagi gцk delinmek (osmonning teshilishi) birikmasi o‘zbek tilida uchramaydi. Yomg‘ir ko‘p yog‘ayotgan holatga nisbatan “osmonning tubi teshildi” iborasi ishlatiladi.

Gцk ada – osmon oroli; gök boylamı – samoviy uzunlik; gцk cismi – osmon jismi; gцk ekseni – osmon o‘qi; gök eşleği – samoviy o‘yin; gцkkandil, gök kır, gцk kubbe, gцk kumu, gökkuşağı, gцk kutbu, gцk kьresi, göksoğan, gök taşı, göktırmalayan, gök tırmalayıcı, gцk yakut, gцkyolu, kьresel gцk bilimi, gцk delinmek birikuvlari o‘zbek tilida kuzatilmaydi.

[15]Sesli Sцzlьk. Online English Turkish and Multilingual Dictionary 20+ million words and idioms.

Gцk bilimi "osmonshunoslik" o'zbek tilida astronomiya, o'zbek tilining tarixiy bosqichlarida esa "ilmi nujum" – arabcha so'zlar asosidagi forsiy izofa qo'llangan.

*Ko'k rang aslida t*iniq osmon rangidagi moviy, zangori, umuman olganda, ko'k tusiga mos bir qancha o'xshash ranglar ham tilimizda ko'k deyiladi. Jonli so'zlashuvda ba'zan kulrang, havorang, yashil rangini ham ko'k sifati bilan ishlatamiz. *Ko'k bo'ri, ko'k kaptar* mana shular jumlasidandir. Chunki bo'ri va kaptarlarning ranglari ayni ko'k emas, kulrang rangning to'qroq shaklidir. Lekin bu birliklar ham ko'k leksemasi bilan ifodalanadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin. Ko'k leksemasi quyidagi ma'no imkoniyatlariga ega:

1) *yashil, sabza, ko'k o't* semasi: *Qarshimda tebranar ko'k barglar har on*.

2) maysa, ko'kat semasi: *Yomg'irlar yog'ib, yerda o't-o'lan ko'rina boshladi, hayvonlarni og'zi ko'kka tegdi*. *Ko'k terish bahonasi bilan dalalarni tusay boshlagan edi. (Cho'lpon)*

3) rezavor o'simliklar: *Ko'k solib qatiqlangan mastavaning lazzatli hidi keldi.* (A.Muxtor).

4) pishmagan, xom, barra ma'nosi: ko'k so'zi rangni ifodalash bilan birga xom, yetilmagan, g'o'r, barra kabi tabiiy hollarni ko'rsata oladi. *Ko'k uzum, ko'k qalampir, ko'k piyoz, ko'k no'xat, ko'k novda* kabilar. *Bir tupida olma endi sarg'ayib, yiltiramoqda, bir tupida mushtday yirik olmalar ko'm-ko'k, ularga boqishing bilan tishing qamashib, og'zingga so'lak to'ladi.* (Oybek)

5) yashil rang semasini berishda ham ba'zan ko'k beriladi: Tilimizda ba'zan "yashillik, yashil rang" semasini ko'k leksemasi ham ifodalaydi: *Yiroqda samoviy ufq... Ko'zi o'ynaydi (Boqar, boqar...) Ko'ngli sovub, Ko'k o't chaynaydi* (M.Ali). Bu misolda ko'k leksemasi predmetning rangini ifodalashdan ko'ra ko'proq uning turi (ho'lligi, sabza ekanligi)ni anglatmoqda. Xuddi shu holatni ko'k leksemasining choy so'zi bilan birikib kelganida ham ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Базарбаева А. Когнитивно-семантическая структура цветаообазначений в английском, узбекском и русском языках. Дисс… докт. филол. наук. – Ташкент, 2019. – 61 с.
2. Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: проф. Т.Мирзаев, А.Мусақулов, Б.Саримсоқов. – Тошкент, 2019. – 512.
3. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 308 б.
4. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.
5. Sesli Sцzlьk. Online English Turkish and Multilingual Dictionary 20+ million words and idioms.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. I −680 б.; II− 672 б.; III − 688 б.; IV - Тошкент, 2008. -608 б.; V – 592 б.
7. ДТС – Древнетюркский словарь. – Л., 1969. – 677 с.
8. Этимологический словар тюрских языков. Обшетюрские и межтюрские лексические основы на буквы "К", "Қ". – М.: 1997. – 363 с.
9. Мажитаева Ш., Каскатаева Ж., Хан Н. Семантика цвета в казахском языке: лингвокультуроведческий аспект. Еуропеан Ресеарчер, 2013. – № 5-3. – С. 1454.

ЯНБАЕВСКИЕ МЕТРИЧЕСКИЕ ЗАПИСИ КАК ОБЪЕКТ ИСТОРИКО-ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Файзуллина Гузель Чахваровна
ФГАОУ ВО «Тюменский государственный университет»
профессор кафедры педагогического,
психологического и социального образования.
E-mail: g.c.fajzullina@utmn.ru

Исследование выполнено при финансовой поддержке Российского научного фонда № 23-28-00838 «Мусульманские метрические записи Тобольской губернии XIX - начала XX вв. в историко-лингвистическом аспекте».

Аннотация: В статье актуализируется изучение Янбаевских мусульманских метрических записей Тобольской губернии. Мечетные книги состоят из трех частей: о новорожденных, о браках и разводах, об умерших. Источники содержат ценный этнографический материал для проведения как лингвистических, так и исторических исследований.

Ключевые слова: татарский язык, источниковедение, Янбаево, мечеть, Тобольская губерния, метрические записи.

Abstract: The article actualizes the study of the Yanbai Muslim metric records of the Tobolsk province. Printed books consist of three parts: about newborns, about marriages and divorces, and about the dead. The sources contain valuable ethnographic material for both linguistic and historical research.

Keywords: Tatar language, source studies, Yanbaev, mosque, Tobolsk province, metric records.

Янбаевские мечетные книги Бухарской волости Тюменского уезда Тобольской губернии XIX – начала XX века – это метрические книги «на записку родившихся, о браках, разводах и смерти», написанные арабской вязью на старотатарском языке и хранящиеся в Ембаевском сельском музее и Национальном архиве Республики Башкортостан.

Коллективом авторов Файзуллиной Г.Ч., Кадировой Э.Х., Фаизовой Л.Х. была издана книга «Янбаевские мечетные книги Тобольской губернии XIX – начала XX в.» (Казань: Отечество, 2022. 406 с.). Книга содержит 1) копии метрических книг о родившихся, браках, разводах и смерти; 2) транслитерацию старотатарских текстов кириллицей; 3) перевод на современный русский язык.

В книгах Янбаевской мечети сохранились сведения за 18 лет, охватывающие следующие годы: 1835-1836, 1839-1840, 1842, 1845, 1853, 1855, 1857, 1859, 1861-1862, 1867-1871, 1907. В них содержится информация о жителях двух населенных пунктов: Янбаевские юрты (татар. Олы Малцын, ныне Ембаево) и Тураевские юрты (татар. Кечкенә Малцын, ныне Тураева).

Составителями мусульманских метрических записей являются имамы, которые вели службу в местных мечетях. Об этом свидетельствуют записи, сделанные в книгах о браках и разводах. В специально отведенной графе священослужитель указывал свои регалии, имя и ставил подпись, подверждая тем официальность сочетания или расторжения брака: *Тубыл губернасы Төмән өязе Янбай иленең мәнщүрле мәхәллә имамы мулла Корбанбакый Мирәүвәл углы никах хөтбәсене укудугыма утуз тиен акчаны алдугыма әлимза кылдум* «В подтверждение прочтения мной никаха и в получении тридцати копеек поставил подпись имам селения Янбаевские Тюменского уезда Тобольской губернии Курбанбаки сын Мираваля». За вышеуказанные годы в Янбаевской мечети имамами были Курбанбаки сын Мираваля, Мухаммедкали сын Курбанбаки, Рафик сын Назарбаки, Хамидулла сын Сагида, Мухаммедзариф сын Габдуллы, Мухаммедъюсуф Сагитов, Фазулла сын Мухаммедзарифа.

По официальным данным, в XIX – начале XX в. население Янбаевских юрт было этнически однородным: это бухарцы – выходцы из Средней Азии. Судя по сохранившимся сведениям метрических записей, действительно, основное население Янбаевских юрт было бухарским. Однако за исключением некоторых случаев. Например, в книге о родившихся за 1835 год имеется запись о родителях новорожденной Магрифы – отец ясачный Туктасун, мать Алтан, при этом составитель указывает на место рождения – селение Янбаевские Тюменского уезда Тобольской губернии.

В метрических записях о родившихся, о браках и разводах содержится информация об этнической и / или сословной принадлежности мужского населения: бухарис // бохари // бохаридин // бухаридин ‘бухарец’, ясашный ‘ясачный’.

Во второй половине XIX века в Ембаевских юртах (при оз. Мальцык) проживали 440 человек мужского пола и 439 женского. В селении находилась одна мечеть [Список населенных мест Тобольской губернии, 1871:137]. В 1903 году насчитывалось 534 лиц мужского пола и 542 женского [Список населенных мест Тобольской губернии, 1904: 267]. По данным 1912 года, Ембаевские юрты входили в Бухарскую волость Тюменского уезда и находились при озере Кривом на почтовом тракте. Населенный пункт в количественном плане жителей являлся одним из крупных в волости – 698 человек мужского пола и 597 женского. В юртах находились 2 мечети, 2 школы, 3 торговые лавки, 1 кузница и 1 пожарный сарай и навес [Список населенных мест Тобольской губернии, 1912: 475].

Таким образом, мечетные книги Тобольской губернии XIX – начала XX в. представляют собой ценный источник для исторических и филологических изысканий. Изучение мечетных книг позволяет рассмотреть разные пласты лексики: антропонимической (личные имена, термины родства), медицинской, ойконимической, этнической, юридической и т.д. Кроме того, записи о личных именах и родственных отношениях необходимы для лингвокультурологической реконструкции антропонимического пространства Тобольской губернии XIX – начала XX вв.

Список литературы:

1. Файзуллина Г.Ч., Кадирова Э.Х., Фаизова Л.Х. Янбаевские мечетные книги Тобольской губернии XIX – начала XX в. – Казань: Отечество, 2022. – 406 с.

НОМИНАЦИИ ЧЕЛОВЕКА В «РУССКО-ТАТАРСКОМ РАЗГОВОРЕ» 1905 ГОДА В ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

Саттарова Лиана Сибагатовна
Факультет педагогики и психологии
Стерлитамакского филиала ФГБОУ ВО
«Уфимский университет науки и технологий»,
Старший преподаватель кафедры дошкольного
и начального образования.
E-mail: l.s.sattarova@struust.ru

Аннотация: В статье анализируются номинации человека в татарской языковой картине мира в дореволюционный период. Источником исследования является лексикографическое издание на наречии татар Тобольской губернии 1905 года. Методом сплошной выборки извлечены 93 номинации человека, характеризующие пол, возраст и этнос человека, его роль в семье, социальный статус, качества характера и темперамента и т.д. Автор приходит к выводу о том, что изучение этих лексических единиц способствуют описанию образ человека дореволюционной России.

Ключевые слова: татарский язык, лингвистическое источниковедение, номинации человека, Тобольская губерния, миссионеры.

Abstract: The article analyzes human nominations in the Tatar language picture of the world in the pre-revolutionary period. The source of the research is a lexicographic publication in the dialect of the Tatars of the Tobolsk province in 1905. By the method of continuous sampling, 90 human nominations were extracted, characterizing a person's gender, age and ethnicity, his role in the family, social status, qualities of character and temperament, etc. The author concludes that the study of these lexical units contribute to the description of the image of a person in pre-revolutionary Russia.

Keywords: Tatar language, linguistic source studies, human nominations, Tobolsk province, missionaries.

Актуальность исследования состоит как в изучении дореволюционных источников, написанных на языке сибирских татар, так и в реконструкции образа человека в дореволюционной языковой картине мира. Цель исследования видится в лексико-семантическом анализе номинаций человека в наречии татар Тобольской губернии.

Источником исследования является издание 1905 года, вышедшее в типографии Епархиального братства города Тобольска – «Русско-татарский разговор. Практические уроки русского и татарского языка. На русском языке и на наречии татар Тобольской губернии» [1]. Данное издание подготовлено и издано при поддержке Тобольского комитета православного миссионерского общества. Противомусульманская миссия была открыта 15 февраля 1900 г. в Тобольске по ходатайству Преосвященнейшего Антония, епископа Тобольского и Сибирского [2; 4].

Книга состоит из 46 уроков, посвященных какой-либо одной теме, например, национальности и сословия, счет, родственные отношения, скот, одушевленность-неодушевленность и др. Методом сплошной выборки из источника извлечены 93 номинации человека, что составляют предмет исследования. Написание слов и предложений на татарском и русском языке соответствует графике и правописанию, принятым в источнике. Посколу издание имеет определенную коммуникативную цель – научить разговорному языку, в нем использована активная на тот момент лексика.

Половозрастные термины составляют отдельную группу. В анализируемом источнике лексема *кше // кеше* ‘человек’ (во мн.ч. *кешеляр* ‘люди’) используется в двух вариантах написания и не имеет синонимов: *Ул кшене мин тя пелям* ‘И я знаю этого человека’ [1; 10]. В оппозиционные связи вступают лексемы *ирь, иргяк кеше* ‘мужчина’, *мужик* ‘мужик’ – *пиця* ‘женщина’, *пала, ир пала* ‘мальчик’ – *кыс* ‘девица’ (*кыслар* ‘девицы’), *карт* ‘старый; старик’ – *яшь* ‘молодой’: *Нугай кябентя ирь пелян пиця айырылмайты* ‘Татары не различают в разговоре мужчины от женщины’ [1; 28], *Меня пай мужик киляте* ‘Вот идет богатый мужик’ [1; 78], *Олло ата (баба) мичь тюбясентя утыраты, іщьфк оеп, олло инясе пелен (коймак) пешереп ус нябяряляреня пиряте* ‘Дедушка сидит на печи, сказывает сказки, старуха, бабушка печет блины и дает своим внукам’ [1; 73]. В эту группу входит также единица *пала* ‘дитя’: *Миненг кара палам югалты* ‘Мое черное дитя пропало’ [1; 32].

Термины родства (*туганнар* ‘родственники’) подразделяются на две подгруппы:

1) термины кровного родства: *аткя, ата* ‘батюшка, отец’, *иня* ‘мать’, *пала, улым* ‘сын’, *кыс* ‘дочери’, *акя* ‘старший брат’, *энем* ‘младший брат’, *сеңле* ‘младшая сестра’, *пигя* ‘старшая сестра’, *олло ата, баба // папа* ‘дедушка’, *олло иня* ‘бабушка’, *набяря* ‘внуки’, *ага* ‘дядя’, *апай* ‘тетушка’. Например, *Атанг исянме?* ‘Здоров-ли твой отец’ [1; 6], *Ага, сау торасынгмы?* ‘Здорово живешь, дядя?’ [1; 78], *Миненг акямненг ике паласы пар: пере ирь пала, пере кыс* ‘У моего старшего брата есть двое детей: один сын и одна дочь’ [1; 71].

2) термины некровного родства: *ирь* ‘муж’, *пиця* ‘жена’, *кияу* ‘жених; зять’, *ярашкан кыс* ‘невеста’, *кайня* ‘теща’. Например, *Миненг кайням пай* ‘Моя теща богата’ [1; 33], *Кіяу усененг ярашкан кысына якшы іосек сыйлаты* ‘Жених своей невесте подарил хорошее кольцо своей невесте’ [1; 50], *Ирь пелян пиця жамагать пулаты* ‘Муж и жена уже семья’ [1; 71].

В группу **лексем, обозначающие национальности и сословия**, входят: *нугай* ‘татарин’, *кыргыслар* ‘киргизы’, *урыс* ‘русский’, *сарт* ‘бухарец’, *кара кеше* ‘крестьянин’, *торомло* ‘оседлый’, *ясаклы* ‘ясашный’. Например, *Анта кыргыслар та, сартлар та, нугайлар та, урыслар та пар* ‘Там есть и киргизы и бухарцы и татары и русские’ [1; 9], *Кара кешетя пулу кяряк: суга, тешле себертке, урак, синяк, арба, цана, ат, сыер, куйлар, ицкеляр* ‘У крестьянина должны быть соха, борона, серп, вилы, телега, сани, лошадь, корова, овцы, козы’ [1; 78].

Лексемы, обозначающие чины, профессии, вид деятельности: *аш пешерюце* ‘повар’, *голова* ‘голова’, *голованың разсыльняе* ‘разсыльные головы’, *губернатор* ‘губернатор’, *докторлар* ‘доктора’, *коряшце* ‘борец’, *остат* ‘учитель’, *пай* ‘купец’, *пиця кысмяткяр* ‘работница’, *старшина* ‘старшина’, *судья* ‘судья’, *тиермянце ялланган* ‘мельник нанятой’, *тюря* ‘чиновник’, *тябибляр* ‘лекари’, *уракцылар* ‘жнецы’, *ялцы*

‘работник’. Например, *Голованынг разсыльняе пелян килтем* ‘Я приехал с разсыльным головы’ [6], *Мин губернаторны кюртем* ‘Я видел губернатора’ [1; 36], *Пес пицы кысмяткяр яллатык. Пиця кысмяткяр икмяк салаты, іеемлек пешеряте: сурба, бутка; кер юаты, миц ягаты, итян себеряте, сыйыр сауаты* ‘Мы наняли работницу. Работница печет хлеб, вари кушанье: щи, кашу; моет белье, топит печь, метет пол, доит коров’ [1; 74], *Пы коряще анаутан алаша пулса та, кян коцлеряк* ‘Этот борец хотя ниже того борца, но гораздо силнее’ [1; 53], *Юлта голованынг аулынта кунтым* ‘Я дорогой ночевал в юртах головы’ [1; 7], *Тюря пеля тик нугайнынг урталыгынта нитяй айырмасы пар?* ‘Какое различие между чиновником и простым татарином?’ [1; 46].

Ko‘rpacha, to‘shak, bistar [Dadaboyev H. va b., 2023: 323] sinonim qatoridagi *bistar* fors-tojik tilidan o’zlashgan eskirgan so‘z ekanligi, badiiy-tarixiy asarlarda uchrashini; *sevgili,*

mahbuba, yor, nigor, dildor, nigoron, paripaykar, ma'shuqa, bahor [Dadaboyev H. va b., 2023: 458] sinonimik qatoridagi *paripaykar, bahor* so'zlarining faqat ma'lum bir matn – kontekst talabiga ko'ra *sevgili* so'ziga sinonim bo'la olishini hisobga olsak, bu so'zlarning ma'lum o'rinlardagina qatordagi boshqa so'zlar bilan birikish, kesishish imkoniyati borligini ko'ramiz. Ular mental sinonimlardir va til egalarining nutqini boyitishga, tasavvuri, xayolotini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda:

- ✓ tilimizda sinonimlik hodisasi qadimdan mavjud va sinonimiya tufayli turkiy tilning boshqa tillardan boyroq ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan;
- ✓ sinonimlik hodisasiga bir-birini to'ldiruvchi qator ta'riflar berilgan;
- ✓ absolyut sinonimlarni ba'zi olimlar inkor etishadi, biroq hozircha bunday sinonimlar tilimizda mavjud;
- ✓ olimlar sinonimlarning ma'noviy sinonimlar, kvazisinonimlar kabi turlarini farqlashadi;
- ✓ kognitiv yoki kvazisinonimlar (ba'zi manbalarda shartli, mualliflik sinonimlari) umumiy bir nom – mental sinonim deb atalsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi;
- ✓ lisoniy sinonimlar bir-birini erkin almashtira oladigan sinonimlar, mental sinonimlar esa tasavvur bilan , kontekst bilan bog'liq sinonimlardir;
- ✓ maktab o'quvchilari uchun mental sinonimlar lug'atlari yaratish yaxshi natija beradi, o'quvchining tasavvurini kengaytiradi, nutqini boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nurmonov A. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseykasb-hunar kollejlari talabalari uchun. – Toshkent: Ilm ziyo, 2013. – B 227.
2. Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2014. – B 78.
3. Abjalova M. O'zbek tili Milliy korpusida sinonimayzer yoxud sinonimizatorni yaratish masalasi // O'zbek milliy va ta'limiy korpuslarini yaratishning nazariy va amaliy masalalari / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2021- yil 7- may. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO'TAU, 2021. – 330 b.
4. Abjalova M., Bozorov S. Kvazisinonimlar nutqiy imkoniyat sifatida // "Актуальные вызовы современной науки" ISCIENCE.IN.UA. 2021. – №6, – B. 123-126.
5. Cruse. A. Lexical Semantics. –Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P.88.
6. Dadaboyev H. va b. O'zbek tili sinonimlarining o'quv lug 'ati. – Toshkent: Bookmany print, 2023.
7. Абдураҳмонов Ғ., Рустамов Ҳ. Она тили. 10 – 11-синфлар учун. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б 101.
8. Lyons J. Linguistic Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1995. – P. 25.
9. Асқарова М., Абдураҳмонов Х. Ўзбек тили грамматикасининг практикуми. – Тошкент,1972.
10. Асқарова М., Қосимова К., Жамолхонов Ҳ. Ўзбек тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
11. Mahmudov N. va b. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023.

12. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
13. Z. Xolmanova . Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: 2017.
14. Дониёров А. Ҳозирги ўзбек тилидаги синоним сўзларнинг стилистик функциялари. – Самарқанд, 1967.
15. Mirtojiyev.M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
16. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1974.
17. Шамсиддинов Ҳ. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари. – Тошкент, 1999.
18. Шмелев Д.Н. Современный русский язык: Лексика. –М.: Просвещение, 1977.
19. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиев А. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980.

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLARNING BERILISHI

Shukurov Otabek Ulashevich
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc).
E-mail: otabekshukurov1@mail.ru

Annotatsiya: Maqola o‘zbek tilining mustaqillik davri o‘zlashmalari muammolariga bag‘ishlangan. Shuningdek, unda globallashuv sharoitida tillarning xavfsizligi va rivojlanish tendensiyalari o‘rganilgan bo‘lib, o‘zbek tilining istiqbol yo‘nalishlarini belgilashda globallashuv jarayonining ta’sir etuvchi omillari tadqiq etilgan.
Kalit so‘zlar: o‘zlashma, leksika, lug‘at, ma’no, so‘z.

Аннотация: Статья посвящена проблемам заимствований узбекского языка в период независимости. В ней также исследуются вопросы сохранности и тенденции развития языков в условиях глобализации, а также факторы влияния процесса глобализации на определение будущего направления развития узбекского языка.
Ключевые слова: заимствование, лексика, словарь, значение, слово.

Annotation: The article is devoted to the problems of borrowings of the Uzbek language during the period of independence. It also studies the security and development trends of languages in the context of globalization, and the influencing factors of the globalization process in defining the future direction of the Uzbek language.
Keywords: borrowing, lexis, dictionary, meaning, word.

O‘zlashmalarning lug‘atlardagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish ehtiyoji mustaqillik davrining imlo, izohli va tarjima lug‘atlarida alohida ahamiyat kasb etdi. Shunga qaramasdan neologizmlik maqomidan o‘tib, leksikaga qabul qilish uchun imkoniyati yetilgan birliklar ham borki, ularni lug‘atlarda aks ettirish dolzarb masala bo‘lib turibdi. Odatda leksikaning o‘zgaruvchan aspekti bu vazifaning to‘la-to‘kis tekshirishga imkon bermasligi bilan ham xarakterlidir. Raqamli media orqali kuzatilayotgan talay o‘zlashma so‘zlarning o‘zbek tilidagi mavjud lug‘atlardan topilmasligi ham aynan shu holat bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Bugungi kun ijtimoiy hayotida raqamli media lug‘ati sifatida shakllangan, umumiy izohli lug‘atlarda berilishiga ehtiyoj mavjud o‘zlashmalarning ayrimlariga to‘xtalib o‘tish joiz bo‘ladi. Masalan, onlayn o‘zlashmasi mavjud umumiy izohli lug‘atda aks etmagan. Imlo lug‘atida esa on-laynshaklida, texnik termin sifatida ko‘rsatilgan. Mubolag‘asiz aytish mumkinki, mazkur o‘zlashma ayni paytda tilning aktual leksikasi qatoridan o‘rin olgan, uning yosh, o‘rta yosh va hatto undan kattalar nutqida ham yangiligi yo‘qolgan deyish mumkin.

Bu so‘z avvalo ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media vositasida tarqala boshlagan edi. Bu jarayonda uning online, on-line, onlayn, on-layn grafik shakllari paydo bo‘ldi. Hozirda o‘zlashma imlosida yagona onlayn shakli barqarorlashgan. Biroq ayrim o‘rinlarda boshqalarining ham uchrab turishi so‘zning umumiy va o‘quv lug‘atlarida qayd etilmay qolayotgani, shuningdek, yozma nutqda o‘zlashmaning grafik shakliga ko‘nikma shakllanmagani omili bilan bog‘liq.

Mutaxassislarning Internet va ijtimoiy platformalardagi bunday birliklarga nisbatan sovuqqon munosabatda bo‘lishining o‘ziga xos sabablari bor. Chunki yangi paydo bo‘lgan har qanday xorijiy so‘zni tezda retsipiyent til birligiga aylanib qoladi, deb tasavvur qilmaslik kerak. U leksikaga qabul qilinmagan, biroq jarayondagi hodisa sifatida ishtirok etadi.

Onlayn so‘zining izohli lug‘atga kiritilishda ham o‘ziga xos murakkabliklar ko‘zga tashlanadi. Bu uning turkumini belgilash va birikmali shaklining talqini masalasida. O‘zlashmaning manba tildagi atributlariga e’tibor qilinsa, Kembrij (Cambridge Advanced Learner's Dictionary and Thesaurus) va Oksford (Oxford Advanced Learner's Dictionary) lug‘atlarida sifat, ravish turkumi sifatida berilgan. Ruscha lug‘atda esa ot, sifat va ravish turkumlari doirasida izohlangan. Yana farqli jihati shundaki, tarkibida *onlayn* komponenti bo‘lgan *onlayn-aksiya, onlayn-anketa*[Shagalova Y., 2012: 766] kabi ko‘plab birliklar chiziqcha bilan yozilishi ko‘rsatilgan. Albatta, bu qoida va mezonlar har bir tilning spetsifik xususiyatlari hisobiga o‘zgarishi mumkin.

Onlayn aksiya, onlayn anketa, onlayn maslahat, onlayn test kabi birikmalarda esa o‘zlashmaning yuqoridagi ma’nodan farqli jihati yuzaga chiqayotgani seziladi. Biroq uni lug‘atga kiritish uchun omonim so‘z sifatida talqin etish ham yoki alohida sifat turkumi sifatida belgilash ham to‘g‘ri bo‘lmaydi. Berilgan misollar talqinida uni sintaktik jihatdan aniqlovchi-aniqlanmish shaklida tahlil etib, o‘zlashmaning bu ma’nosini transpozitsiyaning bir turi – adyektivatsiya sifatida tushunish mumkin. Shunga ko‘ra lug‘atda o‘zlashmaning ikkinchi ma’nosini (shartli ravishda) sifat turkumi bilan ko‘rsatish joiz. Uni tarkibli birikmaning birinchi komponenti sifatida kelib, lug‘atga “tarmoqli ma’lumotlar bazasi asosida ishlaydigan, faoliyat yuritadigan, shakllantirilgan” ma’nosida talqin etish mumkin. “O‘zbekcha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati” mualliflari ham mazkur terminning turkumini belgilashda aynan shunday adekvat yo‘l tanlashgan. Onlayn tarkibli birikmalarning leksikada ko‘payayotgani kalkalab olish natijasi, jamiyatdagi innovatsiyalar sharoitida ham aynan shunday jarayonli faoliyatlarga yetarlicha ehtiyoj mavjud. Demak, o‘zlashmani izohli lug‘atda quyidagicha berish to‘g‘ri bo‘ladi:

ONLAYN (*ingl.* online – operativ rejim) **1** *ot* kompyuter, telefon, planshet yoki boshqa qurilmalarni Internet (va shunga o‘xshash) tarmog‘iga bog‘lanish rejimi, real vaqtda Internetga ulanish jarayoni. *Abituriyentlarni onlayn ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi haqida videoqo‘llanma ishlab chiqildi.*

2 *sft* Internet tarmog‘ida faol; tarmoqli ma’lumotlar bazasi asosida ishlaydigan. Tarkibli birikmaning birinchi komponenti sifatida keladi. *Onlayn aksiya, onlayn anketa, onlayn maslahat, onlayn test.*

Izohli lug‘atda so‘zliklar va ularning ma’nolarini berish amaliyotidan ma’lumki, bosh so‘z har doim ham barcha ma’nolari bilan bir turkumga oid bo‘lmasligi mumkin. Bunday paytlarda so‘z ma’nosining qaysi turkumga aloqadorligi qayd etiladi. Muhimi, “so‘z mansub bo‘lgan turkumga oid ma’nosi oldin, boshqasi keyin beriladi”[O‘zbek tilining izohli lug‘ati. I jild, 2020: 16]. Masalan *issiq* so‘zining izohli lug‘atda oltita ma’nosidan uchtasi ot, uchtasi sifat turkumiga tegishli. Bundan tashqari, ularning joylashishi ham turkum jihatidan tartiblanmagan. Bu esa izohli lug‘atda so‘z ma’nolarining dinamik jihatdan aktualligiga qarab o‘rinlashishini anglatadi.

Raqamli mediada faol bo‘lgan *layfhak* so‘zi ijtimoiy tarmoq va internet gazetalarda tez-tez ishlatilishi tabiiy holga aylangan. Odatda unga maishiy, oddiy kundalik yumushlarni hamda

kutilmagan vaziyatlarni oson hal etish usuli sifatida qaraladi. Mazkur o‘zlashma inglizcha so‘zma-so‘z *“life hack”,* ya’ni *“hayotiy hiyla”* ma’nosida, uni ixchamgina *“foydali maslahat”* tushunchasida kalkalab olish ham mumkin. Layfhakerlar hayotdagi original narsa-hodisa o‘rniga primitiv ko‘rinishdagi predmetlardan foydalanishni mo‘jaz videorolik ko‘rinishidagi fokuslar yordamida tavsiya etadilar. Bu so‘z o‘zbek tilidagi ijtimoiy tarmoqlarda ruscha grafik shakl, ya’ni *layfxak* ko‘rinishida ommalashgan. Uni (inglizcha) o‘z original manbasi analogi sifatida *layfhak* tarzida ifodalash orfografiyaning shakliy tamoyiliga ham mos keladi. Qolaversa, buni o‘zbek tilining milliy tabiati uchun ham manfaatli holat deb tushunish mumkin. Shunga ko‘ra mazkur o‘zlashma so‘zni izohli lug‘atga quyidagicha kiritish mumkin:

LAYFHAK (*ingl.* life hack – hayotiy hiyla) **1** maishiy kundalik yumushlarni yoki kutilmagan vaziyatdagi muammolarni hal etishga qaratilgan foydali maslahat. *“Layfhak” oddiy va sodda qoidalar (*https://darakchi.uz/uz/39578*).*

Ijtimoiy hayotda raqamli media orqali innovatsiyalar va yangiliklarning tez tarqalishi tilshunos va mutaxassislarning nominatsiya jarayonidagi faolligini chegaralab qo‘yyapti, deyish mumkin. Bunday sharoitda ma’lum muddat boshqaruv mexanizmining Internet tarmog‘i foydalanuvchilari qo‘lida qolishi va bloglarning ommaga ta’sir o‘tkazish kuchi bilan so‘z o‘zlashtirishda tartibsizlik holati yuzaga kelyapti.

Yangi o‘zlashmalarni umumiy izohli yoki imlo lug‘atlarida aks ettirib borish Internet va ijtimoiy tarmoq muntazam foydalanuvchilarining so‘z o‘zlashtirish sur’atidan sezilarli darajada ortda qolayotgani bilan ham ahamiyatlidir. Bu holat, bir tomondan, globallashuv sharoitida leksikaning tez o‘zgaruvchan holati bilan bog‘liqdir. Masalan, o‘zaro aloqadorlikdagi loukost, loukoster terminlari aviatsiya sohasiga tegishli bo‘lib, lug‘atlarda uchramasa-da, ijtimoiy tarmoqlar doirasida faol ishlatilmoqda. Mazkur terminlar yaqin yillarda o‘zlashgan bo‘lsa-da, iste’mol doirasi kengaygan. Lug‘atda yangi o‘zlashmani quyidagicha izohlash mumkin:

LOUKOSTER (ingl. *low-cost carrier* – kam xarajatli tashuvchi) Mijozlarga past narxli aviachiptalar taklif etuvchi aviakompaniya.

Bu o‘zlashma motivida uning assotsiativ bog‘lanishidagi *loukost* termini ham leksikadan o‘rin oldi. Rus tilida maktab o‘quvchilari uchun tayyorlangan izohli lug‘atda *“loukost” “*cheklangan xizmatlar to‘plami parvozi uchun arzon aviachipta” [Alabugina Y., 2014: 280] izohi berilgan. Tilimizda uning “aviatsiya bozorida arzon narxlarda xizmat ko‘rsatadigan” hosila ma’nosi ham shakllandi. Shunga ko‘ra bu so‘zni izohli lug‘atga polisemantik so‘z sifatida kiritish mumkin bo‘ladi:

LOUKOST (*ingl. low cost* – kam xarajat) **1** cheklangan xizmatlar to‘plami parvozi uchun arzon aviachipta. *Bu kompaniya loukost asosida ishlaydi.*

2 aviatsiya bozorida arzon narxlarda xizmat ko‘rsatadigan. *... Loukost aviakompaniyalar bozorining rivojlanishi sayyohlar oqimining ko‘payishiga ijobiy hissa qo‘shadi.* https://www.uzanalytics.com/iqtisodiet/7188/*)*

Umumiy tipdagi izohli lug‘atga kiritilish ehtiyoji mavjud o‘zlashmalar miqdori talaygina. Ular qatoriga *smartfon, metsenat, akkaunt, startap, xab, brend* kabilarni ham keltirish mumkin. Mavjud izohli lug‘atda berilgan o‘zlashmalarga tilning o‘zgaruvchan holatidan kelib chiqib baho berish talab etiladi. Chunki yangi o‘zlashmalar dinamik jarayonga tez moslashuvchan bo‘lib, o‘zining polisemantik xususiyatini kengaytirishga intilishi tabiiy hol.

Yangi o‘zlashmalarning umumiy izohli lug‘atlarda aks etishi bilan bog‘liq muammolar bor ekan, bu, bir tomondan, leksikaning dinamik jarayoni bilan ham bog‘liqdir. Boshqa tarafdan esa, lisoniylashish bosqichiga ko‘tarilayotgan birliklarning muntazam ravishda yangilanib turadigan neologizmlar lug‘ati sifatida shakllantirib borilmayotganini anglatadi.

Tilda yangi paydo bo‘layotgan xorijiy so‘zlarni leksikada barqarorlashish darajasiga qarab o‘rganish muhim. Shunga muvofiq ularni muntazam ravishda shakllantiriladigan “Neologizmlarning izohli lug‘ati”ga kiritib borish lozim. Aks holda, tilda, aniqrog‘i, leksikada yangi xaosning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” leksikada barqarorlashgan so‘zlarnigina qamrab oluvchi manba bo‘lgani bois unda barcha neologizmlarning aks etishiga ehtiyoj bo‘lmaydi. Yangi o‘zlashmalarning umumiy izohli lug‘atlarda berilishi olinma so‘zlar imlosi masalasini ham o‘rtaga chiqaradi. Bu jarayonda rus tilining vositachilik rolidan xoli ravishda o‘zlashmalarni so‘z beruvchi til xususiyatlariga asoslanib adekvat yo‘l topish talab etiladi. Yangi o‘zlashmalar umumiy izohli lug‘atlarda berilar ekan, so‘zliklar urg‘usining belgilangan holda kiritilishi to‘g‘ri. Aks holda, o‘zlashmalar orfoepiyasida muntazamlilik ta’minlanmaydi.

Xullas, o‘zbek tilining izohli lug‘atida o‘zlashma so‘zlarning berilishi o‘ziga xos muhim masala bo‘lib, bu jarayonda muntazam o‘zgarib boruvchi leksika sohasini tekshirib borish esa tadqiqotchilardan o‘ziga xos sinchkovlikni talab etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шагалова. Е.Н. Самый новейший толковый словарь русского языка XXI века: около 1500 слов. –Москва: Астрель, 2012. – 766 с.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон нашриёти, 2020. – 680 б.
3. Алабугина Ю.В., Шагалова Е.Н., Глинкина Л.А. Толковый словарь для школьников с приложениями. – Москва: АСТ, 2014. – 640 с.

EVFEMIK GAPLARNING SEMANTIK - SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Turdimurodov Sirojiddin Eshqobilovich
TerDU, O‘zbek filologiyasi fakulteti
O’zbek tilshunosligi kafedrasi v.b.dotsenti.
E-mail: turdimurodovs@tersu.uz

Annotatsiya: Gap shaklidagi evfemik ifodalar nutqiy madaniyatni belgilovchi vosita sifatida aytish noqulay bo’lgan qo’pol nutqiy vaziyatni yumshoq ifodalashda amaliy ahamiyatga ega. Ushbu maqolada gap shaklidagi evfemik ifodalarning matndagi o’rni, estetik ta’siri, badiiylikni ta’minlovchi vosita sifatidagi amaliy ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.
Kalit so‘zlar: evfema, gap, darak gap, so’roq gap, buyruq gap, evfemik birlik, nutqiy madaniyat, nutqiy mahorat, estetik ta’sir.

Abstract: Euphemistic expressions in the form of a sentence are of practical importance as a means of determining the speech culture in the soft expression of a rough speech situation that is inconvenient to say. In this article, opinions are expressed about the place of euphemistic expressions in the form of sentences, interrogatives, and commands in the text, their aesthetic effect, and their practical importance as a means of providing artistry.
Keywords: euphemism, sentence, indicative sentence, interrogative sentence, command sentence, euphemistic unit, speech culture, speech skill, aesthetic effect.

Аннотация: Эвфемистические выражения в форме предложения имеют практическое значение как средство определения речевой культуры при мягком выражении грубой речевой ситуации, о которой неудобно говорить. В данной статье высказываются мнения о месте эвфемистических выражений в форме предложений, вопросительных слов и команд в тексте, их эстетическом воздействии и практическом значении как средства обеспечения художественности.
Ключевые слова: эвфемизм, предложение, указательное предложение, вопросительное предложение, повелительное предложение, эвфемистическая единица, культура речи, речевое мастерство, эстетический эффект.

O‘zbek tilida evfemik birliklar shakliy strukturasiga ko‘ra so‘z, so‘z birikmasi, ibora, gap hatto matn shaklida ham uchraydi. Ular nafaqat nutqimiz balki badiiy asarlar ta’sirchanligini va obrazlliligini ta’minlashda muhim amaliy ahamiyatga ega. Ana shunday obrazlilik gap orqali amalga oshirilganda, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar yana ham ijobiy tus oladi va ifodalanadi. Bu degani mavjud salbiy voqelikning nisbatan ijobiy yumshoq tarzda yuzaga kelishiga gap evfemiik birliklar sababli erishiladi.

Evfemizmning paydo bo‘lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog‘liq. U nafaqat til hodisasi (ifoda etayotgan shaxs nuqtayi nazaridan noqulay bo‘lgan birliklar o‘rnida qo‘llangan so‘z, so‘z birikmasi yoki gap), balki insonning nutqiy vaziyatni qaysidir ma’noda o‘zgartirishga moyilligi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Maqbul so‘z qo‘llana turib, so‘zlovchi tomonidan man etilgan (tabu) birliklar qo‘llanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin

bo‘lgan nosoz muhit yumshatiladi. Man etilgan so‘zlar esa insoniyat bilan tengqur deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi [Qodirova X., 2022: 3]. Ushbu havolada keltirilgan fikrlar mazmuni evfemik birliklar gap shaklida ham mavjudligi, hamda ularning nosoz muhitni yumshatishiga urg’u berilmoqda.

Evfemik gaplarni ajratishda sodda gapning o‘zbek tilshunosligida tan olingan (ega va kesim munosabatiga asoslangan) qolipiga tayaniladi. Masalan, *dami kesiladi* (ovozi o‘chadi), *yelkasi qichimasin* (tamagirlik qilmasin), *kavshining chakagi yirtildi* (“ovora bo‘ldi”), *suyaklari o‘ltirgan* (“qarib munkayib qolgan”) kabilar gap shaklidagi evfemik vositalardir. Bundan tashqari *boshida tegirmon yurgizdi* (azob berdi, qiynadi, zulm qildi, boshiga itning kunini soldi (disfemizm) va b.), *miyasini qoqib qo‘liga berdi* (o‘ta ezmalik qildi), *yarasiga tuz sepdi* (“o‘tmishini yuziga soldi”), *tagiga suv quydi* (ishdan haydadi, lavozimidan bo‘shatdi) kabi gap shaklidagi ifodalar evfemik xarakter kasb etmoqda.

Bunday evfemik birliklar gap shaklida bo‘lsa-da, ularning aksariyati ibora sifatida ham qaralishi mumkin. Barqarorlik darajasi mazkur birliklarni ibora sifatida baholashga asos bo‘ladigan bo‘lsa, lekin ularning [ega + kesim] shaklida ekanligi gap qolipidagi birliklar sifatida qarashimizga sabab bo‘la oladi. Til hodisalarining serqirraligi tamoyili mazkur birliklarni baholashda ham metodologik tayanch vazifasini bajaradi.

Evfemik gap shaklidagi “*turmadi*“ ifodasini oladigan bo‘lsak, homilaning dunyoga kelgandan ko‘p o‘tmasdan yoki tug’ilmasdan oldin nobud bo‘lishini anglatayotgan ushbu gap shaklidagi ifoda bolaning yashab ketmaganligi (o‘lik tug’ilgani, yoki o‘lganligi) haqidagi fikrni yumshoq tarzda ifodalayotganligini anglatmoqda: *– Marg’ilonliq xotiningizdan bolangiz bordir? – Yo‘q… – Bo‘lsa ham turmadimi, uylanganingizga ancha bo‘ldi, shekillik? – Turmadi. (A.Qod. “O‘tkan kunlar”).* Ushbu kichik suhbat jarayonida so‘ngi kesimlik shakli hisoblangan *“turmadi”* orqali ifodalangan gap shaklidagi evfemik birlik homilaning tug’ilmasdan oldin nobud bo‘lganligini anglatib kelmoqda. Suhbatdoshlar bir-birining ko‘ngliga qattiq tegmaslik, ma’lum ma’noda farzandi bo‘lmaganligiga biroz kuyunayotganligi mazmunini yuzaga chiqarishi mumkin. Shuningdek, suhbatning yuqori madaniylik bilan amalga oshirilganligini *turmadimi, turmadi* shaklidagi vositalar orqali ifodalanmoqda.

Nutqimizda tilning taraqqiyoti bilan fikrni qisqa, ixcham ifodalash zarurati o‘z-o‘zidan ehtiyoj tufayli paydo bo‘laveradi. Evfemik birliklarning keyingi gap shaklidagi ko‘rinishlari qo‘llanilishi me’yor bo‘lib qolgan birikmalar o‘rnida ularga nisbatan madaniy va qulay so‘zlovchi va tinglovchi uchun yoqimli bo‘lgan ifodalar orqali ham yuzaga kelishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ular esa nutqimizda ko‘plab qo’llaniladi va nutqiy madaniyatni yuksak darajada shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki so‘z, ma’lum gap ma’lumot va axborot almashish, yetkazish jarayonida shunday kuchli ta’sirga egaki, u orqali inson ruhiy asab tizimini, ham ijobiy, ham salbiy ma’noda o‘z izidan, doirasidan, qolaversa chegarasidan chiqib ketishi, chiqarib yuborilishi mumkin. Muhimi shundaki, evfemik birliklarning nafaqat so‘z, so‘z birikmasi ko‘rinishidagi shakllari, hatto gap shaklidagi ko‘rinishlari ham insonni ana shu xavfli jarayonlardan himoyalovchi, uning fikrini kerakli nuqtaga, ma’lum maqsadga burib yuboruvchi kuchga ega vosita deb aytish mumkin.

Nutq jarayonida so‘zlovchi biror voqelik haqida tinglovchiga ma’lumot beradi, belgini tasdiqlaydi yoki inkor etishga intiladi, o‘ziga noma’lum voqea hodisani aniqlash maqsadida tinglovchiga savol beradi, uni shu savolga javob qilishga undaydi, maslahatga chorlaydi,

suhbatdoshni biror xatti-harakatni bajarishga da’vat etadi, orzu-istagini ifodalaydi. So‘zlovchi shu kabi maqsadlarini bayon etishda gapning turli ko‘rinishlaridan foydalanadi. Gapning bunday ko‘rinishlari darak, so‘roq, buyruq hamda istak gaplar atamalari bilan ifodalanmoqda. Tabiiyki gapning bu turlari shakliy-mazmuniy tuzilishi jihatdan bir-biridan farqlanadi. Darak, so‘roq, buyruq va istak gaplar anglatgan ma’nolari va bu ma’nolarni ifodalovchi modellar tizimi ifoda maqsadi kategoriyasini hosil qiladi [Xaynazarova M., 1999: 14]. Bundan shunday deyish mumkinki, bu xildagi turlar so‘zlovchining maqsadidan kelib chiqib belgilanadi.

Ochiq aytilishi man etilgan ya’ni tabulashtirilgan nutqiy jarayonni evfemik bayon etishda jamiyat a’zolarining saviyasi, didi, ruhiyati, e’tiqodi, dunyoqarashi, intellektual salohiyati, fikrlash qobilyati, so‘zamolligi, suxandonligi, zukkoligi, hozirjavobligi, kasbi, yoshi, axloq-odobi (etikasi) muhim ahamiyatga ega. Misollar: *Hech kimning bolasi o‘lmasin* gapining *hech kim bolasidan ajralib qolmasin, hech kim bolamlamasin, hech kim bola g’amini tortmasin* kabi evfemashtirilgan sinonimik variantlari *hech kim bolam demasin* evfemasining o‘rnini bosolmaydi [Omonturdiyev A., 2009: 47]. Ushbu gap shakldagi evfemik birliklardan anglashilmoqdaki, gap shaklidagi evfemiklik ham ma’nodosh ko‘rinishlarga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu sodda gap shaklidagi evfemik vositalar gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlaridan buyruq gap shaklidagi evfemik gaplar hisoblanadi.

Shu o‘rinda so‘z ifodasi bobida tengsiz mahoratga ega A.Navoiy va Husayn Boyqaro o‘rtasida gapni tahlilga oldik. O‘zaro suhbatda Alisher Navoiy Husayn Boyqaroga sevimli xotinining vafot etganligi haqidagi xabarni: *Sarvigul soyasida so‘ldi gul netmoq kerak?* tarzida xabar bergan. Husayn Boyqaro: *Sarvdin tobut yasab, guldin kafan bichmoq kerak* deb javob bergan (rivoyat). Shunda Navoiy xazratlari xotiningiz o‘ldi tushunchasi – gapi tabulashtirilib, o‘rnida *so‘ldi gul,* ko‘mish kerak gapi esa *guldan kafan bichmoq kerak* tarzida gap shaklidagi evfemasi qo‘llanilganligini anglash mumkin. Haqiqatan ham ushbu suhbat jarayoni juda ham chiroyli ifodalangan. Shu kabi yuqoridagi evfemalashish jarayonlari nutqning etik-estetik, ya’ni uzoq davom etib kelayotgan muayyan udum, axloq-odob talabi asosida yuz bermoqda.

Yuqoridagi tahlillarimiz nutqimizda qo‘llanilayotgan evfemik gaplarni quyidagi turlarga ajratishni taqozo etmoqda. Unga ko‘ra:

1. Darak evfemik gap; “*so‘ldi gul”* (vafot etdi), *guldan kafan bichmoq kerak* (ishora: murdani ko‘mish kerak), beri emas, nari ekan (qari ekan, o‘limi yaqin qolibdi), “*turmadi”* (chaqaloq o‘lib qoldi), *“dami kesiladi”* (ovozi o‘chadi), “*kavshining chakagi yirtildi”* (sovchilik bilan bog’liq “ovora bo‘ldi”), *suyaklari o‘ltirgan* (“qarib munkayib qolgan”) “*boshida tegirmon yurgizdi”* (azob berdi, qiynadi, zulm qildi, boshiga itning kunini soldi (disfemizm) va b.), “*miyasini qoqib qo‘liga berdi”* (o‘ta ezmalik qildi), “*yarasiga tuz sepdi*” (“o‘tmishini yuziga soldi”), “*tagiga suv quydi”* (ishdan haydadi, lavozimidan bo‘shatdi) kabilar. Yuqoridagi misollarni quyidagi parchalar asosida tahlil qilishga harakat qilamiz. Masalan: *Abdulla yonida o‘tirganlarning barchasining miyasini qoqib qo‘liga berdi. Yangi rahbar bir necha mansabini suistemol qilib kelayotganlarning tagiga suv quydi* (Suhbatdan). Ko‘rinadiki nutqimizda ushbu gaplarda qo‘llanilgan evfemik birliklarning barchaga barobar tushunilishi, faol qo‘llanilishi kuzatiladi.

– So‘roq evfemik gap; Olibsotarlik qilyapsizmi? so‘roq gapi o‘rnida *tirikchilikmi?* tarzidagi so‘roq gapidan foydalanish hollarini bozorlarda savdo-sotiq bilan shug’ullanuvchi va

xaridor o‘rtasidagi nutqiy jarayonlarda kuzatiladi. *Abduvali: Tursunboy qani bunday bozorga chiqibsizmi! Tirikshilikmi?*

– *Anvar: Ha, shunday tirikchilik, keling, savdo qilib keting.*
– *Abduvali: Daromaddan gapiring qo‘shni, daromaddan, o‘xshayaptimi?*
– *Anvar: Eplayapmiz, asta-sekin-da! (savdo jaraynidagi suhbatdan).*

Ushbu matnda qo‘llanilgan “Tirikchilikmi?” so‘roq gapi Anvarning olibsotarlik qilayotganligiga ishora qilinmoqda. Qo‘shnisi Abduvali uning “Ishing o‘xshamaganligidan, kuning o‘tmaganligidan olibsotarlik qilyapsanmi?, – degan mazmundagi qo‘pol ifodasini ana shu gap bilan ifodalaganmoqda. Bunday mazmundagi evfemik so‘roq gaplarni so‘zlashuv va badiiy nutqda ko‘plab uchratish mumkin.

Buyruq evfemik gap; *ikki yuzing qaro bo‘lsin, joying jannatdan bo‘lsin, atrofingga gul ekay, kiyiming dorda qolsin* (kishi vafot etgach uning barcha kiyimlari yuviladi va dorga quritilgach yaqinlariga tarqatiladi), *oting davrangda bog’lansin, oshingni yeyin* kabi buyruq gap shaklidagi evfemik birliklar o‘l, o‘lgin tarzidagi o‘ta qabih niyat birlik o‘rnida, shuningdek, *hech kim bola g’amini tortmasin, hech kim bolamlamasin, hech kim bolam demasin* kabi evfemik vositalar hech kimning bolasi o‘lmasin qo‘pollik mazmuni o‘rnida qo‘llaniladigan buyruq gapli evfemik birliklar hisolanadi.

Barcha tasviriy vositalar singari evfemalar ham nutqda ochiq aytilishi lozim bo‘lmagan voqeliklarni hazil, mazah, piching, kesatiq, qochiqriq, biror narsaga ishora (tagma’no) shikoyat, achinish, nafrat kabi semali evfemik vositalar orqali ifodalash uchun xizmat qiladi. Tag ma’noli gaplarda tabulashtirilgan voqelik ichki-semantik jihatdan o‘zaro bog’langan majoziy ifodalar orqali ifodalanadi. Bunda anglatilishi kerak bo‘lgan qochiriq, kesatiq, kinoya kabi vositalar yordamida ishora qilinadi va tabulashtirilgan tushuncha mantiqan anglashilib turadi.

Evfemik birliklarning bu ko‘rininshi badiiy asarlarda, shuningdek, kundalik nutqimizda juda ko‘p va tez-tez qo‘llaniladi desak to‘g’ri bo‘ladi. Misollar: Humoyun ”Boburnoma”ning qachon tugashini so‘raganda, Bobur umri tugaguncha davom etishini aytadi. Humoyun: “*Unday bo‘lsa, “Voqe’i” asaringiz yuz yilda ham tugamasin*”, - deydi. (P.Qod. “Yulduzli tunlar”, 98) – (tagma’no: yuz yilda ham o‘lmang). *Sevgi Tohirning sandig’ida suvga cho‘kib ketgan* (“Saodat”, 1993, №3) – (tagma’no: sevgi yo‘q). *Ertalab to‘rt xotinning azani bildiruvchi yig’i ovozi eshitildi* (Ch. “Yorqinoy”, 68) – (tagma’no: kimdir o‘lgan). *Sharofat Sidiqjonning sho‘xligiga qarshi “yomon ekansiz” deyishdan boshqa so‘z topolmadi* (A.Q., 2-t., 5) – (tagma’no: jinsiy aloqa bo‘lgan). *Qiz nikoh va uning ertasi kuni bo‘ladigan butun mojoroni ko‘z oldiga keltirib, ammasining oyog’iga yiqildi va o‘z qilmishiga iqror bo‘ldi* (A.Q., 2-t., 6). (tagma’no: qizligi olingan, qiz emas). Yuqoridagi keltirilgan misolllarda guvohi bo‘lganingizdek gap shaklida evfemik ma’no ifodalanmoqda. Butun boshli gapdan ochiq aytish mumkin bo‘lmagan kichik voqelik anglashilmoqda.

Evfemik gaplarda yashirilgan uyat yoki aytish mumkin bo‘lmagan nutqiy vaziyat yoki voqealar ma’lum xatti-harakat va his-hayajon, implitsit va kinetik (noverbal) ifodalar orqali yozma tarzda ifodalanadi. Ushbu evfemik gapdan esa o‘sha qo‘pollik yoki ma’lum salbiy ish-harakatlar, voqealar rivojidan anglashilib turadi. Ana shunday evfemik gaplarning qo‘llanilishi badiiy matn muallifining matn tuzish va so‘z qo‘llash mahorati yuqoriligidan darak beradi. Gap shaklidagi evfemik vositalar orqali axloq-odob va madaniyatimizning turli xil shakllariga mos bo‘lmagan

tushunchalarning salbiy ta’sirini kuchsizlantirishga, kamaytirishga va yumshatishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirova X. O‘zbek tilida evfemizm va disfemizm. –Toshkent.: “Bookmany print” nashriyoti. 2022.
2. Хайназарова М. Сўроқ гапларда шакл ва мазмун номувофиқлиги. филол. фан. номз. дисс. –Т.: 1999.
3. Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фан.док. дисс. –Т., 2009.
4. Омонтурдиев А.Ж. Ўзбек тилининг қисқача эвфемик луғати. – Тошкент, 2006.
5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
6. Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили (кириш, фонетик сатҳ, лексик-семантик сатҳ). – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018.
7. Турдимуродов С. Ўзбек тилининг изоҳли луғатларида эвфемик маънолар талқини. филол.фан. фал. док. (PhD) дисс... –Термиз. 2022.

“VAQT” KONSEPTINING SO‘Z BIRIKMALARI ORQALI IFODALANISHI

Mamarajabova Iroda Fayzullayevna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
o‘qituvchsi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: abduxoliq07@mail.ru

Abstract: In this article, using the examples of the works “Boburnoma”, “Mehrobdan Chayan” and “Night and Day”, the expression of the concept “time” in the Uzbek language through Persian idioms and phrases is examined and analyzed.

Keywords: Uzbek language, time, vocabulary, concept, expression, “Boburnama”, “Mehrobdan Chayan” and “Kecha va kunduz”

Аннотация: В данной статье на примере произведений «Бобурнома», «Мехробдан Чайан» и «Ночь и день» рассматривается и анализируется выражение концепта «время» в узбекском языке через персидские идиомы и словосочетания.

Ключевые слова: Узбекский язык, время, лексика, понятие, выражение, «Бобурнама», «Мехробдан Чайан» и «Кеча ва кундуз».

Vaqt mavhum tushuncha bo‘lib, ayni paytda insonning kundalik hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Vaqtni tushunish uchun o‘zbek xalqining, boshqa xalqlarda bo‘lgani kabi, boshqa narsa va tushunchalardan foydalangani kuzatildi. Ba’zida “vaqt – samaradorlik”, "vaqt - hayot", "vaqt - pul", "vaqt - daryoga o‘xshaydi", "vaqt - shifokor" kabi ta’riflar “vaqt” tushunchasini aniqlashning murakkabligini ko‘rsatadi hamda “vaqt” konseptini ifodalashdagi lingvistik vositalarning xilma-xilligini aks ettiradi. Ko‘rinib turibdiki, vaqtni tushunish uchun vaqtdan boshqa tushunchalarga tayanilgan, bu esa vaqtni bilish va zamon tasvirining metaforik va metonimik xususiyatlarini ham belgilaydi.

Forsiy izofalar, so‘z birikmasi turkiy tillar taraqqiyotida shakllangan nutq birliklari bo‘lib, kengaygan tushunchani ifodalashga xizmat qiladi. “Vaqt” konsepti izofalar, birikmalar orqali ham ifodalangan. Vaqt” konseptining izofalar orqali ifodalanishi ko‘proq eski o‘zbek tiliga xosdir. Z.Xolmanova eski o‘zbek tilining nodir manbasi hisoblangan Boburnoma”da “zamon” tushunchasining ikki xil mezon asosida ifodalanishini qayd etgan: “Boburnoma”da “zamon” tushunchasining ikki xil mezon asosida ifodalanishini qayd etgan: 1. “zamon” tushunchasi uchun xoslangan *asr, oy, yil, fasl, hafta soat, pos, pahr, giri, gari, pul, daqiqa* terminlari bilan aks ettirilgan. 2. Muayyan hodisaning amalga oshish muddati bilan ifodalangan[Xolmanova Z., 2021. –B.187.].

Muayyan hodisaning amalga oshish muddati vaqtni o‘lchash mezoni sifatida olingan. Namozning o‘qilish vaqti zamonni ifodalovchi metonimiya hodisasi asosida izofalarning yuzaga kelishini ta’minladi:

Eski ozbek tilida oy nomlari izofalar orqali ifodalangan: *rabbiul-avval* “hijriy yilning uchinchi oyi” (BNL,138): *Dushanba kuni, rabiul avval oyining o‘nida Agraga keldi, jald keldi (Bnm,242)*;

jumodiul avval “hijriy yilning beshinchi oyi” (BNL,59): *Va yakshanba kuni jumodiul avval oyining o‘n birida qaytib dorulxilofag‘a doxil bo‘lduk (BN,457): ...jumodil-oxir* ”hijriy yilning oltinchi oyi” (BNL,59): *...jumodil-oxir oyining o‘n sekkizida...(BN,333);*

Coati nujumiy vaqtni o‘lchashda ishlatilgan: *ikki soati nujumiy (BN,187).*

Z.Xolmanova namozning dastlabki qismi bo‘lgan, dastlabki tonggi ibodat (quyosh chiqishiga qadar bo‘lgan vaqt)ni bildirgan *namozi bomdod// namozi subhi* “Boburnoma”da vaqt tushunchasini ifodalashda deyarli ishtirok etmasligini, bu birlik o‘rnida *tonglasi, tongda* so‘zlari qo‘llanganini qayd etgan[Xolmanova Z., 2021. –B.188.].

“Vaqt” konsepti so‘z birikmalari bilan ifodalangan. Lisoniy birliklarning tuzilishiga ko‘ra sermahsul tiplaridan birini so‘z birikmalari tashkil qiladi. Qariyb barcha sohalar leksikasida birikmalar miqdor jihatidan asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Birikmali tuzilma onomastika leksikasi ikki va undan ortiq so‘zlardan tashkil topadi. Birikmalilarning boshqa tip leksemalardan miqdoran ko‘p ekanini o‘zbek tilshunoslari olib borgan hisob-kitoblar ham tasdiqlaydi. [Rahmatullaev Sh. 2000. – B.45.]. Namoz o‘qiladigan vaqtlar oralig‘i ham muayan muddat sifatida olingan: *Ikki namoz orasi bor edikim, darvozasidin kirib arkka keldim (BN,146); ...namozi digar bila shomning orasida...(BN,417); namozi peshin, namozi digar (BN,181)*.

tug‘chi tug‘ bog‘lag‘uncha fursat. Masalan, *muhosara avonida:* “jang oldidan”: *Shayboqxong‘a Kamoliddin Husayn Gozurgohiyni muhosara avonida elchilikka yibordi (BN,148).* Lug‘atlarda *muhosira* shaklida “осада”, “окружение”, “блокада” ma’nosida izohlangan (TRS, 249); rajab oyining g‘urrasi – “rajab oyining boshi (birinchi kuni)da”: *Ul yurttin chahorshanba kuni, rajab oyining g‘urrasida ko‘chub, Alvarning ikki ko‘ruhisida kelduk* (BNm,230b.).

“Boburnoma” mazmuni, ifoda uslubi keyingi davrlarda yaratilgan asarlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan[www.literature.uz.]. Xususan, “O‘tgan kunlar”ning ifoda uslubi, psixologik tasvir, asarda keltirilgan *shom azoni (shom vaqti), subh namozi (bomdod vaqti), shom bilan xufton o‘rtasida, shomdan so‘ng, kun asrdan og‘ib shomga yaqin* kabi vaqt alomatining ifodasiga oid birliklar “Boburnoma”ning ta'siri natijasidir[Xolmanova Z., 2021. –B.188.]. “Zamon” tushunchasi muayyan miqdordagi sut pishishiga ketgan vaqt bilan ifodalangan: bir sut pishimi: *Bir sut pishimig‘a yovuq darang qildi (BN,209)*; *Yana Jahongir mirzoni bir sut pishimi burunroq qavlab chaqiribturlar* (BNm,96 b.);

2) harbiy harakatlarni bajarishga ketadigan muddat orqali aks ettirilgan: *ot minguncha fursat, qilich sug‘urg‘uncha fursat, tug‘chi tug‘ bog‘laguncha fursat; sog‘doqqa solg‘ucha, ikki o‘q otquncha fursat: ...yana sog‘doqqa solg‘ucha ikki o‘q otquncha fursat bo‘ldi ekin (164)* [Xolmanova Z., 2021. –B.189.].

“Zamon” tushunchasi quyosh harakati orqali ifodalangan: a) quyoshning tush paytigacha bo‘lgan harakat chegarasi mezon qilib olingan: *Kun tushgacha zarb urush edi (336); Kun burni bila cherik eli kela boshladi (322). bir nayza bo‘yi* numerativi ham quyosh tikkaga kelgan paytni bildirgan: *Oftob bir nayza bo‘yi chiqib edikim...*(183); b) quyoshning botar chog‘idagi harakat-holati mezon qilib olingan: *Oftob o‘ltura toqqa yovuq yettim (171)* [Xolmanova Z., 2021. –B.189.].

Bobur vaqtni o‘ziga xos qiyoslar bilan ifodalagan:*...bir kecha kunduz 28 ming sakkiz yuz “Qulhuvalloh”ni bismillo bila o‘qug‘uncha bo‘lg‘ay...(BN,359); ... bir kecha-kunduz 216 ming ko‘zni yumib ochguncha bo‘lg‘ay...(BN,359); ...bir kecha-kunduz 8640 navbat “Fotiha”ni “bismilloh” bila o‘qug‘uncha bo‘lg‘ay (BN,358)*.

Bularning hammasi 24 soat, 1440 daqiqaga teng keladi:

28 800 “Qulhuvalloh”ni o‘qish (“bismilloh” bilan)

Bir kecha-kunduz 216 000 ko‘zni yumib ochish

(24soat, 1440 daqiqa) 8640 marta “Fotiha”ni o‘qish (“bismilloh” bilan)

“Boburnoma”da *ko‘z yumib ochguncha* birikma tarzida qo‘llangan. Hozirgi o‘zbek tilida bu birlik *ko‘z ochib yumguncha* shaklida ishlatiladi va “tez fursat”ni ifodalaydi.

So‘z birikmalari vaqt me’yorini aniqlashtirishga, vaqt ko‘lamidagi aniq qismni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *yong‘oq pishganda* birikmasi mavsumni ifodalovchi kuz vaqt ko‘lamining ma'mum qismini bildiradi:

Kuzda, yong‘oq pishganda dadam uzun tayoq ko‘tarib ustiga chiqadi[O’tkir Hoshimov, 2012. –B.4.].

Tong bo‘zarganda birikmasi tong davrining ma’lum qismini anglatishga xizmat qiladi:

Tong bo‘zarganda uxlab qolibman. Hovli tomondan kelayotgan qattiq-qattiq ovozdan uyg‘onib ketdim...(IEO,61).

So‘z birikmalari voqea-hodisa sodir bo‘lgan vaqtni aniqlashtirishga xizmat qiladi: *Otasi bomdoddan kirmagan, onasi sigir sog‘ish bilan ovora, o‘zi kichkina sahnni supurib turgan vaqtida tashqari eshikning besaranjom ochilishi Zebining ko‘nglini bir qur seskantirib oldi* [Cho’lpon. 2000. –B.4.]. *Bomdoddan kirmagan* birikmasi pragmatik jihatdan vaqtni aniqashtirib kelgan. Ushbu misoldagi otasi bomdoddan kirmagan birikmasida bir qraganda vaqt ma’nosi ko‘zga tashlanmaydi. Birikma tarkibidagi *bomdod* namozning farzlarini anglatgan so‘z bo‘lib, bomdod namozi o‘qiladigan paytga ishora qlgan. Ushbu matn parchasidagi *sigir sog‘ish, eshikning ochilishi, Zebining seskanish* paytini aniqashtirib kelgan. Matndagi tasvirlangan voqelik bomdod namozi o‘qilayotgan paytda sodir bo‘lgani pragmatik jihatdan anglashiladi (KK,4).

“Vaqt” konsepti vaqt leksemasi ishtirokidagi so‘z birikmalari bilan ifoadlangan: vaq o‘tgandan so‘ng: *ancha vaqt o‘tgandan so‘ng yo‘qolgan ikki mehmonni izlab, ko‘chaga chiqqan vaqtida, ko‘chadagi ikki yosh vujud qo‘llarini birbirlaridan hanuz ajratib ololmagan edilar (KK,27).*

Bola vaqti: *Hali eng o‘yinqaroq bola vaqtlarida ham butun qishloqning podasini boqib, oilaning ehtiyojlariga biror narsa qo‘shib turardi (KK,28).*

Darichadan hatlagan vaqtlari: *Ikkalasi, yuzlari yulduzday charaqlagani holda, darichadan ichkariga hatlagan vaqtlarida Zebining «Qora sochim» kuyiga aytayotgan ashulasi quloqlarni shirin-shirin qitiqlamoqda edi (KK,33).*

Paxta terim vaqtida: *Shaharda katta yo‘lning bo‘yiga — qo‘rg‘on tashqarisiga bir yangi paxta zavodi tushdi, zavodning kattakon bir paxta saroyi ham bor-ki, paxta terim vaqtida uch tarozi bilan paxta oladi* (KK.58).

Vaqt kutmoq birikmasi “muayyan muddat” ga ishora qilgan: Kaniz yosh bo‘lg‘anlig‘i va balog‘atka yetmaganligi uchun uni nikohiga ololmay vaqt kutadir[Abdulla Qodiriy., I994. -B.4].

Bu misoldagi *vaqt* so‘zi “balog‘atga yetish” degan pragmatik mazmunni ifodalashga xizmat qilgan.

Vaqti kelmoq birikmasida til egasining “har narsaning, hosisaning o‘z vaqti bo‘ladi” degan qarashi o‘z ifodasini topadi:

Vaqti kelib tasodifiy shamol omborning eshigini ochib yuboradi-yu, beixtiyor ichkariga mo‘ralab qaraysiz (IEO,216). “Har narsaning, voqea-hodisa, jarayonning oz vaqti bor”, degan

qarash “vaqti emas” so‘z shakli orqali ham aks ettiriladi: *Ket degali yuz chidamaydi, kishi chaqirg‘ali yana vaqt emas; mirzongiz bilan kengashib, emdi harchi ertalabgacha joy beraylik, tong otsa, bularning tatig‘ini berguchilar topilar-ku, axir deyishdik*[Abdulla Qodiriy., I994. -B.110]. *Keltirilgan misollarda “oldindan belgilangan” taqdiri azalda bitilgan vaqt haqida soz yuritilgan. Quyidagi misolda esa inson tomonidan belgilangan vaqt nazarda tutilgan:*

Anvarga og‘ir kelishini o‘ylamay bu "buyruq" bilan Ra'noning kundalik odatini man' qilar, har kechasi o‘z vaqtida o‘lturgan Ra'no go‘yo bu kun "bevaqt" o‘lturar edi[Abdulla Qodiriy., I994. -B.116].

Kezi kelganda birikmasi “o‘rni bilan”, “vaqti kelganda” degan mazmunni bildirgan: kezi kelganda maxdumning yozlik kiyimlarini ham bir sidra aytib ketaylik: yo‘lluq, qizil qalami bo‘zdan yaxtak, oq bo‘zdan jihak yoqaliq keng ko‘ylak (chunki tor bo‘lsa yirtiladir) va lozim (ya'ni ishton) hamda sarpoychan kiyishka yengilcha sag‘ri kafsh, ammo salla qishin, yozin bitta[Abdulla Qodiriy., I994. -B. 6]. Kezi kelganda tanishib qo‘yg‘anni aybi yo‘q, bu kimning havlisi[Abdulla Qodiriy., I994. -B.103].?

Hozirgi o‘zbek tilidagi so‘z birikmalari tarkibida “vaqt” ma’nosini ifodalovchi arabcha *asno, asnosi* so‘zlari qo‘llanadi. Bu so‘z eski o‘zbek tilida ham ishlatilgan: *Xudoyor muhr bosish asnosi yozilg‘an yorlig‘ va nomalarni o‘qutib eshitar, munshiylarning eshitilmagan arab va fors so‘zlari orqaliq to‘qug‘an yarim turkiy jumlalariga aksar vaqt tushunmas…ed*i[Abdulla Qodiriy., I994. -B.29].

Tarixiy davrlarda mustaqil qo‘llangan “vaqt” semali leksik vositalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida aksariyat o‘rinda boshqa so‘zlar bilan birikib, “vaqt” konseptining turli qirralarini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, *fursat* leksemasi “qisqa vaqt” tushunchasini anglatgan: *Ko‘ngillaridagi ajib hislarni bir-biriga bildirmoq uchun hali fursat topolmasdan entikkan bu ikki yosh endi o‘n-o‘n besh minut xoli fursat topganlarida, ortiqcha talvasaga tushgan yuraklari dastidan nima deyishlarini bilolmay entikardilar*[Cho’lpon., 2000. –B.71.].

Fursat aksariyat o‘rinlarda *topmoq* fe’li bilan qo‘llanib, insoniyatning vaqt haqidagi ilk tasavvurlari haqida axborot beradi. Ya’ni til sohibi vaqtni moddiylik sifatida tasavvur qilib, uni topishga ishora qilganini asoslab turibdi: *Shaharda bir necha minut, qishloqda mingboshinikida undan ham ozroq xoli fursat topib, Kichkina mitti Zebiga aytiladigan hamma gapni aytib oldi (KK,110).*

So‘z birikmalarida “vaqt” tushunchasining makon tushunchasi bilan uyg‘unlashgan holatlari ko‘p kuzatiladi: *Qishloqqa kirganda: Bular qishloqqa borib kirganda, oftob keng dalalar ustidan o‘zuyiga tomon yo‘l solgan edi* (KK,234).

“Vaqt” konseptining so‘z birikmalari bilan ifodalanishida leksemalarning valentlik imkoniyati, turkiy tillarga xos ko‘chma ma'no va hokim-tobelik munosabati namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xolmanova Z. “Boburnoma” –til qomusi. –Toshkent: Akademnashr, 2021. –B.187.
2. Rahmatullaev Sh. O’zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent, 2000. – B.45.
3. www.literature.uz
4. O’tkir Hoshimov. Ikki yeshik orasi. –Toshkent: Sharq, 2012. –B.4. Bundan keyingi orinlarda IEO qisqartmasi bilan ifodalandi.
5. Cho’lpon. Kecha va kunduz.-Toshkent, 2000. –B.4.

6. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon.-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, I994. -B.4.
7. Cho’lpon. Kecha va kunduz. –Toshkent, 2000. –B.71.

DAVLAT TILINING HUQUQIY MAQOMI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Topildiyeva Feruza
O‘zMU Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: topildievaferuza@gmail.com

Raximjonov Mirshoxid
O‘zMU “Yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat tilining huquqiy maqomi xususida ayrim fikr va mulohazalar, asosli tarzda ifoda etilgan. Maqolada davlat tili davlatning asosiy belgilaridan biri, uning davlat bilan uzviy bog‘liqligi va faoliyat ko‘rsatishining o‘ziga xos shakli ekanligi borasida fikr yuritilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan yangi tahrirda qayta ishlab chiqish borasida fikr va mulohaza bildirilgan.
Kalit so‘zlar: rasmiy til, kommunikatsiya, elektron dastur, tilning sofligi.

Аннотация: В данной статье обоснованно изложены некоторые мнения и соображения относительно правового статуса государственного языка. В статье рассматривается то, что государственный язык является одним из основных признаков государства, что государственный язык неразрывно связан с государством и является уникальной формой его функционирования. Были высказаны мнения по поводу доработки Закона Республики Узбекистан “О государственном языке” с учетом сегодняшних требований.
Ключевые слова: государственный язык, общение, электронная программа, чистота языка.

Abstract: In this article, some opinions and considerations regarding the legal status of the state language are expressed in a reasonable manner. The article discusses the fact that the state language is one of the main signs of the state, its integral connection with the state and a unique form of its functioning. Opinions were expressed on the redevelopment of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State Language" in the light of today’s requirements.
Keywords: official language, communication, electronic program, purity of language.

Til – millatning asosiy belgilaridan, davlat mustaqilligining asosiy ramzlaridan biri sanaladi. Til mavjud ekan, millat mangu yashaydi. Abdulla Qodiriy: “Tilimizni kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘al. O‘z nuqsonlarini tilga to‘nkamasinlar” - deganida haqli fikrni ifoda etgan edi.

Aytish joizki, o‘zbek tilining tirikligi – o‘zbek millatining mavjudligi, davlat tili esa o‘zbek davlatchiligining borligidan dalolatdir. Ko‘rinib turibdiki o‘zbek tili dunyo tillari tizmida turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili sifatida erkin rivojlanib, o‘sib bormoqda.

Davlat tili davlatning asosiy belgilaridan biri bo‘lib, u davlat bilan uzviy bog‘liq va uning faoliyat ko‘rsatishining o‘ziga xos shaklidir. Har bir davlatda tarixan ma’lum bir tilning davlat tili yoki rasmiy til sifatida o‘rnatilishi o‘ziga xos tarzda belgilab berilgan.

Davlat tili turli xalqlar va ijtimoiy guruhlarni yagona millatga birlashtiradi. Davlat tili mamlakatning birligi hamda yagona jamiyat va axborot makonini ta’minlaydi.

Dunyoda 7000 tadan ortiq til bor deb hisoblanadi. Muomala rivojlanib borishi natijasida tillar har ikki haftada bittasi yo‘qolib borish tezligida qisqarmoqda.

Jahonda 178 davlat, davlat tiliga va rasmiy tillarga egadir. Ayrim mamlakatlarda (masalan, Albaniya, Frantsiya, Ukraina, Latviyada) davlat tili yagonadir. Boshqa mamlakatlarda (masalan, Afg‘oniston, Belarus, Belgiya, Boliviya, Isroil, Hindiston, Paragvay, Finlyandiya, Shveytsariya, Janubiy Afrika Respublikasi) davlat tillari bittadan ko‘pdir.

Davlat tili – eng avvalo, muayyan davlat Konstitutsiyasi tilidir.”Davlat tili maqomi til siyosatining huquqiy asosini tashkil etadi va mustaqil huquqiy davlatning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi”[16].

Shuning uchun kodifikatsiyalashgan Konstitutsiyaga ega bo‘lmagan davlatlar davlat tiliga ham ega emas, deb hisoblash mumkin.

Ko‘pincha davlat tili (rasmiy til) mazkur davlatning eng ko‘p sonli xalqi (etnik guruhi) tili bo‘ladi. Ayni paytda qator davlatlar qonunchiligida rasmiy davlat hujjatlari boshqa tillarda ham nashr etilishi kerakligi belgilab qo‘yilgan.

Rasmiy til – bu davlat yoki xalqaro tashkilotda imtiyozli maqomga ega bo‘lgan til. Rasmiy til davlatning hududida foydalanilishi mumkin bo‘lgan boshqa tillarga nisbatan qonun tomonidan o‘rnatilgan eng yuqori huquqiy maqomga ega bo‘ladi.

Ma’lumki, xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan, o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonunining 1-moddasida O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tili ekanligi, O‘zbekiston Respublikasi o‘zbek tilini butun choralar bilan rivojlantirishi va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida amal qilishini ta’minlashi belgilab qo‘yilgan.

Shuni ta’kidlash o‘rinliki, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo‘lidagi muhim qadamlaridan biri bo‘lgan edi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosda obro‘si oshdi. “Davlat tili haqida”gi qonun ona tilimizning bor go‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga, uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi. Olimlar va mutaxassislar tomonidan ilm-fan va turli sohalarga oid entsiklopediya va lug‘atlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari chop etildi. Mumtoz adabiyotimiz

[16] Саидов А.Х .Давлат тили // Қонун ва тил.- Т 1997, 59 -бет)

namunalari, sakson mingdan ziyod so‘z va so‘z birikmasini, fan, texnika, sanoat, madaniyat va boshqa sohalarga oid atamalarni, shevalarda qo‘llaniladigan so‘zlarni o‘z ichiga olgan besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bu borada amalga oshirilgan ishlarning eng muhimlaridan biridir.

Mustaqillik yillarida ona tilimiz tom ma’noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek, buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash maqsadida 2019-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5850-son farmoni qabul qilindi.

Mazkur farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Taraqqiyot strategiyasi" markazi va keng jamoatchilikning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun 21-oktabr sanasini “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e’lon qilish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullandi.

Fikrimizcha, bugungi kunda o‘zbek tilini davlat tili sifatidagi maqomi, nufuzi va mavqeini tubdan oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida"gi Qonunini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan yangi tahrirda qayta ishlab chiqish;

Ikkinchidan, mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish;

Uchinchidan, ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, tilga bo‘lgan ehtirom va sadoqatni kuchaytirish;

To‘rtinchidan, davlat tili sofligini,tozaligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;

Beshinchidan, davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish;

Oltinchidan, davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog‘liq holatlarni muntazam va har tomonlama o‘rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

Yettinchidan, mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish;

Sakkizinchidan, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o’rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash;

To‘qqizinchidan, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish;

O‘ninchidan, o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha maxsus kurslarni tashkil etish va hokazolar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabr PF- 6084- son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi.

Undan ko‘zlangan maqsad – o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro’-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilashdir.

Mazkur Farmonga muvofiq, 2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasi tasdiqlandi.

Kontsepsiyada:

-mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish;

-ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;

davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;

-davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta’minlash;

-davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish, bu borada xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

-mamlakatimizda istiqomat qiladigan barcha millat va elatlar tillarini rivojlantirish maqsadida keng va teng imkoniyatlar hamda ularga davlat tilini o‘rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish masalalari nazarda tutildi.

Xulosa o‘rnidan shuni ta’kidlash joizki, go‘zal va jozibador ona tilimizning bebaho qadriyat ekanligini yangi O‘zbekistonning kelgusi avlodlariga bezavol yetkazish katta avlod uchun ham farz, ham qarzdir. Milliy tilimizning mavqei va sofligini saqlash, e’zozlash, o‘zbek tilining davlat tili sifatida, eng avvalo, mamlakatimizda, qolaversa, dunyo miqyosida maqomi, nufuzi hamda obro‘yini oshirish xalq vakillarining xolis niyatiga va O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan har bir fuqaroga bog‘liq. Bir so‘z bilan aytganda, til millatning ma’naviy-ruhiy boyligi, mulki, timsoli ekan, uni e’zozlash, uni yuksalishi, sofligi, boyligi, tozaligi yo‘lida kurashish hamda milliy qadriyat darajasiga ko‘tarish xalqimizning oliy burchidir. Yana shuni ta’kidlash joizki, til -millat

ko‘zgusi deya ta’rif berilgani bejizga emas. Tilimizning haqiqiy ko‘zgulik darajasini saqlash bizlarning hamda kelajak avlodlarning amaliy vazifasi ekanligini his qilmog‘imiz lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.10.2019 yildagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5850-son Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019-yil 22-oktabr
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6084-son Farmoni.
4. “2020-2030- yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” .https: // www.lex,uz.
5. Саидов А.Х. Давлат тили // Қонун ва тил.- Т 1997, 59 -бет.
6. Topildiyev V.R. Oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari. –Toshkent., 2018. 356. B.
7. Topildiyev, V.R., Oliy ta’lim tizimini isloh qilishning me’yoriy-huquqiy ta’minoti xususida ayrim mulohazalar // Sovremennoe obrazovanie, 2017. (6), 8-14.
8. Topildiyev, V.R., Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari. -Toshkent: “Universitet. (2015).

LINGUOCONSEPTUAL STUDY OF PHRASEOLOGISMS REPRESENTING "BEAUTY" IN UZBEK LANGUAGE

Murodova Aziza Khudoyberdiyevna
Independent Researcher at the Institute of Uzbek Language, Literature, and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.
E-mail: afifa2021@mail.ru

Annotation: This article examines the cognitive linguistic concepts and their application in the linguistic and cultural landscape of the world. Specifically, it focuses on the phraseological expressions in the Uzbek language related to the concepts of "beauty". The research article shows that these phraseological concepts are used in a variety of literary texts, as well as in shades of positive meaning in context. The analysis sheds light on the rich expressiveness of the Uzbek language in depicting notions of beauty.

Keywords: cognitive linguistics, linguoconceptual research, concept, concept of beauty, phraseological concept.

Аннотация: В данной статье рассматриваются когнитивные лингвистические концепты и их применение в лингвистическом и культурном картине мира. В частности, основное внимание уделяется фразеологическим выражениям в узбекском языке, связанным с понятием "красота". В исследовательской статье видно, что эти фразеологические понятия используются в разнообразии художественных текстов, а также в оттенках положительного значения в контексте. Анализ проливает свет на богатую выразительность узбекского языка в передаче представлений о красоте.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, лингвоконцептуальные исследования, концепт, понятие красоты, фразеологический концепт.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognitiv lingvistik tushunchalar va ularning dunyoning lingvistik va madaniy manzarasida qo'llanilishi ko'rib chiqiladi. Xususan, asosiy e'tibor o'zbek tilidagi "go'zallik" tushunchasi bilan bog'liq frazeologik iboralarga qaratilgan. Tadqiqotda ushbu frazeologik konseptlar badiiy matnlarning rang-barangligini, shuningdek, kontekstda ijobiy ma'no ottenkalarida ham qo'llanilishini ko'rish mumkin. Tahlil go'zallik haqidagi g'oyalarni etkazishda o'zbek tilining boy ifodaliligiga oydinlik kiritadi.

The concept is a central notion in cognitive linguistics, as it represents a process specific to the human mind. A concept is a mental activity that forms a set of ideas in the human mind. Language is one of the means of accessing the human mind and its conceptual sphere, as it consists of the content and structure of concepts as units of thought. In cognitive linguistics, the semantics of language units that express and embody a particular concept, are spoken, and have an external form are studied. Examining the semantics of these language units allows researchers to access the content of ideas and concepts.

According to Russian linguists A.P. Babushkin and I.A. Sternin, meaning is an element of linguistic consciousness, while a concept is a part of cognitive ("general") human consciousness.

They argue that meaning is a component of a concept, expressed as a linguistic symbol and a mental unit for the purpose of communication [1.5].

In her research, linguist L.V. Kovalyova has studied cognition directly within the framework of phraseologisms. She pays attention to the formation of phraseological concepts, stating that phraseological units are semantically combined in the creation of these concepts. According to the monograph "Cognitive Linguistics and Semasiology" by A.P. Babushkin and I.A. Sternin, the direct, literal meaning is perceived first. This meaning is then checked against the recipient's knowledge of the world, and only then does a person arrive at a conclusion about the phraseological unit [5].

There is no limit to the determination of the unique national-cultural component inherent in phraseological units. From the perspective of the expression of phraseological units, the structure of their cognitive meaning reflects complex and multidimensional national-cultural characteristics. Any national language reflects the cognitive structures of a particular society and ethnic group, providing insight into their conceptual frameworks. The formation and development of modern cognitive research has enabled the study of phraseology from a new and illuminating direction.

In Uzbek linguistics, studying phraseologisms from a linguo-conceptual perspective is one of the new and emerging approaches. Undoubtedly, the Uzbek language is exceptionally rich in idiomatic expressions. At the same time, clarifying the existence of a phraseological conceptualization expressed in a figurative manner, and highlighting their linguo-conceptual aspects, reveals the unexpected expressive potential of such units within the language.

In Uzbek phraseology, the concept of beauty is manifested in various forms, such as "like swallowing with a spoonful of water", "it has an angel", "it has a hot desire", "a hot star", "it is close to the eyes", "it can't take its eyes off", "the moon has a mouth", "the sun has eyes", "nice-looking", "white separated into white" and "red separated into red". For example, the expression "Wow, so beautiful! - he said in a loud whisper. - It's like drinking a spoonful of water!" vividly conveys the notion of exquisite beauty [2.170].

The use of the words "moon" and "day" in Uzbek phraseology is quite significant. The word "moon" is equated with "mouth", while "day" is used to mean "eyes". This suggests that the beauty of a person is being compared to the celestial bodies of the moon and sun. It is known that the sun and the moon are heavenly bodies that emit their own radiant light. By employing the lexemes of the moon and the day in the expression "The moon has a mouth and the sun has eyes", the beauty of an individual is being compared to the luminous glow emanating from their face. For example, phrases such as "fairer than the moon, more than the sun, mouth like the moon, he has an eye for the day" [3.142] draw direct parallels between the physical beauty of a person and the celestial luminaries of the moon and sun. This indicates that Uzbek phraseology utilizes cosmic imagery to convey the concept of exceptional human beauty. Since the lexeme "hot" used in the phrases "Face is hot" and "Sitarasi is hot" means a positive mood, these phrases also convey the meaning "face, face appearance is pleasant, attractive". For example, the passage states: "From the village bride. The warm-hearted, polite Kholnisa spent the first years living happily in a small room in the family bedroom". [6.268] The use of the word "warm-hearted" to describe Kholnisa suggests a positive, pleasant demeanor and attractive appearance.

Furthermore, the text mentions: "The word angel means malak, khur, and in the religion of Islam, it is considered a supernatural being that fulfills the command of God." [7.107] The lexeme of an “angel” is often used in relation to women in Uzbek, and the phrase “like an angel” is employed to describe beautiful, bright people. These usages convey positive connotations such as good behavior, purity, and gracefulness. For instance, the passage states: “They are the ones with angels on their faces”, he said. Then he turned his face away from the mudarris with one edge of his cloth and said to him half-turned: “Mr. mudarris, this picture was painted in Herat with the permission of the Sharia leaders”. [4.34] The reference to having “angels on their faces” imbues the individuals being described with an angelic, divine-like quality and beauty. Similarly, the text mentions: “The phrase white is separated into white, and red is separated into red' means that the beauty has come to the surface, the beauty has shone. It was a flower, and by the power of God, it was separated from white to white and red to red. It was smallpox, it was opened by lightning. [4.59] There were times when the white of the girl was separated from the white, and the red from the red” [8].

In the conclusions and suggestions, the passage highlights the significance of language as a reflection of the content and structure of conceptual thought. Phraseological expressions that convey beauty not only add to the artistic appeal and vibrancy of a text, but also reveal nuanced positive or negative connotations within the broader sentence. The analysis emphasizes the importance of studying Uzbek phraseological expressions through the conceptual framework in the field of Uzbek linguistics.

References:

1. Babushkin, A.P. and Sternin, I.A. (2018). Cognitive Linguistics and Semasiology. Monograph. Voronezh: OOO “Rhythm”. p. 229
2. Hashimov, Otkir (2019). Things of the World: Stories and Tales. Tashkent: New Age Generation. p. 336.
3. Jomrot, Muhammad son of Polkan (1967). The Birth of Gorogli. Epic. Tashkent: Gafur Ghulam Literary Publishing House.
4. Sultan, Isajon (2015). Bogi Eram. Stories and Tales. Tashkent: “Sharq”. p. 256.
5. Eisenck, M.W. (ed.) (1994). The Blackwell Dictionary of Cognitive Psychology. Cambridge, Massachusetts: Blackwell Publishers. p. 399.
6. Yoldoshev, Abduqayum (2011). Goodbye, Beauty (Stories, Tales). Tashkent: “Uzbekistan”, NMIU. p. 368.
7. Madaliyev, A. and Khudoyberganova, D. (2023). Annotated Dictionary of the Uzbek Language. Tashkent: Gafur Ghulam publishing house.
8. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abduqayum-yo-ldosh-1962/abduqayum-yo-ldosh-hayot-shafqatsiz-hikoya

O‘ZBEK TILIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID BA’ZI MULOHAZALAR

Rasulov Namoz
O‘zMU o‘qituvchisi
E-mail: namozrasulov89@gmail.com

Annotatsiya: Bir tilga ichki va tashqi hamjamiyatda e’tiborning ortishi, shubhasiz, til egasi bo‘lgan millatning tarixi, san’ati, adabiyoti, milliy urf-odatlari, an’analariga qiziqish, shuningdek, davlatning tashqi siyosatdagi pozitsiyasi, ilm-fandagi yutuqlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Dunyodagi mavjud tillarda til qonuniyatlarining yaratilishi o‘sha tilni millat tili sifatida va chet tili sifatida o‘rganilishini belgilab bergan. Tillarning mukammal qoidalari mavjud bo‘lishi shu tilning umrboqiyligiga ta’sir qiladi. O‘zbek tilining ham turli yillarda va davrlarda yaratilgan til qoidalarining tadqiq manbasi sifatida qayta taftish qilinishi uning kelajagi va ta’lim jararonidagi samaradorligiga yangi ruh beradi.

Kalit so‘zlar: lingvistik ta’minot, grammatik shakl, grammatik kategoriya, lingvodidaktika, til sathlari, ikkinchi til, struktur tilshunoslik.

Annotation: The increased attention to a language both within its internal and external communities is undoubtedly closely connected to the history, art, literature, national customs, and traditions of the nation to which the language belongs, as well as to the country's foreign policy stance and scientific achievements. The creation of linguistic rules for existing languages around the world has determined the study of that language both as a national and a foreign language. The existence of comprehensive rules for languages influences their longevity. The re-examination of Uzbek language rules, which were created in different periods, as a source of research brings new vitality to its future and the effectiveness of its role in the educational process.

Keywords: linguistic provision, grammatical form, grammatical category, language didactics, language levels, second language, structural linguistics.

Аннотация: Повышение внимания к языку как во внутреннем, так и во внешнем сообществе, без сомнения, тесно связано с интересом к истории, искусству, литературе, национальным обычаям и традициям народа — носителя языка, а также с позицией государства во внешней политике и достижениями в науке. Создание языковых закономерностей в существующих языках мира определило изучение этих языков как национальных и иностранных. Наличие совершенных правил в языках влияет на их долговечность. Пересмотр языковых правил узбекского языка, созданных в разные годы и периоды, как источника исследования, придаёт новый импульс его будущему и эффективности в образовательном процессе.

Ключевые слова: лингвистическое обеспечение, грамматическая форма, грамматическая категория, лингводидактика, уровни языка, второй язык, структурная лингвистика.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rganishning boshlanishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu bevosita Chor Rossiyasining o‘lkamizga mustamlaka yurishi bilan bog‘liq.

O‘sha davrlardan boshlangan ilmiy izlanishlarning hamon davom etayotgani, ichki kuzatishlarning xalqaro miqyosga ko‘tarilib borgani tilimizning muhim geosiyosiy, madaniy va kommunikativ ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib beradi. XX asrning oxirgi choragida tilimizga davlat tili maqomining berilishi, uning ortidan mamlakatimizning mustaqillikka to‘la erishuvi o‘zbek tilining mamlakat ichkarisidagi, mintaqadagi va jahondagi nufuzini mustahkamladi.

Istiqlolgacha jahon miqyosida o‘zbek tiliga oid tadqiqotlar, uning xorijiy til sifatida o‘rganilishi turkologik tadqiqotlarning bir tarmog‘i sifatida qaralgan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng alohida o‘rganilishni boshladi. Xorijdagi turli oliy o‘quv yurtlarida bevosita o‘zbek tili yo‘nalishlari ochildi.

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish va o‘rgatish ancha avval boshlangan, tilimizni o‘qitishga oid bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, ular tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagan, amaliyotga to‘la tatbiq etilmagan.

Til ta’limidagi asosiy ish lingvistik ta’minotning mukammalligi bilan baholanadi. Xo‘sh, o‘zbek tili ta’limida lingvistik ta’minot qoniqarlimi? Bu savolga javob topish muhim. Lingvistik ta’minot tilning fonetik, leksik, grammatik qonuniyatlarini qamrab olar ekan, unga uslub va punktuatsiyani ham kiritishni joiz topamiz. Chunki bu beshlik yaxlit til tizimi hisoblanadi. Lekin lingvistik ta’minotni grammatik ko‘nikma bilan bir umumiylikda tushunish holatlari ham mavjud. Chunki lingvistik bilimlarning katta qismi tilning grammatik sathini o‘rganishga qaratilgan.

Lingvistik qonuniyatlar tillarning yashovchanligini belgilovchi omildir. Tilimiz qonuniyatlari bir necha asrlar muqaddam boshlangan va u yoki bu formatda bugungi kungacha yetib kelgan. Ammo tilimizni chuqur ilmiy tadqiq qilish va uning qonuniyatlarini yaratishning muhim bosqichini o‘tgan asrning tilshunosligi bilan bog‘lash o‘rinlidir. XX asrga kelib o‘zbek tilining tovushlar tizimi, leksik qatlami, morfologik xususiyatlari, sintaktik qurilishi va uslubi jiddiy o‘rganildi. O‘rganish natijalarini yaxlit tizim holida ham, tarqoq holda ham uchratish mumkin. Ba’zi ishlarda faqat tovushlar tizimiga jiddiy e’tibor qaratilgan bo‘lsa, boshqasida leksikaga, yana birida morfologiyaga va sintaksisga doir bilimlar sochilib yotibdi. [Nurmonov A. 2002: 332]

O‘zbek tilini effektiv o‘rgatish va o‘qitishga nazariy tartibsizlik xalaqit berolmaydi. Asosiy muammo lingvistik bilimlarning minimumdan maksimumgacha bo‘lgan oraliqda belgilanmaganligidir. Til bilishning quyi darajasidan yuqori bosqichigacha bo‘lgan jarayonda qaysi lingvistik bilimdan foydalanish kerakligini tadqiq qilish va natijalarni amaliyotga tatbiq etish asosiy masalalardandir.

Turli yillarda yaratilgan O‘zbek tili o‘quv qo‘llanmalarida (darslik, mustaqil o‘rganuvchilar uchun qo‘llanmalar, mashqlar to‘plami) tilni o‘rganishga bevosita ona tili ta’limi metodi asosida yondashib kelindi. Unda til sathlariga asoslangan lingvistik bilimlar tizimli ravishda o‘rgatilgan. O‘quvchi 750 dan ziyod grammatik tushuncha va ta’riflarga duch kelgan. [G‘ulomov A. va boshq., 1995: 97]

Avval fonetik bilimlar, keyin tildagi leksik birliklar, undan keyin morfemik qonuniyat, so‘z turkumlarining grammatik xususiyatlari, so‘z birikmasining hosil bo‘lishidan tortib, gap qurilishigacha bo‘lgan murakkab jarayon, so‘ngra tinish belgilarining qo‘llanilishi va nutq uslubi bilan yakun topgan. Masalan, tilning tovushlar tizimi bilan tanishtirilgandan so‘ng, bevosita fonetik o‘zgarishlarning o‘qitilishi; kelishik shakllarining bir yerda jamlangan holda berilishi, gapning mazmun va tuzilishiga ko‘ra turlarining nisbatan kechroq uqtirilishi shular jumlasidandir.

Vaholanki kelishik shakllari, ayniqsa, jo‘nalish, chiqish, o‘rin-paytning tilimizda murakkab mazmunga ega ekanligini hisobga olsak, bu grammatik kategoriyalarning har biri til darajalarining ma’lum bosqichida soddadan murakkabga qarab qayta aloqa kuchi orqali o‘rgatilishi zarur.

Bu yondashuv hanuz davom etmoqda. Biroq jahon ta’lim tizimida ham ona tilini o‘qitishda til sathlariga asoslangan bilimlarni taqdim qilish nojoiz ekanligi oydinlashib qoldi. Hatto ona tili ta’limida ham faol lingvistik ko‘nikmalardan boshlanib, nofaol lingvistik bilimlarga qarab spiralsimon o‘sish kerakligi uqtirilar ekan, tilni xorijiy til sifatida o‘rgatishda ham nutqiy ko‘nikmaning asosi bo‘lgan faol lingvistik ko‘nikmaga tayanish muhimdir. Yuqoridagi salbiy holatga sabab ona tili grammatikasi va unga asoslangan xorijiy til grammatikasining mavjud emasligidir.

O‘zbek tilshunosligining an’anaviy tadqiqotlariga sig‘may qolgan holatlar o‘tgan asrning 70-yillarida tilshunosligimizda yangi yo‘nalishni vujudga keltira boshladi. Bu – strukturalizmdir. [Nurmonov A., 2002: 133] O‘zbek struktur tilshunosligining oxirgi yillarda erishgan yutuqlari tilning ichki qonuniyatlarini rivojlantirishga turtki beradi. Struktur tadqiqotlar va an’anaviychilar tomonidan yaratilgan til birliklarining nutqiy mazmuniga doir tadqiqotlar tilimizni chet tili sifatida o‘qitilishiga zamin bo‘la oladi.

Sh. B. Sodiqova o‘zbek tilini xorijiy til sifatida jadal o‘qitish uchun quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish lozimligini ta’kidlaydi va qo‘yidagilarni sanab o‘tadi:

– kommunikativ-nutqiy, leksik-grammatik materialni ma’lum bir tizim asosida berish;
– imlo qoidalarini o‘rgatish;
– og‘zaki va yozma nutq ko‘nikma va malakalarini chuqurlashtirish;
– lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
– matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish;
– o‘quvchilar so‘z boyligi va nutqiy malakasini oshirish;
– o‘zbek xalqining milliy-madaniy o‘ziga xos jihatlariga oid bilimlarni kengaytirish;
– o‘quvchilarni erkin fikrlashga, mustaqil mushohada qilishga undash;
– nutq madaniyati borasida asosiy zaruriy bilimlarni berish.

Yuqoridagi muhim vazifalar qatorida quyidagi masalalar ham oldimizda turgan asosiy vazilardandir:

– o‘zbek tili va tilshunosligiga oid atamalarning nomlanishiga va mohiyatiga aniqlik kiritish zarur. Jumladan, tilimizda passiv qo‘llanuvchi ismlar atamasini kengroq istifoda etish hamda ismlarga mansub so‘zlarni belgilab chiqish darkor. Tilimizdagi kelishik, egalik, ko‘plik shakllari, shuningdek ismlarni kesimga xoslovchi shakllar – bog‘lama, ko‘makchilarning nutqdagi ahamiyatini anglatishda ismlar terminidan foydalanish o‘qitish sur’atiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Odatda, egalik, kelishik, ko‘plik, bog‘lama, ko‘makchilar otlarning grammatik shakli sifatida o‘rgatiladi. Lekin qoidaga binoan bular ismlarga, ya’ni otga ham, sifatga ham, harakat nomiga ham, taqlidga ham, otlashgan so‘zga ham cheklanmagan shaklda qo‘shila oladi;

– xorijiy til sifatida ham metodikasi shakllangan ingliz, fransuz, nemis, yapon va turk kabi tillarning lingvodidaktik manbalarini tahlil qilib, ularni o‘zbek tili tabiatiga moslash, ulardan o‘rinli foydalanish kerak;

– o‘zbek tilini bilish talablarini til ta’limining xalqaro standartlari darajalariga muvofiqlashtirish, ya’ni belgilangan talablarni xalqaro standartlarning A1, A2, B1, B2, C1, C2 darajalariga mos holda takomillashtirish kerak;

– mavzulararo izchillik va uzviylik tamoyiliga rioya qilish, ya’ni nutqiy mavzular, grammatik mavzularning muayyan izchillikda va o‘zaro uzviy bog‘liqlikda berilishiga, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishiga, ularning osondan qiyinga, oddiydan murakkabga tomon tadrijiy o‘stirib borilishini ta’minlash erishish kerak.

Biz o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘rgatishning lingvistik ta’minotini faollashtirishda, ommalashtirishda til qonuniyatlarini Fitrat, Sh.Zunnun, F.Kamol, A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.Hojiyevlarning grammatikaga oid tadqiqotlaridan izlashimiz kerak. Ayrim struktur tilshunoslik vakillarining ta’kidlashicha, grammatik kategoriyalarning grammatik illuziya natijasida turli ko‘rinishlarining farqlanishi tanqid qilinadi. Ammo bu xil illuziyalarning mavjud ekanligi nutq o‘stirish amaliyoti uchun muhim hisoblanadi. To‘plam sifatida ba’zi mazmunlarni ko‘rib chiqish mumkin: [Reshetov V. va boshq. 1966: 351]

– qarashlilik mazmunini ifodalovchi qarashlilik shakli -niki, qaratqich kelishigi va egalik kompozitsiyasi;

– chegara mazmunini ifodalovchi -gacha va chegara mamzunini ifodalovchi qadar ko‘makchisi;

– gumon-taxmin mazmunini anglatuvchi vositalar (o‘z ichida paytga, joyga, miqdorga, narsaga, shaxsga);

– sabab mazmunini anglatuvchi kelishik, fe’lning vazifa shakllari va ko‘makchilar;

– maqsad mazmunini ifodalovchi kelishik, ko‘makchi va ravishdosh;

– vosita ma’nosini anglatuvchi kelishik va ko‘makchi;

– payt anglamidagi kelishik, ko‘makchi va fe’lning vazifa shakli kabilar. [Abdurahmonov G‘. Va boshq., 60, 190, 541]

Bugungi o‘zbek tili ta’limining lingvistik ta’minoti ana shunday grammatik kategoriyalarning grammatik illuziyalarini to‘plab chiqishi, darajalarga ajratishi, tasniflashi e’tiborga molikdir. Tildagi grammatik shakllarga xos nutqiy mazmunlarning xilma-xil ekanligi o‘qitish jarayonida qo‘l kelishi mumkin.

Mulohazalarimizni Abdurauf Fitratning “Sarf” kitobining muqqadimasidagi: “Bunlar bir kishining qo‘lidan kelmaydir. Bu yo‘lda tirishmak yangi chiqg‘an yigit yozg‘uchilarimizning hamalariga tushadir”, fikri bilan yakunlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
2. Абдураҳмонов Ғ. ва бошқ. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1965
3. А. Ғуломов, Ҳ. Неъматов, Она тили таълими мазмуни. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
4. Asilova G. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Lesson Press, 2023.
5. Фахри Камол, Ҳозирги замон ўзбек тили. – Тошкент: Ўзбекистон ССР ФА, 1957.
6. Muxitdinova X. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
7. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
8. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. – Toshkent: Ta’lim. 2009.
9. Решетов В. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан. 1966.

10. Sayfullayeva, R.R. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
11. Содиқова Ш.Б. Ўзбек тилини хорижий тил сифатида ўқитиш масалалари. “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали. – Тошкент, №2, 2017.

QOŃİRAT RAYONİ ETNOTOPONIMLERI

Shamshaddinova Saodat Saparbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti
Amaliy filologiya kafedrasi o'qituvchisi.
E-mail: sshamshaddinova@gmail.com

Annotaciya: Qońırat rayonındağı kóp ushırasatuğın jer-suw atamaları anıq bir urıw, qáwim atamalarına baylanıslı bolıp keledi. Yağnıy, hár bir etnotoponimlik atamalar usı ortada jasaytuğın xalıqtıń tariyxınan xabar beredi. Maqalada Qońırat rayonındağı usınday etnotoponimler haqqında sóz boladı.

Gilt sóz: Qońırat rayonı, etnotoponim, urıw, qáwim, jer-suw atamaları.

Annotatsiya: Qo'ng'irot tumanidagi ko'p uchraydigan yer-suv nomlari aniq bir urug', qabila nomlariga bog'liq bo'lib keladi. Ya'ni, har bir etnotoponimik atamalar ushbu hududda yashaydigan xalq tarixidan xabar beradi. Maqolada Qo'ng'irot tumanidagi shu kabi etnotoponimlar to'g'risida gap boradi.

Kalit so'z: Qo'ng'irot tumani, etnotoponim, urug', qabila, yer-suv nomlari.

Abstract: Common names of land and water in Kungrad district depend on the names of certain clans and tribes. That is, each ethnotoponymic term informs about the history of the people living in this area. The article talks about such ethnotoponyms in Kungrad district.

Keyword: Kungrad district, ethnotoponym, clan, tribe, land-water names.

Аннотация: Распространенные названия земель и вод в Кунградском районе зависят от названий определенных родов и племен. То есть каждый этнотопонимический термин информирует об истории народа, проживающего на этой территории. В статье говорится о таких этнотопонимах в Кунградском районе.

Ключевые слова: Кунградский район, этнотопоним, род, племя, названия земель и вод.

Qońırat rayonındağı kóp ushırasatuğın jer-suw atamaları anıq bir urıw, qáwim atamalarına baylanıslı bolıp keledi. Yağnıy, hár bir etnotoponimlik atamalar usı ortada jasaytuğın xalıqtıń tariyxınan xabar beredi.

Etnotoponimler ruw-qáwimlerdiń tariyxına, etnogenezine, turmıs-saltına, kósh jolları menen qonıslarınıń aymaqlıq qáliplesiw processlerine, basqa ruw-qáwimler menen yamasa xalıqlar menen arasındağı etnikalıq baylanısqa qatnaslı qunlı derek retinde kórinedi. Sonıń menen birge, bazı etnotoponimlerdiń ásirler dawamında ózgerissiz saqlanıwı, al sol toponimlerge sebepshi bolğan etnostıń pútkilley joyıtılıp ketiwi yamasa basqa bir mákanğa qonıs awdarıwı jiyi bayqalatuğın jağday. Bunday toponimler tariyxtıń belgili waqıyalarına dálil bola aladı.

Qońırat rayonı aymağında da tariyxtıń hár belgisinde hár túrli ruw, qáwimler, xalıqlar mákan etken. Olar da aymaqtıń jer-suw atamalarına óz izlerin salğan. Biziń dáwirimizge shekem

dax (day) – massaget kóshpeli qáwimleriniń ornın keyingi ásirlerde birinen keyin biri alanlar, pechenegler, oǵuzlar, qańlı-qıpshaqlar, noǵaylar, túrkmen, qazaq, qaraqalpaq, ózbekler iyeledi.

Úlke etnotoponimleriniń quramında áyyemgi alan, qańlı qáwimleri atamaları menen qatar oǵuz, túrkmen, noǵay, qazaq, qaraqalpaqlardıń ruwları menen túrli xalıq atamaları gezlesedi.

Qońırat rayonı etnotoponimlerin: *a) áyyemgi etnotoponimler; b) Túrkiy xalıqlar atamaları yaki ruwlarınan qáliplesken etnotoponimler* dep toparlarǵa bóliwge boladı.

a) Úlkedegi áyyemgi etnotoponimler qatarına *Alan* appelyativi qatnasqan – *Alanqala, Súmbetemiralan, Qaraalan, Dińalan, Qońıralan* toponimlerin, sonday-aq, *Assakeawdan, Adaqqala, Ógiz awıl* toponimlerin jatqarıwǵa boladı.

Alan – Ústirttegi tariyxıy qala. Alanlar b.e.sh. I mıńjıllıqtıń aqırı hám eramızdıń I mıńjıllıqları basında Aral teńizi átirapında, Ústirtte jasaǵan xalıq. S.P. Tolstov qalanıń ataması áyyemgi dáwirdegi alan xalqı menen baylanıslı, dep esaplaydı [Tolstov, 1948: 49].

Assake awdan – Ústirttegi XIV ásirge tiyisli tariyxıy qala. Ilimpazlardıń anıqlawınsha, *"Assake"* sózi Ústirtte jasaǵan *as* hám *saq* qáwimleriniń atamasınan kelip shıqqan.

Adaqqala – Qońırat rayonına qaraslı tariyxıy jer ataması. Bul qala áyyemgi Ámiwdár'yanıń quyar ayaǵında Sarıqamıs oypatlıǵı janında bolǵan. Ándijan qalası da áyyemde Adaq dep atalǵan. Shayxı Sulayman sózliginde Adaq – ayaq sóziniń áyyemgi variantı bolıp, dár'yanıń sońı yamasa kanallardıń sońı, dár'ya jaǵası degen mánisti bildiredi. Xorezmde Adaqtıń "tómen, batıs, kúnbatıs" degen mánisleri bar [Dwsimov, Egamov, 1991: 115]. Biziń pikirimizshe, *adaq* ataması áyyemgi dax qáwimi ataması menen baylanıslı.

Ógiz – Qońırat rayonındaǵı awıl (burın kanal bolǵan). Ógiz – oǵuz qáwimi atamasınan kelip shıqqan. Orta ásirlerde oǵuzlar Ústirtte Xorezm xalqı menen qońsı jasaǵan. Vamberi óziniń miynetlerinde ógiz dár'yanı Oǵuz ketken dep qollanǵan. Demek, Qızketken kanalınıń da túbiri Oǵuz ketken degen sózden kelip shıqqan. *Ketken* sózi Dár'ya mánisin ańlatıwshı eski túrkiy tildegi *qatan, qatqan* sózi *ketken* bolıp seslik ózgeriske ushıraǵan.

b) Túrkiy xalıqlar atamaları yaki ruwlarınan qáliplesken etnotoponimler: *Saǵır, Sorja, Qońırat, Qańlı, Qıyat, Kiyet, Qıpshaq, Qıtay, Ashamaylı, Qazaq, Ardana, Duwana, Tabınsuw, Qazaqlı degish, Xorezm, Balıqshı, Noǵay* hám t.b.

Ústirt platosında orta ásirlerde jasaǵan oǵuz qáwiminiń, keyin ala orta ásirlerden XIX ásirlerge deyin jasap kelgen túrkmen ruwlarınıń izleri búgingi kúnde toponimlerde kórinedi. Máselen, *Saǵır* (qudıq) – salor qáwiminiń ishki ruwlarınıń biri. Bul sózdiń basqa da mánileri bar. Tájik toponimiyasında: sagir – «az, kóp emes» degen mánisti de beredi [Rogozova, 1975: 83]. Al M.Qashǵariydiń sózliginde: «saǵır – «túbi tar, awzı keń ıdıs» [Qashqari, 1997: 466] dep beriledi. Soǵan baylanıslı atamanıń mánisin «suwı az qudıq» yamasa «awzı keń, túbi tar qazılǵan qudıq» yaki «suwı dushshı, awız suwı bar jer» dep te túsiniw múmkin. *Sorja (Sarja)* – ersarı qáwiminiń ishki ruwlarınıń biri.

Qońırat (qala), *Qańlı* (awıl puqaralar jıyını), *Qıyat, Kiyet* (awıl puqaralar jıyını), *Qıpshaq* (awıl puqaralar jıyını), *Qıtay* (elatlı punkt) sıyaqlı etnonimler házirge shekem jer-suw atamaları sıpatında etnotoponimdi qáliplestirgen.

Qońırat etnotoponimi usı aymaqtaǵı qońıratlardıń ataması tiykarında kelip shıqqan bolsa, *Qańlı* sózinıń kelip shıǵıwı IV ásirge barıp taqaladı. "Qańǵay" Sırdár'yanıń orta ağımındaǵı kóshpeli hám yarım kóshpeli túrkiy qáwimlerdiń úlken birlesiwinen kelip shıqqan mámleket

bolǵan. *Qańlı* qaraqalpaq, qazaq, ózbek milletleri ishinde áyyemgi atın saqlap kiyatırǵan úlken ruw esaplanadı.

Qıpshaq ataması da orta ásirlerden berli túrkiy xalıqlardaǵı iri qáwim atınan kelip shıqqan. *Qıpshaq* sóziniń mánisin etnonimler etimologiyasın izertlegen alım D.Aytmuratovtıń pikirinshe, *quba (ireń) + shaq (shash),* yaǵnıy "quba ireńli shash" degendi ańlatadı [Aytmuratov, 1990: 122].

Ashamaylı – elatlı punkt. Qońırat arısına kiretuǵın ruw atamasına qoyılǵan. *Taraqlı* – mákan puqaralar jıyını. Qaraqalpaqtıń Keneges arısına kiretuǵın ruw.

Qońırat rayonında qazaq ruwlarına qoyılǵan jer-suw atamaları da ushırasadı. Máselen, *Qazaq jap* – kanal. Jap boyında qazaq ruwları jasaytuǵın bolǵanlıqtan usılay atalǵan. *Ardana* – qudıq, Ústirt. Kishi júzdiń Álim ruwına kiretuǵın ruw atına qoyılǵan. *Duwana* – tumsıq, Ústirt. Tabın ruwına kiretuǵın Duwana kishi ruwı atına qoyılǵan. *Qazaqlı degish* – jer ataması. Ámiwdár'ya burın Ústirttiń qubla-batıs qırı boylap aǵıp Aral teńizge quyıp turǵan. Sol waqıtları dár'ya suwı pátli bolǵanlıqtan, hár jer hár jerde degishler payda etip turǵan. Qazaq ruwları jasaytuǵın sonday orınlardıń biri *Qazaqlı degish* atalǵan. *Tabınsuw* – bulaq, Ústirt. Qazaqtıń Tabın ruwı xalqı usı aymaqtı jaylap kelgenlikten bulaqtıń atı usı ruw atamasına qoyılǵan. *Balıqshı* jer ataması da aday ruwınıń ishine kiretuǵın kishi ruw atamasına qoyılǵan.

Noǵay – Qońırat rayonında elatlı punkt. Noǵay tariyxıy shaxs bolıp, ol Mańǵıt urıwınan shıqqan. Ol 1312-1342 Aq Ordada áskerbası bolǵan. Qaraqalpaq xalqınıń bul dáwirdegi tariyxı usı Noǵaydıń atı menen táǵdirles. Noǵay mańǵıt penen qońırattı izine ertip, óz aldına noǵay xanlıǵın qurǵan . Noǵay óz átirapına qazaq, qaraqalpaqtı birlestirgennen keyin, onıń puqarasınıń hámmesi noǵaylı atanıp ketti. Noǵay xan ólgennen keyin Mańǵıt penen Qońırat arısı arasındaǵı tartıs kúsheyip, feodallıq tartıs ruwdı ruwǵa qarsı qoyıp noǵaylınıń tiykarın quraǵan qońıratlar menen mańǵıtlar azayıńqırap barıp qaraqalpaq xalqın quradı. Qońırat rayonındaǵı Noǵay awılınıń ataması da usı dáwirlerden miyras sanaladı.

Xorezm – awıl puqaralar jıyını. 1965-jılı dekabr ayınan baslap Qońıratta Xorezm awıllıq keńesi shólkemlestiriledi. Xorezm wálayatınıń Qaraqalpaqstan Respublikasında náwbettegi ádebiyat hám mádeniyatı on kúnligi bolıp ótken. Olar barlıq aymaqlarda óz kórkem ónerlerin kórsetken. Sol waqıtta jańadan ashılǵan awıllıq keńeske eki xalıqtıń ádebiy-mádeniy doslıǵı belgisi sıpatında Xorezm dep atama berilgen.

Qońırat rayonınıń etnotoponimlik kartasında áyyemgi xalıqlar hám qáwimlerdiń, sonday-aq, túrkiy xalıqlardıń yaki ruwlarınıń da atamalarınan toponimler kóp orın alǵan. Etnonimlerden payda bolǵan atamalar xalıqtıń qonıs awdarıwı, jıljıwı sıyaqlı etnikalıq processler menen baylanıslı. Olardı izertlep atırǵan aymaqtaǵı xalıqlardıń qonıslanıw tariyxı menen salıstırıwǵa, xalıqtıń ornalasıq aymaqları menen shegaraların anıqlawǵa múmkinshilik beredi.

Paydalanılǵan ádwbiyatlar:

1. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.-Л.: Издательства АНСССР, 1948.
2. Досимов З., Эгамов Х. Жер атамаларының қысқаша түсиндирме сөзлиги. – Нөкис: Билим, 1991.
3. Рогозова Л.И. Словарь географических терминов и других слов, формирующих топонимию Таджикской ССР – Москва, 1975.
4. Қашқари М. Түркі сөздігі: Үш томдық. жинағы. 1-том.– Алматы: Хант, 1997.

LISONIY TIZIMDA DEYKSISNING O‘RNI VA UNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Sarbarova Dilnoza Nosirjon qizi
O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: sarbarovadilnoza1@gmail.com

Abstract: The phenomenon of deixis in linguistics and its importance. Research and classification of deictic units, as well as studying their pragmalinguistic properties.

Keywords: deictic unity; person, object, sign, quantity, space, time, social situation, emotional, propositional and discourse deixis, temporal deixis, signification.

Аннотация: Феномен дейксиса в лингвистике и его значение. Исследование и классификация дейктических единиц, а также изучение их прагмалингвистических свойств.

Ключевые слова: дейктическое единство; человек, предмет, знак, количество, пространство, время, социальная ситуация, эмоциональный, пропозициональный и дискурсивный дейксис, временной дейксис, значение.

Hozirgi kunda tilshunoslikda kommunikativ muloqot ishtirokchilari hamda ularning ijtimoiy mavqei, emotsional holati; nutq kechayotgan zamon va makon; nutq qaratilgan narsa-predmet, belgi, miqdor, harakat-holat, voqea-hodisa kabilarga til birliklari yoki boshqa belgilar orqali ishora qilish deyksis hodisasi sifatida talqin etiladi. Boshqacha aytganda deyksis leksik va grammatik vositalarning ishora qilish vazifasini anglatuvchi tushuncha sifatida nutqiy akt ishtirokchilari hamda jumla tarkibiy qismlari denotativ mazmunining ahamiyatliligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Deyksis nazariyasining markaziy tushunchalaridan biri deyktik birliklardir. Nutq (matn) tarkibida «ishora qilish» vazifasini bajaruvchi birliklar deyktik birliklar sifatida baholanadi. Bunday birliklar tilda muayyan obyektni bevosita nomlovchi nominativ birliklardan farqli tarzda nutqiy vaziyatga yoki so‘zlovchi tomonidan belgilangan muayyan mo‘ljal markaziga nisbatan obyektni tavsiflaydi.

Bugungi kunda deyksis muammosi tahliliga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari ko‘p bo‘lsa-da, ularda deyksis tushunchasi turlicha talqin qilingan, deyksis turlari har xil tasniflangan. Jumladan, T.Misaylova deyksisga nutqiy vaziyat qismlarini aktuallashtirish usuli, deyktik birliklarga jumlaning aktual qismi sifatida baho beradi. Darhaqiqat, muloqot jarayonida deyktik birliklar nutq ishtirokchilarining diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Tinglovchi axborotni qabul qilishi bilan ana shu deyktik birlik ishora qilgan obyektni qidirishga tushadi. Bu holat deyktik birlikni aktuallashtiruvchi vosita sifatida namoyon qiladi. Ma’lumki, deyksis tadqiqiga bag‘ishlangan dastlabki ishlarda shaxs, zamon, makon deyksisi ajratilgan. So‘nggi yillarda deyksis turli tillar doirasida chuqurroq o‘rganilishi natijasida uning yangi turlari belgilandi. Deyksis turlari ba’zi ishlarda nutqiy akt imkoniyatlari va xususiyatlaridan kelib chiqib belgilangan bo‘lsa, ayrim tadqiqotlarda deyktik birliklarning vazifaviy xususiyatlari, ishora obyektini ko‘rsatish belgisiga ko‘ra tasniflandi. Deyksisning an’anaviy shaxs, zamon, makon deyksisi turlari deyktik birliklarning ishora obyektini ko‘rsatish belgisi asosida ajratiladi. Deyksis tadqiqiga bag‘ishlangan

keyingi tadqiqotlarda me'yoriy holat va baho deyksisi, emotsional deyksis, diskurs deyksisi, sotsial deyksis, denotativ, kommunikativ deyksis, predmet deyksisi, miqdor deyksisi ajratilib, har birining mohiyati ochib berildi.

Deyksis hodisasining pragmatik mohiyatini va uning mazmun ifodalash imkoniyatining bevosita muloqot matni bilan bog'liq ekanligini S.Levinson quyidagicha ta'riflaydi: «Aslini olganda, deyksis tilda nutqiy harakat konteksti yoki nutqiy hodisa xususiyatlarining aks topishi va grammatikallashuviga (grammaticalization) taalluqlidir. U (deyksis), xuddi shuningdek, muloqot matni tahlili bilan bog'liqdir. Shunga nisbatan this («bu») olmoshi biror bir real mavjud ob'yektni atamaydi; to'g'rirog'i, u aniq bir kontekstda so'z yuritilayotgan voqelik ob'yektining o'rindoshidir» ([Levinson 1983: 54]

O'zbek tilshunosligida deyksisning tasniflanishi dastlab S.Rahimovning qiyosiy-tipologik aspektdagi tadqiqot ishida kuzatiladi. Olim o'zbek tilida shaxs, zamon va makon deyksislari qatorida me'yoriy holat va baho deyksisi mavjudligini ham ta'kidlaydi. Uning fikricha, insonning me'yoriy holati uning harakati, holatining o'zgarishiga nisbatan deyktik markaz vazifasini bajaradi. Jumladan, ingliz tilidagi «come» va «go» fe'llarining asosiy ma'nolaridan tashqari me'yoriy holatga ishora qila olish xususiyatiga egaligi ularni deyktik birlik ekanligini ko'rsatadi.

Sh.Safarov o'zbek tilida deyksisning an'anaviy tarzda ajratilgan shaxs, zamon, makon deyksisi turlari qatoriga emotsional, diskurs, sotsial deyksis kabi turlarini kiritgan. Shu bilan bir qatorda deyksis hodisasining o'rganilishi borasida juda qimmatli fikrlarni aytib o'tgan: Til va nutqning tizimiy munosabatlari negizida lisoniy birliklarning ma'no va mazmun munosabati, boshqacharoq aytganda, semantika va pragmatikaning uyg'unlashuvi yuzaga keladi. Masalan, *«Bu kitob qiziqarli»* gapining mazmunini, axborot uzatish jarayonidagi qiymatini aniqlash uchun aynan qaysi kitob haqida so'z ketayotganligini bilish kerak bo'ladi. Ushbu gapning propozitiv ma'nosiga «bu» deyksisi qo'shimcha qiymat bag'ishlagan va shu vosita uning mazmunini muloqot matnida voqelanishiga ko'mak beradi. Xuddi shuningdek, *«Taqsirimga ovqat suzib beraymi?»* gapining ona lahjasida eshitilishi bolaga nisbatan mehrni ifodalovchi emotsional deyksis hodisasini ifodalaydi. Ayrim mutaxassislar deyksisning kinoya (ironiya) mazmunida qo'llanishi sifatida qarayotgan ushbu hodisani til tizimi zahirasining nutqiy muloqot tizimida faollashuvi natijasida yuzaga keladigan hodisalar qatoriga kiritganimiz ma'qulroqdir. [Safarov Sh.,2008;218.]

G.Boltaqulova ingliz-o'zbek tillarida zamon deyktik birliklarining xususiyatlarini o'rganish asosida bu tillarda temporal deyksisning ifodalanishini ko'rsatgan. O'zbek tili misolida deyktik vositalar yordamida temporallik quyidagicha ifodalanadi:

1. *Shunda* yordamida: *Ha oson bo'lmadi-dedi Maxsumga. – Birinchi yil o'qishga bali yetmadi. Dadam hisobchiga shogird qilib qo'ydilar. Shunda kattalar nima desa, bo'yin tovlamay bajarib yurdim* (NR,44).

2. *Shu vaqt*: *Nega shu bola gapi o'rolida o'ynab qo'yay, deydi? Kim biladi. Ziyod degichi gap o'rolida, masalan, deydi. Shunday gapda. Shu vaqt joy janjali bo'ladi* (TM, 47).

3. *Bir mahal*: *Allamahaldan keyin birgadir bir muajesanni, mulloni ergashtirib, ... borishibdi. Bularni ko'rib, boshqalar ham ergashishibdi. Bir mahal .... Inidan jaranglagan g'ayritabiiy ovoz chiqibdi* (NR, 49).

4. *Hozir*: *O'rta maktabda oyim bilan dadamning tahdidlaridan cho'chib dars tayyorlar edim. Hozir ko'p o'qimayman ham: leksiya paytida qulog'imda qolgan gaplarni takrorlab «uch» – «to'rt» olaman* (NR,46).

5. *Saldan keyin*: *Saldan keyin esa o‘ziga kelib ketidan yugurdi* (ShJ,346).

6. *Ot+-da*: *Keyingi kun yana o‘sha yerda qoq tushda ko‘rishishdi* (ShJ,374). [Boltaqulova G.,2018;19.]

Deyksis tasnifiga doir ilmiy manbalar tahlili asosida aytish mumkinki, deyksis turlarini belgilashda uni hosil qiluvchi deyktik birliklarni belgilash muhim o‘rin tutadi. Deyktik birliklar tilning ishoraviy birliklari ekan, ularning, avvalo, nimaga ishora qilishini aniqlash muhim. Bu jihatdan, ya’ni deyktik birliklarning ishora ob’yektiga ko‘ra o‘zbek tilida deyksisning quyidagi turlarini farqlash mumkin:

1) nutqiy akt ishtirokchilari: so‘zlovchi, tinglovchi va o‘zgaga ishorani anglatuvchi deyksis – shaxs deyksisi;

2) borliqdagi narsa-predmetga ishorani anglatuvchi deyksis – predmet deyksisi;

3) narsa-predmet, harakat belgisiga ishorani anglatuvchi deyksis – belgi deyksisi;

4) narsa-predmet, harakat miqdoriga ishorani anglatuvchi deyksis – miqdor deyksisi;

5) voqelikning yuzaga chiqish o‘rni, muloqot ishtirokchilari turgan makonga ishorani anglatuvchi deyksis – makon deyksisi;

6) voqelikning yuzaga chiqish vaqti, muloqot kechayotgan paytga ishorani anglatuvchi deyksis – zamon deyksisi;

7) nutqiy akt ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeiga ishorani anglatuvchi deyksis – ijtimoiy holat deyksisi;

8) nutqiy muloqot ishtirokchilarining emosional holatiga ishorani anglatuvchi deyksis – emosional deyksis;

9) obyektiv borliqdagi vaziyatga, voqelikka ishorani anglatuvchi deyksis – propozitiv deyksis;

10) matnning muayyan tarkibiy qismiga ishorani anglatuvchi deyksis – diskurs deyksisi.

Deyksisning qayd etilgan turlari nutqda o‘zbek tilining fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sath birliklari orqali hosil bo‘ladi. Albatta, o‘zbek tilidagi deyksisning bunday turlari va ishora birliklarining har biri alohida tadqiq obyekti bo‘la oladi. Deyksis turlari masalasiga doir ilmiy manbalarda deyksisning turlicha yondashuvlar asosida tasniflanishi kuzatiladi. Deyksisning qayd etilgan barcha turlari uning qaysidir jihatini ochib berishga xizmat qiladi. Jumladan, emosional, ijtimoiy holat deyksislari nutqiy muloqot ishtirokchilarining turli belgilariga ishorasi bilan deyksis ob’yektini kengaytiradi. Demak, deyksisning ishoraviylik vazifasi ko‘p tarmoqli. Har bir tarmoqni o‘rganish esa deyksis mohiyatining to‘liq ochib berilishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008.
2. Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри .дисс. – Тошкент, 2001.
3. Болтақулова Г.Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида темпораллик ва унинг дейктик хусусиятларининг қиёсий-функционал тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа док. дисс. автореф. – Тошкент, 2018.
4. Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разносистемных языках. – Ташкент.: Фан, 1989

5. Умурзоқова М. Дейктик белгили сегмент қурилмалар прагматикаси // НамДУ илмий ахбороттномаси. – Тошкент, 2019. – №11. – Б. 163-167.
6. Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разносистемных языках. – Ташкент.: Фан, 1989.
7. Мисайлова Т.И. Дейксис как актуализация компонентов речевой ситуации и денотативного содержания в повествовательном и описательном художественных текстах: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Улан-Уде, 2005.
8. Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик бирликлари: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2020.
9. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge.: Cambridge Univeristy Press, 1984.
10. Kurbanova M., Yuldashev M. Text linguistics. – T.: “Zamon poligraf” OK, 2024.
11. Surayyo, S. (2023). BADIIY MATNDA PERSONAJ LISONIY SHAXSINING NAMOYON BO’LISHI. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 1071-1076.
12. D.Sarbarova ANALYSIS OF UNUSUAL TYPES OF DEIXIS IN POEMS BY USMON AZIM "Science and innovation" international scientific journal https://zenodo.org/records/7443795
13. Xomidova, M. F. (2019). The problem of intertextuality in modern linguistics. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3(4), 259-263.

ALLYUZIV BIRLIKLARNING MAZMUNIY VA SHAKLIY XUSUSIYATLARIGA KO‘RA TURLARI TAHLILI

Karimova Mastura Ablaxat qizi
O‘zbekiston Milliy Universiteti
“O‘zbek tilshunosligi”kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: karimovam94@mail.ru

Saidova Farida Allayor qizi
Renessans ta'lim universiteti
Filologiya kafedrasi v. b.dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: saidovafarida95@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada allyuziya hodisasining yuzaga kelish omillari misollar yordamida ochib berilgan. Allyuziv birliklarning shakliy jihatdan ifodalanishiga ko‘ra turlari badiiy matnlardagi misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: allyuziya, allyuziv nom, allyuziv matn, allyuziya denotati, allyuziya ko‘rsatkichi, allyuziya manbasi, allyuziv so‘z, allyuziv birikma, allyuziv gap

Аннотация: В статье с помощью примеров раскрываются факторы возникновения феномена аллюзии. На примере художественных текстов проанализированы типы аллюзивных единиц по их формальному выражению.

Ключевые слова: аллюзия, аллюзивное имя, аллюзивный текст, аллюзивное обозначение, аллюзивный указатель, аллюзивный источник, аллюзивное слово, аллюзивное соединение, аллюзивное предложение.

Annotation: Using examples, the article reveals the factors in the emergence of the phenomenon of allusion. Using the example of literary texts, the types of allusive units are analyzed according to their formal expression.

Keywords: allusion, allusive name, allusive text, allusive designation, allusive index, allusive source, allusive word, allusive connection, allusive sentence.

Bugungi kunda badiiy matn tahliliga oid izlanishlar orasida allyuziv birliklar ham muhim ahamiyatga ega. Allyuziya muayyan til birligi vositasida biror adabiy yoki ijtimoiy-tarixiy faktga ishora qilishdan iborat uslubiy figura hisoblanadi.

Tilshunos olimlaridan E.Y. Abramova, O.S. Axmanova, I.V. Gubbenet, E.M. Dronova, A.S. Evseeva, M.I. Kiose, A.G. Mamaeva, L.A. Mashkova, I.G. Potylitsyna, E.V. Rosen, I.N. Sofronova, Z.Porat va boshqa tilshunos olimlar bu borada o‘z fikrlarini bildirganlar. O‘zbek tilshunosligida M.Kurbanova, M.Yo‘ldoshev, D.Xudoyberganova, N.Turniyozov, S.Boymirzayeva, E.Qilichev, M.Mamajonov, M.Xomidovalarning ilmiy tadqiqotlarida allyuziya bilan bog‘liq nazariyalarni uchratamiz.

Allyuziya hodisasini yuzaga keltirishda bir qator omillar ahamiyat kasb etadi: *allyuziya denotati, allyuziya ko‘rsatkichi, allyuziya manbasi.* Matn muallifi o‘z g‘oyasini dalillash maqsadida qaysidir tarixiy fakt yoki shaxsga ishora qilishi mumkin. Bunda uning xotirasidagi bilimlari yordamga keladi. Badiiy matn mazmunini to‘ldirishda ko‘maklashuvchi unsur- ishora qilingan matn yoki ijtimoiy-tarixiy fakt *allyuziya denotati* hisoblanadi. Allyuziv matndagi muayyan adabiy yoki ijtimoiy-siyosiy faktga ishora qilib keluvchi, til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan lisoniy birlik *allyuziya ko‘rsatkichi* sanaladi. Agar allyuziv matndagi allyuziya ko‘rsatkichlari muayyan manbaga qayd etilgan bo‘lsa (masalan, badiiy, ilmiy asar, mif, folklor namunasi tarkibidagi matn, Qur’oni Karim oyatlari, hadislarda), u holda *allyuziya manbasi* ham mavjud bo‘ladi. Chunki allyuziya individual holatda yuzaga chiqmaydi. Uni xalq tushunishi, undan xabardor bo‘lishi lozim. Buni M.Yusufning “Kumush”she’ridan olingan parcha orqali tahlil qilish mumkin.

Toshkent*ga qiz berma,* ***Marg‘ilon****,*
Qodiriy *yo‘q.* ***Zaynab****lar tirik. (M.Yusuf)*

Matnda A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar”romani xotimasidagi Kumushning Zaynab tomonidan zaharlanishi voqeasi allyuziya denotati vazifasini bajargan. Toshkent, Marg‘ilon, Qodiriy, Zaynab antroponim va toponimlari esa allyuziya ko‘rsatkichlari sanaladi. Allyuziya manbasi sifatida romanning o‘zini olishimiz mumkin.

Allyuziya ko‘pqirrali hodisa sifatida uni tahlil qilish, turlarga ajratishni talab qiladi. Alluziya turlarini belgilashga doir jahon tilshunosligda juda ko‘p izlanishlar amalga oshirilgan. O‘zbek tilshunosligida M.Xomidova alluziya hodisasiga to‘xtalar ekan, uni 5ta turga ajratadi: diniy, tarixiy, badiiy, mifologik, ijtimoiy-maishiy. D.Xudoyberganovaning “Zamonaviy tilshunoslik teminlari lug‘ati”da esa 4ta tur: allyuziv antroponim, allyuziv toponim, allyuziv kosmonim, allyuziv zoonim kabilar izohlab beriladi. Ushbu tasniflarni shartli ravishda allyuziyaning mazmuniy jihatidan turlari deb oldik. Chunki allyuziya ko‘rsatkichlari shakliy jihatidan ham tahlilni talab qiladi. M.Mamajonov tomonidan ularning 3 turi farqlanib tahlil qilingan:

a) allyuziv so‘z
b) allyuziv birikma
c) allyuziv gap.

Allyuziv so‘zlar bir leksemaga teng bo‘lib, ular aksariyat hollarda toponim, antroponim, zoonim, kosmonimlar bilan ifodalanadi. Masalan,

Marg‘ilon*da* ***Kumush****ni ko‘rdim,*
Ko‘ziga yosh to‘lib turibdi,
Sochlarini maydalab o‘rib,
Otabegin *izlab yuribdi.(M.Yusuf)*

Allyuziv so‘zlar orasida antroponim va toponimlar asosan she’riy matnlarda faol qo‘llaniladi. Chunki bunday matnlarda vazn talabi ham mavjud. Matn muallifi qisqa jumlalar orqali g‘oyasini yetkazishga harakat qiladi.

G‘irot *mingan Go‘ro‘g‘li*
Bobom qani, aytinglar,
Qo‘ng‘irotlik Alpomish
Og‘am qani, aytinglar…(M.Yusuf)

Zoonimlar ham badiiy matnda allyuziv nom vazifasini o‘taydi. Har bir millatda bo‘lganligi kabi, o‘zbek xalqida ham hayvonlarga mehr, g‘amxo‘rlik, do‘stlik tuyg‘ulari mavjud. Ular orasida otlar, qushlar bilan bog‘liq voqealar alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq og‘zaki ijodiga mansub dostonlar matnida Boychibor, G‘irko‘k, G‘irot zoonimlari uchraydi. Yuqoridagi matnda ham Go‘ro‘g‘lining aynan o‘zi emas, uning oti bilan birgalikdagi xususiyatlariga ishora mavjud. Chunki xalqimizda yigit kishining ot minishi mardlik, jasurlik, abjirlik belgisi hisoblangan. Zoonim allyuziv birliklar orasida mifologik xarakterli Humo qushi bilan bog‘liq o‘rinlar ham ko‘p uchraydi.

*Sen-ku **Zuhrosan** falakda,*
Intizoringman faqat,
Ne ajab talpinsa ko‘nglim,
Yo‘q emish orzuda ayb. (E. Vohidov)

Badiiy asarlarda oshiq ma’shuqasining sifatlarini berishda osmon jismlariga qiyoslaydi, quyoshim, oyim, yulduzim kabi. Yuqoridagi allyuziv matndagi kosmonimik allyuziya Venera sayyorasi (Zuhro yulduzi) allyuziv so‘z shaklida kelmoqda.

Va birdan sezasan: odamlar emas,
Kemalar ko‘chada o‘tmoqda suzib–
Ishxonaga emas, mayxonaga emas,
***Amerika ochgani** ketmoqda ular.*
Ularni hayqirib tabriklaging kelar,
Va birdan anglaysan:
Sen ham bir Kolumb. (U.Azim)

Allyuziv birikmalarda esa ayrim ishora qilinayotgan shaxs, voqea, faktlarning birikma tarzida kelishi orqali ifodalanadi. Ayrim allyuziv nomlar bilan birgalikda ularning mashhur xususiyatlari, ayrim predmetlar ham kelishi mumkin.

Kumushbibi shu choqg‘acha qaramag‘an va qarashni ham tilamagan edi. Majburiyat ostida, yov qarashi bilan sekingina dushmaniga qaradi... Shu qarashda bir muncha vaqt qotib qoldi. Shundan keyin bir necha qadam bosib Otabekning pinjiga yaqin keldi va esankiragan, hayajonlang‘an bir tovush bilan so‘radi:

-Siz o‘shami?

*-**Men o‘sha,** -dedi bek.*

Ikkisi ham bir-birisiga beixtiyor termulishib qoldilar. Kumushbibi og‘ir tin olib:

- Ko‘zlarimga ishonmayman, dedi. Otabek ko‘zlarini to‘ldirib qarab:

-Men ham, -dedi.(O‘tkan kunlar:33 bet)

Jahon tilshunosligida L. Kramer allyuziya turlarini tahlil qilar ekan, “o‘ziga yo‘nalgan allyuziya” turini ham alohida keltirib o‘tgan. Bunda muallifning o‘z asarlaridan biriga qilgan ishorasi berilgan matnni qahramonlar xarakteri, voqealar rivoji yoki holatning umumiyligi birlashtirib turadi. Mashhur “O‘tkan kunlar” romanida ham muallif o‘z asari ichidagi voqeaga ishora qilmoqda va bu allyuziv gap shaklida kelgan. Kumushbibining “Siz o‘shami?” degan savoli ularning ilk uchrashuvi voqeasiga ishora edi:

“...Otabek Marg‘ilon kelganning ikkinchi kuni poyafzal bozorida bo‘lg‘an edi.... Otabek do‘kondorning ko‘rsatishicha qutidorning tashqarisig‘a kirdi. Shu vaqt tasodufan nima yumish bilandir mehmonxonadan chiqib kelguchi farishtaga ko‘zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasig‘a

kelib to‘xtag‘an chingilin yigitka beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g‘ayri ixtiyoriy ikkisi ham bir-birisidan bir muncha vaqt ko‘z ololmadilar....” .(O‘tkan kunlar:35 bet)

Matn tahlilida bir qator allyuziya turlarini aniqlash mumkin. Bu borada tadqiq ostiga olinishi kerak bo‘lgan o‘rinlar ham talaygina.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, allyuziya hodisasini matn tuzuvchining “individual mavzulashtirilgan mundarijasi” deyish mumkin. Chunki har bir adresant adresatga yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oyasini, estetik ta’sirini oshirishga yordam beradigan antroponim, toponim, asar, qahramonlar nutqidan parchalarni bir joyga jamlaydi. Matndagi ishora birliklarini tahlil qilish orqali har bir millat, xalqning hayot tarzi, tarixiga ham to‘xtalamiz. Biror tilni, madaniyatni o‘rganishda ham bu usul katta yordam beradi. Allyuziya turlari har bir millat, xalq uchun turlicha talqin qilinadi. Keltirilgan fikrlar yana vaqt o‘tishi bilan yangicha tus olishi hech ajablanarli hodisa emas. Chunki adabiyot(badiiy matn) yangilanar ekan, uning tahlili ham yangilanib boraveradi. Allyuziv birliklarni keltirish matnga lo‘ndalikka; ko‘p ma’lumotni jamlay olishga; qisqa so‘zlar bilan turli vaqtni, zamonni, toponimlarni, antroponimlarni sodda ifodalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kurbanova, M. (2016). Matn nazariyasining dolzarb muammolari 6. *O'zMU xabarlari*.
2. Kurbanova, M. M., & Xomidova, M. F. (2024). The Influence Of Allusive Names On The Perception Of Artistic Text. SPAST Reports, 1(1).
3. Xomidova, M. F. (2019). The problem of intertextuality in modern linguistics. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3(4), 259-263.
4. Xujamkulova Maxbuba Bobonazarovna. Question Classification of Speech Act in Speech//Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 24 May 2022. ISSN 2694-9970. 8. Kurbanova M.M., Xujamkulova M.B. COMMUNICATIVE-
5. Karimova, M. (2023). The history of the development of allusion and its importance in literature. *Golden Brain*, *1*(10), 275-279.
6. qizi Karimova, M. A. (2023). MUHAMMAD YUSUF SHE’RLARIDA NAVOIY ANTROPINIMINING TARIXIY ALLUZIYA SIFATIDA QO ‘LLANILISHI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(16 SPECIAL), 287-289.
7. Surayyo, S. (2023). BADIIY MATNDA PERSONAJ LISONIY SHAXSINING NAMOYON BO’LISHI. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 1071-1076.
8. М.Мамажонов. (2020)АЛЛЮЗИВ АНТРОПОНИМЛАР ВА УЛАРНИНГ БАДИИЙ МАТНДА КЎЛЛАНИЛИШИ. FarDU.Ilmiy xabarlar.
9. M. Yusuf. She’rlar. Elektron kitob.
10. E.Vohidov. She’rlar. Elektron kitob.
11. U.Azim. she’rlar. Elektron kitob.
12. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: Шарқ, 2004.

ULUG‘BEK HAMDAM ASARLARIDA INTERTEKSTUAL BIRLIKLAR TAHLILI

Toshpo‘latova Nilufar Abdug‘ani qizi
O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: nilufarmagistr@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotimizda intertekstuallik hodisasi, shuningdek, intertekstuallik tushunchasining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning tadqiqi xususida so‘z yuritdik. Badiiy matnning tub mohiyatini anglab yetishda intertekstuallikning qay darajada ahamiyat kasb etishi haqida to‘xtalib o‘tdik. intertekstuallik hodisasining Ulug‘bek Hamdam asarklaridan keltirilgan parchalar tahlili yordamida yoritishga harakat qildik.
Kalit so‘zlar: psixolingvistika, intertekstuallik, allyuziv nom, allyuziya, sitata, epigraf.

Annotation: In this study, we talked about the phenomenon of intertextuality, as well as specific features of the concept of intertextuality and their research. We talked about how important intertextuality is in understanding the essence of the artistic text. we tried to illuminate the phenomenon of intertextuality with the help of the analysis of excerpts from the poems of Ulugbek Hamdam.
Keywords: psycholinguistics, intertextuality, allusive name, allusion, epigraph.

Аннотация: В данном исследовании мы говорили о явлении интертекстуальности, а также об особенностях понятия интертекстуальность и их исследовании. Мы говорили о том, насколько важна интертекстуальность в понимании сути художественного текста. феномен интертекстуальности мы попытались осветить с помощью анализа отрывков из стихотворений Улугбека Хамдама.
Ключевые слова: психолингвистика, интертекстуальность, аллюзивное имя, аллюзия, цитата, эпиграф.

XX asrning so‘nggi choragida tilshunoslik va adabiyotshunoslik ilmiga **intertekstuallik** tushunchasi kirib keldi. Intertekstuallik atamasi 1967-yilda Yu. Kristeva tomonidan fanga olib kirgan. Kristeva o‘zining intertekstualizm konsepsiyasini M.Baxtinning *“Проблема содержания, материала и формы в словесном художественном творчестве”* asarini qayta ko‘rib chiqish asosida ishlab chiqdi. Intertekstuallik tamoyilining nazariy asoslari Tinyanov, Baxtin, Kristeva, Fomicheva, Smirnov, Fateeva, Stepanov, Shaxovskiy, Shirova, Axmanova, Gyubbenet, Valgina, Babenko va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular o‘z ishlarida intertekstuallikning mohiyati, turlari xususida turli qarashlarni ilgari surganlar.

Intertekstuallik atamasi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib *to‘qish paytida aralashtirish, o‘rta matn* degan ma’nolarni anglatadi. “Har qanday matn o‘tmishdagi iqtiboslarning yangi to’qimasi ” – shaklida fikr yuritish Roland Bart tomonidan “muallif o’limi” tushunchasini ishlatish uchun asos bo’ldi. “Muallif o’limi” atamasi bu asar muallifini inkor etadi. Ular yaratgan matn eski iqtiboslarning yangi ko‘rinishi ekanligini aytishadi.

Lug‘atlarda intertekstuallik tushunchasiga shunday ta’rif beriladi: “Intertekstuallik bu-matn ma’nosining boshqa matn orqali shakllanishidir. Intertekstuallik allyuziya, sitata, plagiat, tarjima, sitilizatsiya, parodiya kabilarni o‘z ichiga oladi”

Bu o‘rinda intertekstuallik qanday hodisa ekanligi ta’riflanishi bilan birga, uning tarkibi, turlari hamda u bilan bog‘liq tushunchalar ham sanab o‘tilgan. Intertekstuallik nazariyasi bilan shug‘ullangan N.Pege-Gro “Введение в теорию интертекстуалности” asarida fransuz olimi Labruyerning quyidagi fikrlarini keltiradi: “Hamma narsa allaqachon aytib bo‘lingan, biz shunchaki kech tug‘ildik. Chunki odamlar yetti ming yildan ko‘proq vaqt davomida yer yuzida yashab, o‘ylashadi”. Olim Labruyerning bu fikrlarini intertekstuallik qanday hodisa ekanligini tushuntirishda misol sifatida keltiradi. Bu fikrlar bevosita matn nazariyasiga ham bog‘liq ekanligi, mutlaqo yangi matn yaratishning imkoni yo‘qligi shu qarash orqali tushuntiriladi.

Hozirgi kunda intertekstuallik atamasi tilshunosligimizga ham qisman kirib keldi. Albatta, biz bu atamani g‘arbdagi singari to‘laligicha qabul qila olmadik. Bu xususida U.Hamdamning “Muallif o‘limiga siz ham ovoz berasizmi?” nomli maqolasi e’lon qilindi. Bu mavzuda U.Hamdam “muallif o‘limi”ga qarshiligi, albatta, adabiyotimizda matnlararo munosabat borligini, lekin tamomila muallifni chetda qoldira olmasligimizni, har qanday yozuvchi eski matnlardan foydalangan holda o‘zining shaxsiy his-tuyg‘ularini ham ijod mahsuliga qo‘shishini ta’kidlaydi. “Inson borki, hayotni atrof-javonibdan, tabiatdan, o’zidan kattalarning tajribasidan o’rganadi, o’z tegrasidagi borliqni kuzatadi, unga ergashadi, taqlid qiladi. Keyin shoir “Izlab chiqdim men o‘z yo’limni” degandek, asta-sekin o‘zinikini qidirib yo‘lga tushadi”.

Intertekstuallik borasidagi ilmiy izlanishlar o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida asta-sekin rivojlanmoqda. Xususan, M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasining 2.2-fasli “Badiiy matning mazmuniy turlari va intertekstuallik” deb nomlangan. Tadqiqotchi intertekstuallik badiiy matnning muhim nuqtalardan biri ekanligini qayd etib, unga shunday ta’rif beradi: “muayyan badiiy matn tarkibida o’zga matnlarga daxldor unsurlarning mavjudligi shu matnning intertekstualligidir” . M.Yo‘ldoshev o‘z tadqiqotida o‘zbek badiiy matnlarida uchrovchi intertekstual birliklar: sarlavha, epigraf va sitatalarni tahlil qiladi va badiiy matnlarda uchrovchi xalq urf-odatlari, milliy o’ziga xos xususiyatlarni ham intertekstual matnga ishora sifatida baholaydi.

Ulug‘bek Hamdamning serqirrra va mazmundor ijodi qator tilshunos va adabiyotshunos olimlar, magistrantlar tomonidan o‘rganilgan. Ulug‘bek Hamdam ijodiyotida o‘ziga xos individual leksik birliklar, allyuziyalar, epigraflar ham mavjudki, bu holat adibning fikr ummoni qanchalar keng va purma’no ekanligiga dalolatdir. Adib o‘z asrlarini boshqa asarlarlar bilan zo‘r mahorat bilan munosabat o‘rnatganki, o‘quvchi adib asarlari persepsiyasini osongina anglab oladi.

Keling endi Ulug‘bek Hamdam asarlarida intertekstual birliklar tahliliga o‘tsak.

Quyida keltirilgan Ulug‘bek Hamdamning “Xudoyimni sog‘indim” nomli she’ridan keltirilgan parchada reminissensiya hodisasini kuzatishimiz mumkin.

"Tushimda ko‘rdim seni,
Birga olib ket, meni..."
Ey afsona ruh — sevgi!
Qismatimni suy endi.
Xudoyimni sog‘indim...
Tushimda ko‘rdim seni...

Xayolingga tutildim,
Turmushimni unutdim.
Borar joyim yo‘q endi,
Birga olib ket meni!..

Reminissensiya (lotincha: Reminiscentia — eslash)— eses xotirlash; inson ilgari hayotda uchratib o‘rgangan narsa va hodisalarni, fikrlar, so‘zlar, voqealarni tusmollab eslashi. Badiiy matnda ijodkorning boshqa ijodkor asarlaridan misra keltirishiga aytiladi.

Intertekstuallikning keng tarqalgan yana bir turi allyuziv birliklardir. Quyidagi she’riy parchada tarixiy allyuziv nomni ko‘rishimiz mumkin.

samolarda aylanib uchgan
kirsiz-kirsiz havoni quchgan
so‘ngra ona zamin bag‘riga
kapalakdek ohista tushgan
qor kabi
shu qor parchasining kechmishi kabi
o‘tsa edi qismatimiz ham deya
niyat qilmoqlik uchun
Muhammadning qalbidek toza
yurak zarur ummatiga ham.

Allyuziya atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Allyuziya (lot. allusio – ishora, hazil) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usul. Mohiyatan sharq mumtoz she’riyatida keng qo‘llanilgan talmeh san’atiga yaqin keladi. Farqli jihati shuki, talmehda ko‘proq mashhur tarixiy va badiiy faktlarga ishora qilinsa, allyuziyada ijodkor o‘z zamonasidagi siyosiy, maishiy yoki badiiy faktlarga ishora qilishi ham mumkin. Ya’ni allyuziyada ishora obyektining doirasi kengroq”.[17]

Adibning quyidagi “Tun va kun oralig‘ida” she’rida mifologik allyuziv birlikni kuzatishimiz mumkin.

Tunda hamma narsa boshqacha ko‘rinadi ko‘zimizga
Olam huddi onagdayin mushfiq bo‘ladi
Go‘yo azaliy jangda *Axuramazda* g‘olib chiqqanu uning g‘alabasi abadiydek…

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, intertekstual birliklar qaysi ijodkor asarida qo‘llanilmasin uning badiiy-estetik salohiyati va poetik mahoratidan dalolat beradi. intertekstual birliklar vositasida xoh katta, xoh kichik axborot ixcham ko‘rinish bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘pchilik uchun ma’lum bo‘lgan axborotlarning qaytadan kiritilishiga hojat qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kurbanova M., Yuldashev M. Text linguistics. – T.: Университет, 2024.
2. Yo‘ldoshev M., Saparniyozova S.Muhammedova. Matn lingvistikasi. – T.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2021.
3. Қурбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. – T.: Университет, 2014.

[17] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adaiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B 27.

4. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Т.: Фан, 2008.
5. Мамажонов А. Матн синтаксиси. – Фарғона, 2016.
6. Toshpo‘latova, N. A. qizi. (2022). ULUG‘BEK HAMDAM ASARLARIDA QO‘LLANILGAN PERIFRASTIK BIRLIKLARNING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(6), 332–335. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2566
7. Toshpo‘latova, N. (2023). ANALYSIS OF PHRASES EXPRESSING EMOTIONAL-EXPRESSIVE ATTITUDE IN THE UZBEK LANGUAGE. Educational Research in Universal Sciences, 2(11), 65–72. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/4811

O‘ZBEK TILI IERARXIK KORPUSI(TREEBANKI) DA TEGLASH TUSHUNCHASI VA UNING NLP DAGI ROLI

Raximboyeva Xulkar G‘ayratovna
O‘zbekiston Milliy Universiteti tayanch doktoranti.
E-mail: h.rahimboyeva@nuu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek tili ierarxik korpusida teglarni o'rganadi, uning ahamiyati va NLPdagi potentsial ilovalari, jumladan, mashina tarjimasi, sentiment tahlil qilish, chat botlari va nutqni aniqlashni tushuntiradi. O‘zbek tilining aglutinativ xususiyatini aniqlash uchun morfologik teglash, so‘z munosabatlarini aniqlashtirish uchun sintaktik bog‘liqlik teglari va so‘zlarni sintaktik vazifalariga ko‘ra yorliqlash uchun nutq bo‘lagi (POS) teglari o‘zbekcha daraxtsimon teglarining asosiy jihatlaridan iborat. Ma’lumotlar tanqisligi, dialektal o‘zgaruvchanlik va morfologik murakkablik kabi muammolar ko‘rib chiqiladi. Oxir oqibat, keng qamrovli o‘zbek daraxt bankini yaratish o‘zbek NLP ilovalarini ilgari surish uchun asos bo‘lib, o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarga raqamli kontekstda yaxshiroq xizmat ko‘rsatish uchun aniq, lingvistik jihatdan xabardor vositalarni ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: Treebank, usul, morfologiya, teglar, jihatlar, muammolar, kontekstlar.

Annotation: This article delves into Uzbek treebank tagging, explaining its significance and potential applications in NLP, including machine translation, sentiment analysis, chat bots, and speech recognition. Key aspects of Uzbek treebank tagging include morphological tagging to capture the agglutinative nature of Uzbek, syntactic dependency tagging to clarify word relationships, and part-of-speech (POS) tagging to label words based on their syntactic functions. Challenges such as data scarcity, dialectal variability, and morphological complexity are addressed. Ultimately, building a comprehensive Uzbek treebank is foundational for advancing Uzbek NLP applications, enabling accurate, linguistically aware tools to better serve Uzbek speakers in digital contexts.

Keywords: Treebank, tool, morphology, tagging, aspects, challenges, contexts.

Аннотация: В этой статье подробно рассматривается узбекская маркировка деревьев, объясняются ее значение и потенциальные применения в НЛП, включая машинный перевод, анализ настроений, чат-боты и распознавание речи. Ключевые аспекты маркировки узбекских деревьев включают морфологическую маркировку для отражения агглютинативной природы узбекского языка, маркировку синтаксических зависимостей для уточнения отношений слов и маркировку части речи (POS) для маркировки слов на основе их синтаксических функций. Рассматриваются такие проблемы, как нехватка данных, диалектная изменчивость и морфологическая сложность. В конечном счете, создание всеобъемлющего древовидного банка узбекского языка имеет основополагающее значение для продвижения узбекских приложений НЛП, предоставляя точные, лингвистически ориентированные инструменты для лучшего обслуживания носителей узбекского языка в цифровых контекстах.

Ключевые слова. Древовидный банк, инструмент, морфология, маркировка, аспекты, проблемы, контексты.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) sohasida ingliz tilidan boshqa tillarni qayta ishlash va tushunishga bo‘lgan talab ortib borayotgan bir paytda, o‘zbek tili ham asta-sekin diqqat markaziga tushmoqda. Turkiy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili hisoblash jarayonlari uchun murakkab morfologik tuzilma va turli dialektlarni o‘z ichiga olgan o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O‘zbek tili uchun NLP vositalarini ishlab chiqishda muhim manbalardan biri *O‘zbek Treebank* bo‘lib, bunda matn sintaktik va morfologik tahlilga yordam berish uchun lingvistik ma'lumotlar bilan izohlanadi. Ushbu maqolada o‘zbek treebank teggingi mavzusi, uning ahamiyati va NLPning kengroq kontekstidagi qo‘llanishlari muhokama qilinadi.

Treebank. Tilshunoslik va hisoblash tilshunosligida treebank - bu sintaktik tuzilmalari bilan izohlangan gaplardan tashkil topgan ma'lumotlar to‘plamidir. Bu izohlar odatda so‘z turkumlari (POS) tegginglari, sintaktik bog‘liqliklar va morfologik tafsilotlarni o‘z ichiga oladi. [Daniel Jurafsky & James H., 2019: 35] .Treebanklar mashina o‘rganish modellarini o‘qitishda, masalan, sintaktik tahlil, so‘z turkumlarini aniqlash va hatto tarjima va semantik tahlil kabi yuqori darajadagi vazifalarda juda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tiliga maxsus moslashtirilgan treebank quyidagi afzalliklarni taqdim etadi:

- U o‘zbek tilining morfologiyasi va sintaksisidagi lingvistik nozikliklarni aks ettiradi.
- U o‘zbek tilida so‘zlashuvchilarga mo‘ljallangan NLP vositalarini yaxshilash uchun ma’lumot beradi.
- U o‘zbek matnlari bilan samarali ishlaydigan mashina tarjimasi tizimlari, chatbotlar va qidiruv tizimlari kabi resurslarni yaratishga imkon beradi.

Ushbu misolda "o'qiyapman" (Men o'qiyapman) so'zini morfologik komponentlariga bo'lamiz:

- *So'z: o'qiyapman*
- *Root: o'q (o'qimoq)*
- *Affixlar: -iya (hozirgi davomiylik belgisini), -p (hozirgi zamon belgisini), -man (1-shaxs birlik belgisini)*
- *POS tag: V (fe'l)*
- *Zamon:* Hozirgi davomiy zamon

O‘zbek Treebank Teglarining asosiy Jihatlari

1. Morfologik Tegging. O‘zbek tilining morfologiyasi uning aglutinativ xususiyati tufayli qiyin hisoblanadi, ya'ni so‘zlar ildizlarga qo‘shimchalar qo‘shish orqali hosil qilinadi. Bu morfologiya boy so‘z shakllari va yuqori darajadagi o‘zgarish murakkabligini ta'minlaydi. [Elov B., va boshqa., 2023: 6] Masalan, o‘zbek tilida bitta fe'l ildizi turli zamon, kayfiyat va aspekt belgilariga ega bo‘lgan ko‘plab shakllarni hosil qilishi mumkin.

O‘zbek treebank teggingida har bir so‘z quyidagi uchun tahlil qilinadi:

- *Ildiz: So‘zning asosiy shakli.*
- *Qo‘shimchalar: Ildizni o‘zgartiruvchi prefiks va suffikslar.*
- *POS Tegging: To‘g‘ri so‘z turkumini aniqlash.*

Masalan, fe'l V (fe'l), AOR (hozirgi zamon), PST (o‘tgan zamon) yoki IMP (buyruq kayfiyati) kabi belgilarga ega bo‘lishi mumkin.

2. Sintaktik Bog‘liqlik Teggingi. Sintaktik bog‘liqliklarni aniqlash uchun gapdagi so‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarga e'tibor qaratiladi va bu treebank teggingining markaziy jihatidir. O‘zbek tilida so‘z tartibi biroz moslashuvchan bo‘lgani sababli, bog‘liqlikni tahlil qilish juda muhimdir. O‘zbek treebank teggingi sub’ekt, obyekt va ta'riflovchi kabi grammatik rollarni ko‘rsatish uchun bog‘liqlik munosabatlaridan foydalanadi.
Masalan, "Men kitob o‘qiyman" jumlasida "Men" (men) sub’ekt, "kitob" (kitob) obyekt va "o‘qiyman" (o‘qiyapman) fe'l sifatida teglanadi.

3. POS Tegging va Lemmallashtirish .So‘z turkumi (POS) teggingi har bir so‘zga uning sintaktik roligiga asoslanib teg qo‘yadi, lemmallashtirish esa so‘zni asos yoki lug‘aviy shakliga keltiradi. Ushbu ikki bosqich qidiruv tizimlari kabi NLP ilovalarini yaratishda muhim ahamiyatga ega, bunda so‘rovlar zamon yoki ko‘plikdan qat’i nazar, so‘zning barcha shakllariga javob qaytarishi kerak. Kumar, A. va Singh.,2013: 65]

O‘zbek treebank teggingida odatda umumiy so‘z turkumi tegginglari (otlar, fe'llar, sifatlar, ravishlar va boshqalar) hamda son, kelishik, kayfiyat va boshqa lingvistik xususiyatlar uchun qo‘shimcha belgilarga ega bo‘ladi. Masalan, "o‘qiyapman" so‘zi (men o‘qiyapman) shaxs, son va zamonni aks ettiruvchi belgilar bilan teglanadi.

O‘zbek Treebank Teggingidagi Qiyinchiliklar. Ma'lumot yetishmasligi

O‘zbek treebankini yaratishdagi asosiy qiyinchiliklardan biri - o‘zbek tilida izohlangan ma'lumotlarning yetishmasligidir. Ingliz yoki frantsuz tillaridagi keng qamrovli treebanklardan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida izohlangan resurslar cheklangan, bu esa NLP modellarining ishlashini cheklaydi.

Dialektlarning Farqliligi**.** O‘zbek tilining bir nechta dialektlari mavjud bo‘lib, har biri o‘ziga xos leksik va fonologik xususiyatlarga ega. Standart o‘zbek tili uchun treebank teggingi barcha dialektlarga umumiylashtirilmasligi mumkin, bu tadqiqotchilarni alohida treebanklarni yaratishga yoki dialektlarga xos o‘zgartirishlarni amalga oshirishga undaydi. [Martin Haspelmath va boshqa., 2010: 10].

Morfologik Murakkablik. Aglutinativ til sifatida o‘zbek tili yuqori morfologik o‘zgaruvchanlikka ega. Bu murakkablik so‘zlarni aniq teglashni qiyinlashtiradi, ayniqsa ko‘p qo‘shimchalar birlashtirilgan va jumlada so‘zning rolini o‘zgartirgan hollarda.

*So‘z Tartibining Moslashuvchanligi***.** O‘zbek tilining nisbatan erkin so‘z tartibi sintaktik tahlilni qiyinlashtiradi. Masalan, Sub’ekt-Obyekt-Fe'l (SOV) tartibi keng tarqalgan bo‘lsa-da, jumlalar boshqa tartiblarda ham grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Treebank teggingi ushbu moslashuvchanlikni hisobga olishi va aniq sintaktik tahlilni ta’minlashi kerak. [Kumar, A. va Singh, V. A.,2013: 18]

O‘zbek Treebank Teggingining qo‘llanish soxalari

1. *Mashina Tarjimasi* O‘zbek treebanklari murakkab o‘zbek tilidagi tuzilmalarni boshqa tillarga tarjima qilish uchun zarur bo‘lgan sintaktik va morfologik ma'lumotlarni taqdim etish orqali ishonchli mashina tarjimasi modellarini ishlab chiqishga yordam beradi.
2. *Sentiment Tahlili va Fikrlarni O‘rganish* O‘zbek tilida treebank bilan teglangan matn kontekstga mos grammatik tuzilmalarni taqdim etish orqali sentiment tahlili vositalarini yaxshilashi va foydalanuvchilarning hissiy holatini aniqlashga yordam beradi.
3. *Chatbotlar va Virtual Assistentlar* Sun’iy intellekt asosidagi chatbotlar uchun o‘zbek tilidagi sintaksis va morfologiyani tushunish tabiiy va aniq javoblar yaratish uchun

muhimdir. Treebank ma'lumotlari chatbotning oddiy o‘zbek tilida berilgan so‘rovlarni qayta ishlash qobiliyatini oshiradi.

4. *Nutqni Tanish va Sintez Qilish*. O‘zbek tili uchun nutqni tanish treebank ma'lumotlaridan foydalangan holda so‘zlarni morfologik va sintaktik teglarga xaritaga kiritishda yordam olishi mumkin. Bu esa transkripsiya aniqligini oshirib, ishonchli natijalarni ta’minlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Speech and Language Processing. Daniel Jurafsky & James H. Martin. Copyright c 2019. October 2, 2019.
2. *Natural Language Processing with Python* , Steven Bird, Ewan Klein, and Edward Loper. 2009
3. Elov B., Hamroyeva Sh., Xudayberganov N., Yodgorov U., Yuldashev A. Pos tagging of Uzbek texts using hidden Markov models (HMM) and Viterbi algorithm. O‘zMU xabarlari. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali. 2023 yil Maxsys son
4. Understanding Morphology Martin Haspelmath and Andrea D. Sims . 2010 (2nd edition) London, UK
5. Kumar, A. va Singh, V. A Survey of Part-of-Speech Tagging Techniques 2013 International Journal of Computer Applications

BO‘LAJAK MUHANDISLARDA KASBIY YO‘NALTIRILGAN MULOQOT KOMPETENSIYASINIHG AHAMIYATI

Usmonova Oyistaxon Yuldashaliyevna
ToshDTU “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi dotsenti, p.f.n.
E-mail: oylstaxonusmonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada muloqot kompetensiyasi kasbiy kompetensiya tarkibidagi muhim va mustaqil tizim hisoblanib, o‘zini boshqalar bilan maxsus va alohida sharoitlarda o‘zaro munosabatda bo‘lish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, o‘z holatini to‘liq ocha olish qobiliyati ekanligi hamda bo‘lajak muhandislarda kasbiy yo‘naltirilgan muloqot kompetensiyasinihg ahamiyati katta ekanligi haqida so‘z boradi.

Tayanch so‘z va iboralar: muhandis, muloqot, kompetensiya, mutaxassis, nutq faoliyati, til ta’limi, sohaviy atamalar, texnika tili.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что коммуникативная компетенция является важной и самостоятельной системой в структуре профессиональной компетенции, способностью взаимодействовать с окружающими в особых и особых условиях, контролировать свое поведение, в полной мере раскрывать свое состояние, а также о значении профессионально ориентированной коммуникативной компетенции у будущих инженеров.

Ключевые слова и фразы: инженер, общение, коретенция, специалист, речевая деятельность, языковое образование, профессиональные термины, технический язык.

Abstract: This article discusses the fact that communication competence is an important and independent system in the structure of professional competence, is the ability to interact with others in special and special conditions, control one's own behavior, get a full-fledged education of one's own state, and professionally oriented communication competence is important in future engineers.

Keywords and phrases: engineer, communication, competence, specialist, speech activity, language education, professional terms, technical language.

Kirish

Hozirgi kunda hayotning barcha jabhalarida har bir mutaxassisga yuqori talablar qo‘yilgan. Mutaxassis kompetensiyasi tobora kuchayib, murakkablashib borayotganligi hech kimga sir emas. Bu ijtimoiy tajribaning kengayishi, informatsion axborotni qayta ishlashning yangi shakllarining paydo bo‘lishi, jamiyatning mutaxassisga bo‘lgan talabi tobora ortib borishi bilan izohlanmoqda. Insonlar o‘rtasidagi ma’lumotlar ommalashuvi qabul qilingan axborotni tushunish, yetkazib berish hamda ta’minlashdan hosil bo‘lgan aloqadir. Ammo muloqot axborotni ommalashtirish jarayoni bilan cheklanmaydi. Insonlar muloqoti bilan bir qatorda axborot ham shakllanadi, takomillashadi va rivojlanadi. Shuning uchun muloqotni aloqa jarayonining tomonlaridan biri deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar tahlili

Muloqot insonlar hayoti va faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Muloqotning turli jabhalarida insoniyat ma’lumot olish, faoliyat natijalar ko‘rsatgishi, to‘plangan tajriba va o‘zaro bilim almashuvi, mulohaza, g‘oya va his-tuyg‘ular namoyishini amalga oshiradilar, intilishlar, ehtiyojlar va maqsadlarni muvofiqlashtiradilar, jamiyatni shakllantiradilar, o‘zaro muloqotga kirishadilar. Muloqot kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq. Kasbiy faoliyat bilan bog‘liq turli xil vazifalarni talaba shaxsi fazilatlari ishlab chiqilgan majmuasi sifatida belgilash mumkin. N.A.Muslimov va boshqa tadqiqotchilar kompetentlik tushunchalariga rioya qilgan holda, ushbu sohada faoliyat olib borayotganlar, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari kasbiy kompetentligini shaxs fazilatlari birlashmasini tashkil etish sifatida, keyinchalik ularga muhandislik faoliyatida o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda yordam beradi, deb ta’kidlashgan [2]. Metodist olima G.Asilova “ Bojxona va soliq yo‘nalishlari rus guruhlari talabalarini o‘zbek
tilida kasbiy muloqot yuritishga o‘rgatish” nomli monografiyasida bu masalalar mohiyatini yoritgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada muloqot kompetensiyasi kasbiy kompetensiya tarkibidagi muhim va mustaqil tizim hisoblanib, o‘zini boshqalar bilan maxsus va alohida sharoitlarda o‘zaro munosabatda bo‘lish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, o‘z holatini to‘liq ocha olish qobiliyati ekanligi hamda bo‘lajak muhandislarda kasbiy yo‘naltirilgan muloqot kompetensiyasinihg ahamiyati katta ekanligi haqida so‘z boradi. Mazkur maqolada muammoga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar, pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganish, tizimli-struktur tahlil, kuzatish, suhbat, maxsus pedagogik-psixologik metodikalar usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Muloqot jarayonida umumiy konsepsiya faoliyatining strategiyasi shakllanadi. Muloqot insoniyat shakllanishidagi muhim jabha. Samarali muloqot hamsuhbatlarning o‘zaro bir-birini anglashi, vaziyat va mavzuni yaxshiroq tushunish bilan kafolatlanadi. Shu sababli texnika sohasidagi mutaxassislar uchun muloqot kompetensiyasi muhim sanaladi.

Muloqot – ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo’yicha ma’lumot almashinishidan iborat bo’lgan o’zaro tasir etishidir.

Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzotlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar bir-birlari bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzotlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi.

«Muloqot» tushunchasining turlicha ta’riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo‘lgan axborot almashinuvida ularning o‘zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi. Yoki: muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to‘liq va aniq ta’rifidir.

Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo‘ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda quyidagi nuqtai nazarlar ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar.

Insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bog‘langan. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir. Nutq ta’siri ostida qarashlar, e’tiqodlar, intellektual, ma’naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe’l-atvor shakllanadi. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. SHunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo‘lib, inson tomonidan talaffuz qilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar uyg‘unligidan iborat, ayni vaqtda shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan ma’no va mazmunga ega.

Kasbiy faoliyat bilan bog‘liq turli xil vazifalarni talaba shaxsi fazilatlari ishlab chiqilgan majmuasi sifatida belgilash mumkin. N.A.Muslimov va boshqa tadqiqotchilar kompetentlik tushunchalariga rioya qilgan holda, ushbu sohada faoliyat olib borayotganlar, texnika oliy ta’lim muassasalari talabalari kasbiy kompetentligini shaxs fazilatlari birlashmasini tashkil etish sifatida, keyinchalik ularga muhandislik faoliyatida o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda yordam beradi, deb ta’kidlashgan [2].

Muloqot kompetensiyasi kasbiy kompetensiya tarkibidagi muhim va mustaqil tizim hisoblanib, o‘zini boshqalar bilan maxsus va alohida sharoitlarda o‘zaro munosabatda bo‘lish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, o‘z holatini to‘liq ocha olish qobiliyatidir.

Bo‘lajak muhandislarning muloqot kompetensiyasiga fikrlarni aniq va puxta ifoda etish, ishontirish, bahslashish, dalillarni isbotlash, tahlil qilish, hukmlarni bayyon etish, muammolarni oqilona yechish va hissiy ma’lumotlarga munosabat bildirish, shaxslararo muloqotlarni o‘rnatish, o‘z harakatlarini hamkasblarining harakatlari bilan umumlashtirish va muvofiqlashtirish, turli xil sharoitlarda optimal muloqot uslubini belgilash, tashkil etish va tartibga solish qobiliyatlarini belgilaydi. Bo‘lajak mutaxassisning umumiy kasbiy mahorati ishbilarmonlik uchrashuvlari va yozishmalarini o‘tkazish, nutq me’yorlari va madaniyatiga muvofiq telefon orqali muloqot qilish ko‘nikmalarining kommunikativ tarkibiy qismiga kiritishni nazarda tutadi. Talabalarda imloviy-uslubiy savodxonlikni o‘stirish, ularning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish va shu asosda og‘zaki va yozma shakllardagi nutqiy kompetentlikni ta’minlash asosiy vazifadir. Til hamma fanlarga beshik fan hisoblanadi. Tilsiz boshqa fanlarni, shuningdek mutaxassislik fanlarini ham o‘rganish mumkin emasligining o‘zi zaruriyatdir. Buni talabalarga his qildira bilish lozim. Har bir muomala, muloqot insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beruvchi vositadir.

Professional muloqot bo‘lajak muhandisning kasbiy faoliyati jihatlaridan olib boriladi va uning kasbiy munosabatlaridagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Muloqot ishtirokchilarining asosiy imkoniyatlari, texnik faoliyatda sohaviy atamalar tizimiga ega bo‘lishdir.

Fan sohasida bo‘lajak mutaxassisning lingvistik shaxsining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi, ular:

- ona tili va xorijiy tillardagi turli matnlardan kerakli atamalarni ajratib olish va tahlil qilish;
- texnika tilining leksik va grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda terminologiyadan foydalana olish;
- faoliyat nutqining asosiy janrlaridan (elektron xat, telefon suhbati, suhbat) foydalana olish;

- ishbilarmonlik muloqotining asos, maqsad va vazifalarini takomillashtirish;
- kasbiy sohaviy matnlarni tarjima qilish;
- maxsus matnlarni tahlil qilib, xulosa berish.

Muloqot kompetensiyasiga ega bo‘lish, kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda, bo‘sh lavozimga qabul qilingan nomzodga jamoada ishlashda muloqotda moslashuvchan bo‘lishga, berilgan vazifalarga tez javob berishga, nizoli vaziyatlarni hal qilishda diplomatik bo‘lishga yordam beradi va hokazo.

Binobarin, oliy ta’lim muassasalari oldiga bitiruvchiga kelajakdagi kasbiy faoliyatida raqobatbardosh va talabchan bo‘lish imkonini beruvchi tegishli kompetensiyalar, shu jumladan, muloqot kompetensiyasi to‘plamini tayyorlash vazifasi qo‘yiladi. Bu vazifani muayyan “akademik yozuv” faniga o‘tkazish o‘qituvchidan o‘qitishning yangi uslub va shakllari kombinasiyasini izlashni talab qiladi. Hammasi oddiy o‘qitish usullaridan boshlanadi: monologdan dialoggacha, polilog va boshqalar, bunda muloqot asosiy o‘rinni egallagan.

Muloqot kompetensiyasi bo‘lajak talaba kasbiy mahoratining o‘zagi hisoblanadi. Bu boshqalarning fikrini tinglash va hisobga olish, munozaralarda qatnashish va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, omma oldida gapirish, aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash, qarorlar qabul qilish, muzokaralar olib borish, jamoada ishlash va hamkorlik qilish qobiliyatidir.

Bo‘lajak muhandis talabaning kasbiy yo‘naltirilgan muloqot kompetensiyasini rivojlantirish og‘zaki va yozma muloqotda, matnni yaratish va idrok etishda, ish yozishmalarida, ish yuritishda, chet tilidagi muloqotda va muloqot muammolarini hal qilishda zarur. Muloqot kompetensiyasiga ega bo‘lgan bo‘lajak mutaxassis nomaqbul ta’sirlardan qochib, odamlar bilan muloqot qilishda kerakli natijalarga erisha oladi. Bunday bo‘lajak mutaxassis jamoaviy kasbiy faoliyat va kasbiy muloqot usullariga ega.

Bo‘lajak muhandislarda kasbiy yo‘naltirilgan muloqot kompetensiyasinihg ahamiyati shundaki, fan sohasi bo‘lajak mutaxassisning lingvistik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi: ona tili va xorijiy tillardagi turli sohaviy matnlardan kerakli terminologiyani ajratib olish va tahlil qilish; texnika tilining leksik va grammatik jihatlarini hisobga olgan holda sohaviy terminologiyadan foydalana olish; nutqining asosiy manbalaridan (elektron xat, telefon suhbati, suhbat va boshqalar) foydalana olish;

- ishbilarmonlik muloqotning asos, maqsad va vazifalarini shakllantira olish;
- zarur sohaviy va kasbiy ma’lumotlarni tarjima qila olish;
- maxsus sohaviy matnlarni tahlil qilib, xulosa berish.

Muloqot qanday shakllarda amalga oshirilmasin, uning maqsadi har birining o‘ziga xos individualligini saqlab qolgan holda, harakat qiluvchi sub’yektlarning umumiyligiga erishishdir. Bu muloqot aloqadan ham, boshqaruvdan ham, xizmatdan ham, ya’ni sub’yektlararo asosda qurilmagan insoniy munosabatlarning barcha shakllaridan farq qiladi va aynan shu narsa muloqotni insoniy xulq-atvor tarziga aylantiradi. Muloqot nafaqat ma’naviy, balki moddiy, ijtimoiy va real jarayon bo‘lib, unda faoliyat, tajriba va ko‘nikmalar, shuningdek, ushbu faoliyat natijalari almashinuvi mavjud.

Xulosalar

Muloqot – har bir shaxsning shakllanishida, rivojlanishida asosiy omil bo‘lib, birgalikda faoliyat ko‘rsatish hamda umumiy maqsadga erishish, shaxslararo aloqa munosabatlarni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Demak, muloqotni ta’lim jarayonida sifatli amalga oshirish uchun qanday

vazifalarni amalga oshirish mumkin, degan savol tug‘iladi. Buning uchun ta’lim jarayonida individual va guruhda ishlash yo‘l-yo‘riqlarini, usullarini o‘rgatish, o‘qituvchi o‘quvchini subyekt darajasiga ko‘tara olishi, tomonlarning fikrlarini o‘rganib, ularni yo‘naltira bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyolar ro‘yxati:

1. Asilova G. Bojxona va soliq yo‘nalishlari rus guruhlari talabalarini o‘zbek tilida kasbiy muloqot yuritishga o‘rgatish. Monografiya.”Fan va texnologiya” –T., 2016. 232 b.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
3. Усмонова О.Ю. Талабаларнинг ўзбек тилидаги нутқий компетенция малакаларини ривожлантириш. НамДУ илмий ахборотномаси 2021-у, 10-сон, 677-682-b.
4. Usmonova O.Y. O‘zbek tili darslarida talabalarning nutqiy madaniyat malakalarini oshirish usullari. Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innovatsion ta’lim texnologiyalari“ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2022-yil 10-noyabr, 762-764 b.
5. Usmonova O.Y. O‘zbek tili darslarida talabalarning yozma nutqini rivojlantirishning interfaol metodlari. NamDU axborotnomasi 2023-y, 12-son, 831-835-b.

DIDAKTIK TAHLIL USULINING AHAMIYATI

Kudratxodjayeva N.A.
ToshDTU dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba-yosnlarning kitobxonlik madaniyatini oshirishda mutolaa, kitobxonlikni targ‘ib qilish, undagi muammolar va uni bartaraf etish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shu bilan birga, badiiy tahlil, didaktik tahlil usuliga xos asosiy xususiyatlar va asar mutolaasida didaktik tahlil usulining ahamiyati yoritilgan.

Tayanch so‘z va iboralar: mutolaa, kitob, kitobxonlik madaniyati, mutaxassis, targ‘ib qilish,badiiy asar, badiiy tahlil, filologik tahlil, didaktik tahlil,matnli tahlil, muammoli tahlil, ma’naviy kamolot.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы чтении, её пропаганде, проблемах и их устранения в повышении культуры чтения у студентов и молодежи. При этом подчеркивается значение метода дидактического анализа в художественном анализе, метода дидактического анализа и значение метода дидактического анализа при чтении произведения.

Ключевые слова: чтение, книга, культура чтения, специалист, пропаганда, художественное произведение, художественный анализ, филологический анализ, дидактический анализ, текстовый анализ, проблемный анализ, духовная зрелость.

Annotation: This article discusses the issues of reading, its promotion, problems and their elimination in increasing the culture of reading among students and youth. At the same time, the importance of the method of didactic analysis in artistic analysis, the method of didactic analysis and emphasized.

Keywords: reading, book, reading culture, specialist, propaganda, work of art, artistic analysis, philological analysis, didactic analysis, textual analysis, problem analysis, spiritual maturity.

Men shunga aminman - kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q ” – deb yozadi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.[1]

Ma’lumki, didaktik ta’lim nazariyasining yaratilishi ta’lim sohasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. ”Didaktika” termini ilk bor Yevropada XVII asrda o‘qitish va ta’lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo‘llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida (1657) bolalar va o‘smirlarni ma’lumotli qilish va ularga ta’lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi Adolph Diesterweg o‘zining “Nemis o‘qituvchilarini o‘qitish uchun yo‘riqnoma” (1834—35) asarida didaktikaning pedagogikada ta’lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta’kidlagan. Va, nihoyat, didaktikaga ta’lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yaratila boshlandi.

Milliy pedagogikamiz tarixida ham didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag‘ishlangan ko‘pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika

hozirgi nomi bilan atalmagan bo‘lsa-da, lekin ular ta’lim jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Al-Farg‘oniy, Marg‘inoniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta’limni uyushtirish, uning samaradorligini oshirish, o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pedagogika taraqqiyotining o‘ziga xos bosqichini tashkil etadi. Shningdek, didaktik ta’lim nazariyasi, tamoyillari va tahlil usullari barcha fan sohalariga tatbiq etila boshladi. Bu esa adabiyot fanini o‘qitishda ham o‘z aksini topdi.

Adabiyot fanining obyekti badiiy asarlarni o‘rganish va tahlil qilish hisoblanadi. O‘quv jarayonida badiiy tahlilni amalga oshirih muhim omillardandir. U adabiy asarning yozilgan hamda tekshirilayotgan vaqtdagi badiiy va hayotiy mantig‘i hamda estetik jozibasini anglashga yo‘naltirilgan intellektual-hissiy faoliyatdir. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldoshev o‘zining “Mohiyatni anglatish yo‘li” maqolasida shunday yozadi: “Tahlil” atamasi arabcha so‘z bo‘lib, «yoritib yuborish», “murakkab butunni qismlarga ajratish” ma’nolarini anglatadigan “halala” o‘zagidan kelib chiqqan. Ba’zilar adabiyotshunoslikda bu so‘z zamiriga “halollash” ma’nosi ham yuklangan, deb hisoblashadi. Ya’ni, tahlil deyilganda, badiiy matnning ma’nosi va jozibasi nimadan iborat ekanini xolis ko‘rsatish va o‘quvchiga begona bo‘lgan matnni eritib, uning shuuriga joylashga qaratilgan faoliyat ko‘zda tutiladi”. [2]

Shuni alohida ta’kidlash joizki, ko‘pgina adabiyotshunoslar badiiy tahlil masalasiga turlicha yondashadilar. M.Mirqosimovaning badiiy asar tahlili xususidagi fikrlarini keltirib o‘tamiz. “Adabiy tahlil har qanday adabiy asarni o‘qib o‘rganishdan, uning mazmunini anglashdan boshlanadi. Badiiy tahlilda o‘quvchilar yozuvchining badiiy dunyoqarashini, madaniyatning chuqur qatlamlarini, xalq tajribasini o‘zida singdirgan asarlarni o‘zlarining aqliy va hissiy anglashi va idrok etish qobiliyatlari orqali tahlil qiladilar”.[3]

Didaktik tahlil ko‘proq shaxslik xususiyatiga tayanadi, chunki u jonli shaxslar ishtirokida amalga oshiriladi va tahlil qatnashchilarida muayyan fazilatlarini dunyoga keltirishga yo‘naltiriladi. Buning uchun didaktik tahlilda o‘quchilarning hissiyotlar olamiga ta’sir ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Talabalar hissiyotlariga daxl qilmagan har qanday narsaga loqayd bo‘lishadi. Bu loqaydlik uning o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan befarq munosabatda bo‘lishga olib keladdi. Hissiyotga tayanib qilingan tahlil tufayli talabalar badiiy matnga o‘zgacha nazar bilan qarashadi va bu bilan ular o‘z kashfiyotlarini ochadilar.Ular go‘yoki oddiylik zamiriga ulkan insoniy taqdirlar, ta’sirchan tuyg‘ular, hadsiz fojia va quvonchlar yashiringanligini his etishadi, ularni kashf etishadi. Kashf etish esa, rivojlanishning yangi bosqichlari sari undaydi. Bu rivojlanish talabaninig dunyoqarashida o‘zga olamni va yorqin fikrlash jarayonini namoyon qiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini didaktik tahlil qilishda maktab o‘quvchilari bilan talabalar fikrlashi orasida jiddiy farq mavjud bo‘lib, bu ularning asarga va uning qahramonlariga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Tahlilning yo‘nalishlari bir-birini inkor qilmaydi. Adabiy ta’lim amaliyotida tahlilning uch yo‘nalishi deyarli hamisha aralash, qorishiq holda keladi. Matnli tahlilni obrazlarga tayanmay turib amalga oshirib bo‘lmaydi. Muammoli tahlilni ham badiiy matnga asoslanmay bajarish mumkin emas. Har qanday muammo matndan kelib chiqishi, har qanday mustaqil fikr ham matnning sehr-u jozibasini ochishga xizmat qilishi lozim. Matnli tahlilda matnning ma’nosini buzmaslik muallif yurgan yo‘lga, u o‘rnatgan badiiy tartibga rioya qilish ustuvor bo‘ladi, lekin

tahlilning qolgan ikki turida ham badiiy matn asosiy o‘rin tutadi. Shu ma’noda, har qanday tahlil mohiyat e’tibori bilan matnli tahlildir.

Muammoli tahlil puxta bo‘lishi uchun talabalar badiiy matn bilan yaxshi tanishibgina qolmay, uni to‘liq tushungan bo‘lishlari ham kerak. Chunki o‘zlashtirilgan fikr – fikr uyg‘otadi, singdirilgan hissiyot – tuyg‘u qo‘zg‘atadi. Muammoli usul bilan tahlil etishda talabalarni shunchaki bahsga tortish kerak emas, balki ularning butun kuchi badiiy matnning mazmunini ochishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Muammoli tahlil kutilgan samarani berish uchun matnga ularning hayotiy tajribalari va egallagan bilimlari darajasidan kelib chiqib erkin yondasha olishlari zarurdir. O‘qituvchi badiiy asar bilan yolg‘iz uchrashganda, uni xayolan didaktik tahlil qilganda, ertangi pedagogik vaziyatni, talabalar hissiyotining namoyon bo‘lish tarzini, o‘zining kayfiyatini oldindan to‘liq bilishi mumkin emas. Binobarin, jamoaviy tahlil jarayonida individual tahlilning ayrim qirralariga muayyan tahrirlar kiritilishi, ayrim jihatlarga ko‘proq e’tibor qaratilishi, ularda ijobiy tuyg‘ular uyg‘otadigan o‘rinlarga urg‘u berilishi, ekspromtlar qilinishi tabiiydir. Didaktik tahlil talabalarning ishtirok etishlariga ko‘ra individual, guruhiy hamda ommaviy singari turlarga ajratiladi. Individual tahlilda badiiy matn bilan tanishib chiqilgach, o‘qituvchi har bir talabaga alohida topshiriq beradi va talaba darslikdan foydalangan holda o‘sha topshiriqni bajarish uchun alohida tahlil bilan shug‘ullanadi. Har bir talabaga tahlil uchun muayyan vaqt beriladi va tayyor bo‘lgach, uning javobi tinglanadi. Guruhlarga ajratib tahlilga jalb etilgan talabalarda musobaqa tuyg‘usi, jamoatchilik ustuvor o‘rin tutadi. Talabalar qandaydir belgilarga ko‘ra bir necha guruhga ajratiladi. So‘ng guruhlarning har biriga asar tahliliga doir alohida topshiriq beriladi. Guruhlarga ajratishda o‘tirgan o‘rni, nasab-nomlarning yonma-yon kelishi, jinsi va h.k. belgilar asos bo‘lishi mumkin. Xayolot olami keng, tafakkuri uchqur bo‘lgan talabalar badiiy matndan, ko‘pincha, o‘qituvchi ham payqamay qolgan jihatlarni topishadi. Bir necha kishilik guruh o‘quvchilarni birlashtiradi, fikrlar olishuviga o‘rgatadi, birisining hissiyoti o‘zgasida tuyg‘u uyg‘otadi. Shu tarzda badiiy matn yaxshiroq idrok etiladi. Bu xildagi tahlilda o‘quvchilar boshqa guruhdagilarga savol berishlari mumkin. Guruh a’zolarining hammasiga bir xil baho qo‘yish esa jiddiy tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Topshiriqlar badiiy matn puxta o‘rganilgandan keyin berilgani uchun ham uni bajarish bolalardan ko‘p vaqt talab qilmaydi.

Yaxshi didaktik tahlil asar muallifining vaqtlar osha kitobxon bilan qilgan suhbatidir. Ommaviy tahlil samarali bo‘lishi uchun adabiyot o‘qituvchisi darslik hamda undagi savol va topshiriqlardan yaxshi foydalana olishi kerak. Shu bilan birga, har bir o‘qituvchi talabalarning tayyorgarlik va ruhiy-aqliy darajasi hisobga olib tuzilgan, talabalarni izlanishga undaydigan hamda tahlilga chuqurroq kirishishga chorlaydigan o‘z savol-topshiriqlar tizimiga ega bo‘lishi kerak. Didaktik tahlilning bir qoidasi borki, unga amal qilmaslik adabiy ta’limni boshi berk ko‘chaga kiritadi. Bu oltin qoida shundan iboratki, qanday janrda yozilganligi, qancha hajmda ekanligi va kimga o‘rganilayotganligidan qat’i nazar, o‘qituvchi badiiy asar mazmunini so‘zlab berishi mumkin emas. Afsuski, adabiy ta’lim amaliyotida o‘quv tahlilini badiiy asar mazmunini so‘zlab berish tarzida tushunish juda keng yoyilgan.

Didaktik tahlil yuzaga chiqishi uchun o‘quvchi faqat tinglovchi maqomida bo‘lishi yetarli emas. U, albatta, tahlil qiluvchi martabasida bo‘lishi kerak. Adabiyot darslari teng tomonlar faoliyati ekanligi, bu faoliyat ishtirokchilardan biri bo‘lmish o‘qituvchi faqat hayotiy tajribasining boyligi, badiiy asarga munosabat malakasiga egallaganligi, estetik mezonlarning shakllanganligi bilangina talabalaridan ajralib turishi yodda tutilishi loim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Sh. Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, O‘zbekiston, 2016.114-b
2. Yo‘ldoshev Q. Mohiyatni ahglatish yo‘li. httpsHYPERLINK "https://kh-davron.uz/"://HYPERLINK "https://kh-davron.uz/"khHYPERLINK "https://kh-davron.uz/"-HYPERLINK "https://kh-davron.uz/"davronHYPERLINK "https://kh-davron.uz/".HYPERLINK "https://kh-davron.uz/"uz
3. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2006y, 15-b.
4. Usmonova O.Y., Kudratxodjayeva N..A., Usmonova Z.N. Methods of eveloping the reading culture of students. Central European Management Journal.Vol. 30 Iss. 3 (2022) 2818-2822-б.

JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TEZAURUS LUG'ATLARNING SHAKLLANISHI VA AHAMIYATI

Bobozaripova Malohat Ergash qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti doktaranti.
E-mail: bobozaripovam@gmail.com

Ilmiy rahbar: dots. **Suyarava Nargiza Yuldoshevna**

Annotatsiya: Mazkur maqolada, tezaurus va uning turlari, shuningdek lug'atchilikka kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi to'g'risida fikr-mulohazalar yuritilgan. Muallif mavzuni yoritishda o'zbek va rus tillaridagi ilmiy manbalardan maqsadli foydalangan. Shuningdek ma'lum tushuncha va hodisalarni tasdiqlovchi misollar va dalillarga murojaat qilib, mavzu yuzasidan tegishli ilmiy xulosalar chiqargan hamda amaliy tavsiyalar bergan. Ayniqsa, maqolada tezaurus tushunchasini boshqa lug'at turlaridan farqlab olishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa uning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: omonim, sinonim, antonim, paronim, leksika, semantika, giponim, giperonim, sistem, kompyuter, lingvistika, korpus.

Аннотация: В данной статье рассматривается тезаурус и его виды, а также введение в словарь компьютерных технологий. Для освещения темы автор целенаправленно использовал научные источники на узбекском и русском языках. Также, ссылаясь на примеры и доказательства, подтверждающие те или иные концепции и события, он сделал соответствующие научные выводы и дал практические рекомендации. В частности, в статье акцентируется внимание на отличии понятия тезаурус от других типов словарей. Это служит повышению ее научно-теоретической и практической значимости.

Ключевые слова: омоним, синоним, антоним, пароним, лексика, семантика, гипоним, гипероним, система, компьютер, лингвистика, корпус.

Annotation: This article discusses the thesaurus and its types, as well as the introduction of computer technologies to the dictionary. The author purposefully used scientific sources in Uzbek and Russian languages to cover the topic. Also, referring to examples and proofs that confirm certain concepts and events, he drew relevant scientific conclusions and gave practical recommendations. In particular, the article focuses on distinguishing the concept of thesaurus from other types of dictionaries. This serves to increase its scientific-theoretical and practical importance.

Keywords: homonym, synonym, antonym, paronym, lexicon, semantics, hyponym, hypernym, system, computer, linguistics, corpus.

Lug'atlar – davr mahsuli, xalqlarning tarixidagi muayyan bir davrning ko'zgusi. Lug'atlarning yuzaga kelishi, rivoj topishi muayyan bir tarixiy-madaniy sharoit, amaliy va nazariy tilshunoslikning holati, shuningdek lug'atlarga ehtiyoji bo'lgan har-xil sohalarning taraqqiyoti va yana ko'pgina holatlarga bog'liq. O'rta asrlarda davlatlarning qudrati ularning ona tilisiga

muhabbati, davlat tilining mavqeyi lug‘atlarining borligi bilan, o‘tgan asr oxirlarida esa lug‘atlarning turlari ko‘paygani bilan, ensiklopediyalarining borligi bilan o‘lchangan bo‘lsa, bugungi kunda elektron qurilmalarda ishlashga mo‘ljallangan *tezauruslar, assotsiativ lug‘atlar, interaktiv lug‘atlar, korpus lug‘atlar, Wikipedia lug’atlar, Lingvo lug’atlar,* kabi onlayn-lug‘atlar, imlo meyorlari, talaffuz meyorlari aks etgan lug’atlar, tilning turli leksik sistemalari (paronimlari, omonimlari, sinonimlari, antonimlari, graduonimlari, uyadosh so‘zlari kabilar)ni o‘rganishga xizmat qiladigan ilovalarning borligi, internet sahifalarida elektron o‘quv lug‘atlarining maxsus saytlari ishlab turgani, turli yoshdagi foydalanuvchilar uchun tez xizmat qilishga mo‘ljallangan elektron o‘quv lug‘atlarining borligi bilan o’lchanadi.

Jahon tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, korpus tushunchasiga doir ilk ma’lumotlar XX asrning qirqinchi yillarida yuzaga kelganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan [Kutuzov]. Til – sistema ekan. U bizning ongimizda ham xuddi shu tartibda o‘z ifodasini topadi. Shu yerda mashhur olim N.V.Krushevskiyning so‘zlarini yodga olamiz: «Hech qachon tilning asosiy xarakterini unutmaslik lozim. So‘z-narsaning belgisi. So‘z va narsa haqidagi tasavvur assotsiatsiya haqidagi qonun asosida juftlik hosil qilgan. Sunday ekan, so‘zlar bizning ongimizda ham o‘zi anglatadigan jismlar guruhiga kirishi kerak»[Lug‘atlar va ularda milliy madaniyat tushunchasining aks etishi. Arxiv.uz].

So‘zlarning lug‘atda joylashuvi masalasiga qaraydigan bo’lsak, ularning talaffuz va ma’no tabiati lug’atlarda so’zlarni joylashtirish masalasida 2 xil yo’lni ko’rsatadi:

1) talaffuz yaqinligiga asosan joylashadi;

2) ma’noviy yaqinlikka asosan joylashadi.

Birinchi yo’l alifbo tartibidagi lug’atlarni yaratishga asos bo’lishi mumkin. Bu lug‘atlar haqida to’xtalib o’tishimiz shart emas. Ammo alifbo tartibida joylashadigan lug‘atlarda so‘zlar kishining olam haqidagi sestemali bilimlariga to‘g‘ridan-to’g’ri mos kelavermaydi.

Bu esa alifbo tartibida joylashadigan lug‘atlarga umuman o’xshamaydigan so‘zlarni ma’noviy yaqinligiga ko’ra birlashtirish prinsipiga asoslanadigan tezaurusli lug‘atlarning tuzilishiga asos bo’ladi. Xo’sh tezaurusli lug‘atning o’zi nima? U qanday tuzuladi? Tezaurus-bugungi kundagi zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklar o’rtasidagi semantik aloqalarni-omonim, sinonim, antonim, paronim, giponim, giperonim va boshqa tushunchalarni o’zida aks ettira oladigan maxsus lug’at yoki, shunday lug’atlarning maxsus turlaridan biri sanalanadi. Bunday lug’atlar boshqa lug’atlardan ancha farq qilib, ularda biror bir ilm-fan sohasi doirasidagi leksemalar yoki biror bir mavzu doirasida joylashadigan xuddi shunday birliklar orasidagi ma’noviy munosabatlar aks etib turadigan ideografik lug’atdir. Shunday ekan o’z-o’zidan savol tug‘iladi: ideografik lug‘atlar o’zi qanday lug’atlar, ular qaysi muammolarga yechim bo’la oladi? Bunday savollarga dunyoning buyuk leksikolog va leksikograf olimlari I.I.Srednevskiy, L.V.Sherba, X.Kasares, V.Fon Vartburt, F. Dornzayf, M.Morkovkin, I.A.Gulyanovlarning ishlarida javob topish mumkin.

Leksema uchun hamma ma’lumotlar yig’ilgan mukammal lug’atlardan biri bu idiografik lug’atlar sanaladi. Ideografik lug‘at masalasida rus tilshunosligi o‘zining chuqur tarixiga ega. Bunday lug’atlar nazariyasini tuzib chiqishda olim L.V.Sherbani alohida o‘rni bor. U tezaurus termini haqida" Опыт теории общей лексикографии " nomli maqolasida shunday yozadi: "Tezaurus deyishganda, bugungi kunda ko‘pincha" Thesaurus linguae latinae " nazarda tutiladi, bular nemis akademiyasi tomonida 1900-yilda boshlangan. Uning xarakterli tomoni shundaki,

ma’lum bir tildagi barcha hal qiluvchi so‘zlarni o‘z ichiga oladi va har bir so‘zga, ushbu tilda mavjud bo‘lgan matnlardan namunalar bor[Л.В. Щерба,1940:10].

Agar biz lug’atshunoslik tarixiga nazar soladigan bo’lsak, unda ingliz, fransuz, nemis, ispan tillari materiallari asosida tuzilgan idiografik lug‘atlarning ko’plab turlarini uchratishimiz mumkin. Bizning maqolamiz tezaurus tipidagi ideografik lug‘atlarga oid bo‘lgani uchun biz asosan tezaurus lug’atlarning xususiyatlariga to’xtalib o’tamiz. Bu tipidagi lug’atlar elektron lug’atlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday lug’atlar orqali ma’lumotlarni tez va oson izlab topishda foydalansak juda yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Jahon tilshunosligida kompyuter lingvistikasi, korpus tushunchasiga doir ilk ma’lumotlar XX asrning qirqinchi yillarida yuzaga kelganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan [Kutuzov]. Evropada tezaurus tipidagi lug‘atlarga qiziqish “Ingliz so‘zlari va iboralari tezaurusi” paydo bo’lgandan so’ng juda ham ortib ketdi. Uning kashfiyotchisi L.M.Roje edi. U o‘zining lug‘atini kirish qismida shunday fikrlarni keltirib o’tgan: “Biz aytmoqchi bo‘lgan fikrimizni qanchalik aniq tasavvur qilmaylik, ba’zan biz shunday bir vaziyatga tushib qolamizki, bizga so‘z yetishmay qoladi. O‘z fikrimizni aniq ifodalash uchun bitta so‘z o‘rniga bir necha ijobiy va salbiy, kuchli va kuchsiz, ba’zan esa keraksiz so‘zlarni ishlatib yuboramiz. Bu lug‘atning eng muhim xususiyati shundaki, bir fikrning barcha qirralarini ochib beruvchi so‘z va iboralarning boy to‘dasini tortiq qiladi”[Lug‘atlar va ularda milliy madaniyat tushunchasining aks etishi. Arxiv.uz].

Inglizlarning idiografik ko’rinishdagi tezaurusli lug‘atining muallifi Dj.Roudel edi. Uning lug‘ati quyidagicha ko’rinishda ishlangan. Otlar oldida sifat va fe’llar berilgan. Fe’l hamda sifatning oldida esa ravishlar keltirilgan. Lug‘atdagi har bir maqola bosh so‘z va bu so‘z bilan birika oladigan so‘zlar guruhidan tashkil topgan. Nemis tilida ham ko’plab tezaurus lug’atlar yaratilgan lekin, ular orasida eng qiziqarlisi G. Bekker muallifligi ostidagi stilistik lug‘at hisoblanadi. Lug‘at juda oddiy usulda qurilgan bo’lib, U 5 bosqichda ishlangan. Bunday lug’atlarning asosiy maqsadi matn yaratishda tegishli so’zlarni tanlab olishga yordam berish, biror mavzu doirasida atama yoki termin orasidagi munosabatlarni tavsiflovchi ma’lumotlarni qidirib topishdan iborat edi. Bu lug’atlar asosan ma’lum bir soha mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan va mavzu doirasidagi ma’lumotlarni qidirib topishni maqsad qilgan. 1870-yillardan boshlab tezaurus tipidagi lug’atlardan ma’lumot izlash ishlarida faol foydalanila boshlandi. Bunga o’xshash lug’atlardan yana biri Viki lug’at deb ataladi. U ko’p tilli bepul yangilanadigan lug’at bo’lib, Vikimediya fondi tomonida yaratilgan va 2004-yildan hozirgi kunga qadar foydalanib kelinadi. Bu lug’atda 250 mingta tushuncha va 67 mingta ma’noviy munosabatlar o’z aksini topgan. Rus tilida esa shunday lug’atlardan biri — RuTez deb nomlangan. Bu lug’at 1997-yilda Axborot tadqiqotlar markazi tomonidan avtomatik indeksatsiya vositasi sifatida ishlab chiqilgan. U hozirgi kunga qadar yaratilgan 45 mingta tushuncha, 107 mingta so’z va iboralar, 177 mingta ma’noviy munosabatlarni qamrab oladi.

Tezaurus atamasi, avvalambor biror tilning lug’at zaxirasini maksimal darajada to’liqlik bilan aks ettiradigan xazina sifatida e’tirof etiladi. Matnlarning adekvat talqini hamda ma’lumotlari uning sistem ma’nolarini o’zida mujassam etgan va mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan tezaurusda aniqlanadi [Valitova, 2012: 19]. Tezaurusda bilim parchalangan va u shunday tuzilganki, unda ma’lum munosabatlar bilan o‘zaro bog‘langan tushunchalarning alohida guruhlariga bo‘linadi. Tezaurus alifbo tartibida yaratilgan lug‘atlardagi buzilgan semantik munosabatlarni va til birliklari o‘rtasidagi aloqalarni tiklash uchun mo‘ljallangan [Filippovich,

Proxorov, 2002]. Bunday lug'atlar zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklar o'rtasidagi semantik aloqalar – omonim, sinonim, antonim, paronim, giponim, giperonim va boshqa tushunchalarni ko'rsatadigan umumiy yoki maxsus lug'at, shunday lug'atlarning maxsus turi hisoblanadi. Bu lug'at boshqa lug'atlardan farqli o'laroq, biror bir ilm-fan sohasiga oid lug'aviy birliklar yoki biror mavzu tarkibida joylashtirilgan ana shunday birliklar o'rtasidagi semantik munosabatlar aks ettirilgan ideografik lug'atdir. Unda kerakli so'zlar tushunchaga qarab qidiriladi. Nazariy jihatdan tezaurus leksik-semantik tizimning ehtimoliy modellaridan biridir. Amalyotda undan ko'pincha individual lug'atlarni boyitishda, yoki tezkor qidiruv vositasi sifatida foydalaniladi. Shu ma'noda tezaurus oddiy lug'atlarning aksi sanalandi. Odatda, biror-bir so'zning ma'nosini emas, balki so'zning o'zini izlayotganimizda, tezauruslarga murojaat qilamiz. Ya'ni bu yerda tushuncha ma'lum bo'lsa ham, shu tushuncha ostidagi so'zlar guruhi yoki so'z shakllari bizga noma'lum bo'lganda tezaurus lug'atga murojaat qilamiz. Biz izlayotgan so'z tizim ichida turgan bo'lishi mumkin, ammo so'zning o'zini nimaligini bilmasligimiz mumkin, bunday vaziyatda ham tezaurus lug'ati yordamga keladi. Shunday vaziyatlardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, tezaurus – bu lug'at bo'lib, so'zlar uchun omborxona vazifasini o'taydi. Tezaurus umumiy ma'noda – maxsus terminologiya yoki lug'at, ma'lumotlar yig'indisi yoki korpus, jamlanma yoki ma'lum sohadagi bilimlarni hamda faoliyat sohasidagi tushunchalarni, ta'riflar va terminlarni to'liq o'z ichiga oladigan ma'lumotlar ba'zasi bo'lishi mumkin. A.N.Baranov va D.O.Dobrovolskiy "От редакции" kitobida tezaurusni quyidagicha izohlagan – "maxsus tur lingvistik materialni tartibga solish usuli bilan boshqalaridan farq qiladigan lug'at. Bunday lug'atlarning so'zlari oddiy lug'atlardagidek alifbo bo'yicha tartiblanmagan, ammo ular ma'nosiga qarab guruhlarga ajratilgan bo'ladi" [Добровольский, Баранова, 1965].

Bu lug'atlar ma'lum bir mavzu doirasida tuzulganda tushunchalar daraxti bo'lib, yuqoridan, eng umumiy va pastki, eng aniq, tor tushunchalar bilan yakunlanishi mumkin. Tezaurusdagi so'zlar odatda umumiy-xususiy, butun-bo'lak va hokazo munosabatlar bilan bog'lanadi. Kengaytirilgan ma'noda tezaurus individual ma'lumot tashuvchisi yoki tashuvchilar guruhiga ega bo'lgan voqelik haqidagi bilimlar tizimi sifatida talqin etiladi. Bunday lug'atlar informatikada axborot-qidiruv tizimlarining ajralmas qismi sifatida keng qo'llaniladi. Jumladan Aktayev axborot-qidiruv tezaurusi – ma'lum bir fan sohasi uchun ma'lum qoidalarga muvofiq tuzilgan atamalar va iboralar lug'ati bo'lib, ushbu fan sohasida ma'lumotlarni qidirish sifatini oshirish uchun yaratiladi degan fikrni keltiradi [Aktaev, 2015:3]. M.A.Kovyazin esa Terminologik lug'at-tezaurus boshqa lug'atlardan ma'lum bir sohaning "hajmli" kognitiv modelini ifodalashi bilan farq qiladi. Tezaurus tavsifida atamalarni tizimlashtirish usuli sifatida kontseptual tasniflash tezaurus lug'atining strukturaviy parametrlarini belgilaydi deydi [Filippovich, Proxorov, 2002]. Lukashevich N.V. ham o'zining" Тезаурусы в задачах информационного поиска" kitobida tezaurus haqidagi bir qancha nazariyalarini keltirib o'tgan.

Yaxshi ishlab chiqilgan tezaurus tarkibida bir necha o'zaro bog'langan qismlarni ko'rish mumkin bo'ladi. Tasniflash sxemasi barcha tushunchalar majmuasini katta kontseptual zonalar yoki hududlarga ajratadi va ularni tizimli ravishda tartibga soladi. Kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi bo'lgan tezauruslar leksemalarning o'z va ko'chma ma'nolari, kommunikativ xususiyatlari, emotsional-ekspressiv vazifalari haqida keng ma'lumot berishi bilan qimmatli sanaladi.

O’zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi masalalari keyingi yillarda ilmiy tadqiqot ishlari sifatida keng o’rganila boshladi. Xususan, Sh.M. Hamroyevaning — O’zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari nomli dissertatsiyasida o’zbek tilshunosligida birinchi marta korpus, uning o’ziga xos xususiyatlari, nazariy asoslari, til korpusining lingvistik hamda nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan [Hamroyeva, 2018:15]. Shuningdek, korpus lingvistikasining shakllanish tarixi, taraqqiyot yo’li, o’ziga xos xususiyatlari va bugungi holati masalalari atroflicha talqin qilingan. O’zbek tilini jahon tillari qatorida rivojlantirish, uni dunyoviy tillar sirasiga kiritish va til o’rganish hamda o’rgatishda kompyuter lingvistikasi fani dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Texnika taraqqiyoti mahsuli bo’lgan kompyuter tizimi barcha sohalarda qulayliklar yaratadi, ma’lumotlarning tezkor yetkazib berilishini, tarjima, tahrir jarayonlarining mashina yordamida qisqa muddatlarda amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Kompyuter lingvistikasi amaliy tilshunoslik yo’nalishlaridan biridir. —Amaliy lingvistika atamasi ko’p ma’noli atama sanaladi, bu atamaga tilshunoslikda har xil qarashlar bor. G’arb tilshunosligida bu termin, birinchi navbatda, o’qitish metodikasi, grammatik xususiyatlarni qamrab olgan holda, ona tili va chet tillarini o’qitish amaliyoti bilan bog’lanadi. Aslida mazkur tushunchalar kompyuter texnologiyalarining ishlab chiqilishi va axborotni qayta ishlash tizimlarining shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan. Ayrim rus tilidagi adabiyotlarda kompyuter lingvistikasi termini har-xil nomlar bilan atalgan. Amaliy lingvistikaning bunday turli nomlar bilan yuritilishi uning faoliyati xarakterini belgilaydi. Bu terminlarda amaliy lingvistikaning integratsiyaga asoslanganligi, avtomatlashish xususiyatilari o’z ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak. Tezaurus – bu umumiy ma’noda maxsus bilim sohasi yoki faoliyat sohasining tushunchalari, ta’riflari, atama yoki terminlarini to’liq qamrab oladigan maxsus terminologiya, yana-da qat’iy va obyektiv ravishda lug’at, ma’lumotlar to’plami, korpus yoki kod demakdir. Tilda bu lug’atlar elektron formatda, alohida fanlarni tavsiflashning asosiy vositalaridan biri bo’lib, biror fan yoki kasb-hunar bilan bog’liq bo’lgan aloqalar hamda shu aloqalardagi bilimlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek intellektual tizimlarning ilmiy asoslarini to’ldirishda ishlatilishi mumkin bo’lgan atamalarni boshqa tushunchalar va ularning guruhlari bilan o’zaro bog’lash orqali ochib berish imkonini yaratadi. Tildagi axborotlar bazasida tezaurus termini subyekt ega bo’lgan barcha ma’lumotlarning umumiyligini ifodalaydi.

Shunday qilib, lingvistik masalalarni tez hal etishda, kompyuter texnologiyalari va informatikaning hisasi katta o’rin tutadi. Bu texnalogiyalarning milliy tilshunoslikka tatbiq etilishi ma’lumotlarni tezkorlik bilan o’zlashtirilishini, shu bilan birga bajariladigan amallarning aniqligini ta’minlay oladi. Tilshunoslik masalalarining kompyuter yordamida hal etilishi, ayni paytda, tilning qo’llanilish doirasi kengayishi, ichki imkoniyatlarning ortishiga sabab bo’ladi. Kompyuter lingvistikasi har bir tilning o’ziga xos tomonlarini hisobga olib, muayyan tilning fonetik, leksik, grammatik sathlariga oid masalalarni kompyuter yordamida hal qilish vazifasini qo’ygandagina lingvistik taraqqiyot omili sanaladi. Shuningdek, turli xil lug’atlar va tezauruslarga ham kompyuter texnologiyalarini joriy etish bugungi tilshunoslikning asosiy masalalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baranov A. Vvedeniye v prikladnuyu lingvistiku. – Moskva, 2001.

2. Kutuzov A.B. Kurs ―Korpusnaya lingvistika. Litsenziya Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported - //lab 314.brsu.by/kmp-lite/ kmpvideo/ CL/ CorporeLingva.pdf
3. Valitova N.R. Formirovaniye professionalnogo tezaurusa u studentov fizkulturnogo vuza. Avtoref. na soiskaniye uchyonoy stepeni kand.ped.nauk. – Omsk, 2012.
4. Mahkamov N. Terminologik tamoyillar va xalqaro terminelementlar. // Xorijiy so’z va terminlardan foydalanishda me’yor va milliy-assotsiativ fikrlash muammolari. Toshkent, 2011
5. Mirahmedova Z. O’zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: ―Fan. 2010
6. Rasulov R., Suyunov B., Mo’ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. Toshkent, 2010
7. Eshmo’minov. A. O’zbek tili milliy korpusining sinonim so’zlar bazasi. Filol. f. bo’yicha f.d. (PhD) diss. avtoref. – Qarshi: 2019.
8. O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: 2004
9. O’zbek tilining izohli lug’ati. – Toshkent: 2006
10. Hamroyeva Sh.M. O’zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol. f. bo’yicha f.d.(PhD) diss. avtoref. – Qarshi: 2018

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI NOMLARIDA SINONIMLIK VA OMONIMLIK HODISASI HAQIDA

Nabiyeva Rushana Jamol qizi
Qarshi DU Filologiya fakulteti,
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti.
E-mail: rushana.nabiyeva@internet.ru

Annotatsiya: maqolada oziq-ovqat mahsulotlari nomlari o‘rtasidagi sinonimik va omonimik munosabat haqida fikr bildirilgan bo‘lib, misollar asosida izohlab berilgan. Sinonimik va omonimik munosabatga kirishayotgan o‘zlashma oziq-ovqat mahsulotlarining ayrimlari tavsiflangan.
Kalit so‘zlar: sinonimik munosabat, leksik-semantik guruh, semantik aloqa, melassa, barbekyu, salat.

Annotation: The article expresses an opinion on the synonymous and homonymous relationship between the names of food products and explains them on the basis of examples. Some of the food products entering the synonymous and homonymous relationship are described.
Keywords: synonymous relationship, lexical-semantic group, semantic relationship, molasses, barbecue, salad.

Аннотация: В статье высказывается мнение о синонимических и омонимических отношениях между названиями пищевых продуктов и поясняется их на основе примеров. Описаны некоторые пищевые продукты, входящие в синонимические и омонимические отношения.
Ключевые слова: синонимическая связь, лексико-семантическая группа, смысловая связь, меласса, шашлык, салат.

Ma’lumki, lug‘aviy birliklarni yaxlit sistemada jamlash murakkab hodisa sanalib, turlicha yondashuvlar asosida sistemaga solish mezonlari tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan. Lug‘aviy birliklarni mavzuviy guruhlarga ajratish eng yirik semantik guruhlanish bo‘lib, bu mavzuviy guruhlar o‘z ichida bir qancha semantik mikrosistemalarga bo‘linadi. U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev tahriri ostida nashr etilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” [U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev ., 1992:108] darsligida til birliklarini sinonimlar, antonimlar deb birlashtirish – semantik sistemalash va bu leksik-semantik guruhlashda oxirgi to‘dalanish ekanligi keltirib o‘tilgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari leksik-semantik guruhida sinonimik munosabat hosil qiluvchi o‘zlashmalar ham ko‘plab topiladi. O‘zbek tilida sinonimlik hosil qilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari nomlari orasida, asosan, taom nomlari xarakterlidir. Masalan, ***“shashlik – kabob – doner”*** sinonimik qatorida ***shashlik*** – (qrimcha “shish” – go‘shtni gulxanda pishirish uchun mo‘ljallangan maxsus asbob) mayda to‘g‘ralgan yoki qiyma go‘shtni shish, panjara kabilarda pishirilgan taom nomi; **kabob** – (fors-tojikcha qo‘rada pishirilgan go‘sht) asosan, go‘shtni sixga tortib, qo‘raga terib, cho‘g‘ damida pishiriladigan, shuningdek, tandirda yoki qozonda ham

tayyorlanadigan taom [O‘TIL, II jild, 2023:706]; **doner kabob** – (turkcha “doner” aylanish, go‘shtni vertikal aylantirib qovurish) dastlab Turkiyada paydo bo‘lgan go‘shtni vertikal pishirish orqali tayyorlanadigan taom. Arab tilida “doner” leksemasi **“shavarma”** so‘ziga to‘g‘ri kelib, ushbu so‘z ham “aylanish” ma’nosini beradi. Hozirgi kunda “shourma” deb talaffuz qilinuvchi tezpishar taom nomi ham doner-kabobdan olingan. Shuningdek, ingliz tili orqali kirib kelgan **“barbekyu”** (fransuzcha ushbu taom pishiriladigan uskuna nomini anglatib keladi) taom nomi ham “go‘sht yoki kolbasa mahsulotlarini maxsus uskunada ko‘mir yoki gazda pishirish” ma’nosini bildiradi.

Qandolatchilik sohasida faol qo‘llanuvchi *“qiyom – murabbo – jem – melassa”* masalliq nomlari ham sinonimlik hosil qilib, bunda arabcha *“qiyom”* leksemasi – shakarni suvda qaynatib tayyorlangan quyuq sharbat [O‘TIL, IV jild, 2022:173]; arabcha *“murabbo”* leksemasi – ho‘l meva, rezavorlar hamda shakardan tayyorlanadigan shirinlik [O‘TIL, III jild, 2022:278]; inglizcha *“jem”* leksemasi – quyuq shinni, meva qiyomi [O‘TIL, II jild, 2023:641]; fransuzcha *“melassa”* leksemasi esa yuqoridagi sinonimik qatorda yangi o‘zlashma sanalib, *“shakardan tayyorlangan quyuq jigarrang tusdagi shinni, qiyom”* ma’nosini bildirib keladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari orasida omonimlik hodisasi o‘z va o‘zlashgan qatlam doirasida yoki o‘zaro shakldoshlik hosil qilayotganligini kuzatish mumkin. Masalan, italyancha ***“salat”*** o‘zlashmasi *“salato”* – tuzli, tuzlangan ma’nosini bildirib, turli sabzavotlar (pomidor, bodring), tuxum, go‘sht va shu kabilardan tayyorlanadigan yaxna taom va ***salat*** – iste’mol qilinuvchi, vitaminlarga boy bir yillik ko‘kat; poliz ekini [O‘TIL, IV jild, 2022:502] kabi ma’nolarda qo‘llanib, omonimlik hosil qilgan. Shuningdek, “salat” leksemasi jonli tilda polisemantik tabiatga ega *“salat bargi”, “salat tuzi (koreys tuzi)”* kabi qo‘shma so‘zlarni ham hosil qilgan. Gastronomik diskursda faollashib borayotgan ***“delikates”*** o‘zlashmasi ham omonimlik xususiyatiga ega. Fransuzcha ***delikates*** o‘zlashmasi *“noyob, nozik”* ma’nosini anglatib, ma’lum bir madaniyatda tanqis yoki juda qimmat bo‘lgan mahsulotga nisbatan qo‘llanadi. Masalan, o‘zbek pazandachilik madaniyatida *kiyik go‘shti, dengiz mahsulotlari, qisqichbaqa* kabi mahsulotlar delikatesga misol bo‘la oladi. Shuningdek, nozik ta’mga ega har qanday taom (asosan go‘shtli taomlar)nomlariga nisbatan ham delikates o‘zlashmasi qo‘llanmoqda.

Fransuzcha oziq-ovqat mahsulotlari nomlari qatoridan joy olgan yana bir o‘zlashma ***“tryufel”*** leksemasi ham o‘zbek tilida omonimlik kasb etib, *“qo‘ziqorinning bir turi”, “ganash bilan to‘ldirilgan dumaloq shakldagi shokoladli konfet”* ma’nolarini bildirib keladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari orasida ko‘pchilikni tashkil etuvchi forscha o‘zlashmalar orasida ham omonim o‘zlashma nomlar ko‘plab topiladi. Masalan, “***pashmak*** – “tola-tola shaklli holva”, yog‘da qovurilgan un va qiyomdan tola-tola qilib tayyorlangan va maxsus o‘lchovda kesilgan mahalliy shirinlik nomi; ***pashmak*** – sho‘radoshlar oilasiga mansub, tanasi qalin tola va tangachalar bilan qoplangan bir yillik o‘simlik [O‘TIL, III jild, 2022:698]; ***shirchoy*** – (forscha+xitoycha – sutli choy) maromi bilan choy, tuz, sariyog‘ va murch solib qaynatilgan sut; ***shirchoy*** – atirgullilar oilasiga mansub, ildizi bo‘yoq va ishqor moddalariga boy ko‘pyillik o‘t [O‘TIL, VI jild, 2023:647]; ***obaki*** – *“suvli, suyuq; sersuv, shirali”* ma’nosini anglatib, oq chillakiga o‘xshash, o‘rtapishar mahalliy uzum navi, ***obaki*** – shakar qiyomidan tayyorlangan shirinlik turi [O‘TIL, III jild, 2022:422] kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili oziq-ovqat mahsulotlari nomlari orasida leksik-semantik munosabatlar ancha taraqqiy etgan bo‘lib, bu ayniqsa o‘zlashma nomlar orasida ham bo‘y ko‘rsatmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari leksik-semantik guruhining semantik aloqalarini belgilab borish, o‘zlashma nomlar semasidagi ma’no torayishi va kengayishi, ma’noning ixtisoslashuvi kabi hodisalarni aniqlash kelajakda assotsiativ va ideografik lug‘atlar uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Турсунов У, Мухторов А, Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик– Тошкент: Ўзбекистон, 1992. − Б. 108.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. II jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2023, 641-706-betlar
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. III jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022, 278-422-698-betlar.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. IV jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2022,173-502-betlar.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli. VI jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2023. –B. 647.

NAZAR ESHONQULNING “BAHOVIDDINNING ITI” HIKOYASIDA IT OBRAZI

Qurbonova Gulmera Akbar qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktorant.
E-mail: asalakbarova97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nazar Eshonqul qalamiga mansub “Bahoviddinning iti” hikoyasida qo’llangan it obrazi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Nazar Eshonqul, “Bahoviddinning iti” hikoyasi, tasavvuf, metamorfoza, shaxs kamoloti

Аннотация: В данной статье говорится об образе собаки, использованном в рассказе Назара Эшангула «Собака Баховиддина».

Ключевые слова: Назар Эшанкул, история «собаки Баховиддина», тасаввуф, метаморфоза, развитие личности.

Annotation: This article talks about the image of a dog used in the story "Bahoviddin's Dog" written by Nazar Eshanqul.

Keywords: Nazar Eshanqul, the story of "Bahoviddin's dog", mysticism, metamorphosis, personal development

“Bahoviddinning iti” hikoyasining tarixiy konteksti

Nazar Eshonqulning “Bahovuddinning iti” hikoyasida tarixiy voqealar haqida to’g’ridan – to’g’ri ma’lumot berib o’tilmagan bo’lsa-da, unda buyuk din peshvosi Muhammad payg‘ambar avlodlariga mansub sayyidzodalardan ekanligi qayd etilgan va ota tomondan 11-imom Imom Xasan al-Askariyning ikkinchi o‘g‘li Sayyid Ali Akbarni avlodi hisoblanadigan Bahouddin Naqshbandning nomiga to’xtalib o’tilgan.

“Bahoviddinning iti” hikoyasi haqida asosiy faktlar

- **To‘liq sarlavha**: Bahoviddinning iti
- **Qachon yozilgan:** 2008-yil
- **Nashr qilingan:** 2008-yil
- **Janr:** To‘qima
- **Sodir bo‘lish joyi:** Toshkent
- **Klimaks**: Rejissor yordamchisining it bo’ynida rejissor taqib yuradigan charm tumorni ko’rishi
- **Antagonist:** Bosh muharrir
- **Nuqtai nazar:** Birinchi shaxs (asosan, rejissor nomidan, hikoya oxirida rejissor yordamchisi nomidan)

Quyida esa, biz hikoya ichida qo’llangan mavzular va ramzlarni tahlil qilib o’tamiz.

“Tasavvuf” mavzusini tahlil qilish

“Bahoviddinning iti” hikoyasi nafsni yengib o‘tgan insonning nafsiga qul bo’lgan insonlar orasida yashashdan ko‘ra hayvonlar orasida o’zligini saqlab qolgan holda yashashni ma’qul ko‘rgan inson haqida. Birgina asarning bosh qaahramoni bo’lmish rejissyor obrazi orqali bugungi kunda nafs girdobiga tushib qolgan odamlar hayotini go‘zal hikoya orqali ko’rsatib beriladi, itga yaqin bo’lishi uni odamgarchilikdan yiroqlashtirmagani, balki itdan ham battar bo‘lgan insonlardan yuz o‘girgani va pok yo’lga tushgani tasvirlanadi. Mumtoz adabiyotda nafs itga qiyoslanadi, Alisher Navoiy “Nafs itin qilsang zabun, Olamda yo‘q sendek shujo” deya nafsga juda chiroyli ta’rif beradi, ammo bu hikoyadagi it obrazi “inson botinidagi itlik” emas, nafs ishidan tiyilib, haqiqiy insonlik maqomini anglab yashashga intilayotgan, o‘zgarishga yuz burgan odam xarakterini ochib berilgan. Rejissyorni ta’qib etgan mungli tovush aslida insonni nima uchun dunyoga kelganligi haqidagi ogohlik tovushi, uni turli so’roqlarga duchor qilgan vijdon tovushi. Hikoya boshlanishida tanlovda g’alaba qozonish uchun tabiatdagi tabiiy tovushni yozib olishlari kerakligi va qandaydir bir mungli uvillashning bu yozuvga xalal berayotganligi asar qahramonlari bilan birga o‘quvchining ham hayolini band qiladi. Yozuvchi aynan nega nafs timsolini itning g‘ingshib turgan mungli ovozi orqali ifodalaydi? O‘zbek adabiyotidagi yana bir yangilik insonga xos bo‘lgan belgilarning tovushlar orqali berilishidir.

- “Ertasiga ham, keyingi kunlar ham men bog‘ning bir chetida o‘tirib, ko‘zlarimni yumgancha kunimni shu holatda, musibat va anduhdan titrab o‘tkazdim. Men uvillayotgan itni ko‘rgim, uning g‘amiga sherik bo‘lgim, musibat ezgan boshini silagim kelardi. Endi bir umr bu noladan ham, itdan ham ayrilolmaydiganday edim. Ko‘zlarimni ochganimda uvillash yo‘qolar, yumib olishim bilan qulog‘im tagida paydo bo‘lar, meni o‘z ohangiga olib kirib ketardi. Uvillashda xo‘rlik va haqorat to‘la edi. Mahkumlik va mutelik, ojizlik va zulm qorishiq edi. Bu xo‘rlik bilan odam yashashi mumkin emasdi. Men ko‘zlarimni ochib, «Qayerdasan, nega meni bunchalik ezasan, kel, seni ko‘ray, maqsading nima?!» deb pichirlardim. Pichirlashim qulog‘im tagida xuddi hayqiriqday sado berardi. O‘shanday lahzalarda men bir narsani bilib qoldim: ko‘zimni yumishim bilan mening ichimdan nimadir tashqariga sakrab chiqib ketar, menga o‘sha sakrab chiqib ketgan narsa itday bo‘lib tuyular, ammo mening ichimda itni maqulladi deya bu shubhani inkor qilardim. Asta-sekin boqqa kelishim bilan ichimdan sakrab chiqib ketgan sharpaning itga o‘xshashligiga ishona boshladim”. [N.Eshonqul,2022; 497]. Asardan olingan ushbu parchada inson nafsini o’z ichidan chiqib ketayotgan itga qiyoslaydi.

Hikoyadagi ziyoli, kasb-korga ega, jamiyatning faol a’zosi bo‘lgan shaxs nega dunyodan yuz o’girdi? Aslini olganda, shakl o‘zgarsa-da, mohiyat o‘zgarmay qolaveradi. Yer yuzidagi har bir mavjudlik Alloh sababli bo’lgani holda, asar qahramoni ham alal-oqibat o’z asliyatiga qaytadi va u bilan birlashadi. Tasavvuf ilmida ham shunday. Albatta, bu ortga qaytish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning uchun nafsni yengish, yo‘l topa olish, ma’rifat hosil qilish kerak. Bu bosqichlar esa pir-murshidlik an’anasida qaror topadi. Komillikka erishish uchun bu yo‘lni o‘zidan avval bosib o‘tgan pirdan maslak istaladi. Go‘yo Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridagi qushlar ulug‘ visolga yetishish uchun simurg‘ni qidirib, yakunida o‘zlari ham simurg‘ga aylanganlaridek. Buyuk visolga oshiqlar “tolibi sodiq”qa evriladilar, bu yo‘lda sobit bo‘ladilar: go‘yo hikoya epigrafida keltirilgani kabi: “…Shayx u go‘zalning jamolini ko‘rish umidida yor ko‘chasidagi itlar orasiga qo‘shildi”.[Eshquvatov J, 2021, 776]

Umuman olganda, Qalbda Ishq va Iymon hamda pirning ko‘rsatmalari orqali asl mohiyatni tushunishga yordam beradi.

Itning musibatli nolasi tashlandiq bog’ bilan o’zaro chambarchas bog’liq. Har ikkalasida ham ojizlik, har qanday hashamat va dabdabadan holi azaliy haqiqatlar mujassam. Insonning Haqqa yetishishi uchun shakl va makon to’sqinlik qila olmaydi, vaqt esa bu yetishuvni ta’minlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

“Metamorfoza” mavzusini tahlil qilish

Nazar Eshonqulning “Bahovuddinning iti” hikoyasi metamorfoza (organizm tuzulishining tubdan o’zgarishi) asar yakunida sodir bo‘ladi. Hikoyada rejissorning itga aylanib qolishi yozuvchi uslubiga xos ramziy-timsoliy tasvir hisoblanadi. Bu haqida adabiyotshunos olim B.Jovliyev shunday yozadi: “Qahramon “it”ning tovushi bilan o‘zining kibridan voz kechadi, oddiy insoniylik qiyofasiga – ilohiy maqomga qaytadi. Vafo, sadoqat, faqirlik, komillik mumtoz adabiyotda ma’naviy yetuklik timsoli sifatida sharhlanadi. Bu fazilatlardan uzoq yashayotgan zamonaviy kasb egasi bo‘lmish rejissor tashlandiq bog‘ga qaytgach, bu yerda “it” qiyofasidagi o‘zligiga duch keladi. O‘zligi bilan uchrashgan qahramon faqir va gadoy bo‘lsa ham bir umr o‘zligi bilan qolishni ma’qul ko‘radi” [Jovliyev B, 2023:90]

O’quvchi e’tiborini tortadigan jihati shundaki, syujetda badiiy metamorfozaning qo’llanishidir.

Yuqoridagi fikrlarimiz tasavvuf va metamorfoza bu hikoyada tilga olingan bir mavzu bo’lsa, asarda boshqa bir mavzu ham ta’kidlab o’tilganki, bu inson erki masalasi. Asardan olingan quyidagi parchaga e’tibor qilaylik:

“Ko‘zlarimni ochganimda uvillash yo‘qolar, yumib olishim bilan qulog‘im tagida paydo bo‘lar, meni o‘z ohanggiga olib kirib ketardi. Uvillashda xo‘rlik va haqorat to‘la edi. Mahkumlik va mute’lik, ojizlik va zulm qorishiq edi. Bu xo‘rlik bilan odam yashashi mumkin emasdi”.

Nazar Eshonqul asarlarining asosiy mavzusi bo‘lmish erkinlik va ozodlik ruhi ushbu asarda ham yetakchilik qiladi. G‘arb adabiyotining eng keng tarqalgan mavzularidan biri bo‘lgan shaxs ozodligi, uning jisman va fikran erkinligi masalasi ushbu hikoyaning yana bir ma’noviy qatlamini tasvirlaydi. Hikoyadagi metamorfozaik tasvir bu erkinligidan ajralgan inson fojiasini ham ifodalaydi. Demak, matndagi metamorfoza bir paytning o‘zida ikkita: ham diniy-tasavvufiy, ham ijtimoiy-falsafiy g‘oyani tashishga xizmat qilmoqda.

“Shaxs kamoloti” mavzusini tahlil qilish

It orqali yozuvchi insonning psixologik holatini bayon qiladi va uning o’y-fikrlari, butun vujudi orqali his qilayotgan tuyg’ularini, mungli nolani qayerdan paydo bo’layotgani, ko’ziga itning ko’ringani, uning uvillashiga alohida urg’u berib o’tadi. Chunki muallif fikricha, it odamlarni nimadandir ogoh qilish uchun qayg’uli nola qilib, hammani hattoki, ularning zamonaviy uskunalarini ham o’ziga bo’ysundiradi. Itning mahzunli nolasi kishini o’z hayollariga tubiga sho’ng’ib ketishiga olib keladi. Bu esa itning qanday hayvon ekanligi, nolasining nega buncha sirliligi borasida hammani qiziqtirib qo’yadi.

Hikoyada itning mahzunli nolasi asl haqiqat ekanligi, uning oldida dunyodagi barcha ohanglar yolg’on ekanligi ta’kidlanib, asar qahramonining bu nolaga haligacha nega umuman

e’tibor bermagani, nima uchun bu tovushning boshqa tovushlar zamirida singib ketgani haqida o’yga toladi.

Shuningdek, it obrazi inson qalbidagi dard, alam bilan birga uni qiynayotgan vijdon azobini ham aks ettiradi. “Mening itim uvillar”, deya yozuvchi haqiqatga yetish yo’lida qiynalgan inson siymosini gavdalantirar ekan, insonning haqqa tomon intilishi, vijdon azobidan qutula olmayotgani, butun vujudi-yu o’y-hayollarini faqat it nolasi qamrab olganini tasvirlaydi. Bundan kelib chiqsak, it haqiqat va vijdonning ramzi sifatida ham qo’llangan deyishimimiz mumkin.

Insonning ichidagi it iymon- insof ramzi hisoblanib, u insonning o’zini to’laqonli anglashi bilan uzviy bog’liqdir. Chunki qachonki inson o’zini to’la anglab, insofli, vijdonli, iymonli, haqiqatgo’y shaxs sifatida kamolotga yetsagina, uning siyratida it timsoli gavdalangan bo’ladi. O’zining haqiqat yo’lini topa olgan shaxs esa Bahoviddining iti misolida tanlanib, u har taomonlama pok, iymoni butun kishini anglatadi. Bahoviddin kabi avliyodek insonning itiga aylanish, insonning o’zligini anglab, pok iymonga ega bo’lish kabi ma’nolarda qo’llaniladi.[Umarova F, 2024: 3]

“Bahoviddinning iti“ hikoyasi personaji itga aylanib yoriga, ya’ni saodatga erishyapti. Uning inson bo‘lib yurgan kezlardagi qalbini doimiy egallab yuradigan iztirob va zerikishga diqqat qiling. Insonlikdan voz kechib itga aylangach, qalbida minglab ilohiy quvonch yulduzlari porlay boshlaydi. Insonning itga aylanishi jarayoni judayam qiziqarli hodisa. Bu hodisa zamiridagi ma’no qatlamlari esa, o‘quvchini mulohazaga, mushohadaga undaydi. “Bahoviddinning iti” hikoyasida esa inson itga aylanganidan keyingina o‘zining inson ekanligini sezyapti. Inson ikki marta – birinchisida fiziologik, ikkinchisida psixologik jihatdan tug‘iladi. Jismoniy tug‘ilishda odam ona qornini tark etib, alohida mavjudlikka aylanyapti. Psixologik jihatdan qayta tug‘ilish esa, o‘zgalarga fikriy-hissiy qaramlikdan butunlay xalos bo‘lishdir. “Bahoviddinning iti” hikoyasi qahramoni esa psixologik jihatdan qayta tug‘ilish lazzati naqadar ilohiy bo‘lishini sezib, saodatga erishyapti.

“It” ramzini tahlil qilish

Hikoyada berilgan it ikki xil timsolni ifodalab kelgan bo’lib, birinchisi, nafs ramzi bo’lib keladi. Hikoya davomida rejissorning uvillashga quloq solib o’tirganida, o’zining ichidan itga o’xshash nimadir tashqariga sakrab chiqib ketishini payqaydi. Ikkinchisi esa, haqiqat, vijdon, iymon va insof ramzi bo’lib keladi. Uvlashi chog’ida it nafs qiyofasida rejissorni hayolan ming bo’lakka bo’lar, keyin esa iymon va vijdon bo’lib, yana uni parchalarini yig’ib kelardi.

“It uvlashi” ramzini tahlil qilish

It uvlashi- haqiqat yo’liga chorlov timsoli sifatida kelgan. Dastlab, bu chorlovni elas-elas eshitganday tuyilgan rejisso r, keyinchalik bu tovushni aniq-tiniq eshita boshlaydi va ushbu nolaga maftun bo’lib qoladi. Bu chorlov hammaga har xil ta’sir qiladi. Barcha uni shunchaki itning yoqimsiz uvillashi deb bilsa, aksincha rejissor ushbu mungli tovush unga nima demoqchi ekanligini anglashga harakat qiladi.

“Tashlandiq bog’” ramzini tahlil qilish

Hikoyada ko’p bora tilga olingan tashlandiq bog’- dunyo asl mohiyati, haqiqiyligi ramzi deyishimiz mumkin. Bog’ barcha soxtaliklardan xoli bo’lib, tabiatning asl ko’rinishi hamon saqlanib qolgan. Haq yo’lini topgan kishilarning ko’pchiligi dunyodan yuz o’girib, uzlatga

chekingani kabi rejissor va iti ham shaharning g'ala-g'ovur, rivojlangan qismi qolib, ushbu xiyobonda vaqt o'tkazishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshquvatov J.B. Cognitive interpretationof the animalistic genre. Maqola. 15.04.2021.
2. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/yangi-avlod-ovozi-suhbat
3. Jovliyev B. Badiiy asarda mifopoetik talqin va badiiy obraz (Yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari misolida) : Filol.fanlari.fals.dokt....diss. – Toshkent, 2023. –B.90
4. N.Eshonqul. Saylanma I. Toshkent:.2022
5. Umarova F.Sh. The symbol of the dogin the story of "Bahoviddinning iti" by Nazar Eshonqul. Maqola. 2024

International scientific-practical conference: Vol.2 / No. 18.10 (2024).
«PROBLEMS OF RESEARCH AND EDUCATION OF THE UZBEK LANGUAGE».
Proceedings homepage: https://www.myscience.uz/index.php/language

5-SINF ADABIYOT DARSLIGIDA MAQOLLARNING QO'LLANISHI VA UNING SEMANTIC, LINGVISTIK TAHLILI

Farmonova Nazirabegim Sadriddinovna
Osiyo xalqaro universiteti 3-FT (o')-24 guruh talabasi

Bobojonova Dilnoza Oxunjonovna
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi assistenti
E-mail: dilnozabobojonova22@gmail.com

Annotatsiya: "Maqol" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, <<so'z>> degan ma'noni anglatadi. Uni <<otalar so'zi>> ham deydilar.[1] Maqol azal-azaldan, ota-bobolarimizdan bizga meros qilib qoldirilgan xalq og'zaki ijod ma'sulidir. Maqollar og'izdan og'izga, avloddan avlodga o'tib borgan. Xar bir maqol zaminida qandaydir ma'no mohiyat yotganligi tufayli, har bir millat uni tarbiya quroli sifatida ishlatib kelingan. Maqollarda birgina tarbiya bo'lib qolmay , ularda har bir millatning urf - odati, milliy qadriyatlari mujassamlangan. Shungadir maqollarni «otalar so'zi» deb yuritiladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, maqol, "Zarbulmasal", she'r, sipoh, hut, omoch, yer tanobi, hammol, qantar.

Maqollar bizning tilimiz ko'rki va bezagi. Bola tarbiyasida, uning dunyo qarashini o'stirib borishda maqollarning mohiyati ,tarbiyaviy ahamiyati 5-sinf adabiyoti misolida ko'ramiz. Maqollar turli xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, she'riy shaklda. Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari tarkibida 300 dan ortiq maqol bor. Yoki, Sulaymonqul Rojiy o'zining "Zarburmasal" asarida 400 dan ortiq maqolni she'riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq hodisadir.[2] Bola dunyoga kelar ekan, kattalarni, atrof-muhitni kuzatib, ularga taqlid qilgan holda o'z dunyo qarashini, psixologiyasini rivonlantiradi. Maktabgacha yosh davri 3-6,7 yoshni tashkil etadi. Bu paytda bola juda qiziquvchan bo'ladi, hamma narsalarni o'rganishga intiladi, miyasi informatsiyani tez qabul qilib olishga tayyor. Maqol, she'r, tez aytishlar, qo'shiqlarni tez o'zlashtirish qobiliyatiga ega. Shu davrda bola yoshiga mos ko'proq maqollar o'rgansa, uning ma'nosini tushunib yetsa, bu uning, ya'ni bolaning, nutq rivojini va boyligini, fikrlash doirasini o'stirishga juda yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Maqollar orqali shaxsiy fikrga ega bo'lishni o'rgana boshlaydi. O'zligini anglashga yordam beradi. Keyingi qadam maktab. Maktab odob-ahloq bilim maskani. Bola maktabdan boshlab saviyasini kuchaytirib boradi. Maktabda o'zi xohlagan fanlarni, turli xil qiziqarli o'yinlarni, shuningdek, nutqini rivojlantirib beradigan narsalarni o'rganadi**.** Bola qancha ko'p narsa yodlasa, shuncha xotirasi mustahkamlanadi. Shuning uchun ham maktabda doimo bolalarga narsa o'rganishni tavsiya etishadi.

Azal-azaldan ota-bobolarimizning fikrlari, xulosalari bizga maqol shaklida qolgan. Maktab darsliklarida ham hozirda maqollar rivojlangan. Misol qilib, 5-sinf darsligini olsak, xilma-xil maqollar qo'llangan. Do'stlik, mehnat, ota-ona, botirlik, vatan va turli xil mavzularda maqollar o'rinli qo'llangan. Har bir ishlatilgan maqol bolaning tarbiyasiga, uning odob – ahloqiga, fikr – mulohazasini kengashtirishga va albatta tarix bilan tanishtirish uchun ham o'tmish haqidagi bilimini oshirish uchun ham maqollarni qo'llash lozim. Har bir professional o'qituvchi ham

darslarda o’z o’rnida darsga oid maqol bilan gapni boshlaydi. Birgina maqol bilan butun mavzuni ochib berib, bolaning yodida qolishi uchun ham yaxshi foyda beradi. Bolaning zamonaviy yo’llar bilan yondashishi uchun o’zining fikrini emin – erkin aytishi uchun ham qo’l keladi. Har bir bolaning o’zining shaxsiy fikri bo’ladi. Uning har birini diqqat bilan eshitib, muhokama qilish esa, ustozlarga ham bog’liq. Masalan, birgina maqolni ustoz darsning boshida aytsa, uni muhokama qilishni bolalarga topshirib, har birining fikrini bilib olsa, ham dars qiziqarli o’tiladi ham bolaning fikrlash doirasini aniqlasa bo’ladi. Noan’anaviy usul bilan darsga kirishilgan holda bolani shu tarzda ham qiziqtirsa bo’ladi. Bola esa darsda zerikib qolmaydi. Darslikda quyidagi ko’pgina maqollarni uchratishimiz mumkin:

1. Ona yurting – oltin beshiging.
2. Yeridan ayrilgan yeti yil yig’lar,
   Elidan ayrilgan o’lguncha yig’lar.
3. Bulbul chamanni sevar sevar,
   Odam – Vatanni.
4. Daraxtni yer ko’kartiradi,
   Odamni el ko’kartiradi.
5. Ona yurting omon bo’sa,
   Rangi ro’ying somon bo’lmas.
6. Xalqqa xizmat – oliy himmat.
7. El qo’risang, o’zarsan,
   Qo’rimasang, to’zarsan.
8. Vataning tinch – sen tinch!
9. Er yigit – elda aziz.
10. Ko’pdan quyon qochib qutulmas.
11. Birlashgan o’zar,
    Birlashmagan to’zar.
12. Bo’linganni bo’ri yer,
    Ayrilganni ayiq yer.
13. Bir kun tuz ichgan joyingga,
    Qqirq kun salom ber!
14. Bir kun urush bo’lgan uydan
    Qirq kun baraka ketar.
15. Bilim baxt keltirar.
16. Ilmsiz – bir yashar,
    Ilmli – ming yashar.
17. Tilni bilish – elni bilishga yo’l ochar.
18. Aql – yoshdan,
    Odob – boshdan.
19. Ilm – dilning chirog’i,
    Maktab – ilm chorbog’i.
20. Bilagi zo’r birni yiqar,
    Bilimi zo’r mingni yiqar.
21. Kitob – bilim manbayi.

22. Olim bo’lsang, olam seniki!
23. Avval o’yla, keyin so’yla.
24. Aql bozorda sotilmas.
25. Yaxshi bilib so’zlar,
    Yomon tilib so’zlar.
26. Tilga ixtiyorsiz –
    Elga e’tiborsiz.
27. Yaxshi bilan yursang,
    Yetarsan murodga.
    Yomon bilan yursang,
    Qolarsan uyatga.
28. Qarisi bor uyning parisi bor.
29. Qunt bilan o’rgan hunar,
    Hunardan rizqing unar.
30. Tikansiz gul bo’lmas,
    Mashaqqatsiz – hunar.
31. Birni sochsang yerga,
    Mingni berar elga.
32. Bugungi ishni ertaga qo’yma!
33. Vaqting ketdi – naqding ketdi.
34. Yer to’ydirar,
    O’t kuydirar.
35. Mehnat, mehnatning tagi – rohat.
36. Oltin o’tda bilinar,
    Odam – mehnatda.
37. Nima eksang, shuni o’rasan.
38. Yurgan – daryo,
    O’tirgan – bo’yra.
39. Qimirlagan qir oshar.
40. Qolgan ishga qor yog’ar.
41. Hunarli kishi xor bo’lmas.
42. Ko’kka boqma, ko’pga boq!
43. Duo bilan el ko’karar,
    Yomg’ir bilan yer ko’karar.
44. Do’st achitib gapirar,
    Dushman – kuldirib.
45. Ota rozi – Xudo rozi.

Maqollar asosan, vatan, do’stlik, til, aql, ota haqida yozilgan. Chunki 5-sinfda bolalar uchun ham shu mavzularni o’zi yetarli deb o’ylayman. Bolalar uchun qiyin maqollar berilsa, xotirasida qolmasligi mumkin. Darsikda esa maqol o’z o’rnida, o’z mavzusida yaxshi qo’llangan.

Ota rozi – Xudo rozi. Bu maqol ham bejizdan 5-sinf darsligida qo’llanilmagan. Otani qadrlashni bolaga yoshlikdan uqtirish zarur. Doimo ota – onani ardoqlab ularni asrash zarur. Qiz

bola ham, o'g'il bola ham ota – onasini rozi qilishi kerak. 5-sinf bolalari to'g'ri, sovg'a berib xursand qila olmasligi mumkin, ammo a'lo baholarda o'qib ham xursand qilishi mumkin. Otani ko'ziga tikka qarash mumkinmasligini, onaga gap qaytarish mumkin emasligini ham shu maqol bilan birgalikda eslatish zarur. Hatto ota – onamiz haqida ham buyuk bobomiz, ya'ni muhaddislar imoni, Imom Buxoriy ham " Al – jome as – sahih" hadis kitoblarida ham aytib o'tganlar:" Otani rozi qilgan odam Xudoni ham rozi qilgan hisoblanadi. Qarang otani martabasi qanchalik baland….".

Kitob – bilim manbayi. Inson qancha ko'p kitob o'qisa dunyo qarashi ham shuncha kengayadi. Hatto bola ona qornida bo'lganda ham onalar kitob o'qishadi. Inson qancha izlanib, kitob o'qib, yangi ma'lumotlarga ega bo'lsa o'zining hayoti ham keskin o'zgaradi. 5-sinf darsiligida ham bu maqol bejiz qo'llanmagan. Kitobni asrash kerakligi u bilimning eng chuqur manbayi ekanligini bola bilib, anglab olishi uchun ham shu maqol qo'llanilgan.

Avval o'yla keyin so'yla. Inson doim ham xohlagan joyda, xohlagan gapini aytishi xato. Avval yaxshilab aytmoqchi bo'lgan gapini o'ylab, ming bor fikr yuritib keyin aytishi kerak. Chunki u o'sha gapirgan gapi bilan saviyasini, bilimini, odobini ko'rsatadi. Ko'pincha yosh bolalar o'ylamasdan gapirishadi. Shu narsa bo'lmasligi uchun ham shu maqol qo'llanilgan. Sababi bolaga tarbiyani boshidan berish kerak.

Vaqting ketdi – naqding ketdi. Hozirgi kunda bolalar vaqtini to'g'ri taqsimlab bilmaydi. Keraksiz narsalar uchun vaqt ajratishadi. Buning oqibatida esa bola kundan kunga saviyasiz bo'lib boradi. Masalan, oddiygina telefonni olsak, bolaga yoshligidanoq jim bo'lishi uchun qo'liga telefon berib qo'yamiz. Nimaga o'sha bolaga vaqt ajratib kitob o'qib, kitobdagi turli xil rasmlarni ko'rsatmaymiz? Bolaning miyyasiga esa bu singib boradi. Agar hozir yig'lasam, injiqlik qilsam, onam telefonni beradilar deydi. Chunki bu bola psixologiyasi. Telefonni olish uchun ham injiqlik qilib, xashxasha qiladi. Katta bo'lgan sari ham telefonga o'ch bo'ladi. To'g'ri telefondan foydalanish kerak, vaqti – vaqti bilan. Turli xil onlayn kitoblar, turli xil qiziqarli ma'lumotlar qidirish uchun ham telefondan foydalanish kerak. Kun bo'yi vaqtni behuda o'tkazish esa bu – ahmoqlik.

Dostonlarda ishlatilgan maqollar ham hozirgi kunga kelib ishlatiliyapti. Agar e'tibor berib qarasak, har bir dostonda ham maqol, ibratli so'z yoki maqolni ochib berish uchun muhokamasi ishlatiladi. Hatto o'sha eski zamonda ham maqollar bilan bolaning onggiga uqtirishgan. Xullas, birgina maqol inson hayotini yaxshi tomonga o'zgartirish xususiyatiga ham ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUGOTIT TURK" DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
2. Bobojonova, D. (2024). TYPES OF OCCUPATIONS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE (within the profession of blacksmithing). Modern Science and Research, 3(2), 739–746. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29461 More Citation Formats
3. Bobojonova , D. . (2024). MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS. Modern Science and

Research, 3(1), 687–693. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28380 More Citation Formats

4. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). Mahmud Kashgari's Work "Devonu Lug'otit Turk" is an Important Scientific Heritage. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 538–543. Retrieved from https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2169
5. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. Modern Science and Research, 2(12), 742–748. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27184
6. Bobojonova, D. (2023). THE ROLE OF MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE. Modern Science and Research, 2(4), 568–5672. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/19394
7. Okhunjonovna, B. D. (2023). Comparative Analysis of Proverbs in "Devonu Lug`Otit Turk" and Currently Available. European Journal of Higher Education and Academic Advancement, 1(2), 194–198. Retrieved from https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJHEAA/article/view/139
8. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). A Proverb is a Product of Folk Wisdom. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 333–338. Retrieved from https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1509
9. Oxunjonovna, B. D. (2022). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISSONIY INTERFERENSIYANING KO'RINISHLARI. PEDAGOGS jurnali, 14(1), 22-25.
10. Bobojonova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS. Modern Science and Research, 2(10), 670–675. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25751
11. Bobojonova, D. (2023). MAHMOUD QOSHGARI'S "DEVONU LEXICOTIT TURK" AND ITS PLACE IN LINGUISTICS. Modern Science and Research, 2(10), 538–540. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24506
12. Bobojonova, D. . (2023). ANALYSIS OF IDIOMS THAT PRESERVE BOTH FORM AND CONTENT IN MAHMUD KASHGARI'S "DEVONU LUG`OTIT TURK". Modern Science and Research, 2(9), 64–67. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23909

QO‘SHMA GAPLARDA LISONIY STRUKTUR KENGAYTIRUVCHILAR MAQOMI

Sulaymanova Dilobar Nishanbekovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Tayanch doktorant (PhD).
E-mail: dilobar7796@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sodda va teng tarkibli qo‘shma gaplar ([WP_m, WPm] allomodeli)da markaz va qurshov munosabatining voqelanishi, gapning lisoniy sintaktik qurilishidagi so‘zlar valentligi tahlili orqali aktantlarning pog‘onaviylik (shajara daraxti - UD)da o‘rinlashuvi, gap va so‘z kengaytiruvchisining maqomi tahlil qilinadi. Qo‘shma gap komponentlarida gap va so‘z kengaytiruvchilarining kesim (atov birlik[W]+kesimlik ko‘rsatkichi [P_m])ni to‘ldirishdagi o‘rni; mutlaq markaz - kesimga bilvosita yoki bevosita bog‘langan aktantlarning nisbiy pog‘onaviy o‘rinlashuvi o‘zbek nutqidagi gaplar misolida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: sodda gap, ([WP_m, WP_m] allomodeli, teng tarkibli qo‘shma gap, shajara daraxti - UD, gap kengaytiruvchisi, so‘z kengaytiruvchisi

Annotation: This article analyzes the realization of center and periphery relationships in compound sentences with equal components (the allomodel [WP_m, WP_m]). It examines the hierarchical positioning of actants (UD parse tree) through the analysis of word valence in the linguistic syntactic structure of the sentence, and the status of sentence and word expanders. The role of sentence and word expanders in compound sentence components in complementing the predicate (nominal unit [W] + predicate indicator [Pm]) is explored. The relative hierarchical arrangement of actants directly or indirectly connected to the predicate, which serves as the absolute center, is illustrated using examples from Uzbek speech.

Keywords: [WP_m, WP_m] allomodel, compound sentence with equal components, UD parse tree, sentence expander, word expander

Kirish. Har qanday nutqiy faoliyat markazini inson omili tashkil etar ekan, u sezgi organlari orqali obyektiv borliqdagi olam unsurlarini umumlashtirgan holda ongda aks ettiradi va til belgilari orqali tinglovchiga uzatadi. Nutqiy faoliyatda so‘zlash va tushunish, nutq hosil qilish va uni idrok etish jarayonlari almashinib turadi.

Ta’kidlash kerakki, har qanday lisoniy birlik shakl va ma’no birligidan iborat. Yuqori sath birligi bo‘lgan sintaktik birliklar xususan, soda va qo‘shma gaplar ham bundan mustasno emas. Shunday ekan, barcha lisoniy birliklarni bu ikki tomonning o‘zaro qanday munosabatda ekanini o‘rganish, ular o‘rtasidagi muvofiq va nomuvofiq jihatlarni yoritish katta ahamiyatga ega. [Asqarova, 1960. 14] [Qurbonova M. M, 2001. 177.]

Bunda kengaytiruvchilar semantik potentsiyasini ochib berayotgan hokim sozga nisbatan tobe mavqeda bo‘ladi, bu so‘z bilan [T-H] semantik munosabatlarga kirishadi. Tobe so‘z (aktant, kengaytiruvchi so‘z) kengayuvchi so‘z anglatgan denotat (narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holat va h.k)ga nisbatan atributiv, obyektli, adverbial kabi ma’noviy munosabatlarda turishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, ozimiznnng an’anaviy sintaktik tahlil omillarimiz va atamalarimizga ko‘ra so‘z kengaytiruvchisi (tobe so‘z) bilan hokim so‘z aniqlovchili,

to‘ldiruvchili va holli so‘z birikmalari hosil kiladi. Bundan tashqari, so‘z kengaytiruvchi bilan kengayuvchi so‘z denotatlari orasida agentiv munosabatlar ham (bajaruvchi- harakat)mavjud. [Степанова М.Д., Хельбиг Г., 1978] [Кацнельсон С.Д., 1987. - №3. -с.21] Kengayuvchi so‘z gap qurilishida kesimlardan boshqa konstruktiv bo‘lak mavqeyida kelganda uning kengaytiruvchilari, bu so‘z bilan birga atributiv, relyativ, adverbial munosabatli so‘z birikmalari (so‘z birikmalari zanjiri) hosil qiladi, [Мухин. -1987, -№6. -С.52-59] gapning konstruktiv bo‘lagi sifatida bunday so‘z birikmasining (so‘z birikmasi zanjirining) faqatgina hokim so‘zi o‘rin oladi, qolgan so‘z kengaytiruvchilari so‘zning hamrohlari, soyalari sifatida nutqiy gap tarkibiga kiradi va gapning lisoniy strukturasida o‘z mustaqil o‘rniga ega emas. Nutqiy voqelanishda bu pozitsiya bir necha so‘zli birikma bilan kelishi ham mumkin. [Теньер Л., 1988] [Кучкартаев И. 1977]

Uzoq vaqtlar mobaynida qo‘shma gapning asosan ifoda va qisman mazmun tomonlari o‘rganildi. Qo‘shma gap tadqiqining keyingi bosqichida ushbu sintaktik birlikning semantik jihatiga e’tibor kuchaydi, natijada mazmuniy (semantik) sintaksis yo‘nalish yuzaga keldi. A.Berdialievning tadqiqotlari ana shu yo‘nalishdagi o‘zbek tilshunosligidagi dastlabki ishlardandir. [Berdialiyev, 1989] Ma’lumki, qo‘shma gapning ma’noviy va struktur tasnifi ko‘p holda o‘zaro farqlanadi. Formal sintaksis qo‘shma gap tasnifida ko‘p hollarda ularning nutqiy belgi-xususiyati, zohiriy alomatiga tayanadi. Substantsial sintaksis tasnifi esa qo‘shma gapning lisoniy mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Qo‘shma gaplar turli talqindagi klassifikatsiyalardan biriga ko‘ra, lisoniy qurilish jihatdan tasnifida qo‘shma gaplar umumiy lisoniy qolip [WPm-WPm]da beriladi va ushbu invariant model o‘z navbatida quyidagi allomodellar ko‘rinishida guruhlanadi: [Ne’matov, Sayfullayeva, 2011. 240]

- [WP_m, WP_m]
- [$WP_m \rightarrow WP_m$]
- [WPm$\longleftrightarrow$$WP_m$]

*Teng tarkibli qo‘shma gaplar ([WP_m, WP_m] allomodeli).*Mazkur qo‘shma gap turining asosiy mohiyati shundan iboratki, uni tashkil etuvchi qismlar [WPm]ning fikriy mundarijasi, hukm ifodalovchi markazi sanalgan kesim alohida alohida grammatik ko‘rsatkichlar (NMTP) asosida shakllanadi va o‘z mustaqilligini saqlab qoladi. Shu bois ushbu allomodellarning nutqiy hosilalarini aksariyat holatlarda alohida qo‘llash orqali mustaqil sintaktik birlik-sodda gapga aylantirish mumkin. Bu konvertatsiyaning boshqa aspektdan berilgan izohi shuki, nisbiy mustaqil voqelana olish xususiyatiga ega bo‘lgan sodda gaplar muayyan nutqiy vaziyat talabi bilan turli bog‘lovchi vositalar yordamida intonatsion va ma’no, to‘xtam tugalligiga ega bo‘ladi hamda qo‘shma gaplarga xos integral xususiyatni voqelantiradi, ya’ni komponentlar gap pauzasi bilangina chegaralanadi. Jumladan:

1. Bahor keldi.
2. Dalalarda ishlar boshlandi.

Sodda gaplarni [WPm, WPm] allomodeli asosidagi teng tarkibli qo‘shma gaplarga xos umumiy tipologik qonuniyatlar asosida yaxlit butunlikka aylantirganda (*Bahor keldi, dalalarda ishlar boshlandi.*) komponentlar anglatgan fikr yaxlitligi shakllansa-da, ushbu bog‘lanish tabiati to‘la ifodalanmaydi. Nutqiy faoliyat ishtirokchilari (so‘zlovchi, tinglovchi) nutq vaziyatidan kelib chiqqan holda gaplardagi mavjud turli-tuman ma’noviy hukmlardan birini anglay oladi. [WPm, WPm] allomodeli asosidagi teng tarkibli qo‘shma gaplarning muayyan bog‘lovchili turida, ya’ni

bog‘langan qo‘shma gaplarda, tobe tarkibli (ergashgan) qo‘shma gaplarda [WPm WPm], shuningdek, mutanosib tarkibli qo‘shma gaplarda [WPm WPm] bog‘lanish tabiati - qismlarda ifodalangan voqea-hodisalar o‘rtasidagi munosabat [WPm, WPm] allomodeli asosidagi teng tarkibli qo‘shma gaplarning bog‘lovchisi turida (bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarda)giga nisbatan aniqroq ifodalanadi. [Sayfullayev, Mengliyev Qurbonov, Abuzalov, Boqiyeva, Yunusova, 2009]

Teng tarkibli qo‘shma gaplarda markaz qurshovlilik munosabatini, aktantlar (gap va so‘z kengaytiruvchilari)ning ushbu pog‘onaviylikdagi pozitsiyasi shajara daraxtida quyidagicha ifodalanadi:

Chizma №

Teng tarkibli qo‘shma gap [WPm¹+ WPm²]	*Obj S Adv [WPm] Obj S Attr* *Baxtni har kim o‘zicha tushunadi: kimgadir u orzular ro‘yobidir.* *[WPm]*

Baxtni har kim o‘zicha tushunadi: kimgadir u orzular ro‘yobidir teng tarkibli qo‘shma gap tarkibiy qismlaridagi so‘zlar valentligining tahlili quyidagicha:

Chizma №2

Shajara daraxti (UD)

[WPm¹



WPm²]



Chizma №3

Teng tarkibli qo‘shma gap [WPm¹+ WPm²]	*Obj S Attr [WPm]* *Kimgadir baxt orzular ro‘yobidir,* *Obj S Attr [WPm]* *kimgadir u yaqinlarining hayot ekanligi(dir).*

Chizma №4

[WP$_m$¹+ WP$_m$²+ WP$_m$³]	*Obj S Adv [WPm] Obj S Attr* *Baxtni har kim o‘zicha tushunadi: kimgadir u orzular* *[WPm] Obj S Attr [WPm]* *ro‘yobidir, kimgadir baxt yaqinlari sog‘lig‘i(dir).*

4-chizmada keltirilgan murakkab qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar aktantlarining maqomi, gap yoki so‘z kengaytiruvchisi vazifasida kelishini quyidagi shajara daraxti - UD tahlilida ko‘rish mumkin:

Chizma №5



Shajara daraxti - (*Universal Dependancy*) inson tilining morfosintaktik tahlili uchun asos bo‘lib, bugungi kunga qadar 100 dan ortiq tillarda shajara daraxt ibanklarini yaratishda qo‘llaniladi. So‘zlar orasidagi grammatik munosabatlar turli tillarda subyekt-predikat qurilmalarining morfosintaktik kodlanishini tushuntirish uchun asosiy vosita sifatida ishlatiladi, morfologik xususiyatlar esa so‘zlarning xossalarini ifodalaydi. Bu nazariya tipologik jihatdan xilma-xil tillarning tillararo izchil tahlili uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilgani sababli nafaqat kompyuter yordamida tabiiy tilni tushunishni, balki keng qamrovli lingvistik tadqiqotlarni ham qo‘llab-quvvatlaydi. [Marie-Catherine de Marneffe, Christopher D. Manning, Joakim Nivre, Daniel Zeman, 2021, 47]

Xulosa

Mazkur tadqiqotda tilning lisoniy tizimidagi markaz qurshovlilik munosabatining teng tarkibli qo‘shma gaplarda voqelanishi tahlil qilindi. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarda aktantlarning markaziy bo‘lak - kesim (atov birlik [W] + kesimlik ko‘rsatkichi [P_m])ni to‘ldirishdagi o‘rni; mutlaq hokim bo‘lak-konstuent (kesim)ga bilvosita yoki bevosita bog‘langan aktantlarning nisbiy pog‘onaviy-iyerarxik joylashuvi yoritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qurbonova M. M. O‘zbek tilshunosligida formal-funksional yo‘nalish va sodda gap qurilishining talqini. Filologiya fanlari doktori (DSc)… diss. – Toshkent, 2001. – B. 177.
2. Степанова М.Д., Хельбиг Г. Части речи и проблема валентности в современном немецком языке. -М., 1978.
3. Кацнельсон С.Д. К понятию типов валентности//Вопр.яз. -1987. - №3. -с.21.
4. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. -М.: Прогресс, 1988;
5. Мухин. Валентность и сочетаемость глаголов//Вопр.яз. -1987. -№6. -С.52-59
6. Кучкартаев И. Валентный анализ глаголов речи в узбекском языке. -Ташкент, 1977.
7. Asqarova M.A. Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar, Toshkent, 1960. – 14 b.
8. Berdialiyev A. Ergash gapli qo‘shma gap konstruksiyalarida semantik-signifikativ paradigmatika. T., 1989.

9. Ne’matov H.G‘., Sayfullayeva R. Zamonaviy o‘zbek tili. II jild. Sintaksis. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011. – 240 b.
10. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Qurbonova M., Abuzalova M., Boqiyeva G., Yunusova Z. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya , 2009. – 331 b.
11. Marie-Catherine de Marneffe, Christopher D. Manning, Joakim Nivre, Daniel Zeman. Universal Dependencies. Computational Linguistics: Volume 47, Issue 2, 2021. https://direct.mit.edu/coli/article/47/2/255/98516/Universal-Dependencies

O'ZBEK TILI TARIXI VA RIVOJLANISHI

Mamadaliyeva Shahzoda Tolib qizi
Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi.
E-mail: mamadaliyevashahzoda77@gmail.com

Annotation: In this article, the origin, history, development, dialects of the Uzbek language, which family the Uzbek language belongs to, characteristics of the Uzbek language, the Uzbek language alphabet, historical influences on the Uzbek language, Uzbek language literature, grammar, lexicon, information is provided.

Keywords: Uzbek language, dialects, history of the uzbek language, alphabet, historical influences, characteristics of the uzbek language, grammar, literature, lexicon.

Аннотация: В этой статье рассматриваются происхождение, история, развитие, диалекты узбекского языка, к какой семье относится узбекский язык, особенности узбекского языка, алфавит узбекского языка, исторические влияния на узбекский язык, узбекская литература, грамматика, лексика. , информация предоставлена.

Ключевые слова: Узбекский язык, диалекты, история узбекского языка, алфавит, исторические влияния, особенности узбекского языка, грамматика, литература, лексика.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili kelib chiqishi, tarixi, rivojlanishi, lahchalari shevalari, o'zbek tili qaysi oilaga mansubligi, o'zbek tili xususiyatlari, o'zbek tili alifbosi, o'zbek tiliga tarixiy ta'sirlar, o'zbek tili adabiyoti, grammatikasi, leksikasi, haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlari: O'zbek tili, shevalar, o'zbek tili tarixi, alifbosi, tarixiy ta'sirlar, o'zbek tili xususiyatlari, grammatilasi, adabiyoti, leksikasi.

O'zbek tili, Turk tillari oilasiga mansub bo'lib, asosan O'zbekiston va uning atrofidagi hududlarda so'zlashiladi. U O'zbekistonning davlat tili hisoblanadi va o'zining boy leksikasi, grammatikasi va adabiyati bilan ajralib turadi. O'zbek tilining tarixi ko'p asrlar davom etgan va turli bosqichlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek tilining paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi uning ona tilida so'zlashuvchilarning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek xalqi kabi bir millatning paydo bo'lishi turkiy va eron tillarini birlashtiruvchi bir qator etnik guruhlarning birlashishi bilan bog'liq edi. Buni orasida katta farq bo'lgan o'zbek lahjasidagi dialektlarning ko'pligidan bilish mumkin.

O'zbek tilining rivojlanish tarixini uch bosqichga bo'lish mumkin: qadimgi turkiy, qadimgi o'zbek va zamonaviy o'zbek tili davrlari.

Qadimgi turkiy til

Ushbu bosqich V-XI asrlarga tegishli. Turklar Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon qirg'oqlari bo'ylab hind-eron qabilalari aholisini asta-sekin chiqarib yuborishgan. Aloqa vositasi qadimgi turkiy til bo'lib, uning asosida keyinchalik ko'plab Osiyo tillari paydo bo'lgan. Bugungi kunda qadimgi turkiy yozuvning faqat o'sha davrga tegishli madaniy yodgorliklarda tasvirlangan qismlari mavjud.

Qadimgi o'zbek tili

Ikkinchi bosqich XI-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Shu vaqt ichida o'zbek tili ko'plab qo'shni tillar ta'sirida rivojlandi. Tilning shakllanishiga birlashgan va rivojlangan adabiy tilni yaratgan shoir Alisher Navoiy ulkan hissa qo'shdi. Bu shaklda u 19-asrning oxirigacha o'zgarishsiz ishlatilgan.

Hozirgi o'zbek tili

XX asrda zamonaviy o'zbek tilining shakllanishi boshlandi. Butun O'zbekiston aholisi tomonidan tan olingan Farg'ona lahjasi uning asosini tashkil etdi. Aholining aksariyati sartiya tili deb biladigan ushbu lahjada gapirishgan va uning karnaylari sartlar deb nomlangan. Etnik sartlar o'zbek xalqiga tegishli emas edi, ammo o'tgan asrning 20-yillarida "sart" so'zidan voz kechildi va mamlakat aholisi o'zbeklar deb nomlana boshladi. Adabiy til normalari yanada demokratiklashdi, bu esa uni ancha soddalashtirdi.

XIX yuzyillikning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha ishlatilib kelinayotgan til hozirgi o'zbek adabiy tili deb ataladi. „Turkiston viloyati gazeti" chiqa boshlagan vaqtdan (1870-yildan) to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o'zbek adabiy tilining ishlariga kiradi.

O'zbek tili XI yuzyillikdan boshlab mustaqil til kabi ko'rinishni boshladi va XIII yuzyillikda eski o'zbek adabiy tili shakllanib bo'ldi.

Eski o'zbek tilining o'sishi va saqlanishi buyuk Alisher Navoiyning oti bilan bog'liqdir. Navoiy eski o'zbek tilidan bilinmagan yetukligidan qo'llanib qaytarilmas asarlar yaratadi, bu tilni ilmiy tomondan chuqur o'rganadi va „Muhokamat-ul-lug'atayn" otli yirik ilmiy asar ham yozadi va unda o'zbek tilining boshqa tillardan kemtik emasligini ishonarli ko'rsatishlar bilan isbotlab beradi.

1. Dastlabki davrlar

O'zbek tilining tarixi miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Turk tillari, jumladan, O'zbek tili, milodiy 6-asrdan boshlab keng tarqalgan. Dastlabki Turk yozuvlari, masalan, G'arbiy Turk xakoniyati davrida yaratilgan Qadimgi Turk yozuvi orqali olib borilgan.

2. O'rta asrlar

O'rta asrlar davomida O'zbek tili rivojlanib, turli dialektlar va lahjalar shakllandi. Bu davrda O'zbekistonda turli madaniyatlar va tillar bilan aloqalar kuchaydi. O'zbek tilida yozilgan ilk adabiyot asarlari 9-10-asrlarda paydo bo'ldi. Mashhur shoirlar va olimlar, masalan, Alisher Navoiy, o'z asarlarida O'zbek tilining boyligini namoyon etdilar.

3. Yangilanish va rivojlanish

19-asrning oxiri va 20-asrning boshlarida O'zbek tili yangi bosqichga o'tdi. Mustaqillikka erishish jarayonida tilni rivojlantirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirildi. 1920-yillarda lotin alifbosi joriy qilindi, keyinchalik esa 1940-yillarda kiril alifbosiga o'tildi.

4. Mustaqillik davri

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, O'zbek tili davlat tili sifatida e'tirof etildi. Bu davrda O'zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab dasturlar amalga oshirildi. 1993-yildan boshlab, O'zbekistonda lotin alifbosiga qaytish jarayoni boshlangan.

5. Hozirgi holat

Bugungi kunda O'zbek tili o'zining boy leksikasi va grammatikasi bilan ajralib turadi. O'zbek tilida ko'plab ilmiy, adabiy va ommaviy axborot vositalari mavjud. Tilni saqlash va rivojlantirish uchun turli loyihalar amalga oshirilmoqda.

O’zbek tili asosan quyidagi omillar orqali shakllangan:

1. Turk Tili Oilasi:

O’zbek tili Turk tilining janubiy guruhiga kiradi. Turk tillari oilasi ko’p sonli tillarni o’z ichiga oladi, jumladan, qozon, qirg’iz, turkman va boshqa tillar. O’zbek tili o’zining asosiy xususiyatlarini bu oiladan olgan.

2. Tarixiy Ta’sirlar:

O’zbek tilining rivojlanishida turli tarixiy voqealar muhim rol o’ynagan. O’zbekiston hududida ko’plab turli xalqlar va madaniyatlar mavjud bo’lganligi sababli, O’zbek tili ko’p turli so’zlar va frazalarni qabul qilgan.

3. Arab va Fors Ta’siri:

Islom dini O’zbekistonga kirgandan so’ng, arab va fors tillaridan ko’plab so’zlar va tushunchalar o’zlashtirildi. Bu ta’sir O’zbek adabiyotida ham o’z aksini topdi.

4. Rus Ta’siri:

19-asrda Rossiya imperiyasi O’zbekistonni bosib olganidan so’ng, rus tili ham O’zbek tiliga ta’sir ko’rsatdi. Bu davrda ruscha so’zlar va grammatik tuzilmalar O’zbek tiliga kirib keldi.

5. Lotin va Kiril Alifbolari:

O’zbek tili dastlab arab alifbosida yozilgan, keyinchalik 20-asrning boshlarida lotin alifbosiga o’tildi. 1940-yillarda esa kiril alifbosi qabul qilindi. Hozirgi kunda O’zbekistonda yana lotin alifbosiga qaytish jarayoni davom etmoqda.

6. Dialektlar va Mahalliy Xususiyatlar:

O’zbek tilida turli dialektlar mavjud bo’lib, ular geografik joylashuvga qarab farqlanadi. Har bir dialekt o’ziga xos leksik va grammatik xususiyatlarga ega.

O’zbek tilining kelib chiqishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo’lib, u ko’p asrlar davomida shakllangan.

O’zbek tilining xususiyatlari:

1. Alifbo: O’zbek tili avval kiril alifbosida yozilgan, ammo 1990-yillardan boshlab lotin alifbosiga qaytish jarayoni boshlangan. Hozirda lotin alifbosi asosida yoziladi.
2. Dialektlar: O’zbek tilida turli dialektlar mavjud, masalan, qarluq, yuksak, surxondaryo va boshqa hududiy lahjalar.
3. Grammatika: O’zbek tili agglutinativ (qo’shiluvchan) til bo’lib, so’zlarning ma’nosini o’zgartirish uchun turli qo’shimchalar ishlatiladi.
4. Leksika: O’zbek tilining leksikasi o’z ichiga turli madaniyatlar va tillardan kelgan so’zlarni oladi. Bu, asosan, arab, fors, rus va boshqa tillardan olingan so’zlar bilan boyitilgan.
5. Adabiyot: O’zbek adabiyoti boy tarixga ega. Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon kabi mashhur shoirlar va yozuvchilar o’z asarlarida O’zbek tilining go’zalligini namoyon etganlar. XV yuzyillikdan XIX yuzyillikning ikkinchi yarmigacha qo‘llangan til eski o‘zbek adabiy tili deb otlangan. Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko‘plab ijod etganlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

Hozirgi holat

O’zbek tili hozirda ilmiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda faol ravishda qo’llanilmoqda. O’zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. O’zbekistonning madaniyati va identitetini saqlashda O’zbek tilining roli juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbek tili tarixi" Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich.
2. "O'zbek adabiy tili tarixi" Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich.
3. "O'zbek tili tarixi " Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov.
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbek_tili
5. https://uz.m.wiktionary.org/wiki/Bosh_sahifa

ERGONIMLARNING ONOMASTIK TIZIMDAGI O‘RNI VA TADQIQI

Abdurasulova Dilso'z Sherzod qizi
Qarshi davlat universiteti magistri.

Annotatsiya: Maqola onomastik sistema birliklarining tavsifiy tahliliga bag‘ishlangan. Unda mustaqillik yillarida leksikaning onomastika sohasi sezilarli o‘zgarishlarga uchragani, shuningdek, o‘zlashma birliklar tildagi appelyativ leksikasi bilan bir qatorda onomastik leksikada ham faollashayotgani ochib berilgan. Bundan tashqari, ergonimlarning shakllanishida manba til o‘zlashmalarining o‘rni hamda milliy nom tanlashning istiqbolli yo‘llari ergonimlar misolida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, ergonim, neym neologizm, o‘zlashma so‘z, leksika, ijtimoiy taraqqiyot, tilning boyishi.

Аннотация: Статья посвящена описательному анализу единиц ономастической системы. В ней раскрыты ощутимые изменения, произошедшие в годы независимости в таком разделе лексики, как ономастика, а также активизация заимствованных лексических единиц как в апеллятивной лексике, так и в ономастической. Помимо этого, на примере эргонимов изучены роль заимствований из языка-источника в формировании эргонимов и перспективные пути выбора национальных названий.

Ключевые слова: ономастика, эргоним, нейм неологизм, заимствованое слово, лексика, социальное развитие, обогащение языка.

Annotation: The article is devoted to a descriptive analysis of the units of the onomastic system. It reveals tangible changes that occurred during the years of independence in such a section of vocabulary as onomastics, as well as the activation of borrowed lexical units both in appellative vocabulary and in onomastic vocabulary. In addition, using the example of ergonyms, the role of borrowings from the source language in the formation of ergonyms and promising ways of choosing national names were studied.

Keywords: onomastics, ergonym, neym neologism, loan word, lexis, social development, language enrichment.

Tilshunoslikning onomastik tizimi o‘ziga xos butunlik bo‘lib, uning makroko‘lami sirasida ergonimlar alohida ahamiyatga ega. Ular nomshunoslik bo‘limi – onomastikadagi korxona, muassasa, tashkilot, kompaniya, idora, do‘kon, korporatsiya, uyushma, jamiyat kabilarning maxsus nomidir. Ergonim termini tilshunoslikda ilk marta N.V.Podolskayaning 1979-yil nashr etilgan lug‘atida ishlatilgan[1, 166]. Mashhur tilshunos E.Begmatov antroponim, toponim, gidronim, zoonim, oronim, oykonim, etnonimlarni sanar ekan, bu sistemaga ergonimlarni ham kiritib o‘tadi[2, 37]. Muhimi shundaki, istiqlol davri o‘zbek tili leksikasiga o‘zlashgan ko‘plab ergonimlar inglizcha so‘zlar bo‘lib, bu esa leksikada so‘z o‘zlashish jarayonining o‘ziga xosligini, inglizcha o‘zlashmalarning appelyativ leksika bilan bir qatorda onomastik leksikada ham faol ekanini asoslaydi.

Mustaqillik davri o‘zbek tili leksikasida yevropa tillariga tegishli so‘zlar, xususan, inglizcha o‘zlashmalar fors, arab va ruscha so‘zlar singari alohida qatlam sifatida shakllana boshladi. Inglizcha o‘zlashmalarning leksikadagi o‘rni, shakllanishi va taraqqiyoti, motivlovchi manbalari, semantik evolyutsiyasi hamda boshqa atributlari alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda dunyo tillari uchun donorlik vazifasini bajarayotgan ingliz tilining boshqa tillarga ta’sir darajasi, lug‘at tarkibi, genetik tarkibi hamda manbalari, so‘z qabul qilish imkoniyati haqida ham ayrim fikrlarni bildirib o‘tish joiz.

O‘zbek tilshunosligida ergonimlarni o‘rgangan tadqiqotchilar ularning vazifaviy jihatdan axborot funksiyasi va ta’sirchanlik xususiyatini alohida hisobga oladilar. Axborot funksiyasiga ega ergonimlar bevosita obyektning mohiyatini anglatuvchi birliklar deb qaralsa, ta’sirchanlik xususiyati mavjud ergonimlar obrazli iste’molchiga o‘zisha xos ta’sir o‘tkazishga asoslanadi[3, 93].

Ayniqsa, dunyo yoshlari uchun jozibador bo‘lgan ingliz tilining, aniqrog‘i, lug‘at boyligining ta’siri bu borada boshqa xalqaro tillarni bir muddat ortda qoldirdi. Tilni targ‘ib qiluvchilar orasida ingliz tilining shuhratini obrazli shaklda ko‘rsatish uchun “XXI asrdagi lotin tili” (English is the Latin of the 21st century) metaforasi bilan nomlashlar ham uchraydi.

Taniqli tilshunos N.Mahmudov so‘z o‘zlashtirishning obyektiv va subyektiv asoslariga ko‘ra farqlanishini inglizcha terminlar asosida misolida tushuntiradi. “... ingliz tilidagi tilshunoslik terminologiyasida ko‘pincha mazkur ikki tipdagi o‘zlashtirish farqli terminlar bilan nomlanadi, ya’ni: tushuncha va uni ifodalaydigan so‘zni birgalikda o‘zlashtirish – “borrowing”, mavjud bo‘lgan “o‘z” tushunchani ifodalash uchun boshqa tildan so‘z o‘zlashtirish – “loaning”[4, 10]. Ko‘rsatilganidek, birinchi tip (borrowing) yangi tushunchani, ikkinchi tip *(loanword)* esa xorijiy so‘znigina o‘zlashtirishga qaratilgan ekan, so‘nggi paytlarda yangi tushuncha ifodalovchi birliklarning o‘zlashish dinamikasi sezilarli faollashdi.

Ingliz tili lug‘at boyligiga sezilarli ta’sir etgan manba tillarning ulushi, tabiiyki, boshqa tillarning genetik tuzilishidagi hissalaridan farqlanadi. Hozirgi ingliz tilidagi lotincha so‘zlar miqdori 29 foiz, shuningdek, fransuzcha so‘zlar miqdori 29 foiz, nemischa (qadimgi ingliz tiliga asos bo‘lgan german tillariga tegishli) so‘zlar miqdori 26 foiz, yunoncha so‘zlar miqdori 6 foiz va yana boshqa til so‘zlari 10 foizni tashkil etadi[5]. Yana bir boshqa manbaga ko‘ra, ingliz tili leksikasidagi o‘zlashma so‘zlar taxminan 80 foiz[6] ga teng.

O‘zlashma so‘zlarni maxsus o‘rgangan O.Shukurov neyming murakkab vazifaga ega jarayon ekani, munosib neym ijod etish esa til uchun ham, millat madaniyati uchun ham manfaatli ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, *“UstaTop”* (qurilish agentligi) neym neologizmi ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘lgan va yoyilgan nomlardan, unda milliylik, originallik va zamonaviylik xususiyati mavjud. Milliyligi shundaki, *neym* tarkibidagi *usta* va *top(moq)* leksemalari xalqimizning umumiste’mol so‘zlari doirasidan tanlab olingan[7, 17].

Shunga qaramay, ingliz tili leksikadagi o‘zlashma qatlam va o‘z qatlam so‘zlarining o‘ziga xos o‘rni bor. Muloqot jarayonida eng keng tarqalgan 1000 so‘zning 80 foizdan ortig‘i inglizcha bo‘lsa, ammo keyingi eng keng tarqalgan 1000 so‘zning 60 foizidan ko‘prog‘i o‘zlashmalardir[8, 8].

Ingliz tili leksikasi tarixan murakkab jarayonni bosib o‘tgan. Buni tillarning taraqqiyot tarixida kadan-kam uchraydigan holat sifatida e’tirof etish mumkin. Aynan shuni nazarda tutib,

taniqli leksikograf (Merriam-Webster lug‘atining yordamchi muharriri) Kori Stamper “Ingliz tili bolaligidanoq boshqa til so‘zlarini o‘zlashtirib kelmoqda”, deb bejiz aytmagan edi[9].

Hozirgi ingliz tili lug‘at boyligida bir talay xitoycha o‘zlashmalar ham uchraydi. Ularning ko‘pchiligi xitoy tili orqali emas, balki koreys va yapon tili vositachiligida kirib kelgan. Shuning uchun fransuzcha olinmalar siyosat, iqtisod, diplomatiya, san’at va sport kabi sohalarda faol qo‘llanadi. Bu o‘zlashmalarning aksariyati ingliz tilining fonetik qoidalariga muvofiq talaffuz qilinadi.

Inglizcha so‘zlar matnda diakritik belgi orqali yoki kursiv shaklda berilsa, orfografik jihatdan shakli saqlangan fransuzcha so‘z sifatida tushuniladi. Bir necha asrlik tarixga ega bu o‘zlashmalar ingliz tili leksikasidan mustahkam o‘rin olganki, hanuz orfografik jihatdan shaklini o‘zgartirmay kelyapti.

Ingliz tilida o‘zlashma hisoblangan bu so‘zlarning aksariyati fransuz tilining o‘zida orfografik yoki semantik jihatdan diferensiyaga uchragan. Ya’ni, ular boshqa ma’noni ifodalaydi. Shunday bo‘lsa-da, hozirda Angliya va Amerikadagi ayrim restoran menyularining fransuz tilida berilishi ham bu tilga nisbatan ma’lum qoidalar saqlanib qolganini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda ingliz tili lug‘at boyligiga yana ko‘plab zamonaviy nemischa so‘zlar (oziq-ovqat, ichimlik va boshqa mavzuviy guruhlarda) olinma sifatida qabul qilinyapti. Italyancha o‘zlashmalar orasida, xususan, musiqa, arxitektura, mebelchilik sanoati, oshxona konsepti, modalar olami bilan aloqadorlari ko‘proq kuzatiladi.

Ingliz tilida ruscha o‘zlashmalarning miqdori boshqa o‘zlashma manbalarga taqqoslaganda ko‘p emas. Rus tilidan ingliz tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘z olish ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi. Bu so‘zlarning aksariyati rus hukumati siyosati, madaniyati va tarixi bilan bog‘liq tushunchalarni o‘zida aks ettiradi.

Ingliz tili lug‘at boyligidagi lotincha va yunoncha o‘zlashmalarning aksariyati ilmiy atamalardir. Shuningdek, ingliz tiliga arab tilidan ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita so‘z o‘zlashish yo‘llari mavjud. Bunda, asosan, diniy, madaniy, maishiy mavzudagi so‘zlar guruhi yetakchilik qiladi.

Inglizzabon Amerika madaniyati dunyo bo‘ylab o‘zining rang-barangligi bilan tanilgan. Xususan, shu ma’noda Amerika Qo‘shma Shtatlarida millat, elat va madaniyatlar birlashuvini tavsiflovchi “erituvchi qozon”[10, 50] (melting pot) majoziy o‘xshatishi ham mavjud. Metafora bu hududga immigrantlar tomonidan olib kelingan madaniyatlar integratsiyasiga bevosita aloqador sanaladi. Shuningdek, u xorijiy so‘zlarni, tushunchalarni qabul qilish yoki moslashtirishga ham ishora qiladi. Hozirgi ingliz tili leksikasi tarkibi turlicha bo‘lib, unda asosan, fransuz, nemis, italyan, rus, xitoy yapon, yunon, ispan, hind, arab, afrika tili o‘zlashmalari yetakchilik qiladi. Umuman olganda, hozirgi ingliz tili leksikasida 350 ga yaqin manba til so‘zlari mavjudligi aytiladi[11].

Til va jamiyat uzviylikda taraqqiyot etadi, shundan kelib chiqib, til va madaniyat fenomenlarining bir-biriga ta’sir doiralari ham mavjud bo‘ladi. Bu jarayonda ekstralingvistik omillar leksika uchun muhim rol o‘ynaydi. Tarixan olib qaraganda, davlatlar o‘rtasidagi siyosiy-madaniy aloqalardan tashqari, hatto bosqinchi xalq tilining o‘z hukmi ostidagi millat tiliga ta’siri ham ahamiyatli vazifa bajargan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, istiqlol davri o‘zbek tili leksikasi o‘zlashma so‘zlar hisobiga sezilarli darajada kengaydi. Xususan, leksikaga o‘zlashgan ko‘plab ergonimlar inglizcha

birliklar bo‘lib, bunday o‘zlashmalar appelyativ leksika bilan bir qatorda onomastik leksikada ham faollashgani muhim hisoblanadi. Shunday ekan, ularni ham o‘ziga xos tizim sifatida semantik, genetik va leksikografik xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kun tilshunosligining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. –Москва: Наука, 1978. – С. 190
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013. – 200 б.
3. Рўзимбоев С., Янгибаева С. Эргонимларнинг маъно қирралари. // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2017. 11-сон. –Б. 91-96.
4. Маҳмудов Н. *Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш* // Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. №3. – Б. 3-12.
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Lists_of_English_words_by_country_or_language_of_origin
6. https://www.dictionary.com/e/word-origins
7. Шукуров О.У. Ўзбек тили замонавий ўзлашмаларининг эволюцияси, трансформацияси ва лексикографик талқини масалалари (мустақиллик даври): Филол. фан. ... доктори (DSc) дисс. автореф – Қарши: 2022. – 62 б.
8. The Secret Life of Words: English Words and Their Origins. The Great Courses, 2012. – P. 120
9. https://www.dictionary.com/e/borrowed-words
10. McDonald, Jason J. American Ethnic History. Edinburgh University Press, 2007. –P. 142.
11. Which Words Did English Take From Other Languages? https://www.dictionary.com/e/borrowed-words/
12. Овсянникова К. В. Особенности номинации предприятий общественного питания (на примере коммерческих названий г. Воронежа и г. Москвы): дис. – Воронеж. гос. ун-т, 2016. –С. 21-29.

ЭЛЛИПСИС И ИХ СОЦИОПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ В ДИСКУРСИВНОМ АНАЛИЗЕ

Буриева Умида Абдумуминовна
УзНУУимени Мирзо Улугбека
PhD, Старший преподаватель кафедры
Теория перевода и сравнительного языкознания.
E-mail: umida.burieva.1984@mail.ru

Annotation: This article reveals the history of the study of incomplete sentences in Uzbek and English linguistics, their scientific and theoretical basis and classification. In the languages under consideration, a greater activity of incomplete sentences in dialogic discourse was noticed. Syntactically, it is defined as an activity consisting of various speech acts in terms of expression, that is, structure, semantically - in terms of content, and pragmatically perlocutionary - in terms of message. The presence and use of incomplete sentences is associated not with the language system, but with the conditions of speech, the actual division of the sentence, and semantic-syntactic sub proposition.

Keywords: incomplete sentences**,** ellipsis, discourse analyses, speech act, textual ellipsis, situational ellipsis, gapping.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tilshunosligida to‘liqsiz gaplarning o‘rganish tarixi, ularning ilmiy-nazariy asoslari va tasnifi ochib berilgan. Ko'rib chiqilayotgan tillarda dialogik nutqda to'liq bo'lmagan jumlalarning ko'proq ?faolligi qayd etildi. Sintaktik jihatdan ifodalash, ya’ni tuzilishi jihatidan turli nutqiy harakatlardan, mazmun jihatidan semantik, xabar jihatidan esa pragmatik perlokatsiondan iborat faoliyat deb ta’riflanadi. Tugallanmagan gaplarning mavjudligi va ishellpsis latilishi til tizimi bilan emas, balki nutqning shart-sharoitlari, gapning haqiqiy bo'linishi va semantik-sintaktik subpropozitsiya bilan bog'liq.

Kalit so’zlar: to’liqsiz gaplar, ellipsis, diskurs analiz, nutqiy akt, matnli ellipsis, vaziyatli ellipsis, bo’shliq.

Одним из понятий, играющих важную роль и широко изучаемых в мировой прагмолингвистике, является понятие дискурса. Дискурс является одним из важнейших вопросов прагмалингвистики и когнитивного языкознания. Многие современные языковеды связывают понятие дискурса непосредственно с текстом[18]. Но в некоторых случаях он признается собранием комбинированных текстов[19].

Т.А. ван Дейк описал «дискурс как письменный или устный вербальный продукт коммуникативного действия»[20]. При этом лингвист в основном отмечал, что термин «дискурс» формируется в письменной и устной коммуникации. Действительно, определение лингвиста весьма логично. Мы знаем, что дискурс – это текст, и не имеет значения, является ли он

[18] Teun van Dijk. Ideology: A Multidisciplinary Approach / Dijk van Teun – London: Sage, 1998 – p. 86
[19] Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред.: В.Н. Ярцева – Москва, 1990 – с. 136-137
[20] Дейк, ван Т. А. Язык. Познание. Коммуникация – М., 1989 – с. 46

письменным или устным.

В своей докторской диссертации Н.Нормурадова описала антропоцентризм, интенцию, адресность, интегративность, ситуативность, процессуальность, открытость, динамичность. В качестве различных экстралингвистических (неязыковых) факторов в дискурсе уместно отметить следующие:

1) коммуниканты;

2) речевая ситуация;

3) цели участников диалога.

Эти факторы позволяют рассматривать социопрагматические тексты как многогранное, когнитивное явление.

Недавние исследования, проведённые по вопросам дискурса, показали, что невозможно анализировать художественный текст без учета широкого исторического и социокультурного контекста. В частности, ученые-лингвисты Р. Якобсон, В. В. Виноградов, Ю. Лотман, И.Р.Гальперин также подчеркивали в своих работах, что анализ художественного текста невозможен без учета широкого исторического и социокультурного контекста.

Анализируя неполные предложения, мы пришли к выводу, что их прагматическая «нагрузка» в общении огромна: неполные предложения участвуют в формировании различных речевых актов. В речевом акте совершаются различные языковые действия: задать вопрос, донести сообщение, приказать, прокомментировать какую-либо ситуацию, поблагодарить, попросить, поздравить, подтвердить, опровергнуть. Под речевым актом понимается языковое общение, возникшее между людьми в определенной среде, с определенной целью; это форма речи, которая посредством языковых средств раскрывает коммуникативную цель человека, его внутренние переживания, чувства, информируя об этом слушателя.

В последние годы узбекское языкознание уделяет серьезное внимание изучению языковых единиц в социолингвистическом аспекте, и в этой области наблюдается немало достижений. Несмотря на это, именно сравнительное изучение неполных предложений в социолингвистическом аспекте является одной из стоящих перед нами задач. “Социолингвисты столкнулись с проблемой изучения живой разговорной речи. Характеристика живой разговорной речи на диалектах, специфические стороны молодежной речи – одна из задач, ждущих своего решения”[21].

На анализ коммуникативно-прагматического уровня в дискурсе влияет социальный статус коммуникантов – возраст, профессия, гендерные особенности, этническое и религиозное своеобразие и то, что выступает толчком к возникновению этих характеристик. В воссоздании процесса общения в художественном тексте, наряду с перечисленными выше особенностями участников, эксплицитно или имплицитно выражается и авторская оценка, положительное или отрицательное отношение к личности персонажа. Исследование Н. Нормуродовой [22] содержит много ценных идей по этому поводу. Как упоминалось в предыдущих главах, неполные предложения чаще всего употребляются в диалоге, и важно определить общую категорию участников диалога. В третьей главе на основе

[21] Юлдашева Х.К. Указанное исследование – с.20
[22] Нормуродова Н. Лингвистическое развитие антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе. Автореферат дисс. д-ра фил.наук – Ташкент, 2020 – с.19

вышеизложенных теорий были выявлены эти отношения и проанализированы с помощью примеров.

Характерно, что возрастные особенности коммуникантов также могут вызывать различия в их речи. Речь человека также говорит о его возрасте. Существуют своеобразие в использовании неполных предложений, связанное с возрастными характеристиками, что требует знания тонкостей языка.

Данные языковые единицы отличаются своим активным употреблением именно в детской речи, т.к. дети затрудняются составить грамматически и семантически законченное предложение. Кроме того, дети стремятся достичь образности речи.:

Дўппини секингина папкага тиқдим.

Секин пулни чиқардим.

– Вуй! – Абдувалининг кўзи олайиб кетди. – Қаёқдан олдинг?

– Нима ишинг бор?

– Шомуродов! Ҳозир синфдан чиқариб юбораман. (Ў.Ҳошимов)

В этом диалоге такие эмоции, как интерес, досада, зависть, хвастовство, характерные для детей раннего возраста, выражены в неполных предложениях.

Nothing! Ha haaa! Told you I wouldn't say nothing if you didn't say please! Ha haa! Haaaa! And they heard the sound of Peeves whooshing away and Filch cursing in rage. (Harry Potter).

В этом отрывке в неполных предложениях выражены восторг, невинность и интерес, характерные для маленьких детей.

В узбекской культуре общения речь пожилых людей также отличается своеобразием. В процессе общения пожилые люди говорят в соответствии с принятым речевым этикетом. Кроме того, стоит отметить, что в их речи встречается много наставлений.

В приведенных ниже фразах, свойственных взрослым, неполные предложения выражаются по-другому. Например:

Қайтариб айтаман, фақат шўрчиликларга кўз тикинглар. Бинойими? – Бинойи, полвон бова, бинойи. (Т.Мурод).

В этом случае, так как слово *"бинойи"* произносится пожилым человеком, ему отвечают этим же самым словом. Сфера использования слова *"бинойи"* – речь представителей старшего поколения в определенных регионах.

Idiot boy!" snarled Snape, clearing the spilled potion away with one wave of his wand. – I suppose you added the porcupine quills before taking the cauldron off the fire? (Harry Potter).

Здесь следует отметить, что, хотя английская и узбекская культура и мировоззрение различны, мы можем найти черты сходства в диалогах, характерных и для речи узбекских женщин. Утвердительно-вопросительные формы используются в женской речи для самых разных целей, особенно часто женщины используют этот тип вопросительного предложения, когда они просят своего супруга о чем-либо. Выявлено, что в речи женщин обеих национальностей много фраз назидания. Так женщины добиваются эффективности речи. Это особенно распространено в речи узбекских женщин. Свои советы они часто выражают в виде длинных предложений, свое мнение выражают, подтверждая его примерами, взятыми из преданий и хадисов. Англичанки составляют короткие предложения и лаконично выражают

свои мысли[23]. Мы рассмотрели работу Х. Самиговой, которая в своём исследовании также анализировала разницу в гендерной идентичности и поведении мужчин и женщин при сопоставительном изучении риторического аспекта английской и узбекской речевой культуры[24]. В нашем исследовании при сравнении речи женщин и мужчин мы наблюдали формирование системы признаков, дифференцирующих и объединяющих речь женщин и мужчин.

Например:

I saw Mr. Lloyd smile and frown at the same time.

- Ghost! What, you are a baby after all! You are afraid of ghosts?

-Of Mr. Reed's ghost.. I am… he died in that room, and was laid out there.

-Nonsense! And is it that makes you so miserable? Are you afraid now in daylight?" -No, but night will come again before long and besides, —I am unhappy, — very unhappy, for other things. (Jane Eyre).

В этом отрывке неполными предложениями выражено, насколько женщина бессильна, бедна и несчастна.

-Мен сени шу ният билан катта қилувдимми?! Юрак-бағримни қон қилдинг!

-Бўлди-бўлди! Мунча чўзиласиз... — ичкари хонадан Қосимжоннинг овози эшитилди.

-Нега бўлар экан? Энди бошлайман! Ҳа, энди бошлайман! Шошмай тур! Зумрад хола эпчиллик билан ўрнидан туриб, дераза олдига келди-да, муштларини бир-бирига ура бошлади. — Бола ўстирибмаи деб юрибман ҳали! Ҳа, яшамагур! Боламас, бало ўстирибман! Бир бало экансан! На отанинг гапи кор қилади сенга, на онанинг! Нима қилмоқчисан ўзинг, ер юткур?! Укаларингни ўйласангчи! (Ў.Умарбеков)

Читая диалог, нетрудно заметить, что речь принадлежит женщине. Эта женщина много страдала, она не видела от мужа счастливой жизни, и все ее надежды были на сына. В этом предложении используются различные типы неполных предложений.

В следующих примерах мы рассмотрим выражение неполных предложений в мужском форме:

Насим Бўрига ўгирилди. — Бўри, мен гапларингни оқизмай-томизмай айтдим. Бўри ошнамга сенсиз кундуз ҳам қоронғи, дедим.

— Бормисан, ошна! У нима деди?

— Жўра, у, бети қурсин, деб қўл силтади. Сенга кўнгли йўқ экан, жўра. Ишонмаяпсанми? Мана, қиблага қараб айтаман: агар ёлғон айтсам, кўр бўлайин! (Пиримқул Қодиров)

В этих нижеприведенных предложениях дается мужская форма неполного предложения.

"Бормисан, ошна!", Сенга кўнгли йўқ экан, жўра. Ишонмаяпсанми?

"My queen," he said, "my beautiful dove, can you not lay aside your resentment? Is it still so strong that no submission can soften it? Cannot my repentance find grace in your eyes? My

[23] Исламжанова Х.И., Анназарова Т.Д. Лингвопрагматический анализ гендерных особенностей паралингвистических средств / XXI век: Вопросы науки и образования № 4, 2018, с.7

[24] Самигова Х.Б. Сопоставительное исследование риторического аспекта английской и узбекской речевой культуры: автореферат дисс. д-ра фил. наук (DS) – Ташкент, 2017 – с.30

Bertrande, my Bertha, my Bertranilla, as I used to call you." (Alexandre Dumas) В данном отрывке показана мужская форма выражения чувств своеобразным способом.

Существуют также некоторые различия в употреблении неполных предложений в речи мужчин и женщин. Основываясь на своих наблюдениях, Д.С.О'Коннелл отмечает, что женщины чаще, чем мужчины, используют восклицания и утвердительно-вопросительные формы в англоязычных и немецкоязычных телевизионных программах[25].

В заключение можно сказать, что прагматические особенности выражения неполных предложений в сравниваемых языках практически одинаковы. Выше на примерах мы рассмотрели, что прагматическое препятствие, возникающее в результате неправильного использования или произношения, одинаково наблюдается в обоих языках.

Список использованной литературы.

1. Teun van Dijk. Ideology: A Multidisciplinary Approach / Dijk van Teun – London: Sage, 1998 – p. 86
2. Арутюнова Н. Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред.: В.Н. Ярцева – Москва, 1990 – с. 136-137
3. Дейк, ван Т. А. Язык. Познание. Коммуникация – М., 1989 – с. 46
4. Юлдашева Х.К. Указанное исследование – с.20
5. Нормуродова Н. Лингвистическое развитие антропоцентризма в англоязычном художественном дискурсе. Автореферат дисс. д-ра фил.наук – Ташкент, 2020 – с.19.
6. Исламжанова Х.И., Анназарова Т.Д. Лингвопрагматический анализ гендерных особенностей паралингвистических средств / XXI век: Вопросы науки и образования № 4, 2018, с.7

[25] O'Connell D.C., Kowal S. & Dill E.J III. Dialogicality in TV news interviews // Journal of Pragmatics – Netherlands, 2004 – p. 185-205.

THE SOCIAL SIGNIFICANCE OF EUPHEMISMS

Radjabkulov Otakhon Rustam Ugli
Doctoral Student, Uzbekistan State World Languages University.

Abstract: Euphemisms are linguistic constructs used to substitute socially taboo or sensitive expressions with more socially acceptable or less offensive alternatives. They play a crucial role in communication, allowing individuals to navigate sensitive topics, maintain politeness, and adhere to social norms. This article delves into the sociolinguistic and pragmatic features of euphemisms across various languages, highlighting their significance in interpersonal communication.

Keywords: Euphemism, taboo,cross-linguistic variation, social aspect, pragmatic aspect.

Euphemisms and taboos have been observed to play a significant part in the development of linguistic studies as well as sociological research into language and its advancement. Therefore, it becomes necessary to euphemize phrases and statements to seem more polite. V. Fromkin and R. Rodman describe euphemism as “a word or phrase that replaces a taboo word or serves to avoid frightening or unpleasant subjects”[26].

In linguistics, euphemisms are also known as figure of speech, which are used to mask or replace a harsh, unpleasant, or embarrassing idea with a more pleasant one. Euphemisms have a long history in language since they were a manifestation of peoples' mythological thinking at the time. Euphemisms have been used throughout history to soften and conceal harsh or unpleasant realities. These linguistic devices serve as a way to navigate sensitive topics in a more socially acceptable manner. Common euphemisms in English include "passed away" to replace "died," "lavatory" to replace "toilet," and "pregnant" to replace "expectant mother."

Euphemisms can play an important role in sociolinguistic communication. For instance, they can help people to maintain social harmony by avoiding direct terms or phrases that might be offensive. They can also help to reduce embarrassment and awkwardness in certain social situations.

Pragmatically, euphemisms can also be used to soften the tone of a conversation, allowing it to flow more smoothly. Euphemisms can also add politeness or humor to the speaker's message. Finally, euphemisms can be used to convey respect for the listener, as the use of a less direct phrase shows that the speaker is conscious of the listener's feelings and willing to be sensitive in their choice of words.

According to Gomez, “euphemism is used with the aim of creating a positive approach to expression; the emergence of such renaming is due to the demand to express the forbidden vocabulary in a smoother and more cultural form”. Euphemisms are linguistic tools used to replace sensitive or offensive expressions with more socially acceptable alternatives.

Beyond their surface-level function of avoiding directness, euphemisms possess various sociolinguistic features that reflect cultural norms, power dynamics, and the evolving nature of language.

[26] Fromkin V., Rodman R. An Introductionto Language. Harcourt Brace College Publishers, 1993. –P. 304

By exploring these sociolinguistic features, we can gain a deeper understanding of euphemisms and their role in communication. The use of euphemisms is a very common practice in many languages, including English, Uzbek and other languages. A euphemism is usually defined as something said or written in a more pleasant or less offensive way. It is a way of masking an unpleasant sentiment or situation in a nice way.

Euphemisms have a long history of usage in different languages and cultures. The ancient Greeks were the first to use euphemisms, using various words to express unfavorable or taboo ideas. Examples of this include: using the word “greatly” to refer to death, “to pass away” to refer to death, and “to go on a journey” to refer to death. In more modern times, euphemisms have been used in different language communities to avoid offense, such as by using words like “chairman” instead of “boss” or “cemetery” instead of “graveyard”.

Euphemisms can have various sociolinguistic and pragmatic features. For example, they can be used as a way to soften language, or to express ideas in an indirect way. Yule alludes obliquely to the pragmatic benefits of using a euphemism in terms of being polite and saving face. He puts it this way: "face means the public self-image of a person. It refers to the emotional and social sense of self that everyone has and expects everyone else to recognize"[27]. They can also be used to express something without directly saying it. For example, a person might say “I’m dead tired” instead of “I’m exhausted”. In this way, the speaker avoids sounding too direct or blunt.

Similarly, euphemisms can be used to avoid offense or awkwardness in conversations. For instance, instead of using the phrase “You are ugly” a person might instead say “You are not the prettiest”. This way, the person is being polite and more considerate. Euphemisms can also be used to exclude certain people or topics from conversations, like when someone says “We don’t talk about that” instead of naming the person or topic they don’t want to discuss.

Euphemisms are strongly influenced by cultural and social norms. Different societies may employ distinct euphemistic expressions based on their customs, beliefs, and values. For example, discussions around death may be veiled in more gentle terms in some cultures, while others may have explicit euphemisms for bodily functions. These variations reflect the societal taboos, sensitivities, and politeness norms prevalent within a particular culture. Euphemisms can reflect power dynamics in society. Those in positions of authority, such as politicians or institutions, often use euphemisms to control narratives, soften the impact of negative events, or manipulate public perception. These euphemistic expressions often serve to downplay or conceal the true nature of a situation. Conversely, marginalized or oppressed groups may use euphemisms as a form of resistance or empowerment to reclaim language and challenge dominant narratives.

Euphemisms can undergo semantic bleaching over time, where the new, socially acceptable terms adopt the negative connotations originally associated with the euphemized expressions. This process often occurs due to overuse or changes in societal attitudes. For example, euphemisms related to various disabilities or mental health conditions have undergone semantic shifts as society becomes more inclusive and aware of the stigmatization associated with certain words. The use of euphemisms depends heavily on the context and pragmatic factors. Speakers consider their relationship with the listener, the sensitivity of the topic, and the level of formality when choosing euphemistic expressions. This context-based selection influences the perception

[27] Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press, p. 60

and effectiveness of euphemisms in achieving their intended purpose. Understanding the subtleties of context and pragmatics is essential for successful communication using euphemistic language. Euphemisms can also be used humorously or creatively to add a playful and light-hearted tone to conversations. According to Abu Hammad,the use of euphemisms in jokes, wordplay, and puns enhances linguistic creativity and allows for more nuanced expressions. This feature demonstrates the dynamic nature of language and the ability of euphemisms to adapt and evolve in various contexts.

Euphemisms exhibit cross-linguistic variations, reflecting the unique linguistic characteristics of different languages. Cultural perspectives, historical influences, and linguistic structures shape the euphemistic expressions employed in various societies. Studying these variations provides insights into the diversity of linguistic strategies used to address sensitive topics.

Euphemisms often involve semantic transformations, where words or phrases undergo changes to convey a more acceptable or less direct meaning. Examples include using "pass away" instead of "die," "bathroom" instead of "toilet," or "let go" instead of "terminate employment." These transformations demonstrate the ability of euphemisms to shape language and influence social interactions. Euphemisms are subject to constant evolution and change within languages. As societal values shift or certain topics become less taboo, euphemisms adapt accordingly. New euphemistic expressions emerge, while older ones may lose their effectiveness or become obsolete. This dynamic nature reflects the ongoing interplay between language, culture, and societal norms. Euphemisms play a significant role in mitigating social discomfort and making sensitive situations more bearable. By using indirect or less explicit language, euphemisms allow individuals to navigate delicate topics with a greater degree of ease. For instance, patients in medical settings may hear medical professionals use euphemisms to describe potentially distressing conditions, such as "biopsy" rather than "cancer test." By softening the language, euphemisms help reduce anxiety and emotional distress In conclusion, euphemisms are powerful tools which can be used to express an idea or concept in a gentle or diplomatic way. They are used in various languages and cultures around the world, and even within the same language, they can vary according to context and region. By being mindful of the implications of our words, we can make sure not to make our conversations too uncomfortable, offensive, or negative.

References:

1. Abu Hammad, O. (2007). Euphemism, Sweet Talking or Deception?. Högskolan Dalarna University: Sweden, pp. 5-10.
2. Casas Gómez, M. (2009). Towards a New Approach to the Linguistic Definition of Euphemism. Language Sciences, 31 (6), pp. 725-739.
3. Fromkin V., Rodman R. An Introductionto Language. Harcourt Brace College Publishers, 1993. –P. 304
4. Linfoot-Ham, K. (2005). The Linguistics of Euphemism: A Diachronic Study of Euphemism Formation. Journal of Language and Linguistics, 4 (2),
5. McArthur, T. (1992). The Oxford Companion to the English Language. Oxford, United Kingdom: Oxford University Press.
6. Yule, G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press.

INTERNET LEKSIKASINING TARAQQIYOTI VA KISHILIK JAMIYATIDAGI O‘RNI

Toshmurodova Shabona Tolmas qizi
Qarshi davlat universiteti Filologiya fakulteti
Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti.

Annotatsiya: Maqolada bugungi davr tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan Internet leksikasi haqida so‘z boradi. Shuningdek, xorijiy tillar, xususan, ingliz tilining Internet olamida keng tarqalganligi va uning o‘zbek tiliga ta’siri xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ARPANET, DARPA, Internet leksikasi, slenglar, stiker, trend, heshteg.

Internet o‘tgan asrning 50-yillaridan rivojlana boshlagan. G‘arb mamlakatlari olimlari, xususan, Fransiya, AQSh, Buyuk Britaniya ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari birinchilardan bo‘lib bu yo‘nalishda muvaffaqiyatga erishganlar. Sobiq Sovet Ittifoqi ham sun‘iy intellekt yaratish bo‘yicha bir qator ishlarni amalga oshirgan bo‘lsa-da, ularning tadqiqot ishlari sir tutildi, shu tufayli SSSR va uning tarkibidagi davlatlarda Internet va u bilan bog‘liq jarayonlar keyinroq paydo bo‘ldi. Internet haqidagi ilk ma‘lumot 1969-yilda amerikalik olim Jozef Karl Robnett Liklayder Shimoliy Amerika departamenti — DARPA tomonidan buyurtma qilingan ARPANET (Advanced Research Projects Agency Network) tarmog‘ini yaratgandan so‘ng paydo bo‘lgan. ARPANET zamonaviy internetning ilk ko‘rinishi hisoblanib, 1969-yil so‘ngiga kelib ushbu tarmoqqa atigi to‘rtta kompyuter ulangan edi, xolos. 1971-yilda amerikalik olim Rey Tomlinson sa’y-harakatlari tufayli Internet orqali elektron pochtadan xabar yuborish imkoniyati vujudga keldi, 1991-yilda esa Vinton Serf muallifligida butun dunyo o'rgimchak to‘ri, ya’ni World Wide Web (WWW) paydo bo‘ldi. O‘tgan yillar davomida tarmoq faoliyati kengaya bordi, 1992-yilda dunyoning deyarli barcha davlatlari Internetga ulangan edi. Hozirgi kunda Internet kishilar hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Dastlab kompyuter tarmoqlari va Internet faqatgina ish faoliyati bevosita shu sohalar bilan bog‘liq kishilar hayotida mavjud bo‘lgan bo‘lsa, XXI asr boshlariga kelib, Internet va kompyuter oddiy insonlar hayotida ham o‘zining munosib o‘rnini egallay boshladi. Tabiiyki, oddiy fuqarolar ichida hamma ham yangilikka tezda moslasha olmadi, biroq yillar o‘tgani sayin kishilar hayotini kompyuter, Internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilish qiyinlashib bormoqda. E-mail, ya’ni elektron pochta yaratilishi bilan kishilar muloqotda bir qator yengilliklarga ega bo‘ldilar. E-mail muloqotning tez va sifatli bo‘lishini ta‘minlab berdi. Bugungi kunda u insoniyat tarixidagi onlayn muloqotning ilk ko‘rinishi sifatida baholanadi. Insonlar o‘sha paytlarda Internet tarmog‘isiz ham ish faoliyatini olib borishlari mumkin edi, albatta. Biroq Internet yaratilmagan paytlarda ham kishilar so‘zlarni ma’lum qisqartmalar yordamida yozishardi. Elektron pochtaning yaratilishi bilan ish xatlari va shaxsiy xatlarni yozishning yangi ko‘rinishdagi qoidalari paydo bo‘la boshladi. Bu yozma va og‘zaki muloqot jarayonida yangi tilning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Keyinchalik ijtimoiy tarmoqlar vujudga kelishi bilan o‘ziga xos so‘z birikmalari va qisqartmalardan foydalanish sezilarli darajada ko‘paydi.

Bugungi globallashuv davrida Internet slenglarini hamma yerda uchratish mumkin. Jumladan, marketing sohasi mutaxassislari asosan yoshlardan tashkil topgan mijozlarini jalb qilish uchun Internetda keng qo‘llaniluvchi so‘zlardan ko‘proq foydalanadilar, ommaviy axborot

vositalari xodimlari ham Internetda urf bo‘lgan so‘z va jumlalarni qo‘llashga harakat qiladilar, shuningdek, shou-biznes vakillari o‘z nutqlarida "trend"ga aylangan so‘zlar va slenglarni qo‘llashadi. Masalan, san‘at va madaniyat vakillari o‘z Instagram va YouTube sahifalarida turli Internet-iboralar (slenglar) dan faol foydalanishadi. O‘sib kelayotgan yosh avlod esa ko‘r-ko‘rona ular ortidan ergashib, mashhurlardan eshitgan yoki ko‘rgan so‘zlarini asl mazmun-mohiyatini anglamay turib o‘z nutqida ishlatishadi. Ba’zi yoshlar bu kabi qisqartma so‘zlar (abbreviatura, akronimlar) va iboralardan foydalanish ularni mustaqil shaxs sifatida namoyon qiladi, deb o‘ylashadi. Ularning fikricha, slenglar suhbatni qisqaroq va jonliroq qilishga yordam beradi, ular orqali his-tuyg‘ularni aniq va sodda ko‘rinishda ifodalash mumkin. Bugungi kunda o‘z nutqida Internet slenglarini ishlatmaydigan zamonaviy talabani topish mushkul.

Ba’zi o‘qituvchi, filolog va madaniyat vakillari slengning o‘ziga xos xususiyatlari barcha uchun umumiy me’yor hisoblangan uslubning beqarorlashuvi, nafaqat nutq madaniyati, balki, umuman, madaniyatning buzilishi deb hisoblashadi. Shu boisdan ham keksa avlod kishilari, ko‘plab tilshunos va pedagoglar yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot leksikasiga ayrim tuzatishlar kiritilishi lozim ekanligini ta’kidlashmoqda: ularni o‘z fikrlarini to‘g‘ri va aniq ifoda etishga va adabiy me’yorlarga amal qilishga o'rgatish kerak. Biroq yosh avlod bu borada boshqacha fikrda. Ularning fikricha, zamon o‘zgarayotgan ekan, shu davrda yashayotgan keksa avlod ham "trendda bo‘lgan" slenglarni bilishi zarur, ular ham yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi noaniq "til"ini o‘rganishlari maqsadga muvofiq. Shoir Erkin Vohidov bir she’rida zamonaviy laynerda parvoz etayotganligi uchun dangasalarga rahmat aytadi. Xuddi shunday “dangasalar” bugun Internet makonida ham ko‘plab yangiliklar qilishga ulgurishdi, masalan, siz o‘z fikringizni ifodalash uchun uzun so‘zlarni yozishni xohlamaysiz, ayniqsa, so‘zning to‘liq ma‘nosini anglatuvchi qisqartmalar mavjud bo'lganda. Ana shu paytda Internetda ommalashgan slenglar sizga qo‘l keladi. Masalan, siz biron voqeadan hayratlansangiz, “Yo Xudoyim” deyish o‘rniga OMG (oh my God) abbreviaturasini qo‘llaysiz.

Og‘zaki yoki yozma nutqda Internet slenglaridan foydalanishning afzalliklari va noafzalliklari quyidagi o‘rinlarda ko‘rinadi. Birinchidan, Internetdagi, xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot tili o‘sib kelayotgan yosh avlodning muomala madaniyatiga, so‘z boyligiga salbiy ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi. Bolalar bu kabi slenglarni nafaqat ijtimoiy tarmoqdagi onlayn muloqotda, balki og‘zaki nutqda ham qo‘llay boshlaydilar. O‘smir va undan katta yoshdagi yigit-qizlar tengdoshlari bilan ham, keksa avlod vakillari bilan ham muloqotda ma’lum chegara qo‘yishga shoshilishmaydi, ular har qanday sharoit va vaziyatda o‘z nutqida Internet slenglaridan foydalanishga odatlanib qolishgan.

Ikkinchidan, yosh avlod nutqida o‘zbek tilida tarjimasiz qo‘llaniladigan (heshteg, trend kabi) ko‘plab xorijiy (asosan, rus va ingliz tili orqali kirib kelgan) so‘zlar, frozeologizmlardan foydalanish tufayli nutq zichlashib qoladi. Maktab o‘quvchilari o‘zlarining his-tuyg‘u va kayfiyatlarini ifodalash uchun ijtimoiy tarmoqlardagi onlayn muloqotlari davomida ma’lum belgilar tizimidan [:), :(kabi], stiker yoki giflardan foydalanadilar. Ulas Internet slenglaridan foydalanishlarini o‘zlarining zamonaviy davr vakili ekanliklari bilan oqlashadi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, har qanday jamiyatda amal qilinishi lozim bo‘lgan odob-axloq qoidalari mavjud. Til ma’lum jamiyat kishilari uchun umumiy bo‘lgan bir paytda Internetga endi kirib kelgan va doimiy foydalanuvchi o‘rtasida kuchli tafovut yuzaga kelmasligi maqsadga muvofiq. Aks holda jamiyatdagi qatlamlar orasida bir-birini tushunmaslik holati kuzatilishi mumkin.

Barchamizga ayonki, insonning aqliy qobiliyatini uning so‘z boyligiga va nutq uslubiga qarab aniqlash mumkin, u qanchalik savodli bo‘lsa, nutqi ham shunchalik boy va mazmunli bo‘ladi. Bunday insonlar nafaqat nutqini to‘g‘ri shakllantirish, balki barcha uchun umumiy qabul qilingan til me’yorlarini buzmagan holda uni yangi so‘zlar bilan boyitishga ham qodir. Bu esa Internet slenglaridan foydalanmasdan ham o‘z fikrini aniq va tushunarli qilib ifodalash mumkinligini isbotlaydi. Binobarin, yoshlarning til madaniyatini oshirish, ularda mazmunli nutq uslubini shakllantirishga e’tibor qaratish muhim.

Jamiyat taraqqiy etgani sari milliardlab insonlar ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilayotgan ekan, ko‘plab neologizmlar aynan Internet vositasida paydo bo‘lishi tabiiy qaysidir ma‘noda, afsuski, bu jarayonni to‘xtatib bo‘lmaydi.

Yuqorida aytilgan fikr va mulohazalardan xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi kunda qo‘llanilayotgan zamonaviy muloqot vositalari va nutq uslubi sabab til yangi bosqichga o‘tmoqda. Bugungi davr yoshlari kamroq so‘z qo‘llab, ko‘proq ma‘lumot olish va yetkazishga intilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Patrizia A. Lexical Innovation in World Englishes: Cross: fertilization and Evolving Paradigms. – London: Routledge, 2018.
2. Shukurov O. Zamonaviy o‘zlashmalar evolyutsiyasi. Transformatsiyasi va leksikografik talqini. – Qarshi: Intellekt. 2022.
3. Mirtojiyev M., Mahmudov H. Til va madaniyat. – Toshkent: O‘zbekiston: 1992.
4. Nasrulloyeva N. Kompyuter va Internet jargonlari murakkab lisoniy hodisa sifatida // Xorijiy filologiya. – 2020. 1-son.
5. Попова Т.В., Рацибурская Л.В., Гугунава Д.В. Неология и неография современного русского языка. – Москва: Флинта, 2011.
6. Орлова Н.О. Сленг vs жаргон: проблема дефиниции // Ярославский педагогический вестник. – 2004. №3 (40). – С. 36-39.
7. Smyk-Bhattacharjee D. Lexical Innovation on the Internet – neologisms in blogs: –Diss. Doctor of Philosophy. – Zurich: 2009.
8. Сасина С.А., Бричева М.М. Лингвистические аспекты нейминга (на материале англоязычных брендов) // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 2. Филология и искусствоведение. – 2017. №2 (197). – С. 113-118.
9. Голованова, Д. С. Влияние интернет-сленга на речевую культуру современной молодежи / Д. С. Голованова, И. Н. Якименкова. — Текст: непосредственный // Юный ученый. — 2019.

TA’LIM JARAYONLARIDA TIL VA YOZUV MUAMMOLARI

Boltayeva Zilola Yo‘ldoshali qizi
O‘zMU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi.
E-mail: zilolaboltayeva3885@gmail.com

Ne’matova Sevinch Fazliddin qizi
O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim jarayonida yuz berayotgan ayrim muammolarga to‘xtalingan. Xususan, ta’limda ikki xil yozuvdan foydalanish va uning oqibatlari, adabiy til me’yorlarining qisman buzilish holatlari, shuningdek, maktab darsliklaridagi murakkabliklar va ularga yechimlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ona tili darsliklari, adabiy til, adabiy til me’yorlari, lotin yozuvi, krill yozuvi.

Annotation: This article focuses on some of the problems that are occurring in the education process today. In particular, the use of two types of writing in education and its consequences, cases of partial violation of literary language standards, as well as complications in school textbooks and solutions to them are given.

Keywords: Mother tongue textbooks, literary language, literary language standards, Latin script, Krill script.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaydi. Buning isbotini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Davlat suverenititi” I bobi 4-moddasida keltirilgan ushbu jumlalardan ko‘rish mumkin “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi millat va ellatlarning tillari, urf-odatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”. Bundan ko‘rinadiki, til rivojlanmasa, xalq ham rivojlanmaydi.

Xalqning taraqqiyoti o‘z ona tiliga bog‘liq desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xalqning rivojlanishini uning ona tilisiga bo‘lgan munosabati, tiliga bo‘lgan e’tiboridan ham bilsa bo‘ladi. O‘zbek tilida, til o‘qitishda, ta’limda ham bir qancha muammolar bor. Ushbu maqolada o‘zbek tili ta’limidagi muammolarni yoritishga harakat qildik.

1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish haqida qonun qabul qilindi. Shuningdek, bu qonun 1995-yil 21-dekabrda yangidan tahrir qilindi. Aslida, o‘zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XII asrda eski o‘zbek adabiy tili shakllanib bo‘lgan edi. Eski o‘zbek tilining rivoji buyuk Alisher Navoiyning nomi bilan bog‘liqdir. U eski o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ajoyib asarlar yaratibgina qolmasdan, bu tilni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi “Muhokamat-ul-lug‘atayn” nomli yirik ilmiy asar ham yozdi va unda o‘zbek tilining boshqa tillardan, jumladan, fors-tojik tilidan hech kam emasligini ishonarli misollar bilan isbotlab berdi. Demak, shu davrlarda ham adabiy til tushunchasi muhim masala hisoblangan.

Til odamlarning bir-birlari bilan muomalada bo‘lishi uchun yordam beradigan eng muhim vositadir. Odamlar til vositasida o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini ifodalaydilar. Insoniyat jamiyatining shakllanishida tilning roli beqiyosdir. Tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo‘lishi mumkin emas, til jamiyat uchun, insonlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun u ijtimoiy hodisa hisoblanadi, ya’ni til yakka odamga emas, balki butun jamiyatga daxldor bo‘lib, shu jamiyat a’zolari yordamida shakllantirib, rivojlantirib boriladi. Milliy tilning ma’lum qoidalarga bo‘ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli adabiy til deb ataladi. Adabiy til shu tilda gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Umuman olganda, millatning barcha vakillari uchun tushunarli bo‘lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo‘lgan. Milliy o‘zbek tilida shevalarning ko‘pligi adabiy tilga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam bo‘lganligi uchun adabiy tilga ehtiyoj yo‘q. Milliy o‘zbek tilida esa shevalar ko‘p, har bir viloyatning o‘ziga xos shevasi mavjud, hattoki, bir viloyat ichida ham turli xil shevalar bor. Biroq, bizning fikrimizcha, ta’limda adabiy tildan foydalanish va til me’yorlariga asoslangan holda darslarni olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu kabi muammolarga yechim sifatida bir qator takliflar mavjud. Jumladan, avvalo, fan o‘qituvchilari nutq madaniyatini mukammal egallagan bo‘lishlari lozim. Ona tili, adabiy til haqida professor Baxtiyor Mengliyev quyidagicha fikr bildiradi: “Bunday ona tili ta’limini bolalarni, o‘zimizni, jamiyatni aldashdan boshqa narsa emas, uni tubdan isloh qilmas ekanmiz, bu aldov yana ko‘p yillar davom etadi” [Ma’rifat gazetasi. 2018].

Xususan, 2021-yil 29-oktabrda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik birlashmalari xodimlari hamda respublikada doimiy istiqomat qilayotgan boshqa tillarda so‘zlashuvchi aholi, shu jumladan xorijiy fuqarolar uchun Universitet huzurida yuridik shaxs maqomiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi davlat universitetlari hamda pedagogika institutlari huzurida hududiy bo‘linmalariga ega bo‘lgan Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi (keyingi o‘rinlarda — Markaz) tashkil etildi. Markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

o‘zbek adabiy tili me’yorlari va davlat tilida ish yuritish bo‘yicha doimiy faoliyat ko‘rsatadigan o‘quv va malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

davlat xizmatchilarining o‘zbek adabiy tili me’yorlari, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlosi, davlat tilida ish yuritish asoslari, rasmiy hujjatlar va ularni yozish bo‘yicha nazariy hamda amaliy bilimlari, ko‘nikma va mahoratini uzluksiz oshirib borish mexanizmlarini joriy etish;

aholining yozma va og‘zaki savodxonligini oshirish, o‘zbek adabiy tili me’yorlari, o‘zbek tilining tuzilishi bo‘yicha amaliy bilimlari, ko‘nikma va mahoratini tizimli asosda oshirib borish bo‘yicha ta’sirchan choralar ko‘rish;

davlat xizmatchilari va aholining nutq madaniyati hamda notiqlik mahoratini oshirish;

sohalar kesimida davlat tilida ish yuritish bo‘yicha ommabop qo‘llanmalar yaratish;

o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

sohaga oid o‘quv va malaka oshirish kurslarining, shu jumladan masofaviy o‘qitishning o‘quv rejalari va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirib borish.

Demak, bu kabi markazlar mamlakatimizning barcha viloyatlarida faoliyat olib borishi adabiy tilning keng miqiyosda, faqatgina poytaxtda emas, barcha viloyatlarda qo‘llanilishiga olib keladi.

Bugungi kunda ta’limda bundan tashqari ham muammolar bisyor. Jumladan, maktab darsliklari murakkabligi hamda o‘quv yurtlarida darslar krill alifbosi asosida o‘tilayotgani ham ta’limdagi kamchiliklar hisoblanadi.

O‘zbek tilining ta’limdagi eng katta xatolaridan biri bu imloviy-ishoraviy xatolardir. “Ma’rifat” gazetasida Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta’lim maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot o‘qituvchisi Sharofat Toshmirzayeva bu haqida shunday degan: “Ona tili fanining asosiy maqsadi to‘g‘ri va ravon so‘zlaydigan, bexato yozadigan savodxon shaxsni yetishtirishdir. Qayta-qayta nashr qilinayotgan darsliklarimizda ham, asosan, jahon tajribasidan kelib chiqib o‘quvchini mustaqil ishlashga, o‘rgatishga, matn tuzish qobiliyatini shakllantirishga urg‘u berilmoqda. Har bir yangi nashrda darsliklarning xatolari tuzatib borilmoqda. Adabiyot darsligi taqrizchilaridan biri sifatida shuni aytishim mumkinki, har bir yangi nashrdan oldin katta bir ishchi guruhi darsliklarni qayta tekshiruvdan o‘tkazadi. Har bir sahifa bittalab o‘rganib chiqiladi. Hattoki nashriyotlarda musahhihlarning yetishmasligi bois, imloviy, ishoraviy, uslubiy xatolarni ham o‘qituvchilar to‘g‘irlashyapti. Shunda ham ba’zan juz’iy kamchiliklar o‘tib ketadiki, bu OAVda tanqidiy chiqishlarga sabab bo‘lmoqda [Ma’rifat gazetasi. 2018].

Bundan tashqari, Sharofat Toshmirzayeva ona tili darsliklaridagi qator kamchiliklarni ham sanaydi.

- 8-sinf darsligidagi qo‘shma gap sifatida keltirilgan birlikning akademik litsey darsligida uyushiq kesimli sodda gap sifatida berilgan;
- ajtarilgan bo‘laklar ichida ajratilgan kesim istilohi yo‘q bo‘la turib (8-sinf), litsey darsligida uning ham ajratilishi haqidagi fikrning berilishi;
- to‘ldiruvchi va holning aniq chegarasi yo‘qligi;
- qo‘shma fe’l bilan ifodalangan kesimning ot kesim yoki fe’l kesimligi muammosi;
- fe’l kesimning sof fe’l bilan ifodalanishi aytilganiga qaramay, ravishdosh bilan ifodalanishiga misol keltirilishi;
- -alla- va -dir qo‘shimchalari bilan yasama olmosh hosil bo‘lishi haqidagi fikr;
- ravishning yasalishi muammolari;
- harakat nomining so‘z birikmasida fe’lli birikmani, gap bo‘lagi bo‘yicha ot kesimni shakllantirilishi va hokazolar.

Bu muammolarga yechim sifatida quyidagilarni keltiradi:

- darslik yozayotgan mualliflar birlashib, yagona fikrga kelishlari kerak;
- terminlarni qo‘llashda bir xillikka erishish lozim;
- o‘ta chuqur, ilmiylashib ketgan qoidalarni soddalashtirish kerak;
- maktab darsliklarini yaratishga metodist o‘qituvchilarni jalb qilish kerak [Ma’rifat gazetasi. 2018].

Bu kabi murakkabliklar ta’lim oluvchilar uchun, ayniqsa, muammolar tug‘diradi. Natijada, murakkab darsliklar ta’lim oluvchilardagi bilim egallashga bo‘lgan ishtiyoqini so‘ndirishigacha olib kelishi mumkin.

Shuningdek, ta’lim jarayonlarida ikki xil yozuvdan foydalanilishi, ya’ni lotin va krill alifbosidan foydalanish o‘quvchilarda har ikkala yozuv turidan ham yozma savodxonlik darajasining tushib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Bu quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda:

- o‘quvchilarning yozma nutqida lotin grafikasi va krill grafikasining aralashib ketishi;
- yozish jarayonida grafikalardagi chalkashliklar yozma fikr bayoniga halaqit berishi;
- o‘quvchilarning yozma ishlari baholanayotganda baholariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi.

Yuqoridagilarda kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, ta’limda muayyan tizimga ega bo‘lgan til va yozuv ahamiyati va o‘rni beqiyos. Chunki savodxon avlodni shakllantirish til va yozuvga borib taqaladi. Yechimi – o‘zbek tiliga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirishimiz kerak. Bundan tashqari, maktab ta’limidan boshlab o‘quvchilarning yozma nutqida imloviy, ishoraviy, uslubiy xatolarining oldini olishimiz hamda adabiy tilda og‘zaki nutqini ham rivojlantirishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.G‘ulomov, R.Sayfullayeva, M.Ernazarova. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. 2023, 378b.
2. Boltayeva Z. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi xususida. Молодой исследователь: вызовы и перспективы, 121-123, 2020.
3. Kurbanova, M. M., Xomidova, M. F. (2024). The Influence Of Allusive Names On The Perception Of Artistic Text. SPAST Reports, 1(1).1
4. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi (Ona tili). 2020, 163-b
5. Yo‘ldosheva D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. 2021, 427-b.

COGNITIVE-SEMANTIC APPROACHES OF THE ACT OF GRATITUDE IN COMMUNICATION

Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna
Bukhara State University Pre-school education,
Associate professor of the department, PhD.
E-mail: n.n.hamroeva@buxdu.uz

Abstract: Politeness strategies in language culture as a universal conceptual category and, accordingly, approaches to the study of the relationship between language and culture are a direction of special attention in today's linguistics. This article talks about the characteristics of the act of gratitude when entering into dialogue, which is one of the stages of dialogic discourse, and about the manifestation of non-verbal speech in different situations, its characteristics and the tools that create this speech.

Keywords: communication, communication, initiation of communication, emotionality, gratitude, non-verbal communication, speech etiquette, verbal communication.

Who a person is, what kind of character he has is revealed through his speech. The word is such a powerful force that when speaking, a person chooses the most necessary words from the box of thoughts and wants to influence the interlocutor and does it through his speech. Only then will his true nature and character be revealed. At this time, verbal and non-verbal means of communication play an important role in the language. Verbal communication is a process unique to humans that requires language acquisition as a prerequisite. Communication (relationship) involves the exchange of information between those who work together. In this, the communicative aspect of the relationship is taken into account. It is necessary to distinguish the concept of dialogue from communication. Communication refers to the exchange of information between living and non-living systems. The exchange of signals between animals, human communication with technical means - all this is communication. Communication can only be done between people. So, in the process of communication, communicative (information transfer), interactive (mutual action) and perceptive (mutual) perception is carried out. Nonverbal communication is the process of sending and receiving messages without using words. Nonverbal means of communication include facial expressions, facial expressions, tone, pauses, postures, tears, laughter, etc. A gesture, a meaningful look, an encouraging or sarcastic smile are much more effective means of influencing a person than wordy explanations and objections. These tools complement, strengthen and sometimes replace verbal communication.

In the culture of interaction, the word takes power from the mind and discretion from the language. The tongue has such power that it shakes the bone even if it is boneless. Etiquette requires, in particular, gratitude, respect for people's dignity and honor, and fulfillment of traditional moral and normative requirements. At the same time, it is distinguished by the fact that it shows the good aspects of a person. Its brightest, most meaningful and most expressive manifestation occurs through words and speech. Therefore, the manners of behavior manifest themselves, first of all, in moral standards such as sweetness, modesty, modesty, kindness.

Gratitude has a special place in etiquette. When gratitude is expressed by the speaker, it is expressed by the listener through linguistic units or non-verbal units. Five of the communication of gratitude:

- Interpersonal
- Cognitive
- Communicative and informative
- Emotive
- It is manifested in the unity of conative aspects.

The interpersonal side of communication reflects the interaction of a person with his immediate environment: other people and the commonalities that are connected in his life.

The cognitive side of communication allows you to answer many other questions about who the interlocutor is, what kind of person he is, what can be expected from him, as well as many other questions related to the personality of the partner.

The communicative-informational side of communication consists of the exchange between people with different perceptions, ideas, interests, feelings, inclinations, and the like.

The emotional side of communication is related to the feelings and moods of the partners in their personal relationships.

The conative (behavioral) side of communication serves to coordinate internal and external contradictions in the views of discourse participants. The following are important in this: tone, emotional expressiveness, able to give different meanings to the same phrase. The interlocutor's facial expressions, posture, and gaze can enhance, complement, or reject the meaning of a phrase. Gestures as a means of communication can have a generally accepted, i.e. fixed meaning, or they can be expressive, i.e. increase the expressiveness of speech.

Qarasam, cholning ko'krak cho'ntagida boyagi yaltirab turgan soat zanjiri ko'rinmayapti. Dadam uning ko'ziga tikilib,sekin xo'rsindi. – Rahmat. Tirik bo'lsam , shu yaxshiligingizni qaytaraman [3;50].

Choynak ko'tarib kelsam, chol-kampir haliyam bir nimaning maslahatini qilishyapti. – Barakalla, qizim!- dedi bobom uzatgan piyolamni olib. – Iloyo baxting ochilsin! Ikkovlari bir-biriga zimdan qarab olishdi. Tashqarida eshak hangradi, molxonada sigir mo'radi…[3;136]

- Rahmat,qizim! Yuzimni yorug' qilding,- dedi ovozi titrab. - Qo'sha qarigin, o'zingdan ko'paygin, bolam…[3;126

Gratitude is a feeling of gratitude for a good deed or any other good. It is a positive feeling that we can feel towards another person, a group of people, a society, an event, God, life or the universe. Psychologists say that gratitude is more important to the person experiencing it than to whom it is directed. This feeling increases emotional strength and harmonizes the inner state. A grateful person is usually calm and resistant to stress, tends to see the positive in everything, and has a relatively more rational approach to everything. It is worth noting that initially people who are at a high level of personal development experience gratitude. This feeling is nice in itself, but it also has other advantages. In particular, it is useful because: improves mood. It is impossible to experience strong negative emotions at the same time as gratitude. When a person is truly grateful to someone, he or she discards almost all negativity, and a feeling of joy appears instead.

- *Jayrona, hech kim o'zga yurtda dardga chalinmasin ekan. O'z yurtingda og'risang, yurtingni havosi ham dori bo'ladi. Ammo musofirlikda juda g'arib bo'lib qolarkansan.*

Yaxshiyam siz bor ekansiz. Ming rahmat. Bo'lmasam, kim biladi, nima bo'lardim. Hech qachon yaxshiligingizni unutmayman. O'lmasam, sizga bu yaxshiligingizni o'n chandon ortiq qilib qayataraman.[106]

- *Buyuklar buyugi! Ko'z yoshlarimni , tavbamni qabul qil. Sen eshingingga kelganni quvmaysan. Qancha gunoh va xatolari bo'lsa, kechirasan. Zero, boshqa choram ham, eshigim ham yo'q. Agar qabul etmasang, qaysi eshikka boraman?... Men bir gunohkor qulingman, bugun dargohingga keldim. Menga shunday kunni nasib qilganing uchun o'zingga shukrlar bo'lsin!...[128]*

Also, gratitude teaches us to notice and appreciate what we have, distracts from problems, improves relationships, teaches understanding and forgiveness. Expressions of gratitude: verb phrases (in the form of abbreviations): p.f. – (pour feliciter) in congratulation; p.r. – (pour remercier) – in expressing gratitude; p.p.c. – (pour prendre conge') - as a sign of farewell; p.c. (pour condolence) - used to express sympathy.

To sum up, gratitude is a speech unit that has its own characteristics. Gratitude ("Blessing") is a feeling of gratitude for a favor, for example, attention or a service rendered, as well as various ways of expressing this feeling, including formal measures of encouragement (for example, an expression of gratitude). Gratitude is a complex feeling based on an emotional and rational assessment of events, and its expression is highly ritualistic. The address of gratitude can be not only specific people, but also groups of people (for example, ancestors) and divine concepts: the world, gratitude to the universe, gratitude to God. In the process of speech communication, gratitude can express several pragmatic meanings, such as ending the conversation, sincere attitude, gratitude, agreement.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Формановская Н.И. Речевое взаимодействие: коммуникация и прагматика/ Н.И. Формановская. – М.: Издательство «ИКАР», 2007. – 480с.
2. Махсудова М.А. Мулоқот психологияси. – Наманган, 2005. https://uz.denemetr.com/docs/768/index-93638-1.html;
3. Хакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. - Тошкент: Akademnashr, 2013. - 176 б.
4. Хамраева Н.Н. Роль диалогического дискурса и коммуникативных стратегий в процессе межличностного общения. Вестник КГУ им. Бердаха. № 4(63) 2023. – В. 376-378.
5. Щерба Л. В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974. – 428 с; 2-е изд. – М.: УРСС, 2004.
6. Hamroyeva N. THE IMPORTANCE OF PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF LANGUAGE TASKS IN INTERNATIONAL COMMUNICATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2024. – Т. 45. – №. 45.
7. Hoshimov O'. "Ikki eshik orasi".- Toshkent "Global Books",2021-B.50

REKLAMA MATNLARINING VAZIFAVIY TAVSIFI

Sobirova Dilnoza Rasulovna
Buxoro davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: d.r.sobirova@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada reklama matnlari, ularning vazifalari borasida turli olimlarning qarashlari xususida so‘z yuritiladi. Reklamalarning vazifaviy tavsifi masalasi ilmiy yondashuvlar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: reklama, reklama matni, funksiya, vazifaviy tavsif.

Abstract: These articles, research articles, and advertising texts of various scientists are discussed. The task description of advertisements is revealed on the basis of scientific research.

Keywords: advertising, advertising text, function, task description.

Аннотация: Обсуждаются эти статьи, научные статьи и рекламные тексты различных ученых. Описание задачи рекламы раскрыто на основе научных исследований.

Ключевые слова: реклама, рекламный текст, функция, должностная инструкция.

Ma’lumki, reklama – tovarlar va xizmatlar to‘g‘risidagi ma’lumotni majoziy, ekspressiv xarakterdagi matnlar orqali adresatga yetkazish, shuningdek, jamiyatning har qanday muammolariga jamoatchilikning munosabatini o‘zgartirish va kelajakda o‘z auditoriyasida yangi ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish kabi xususiyatga ega bo‘lgan, adresatlarning ommaviy hamda individual ongiga psixologik ta’sir ko‘rsatuvchi, ular(adresatlar)ni reklama beruvchiga zarur bo‘lgan tanlov va xatti-harakatlarga undashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan ommaviy aloqa shaklidir [Sobirova D., 2022: 21].

Reklamaning barcha ta’riflarida kalit so‘z «ma’lumot»dir. Demak, reklama matnining asosiy vazifasi kommunikativ funksiya (aloqa, axborot berish) ekanligi ayon bo‘ladi. Reklama e’lonlarida mahsulot(xizmat)ning mavjudligi, sifati, ularni qo‘llash sohalari, foydali jihatlari, narxi va boshqalar to‘g‘risida ma’lumot beriladi. Qolaversa, reklama sotib olishni rag‘batlantirishi, foyda olishga xizmat qilishi kerak. Demak, reklamaning iqtisodiy funksiyasi ham mavjud. Reklama obyektiv dunyoni baholash bilan birga haqiqatga nisbatan ma’lum munosabatni ham yetkazish orqali insonning his-tuyg‘ulari va fikrlariga ta’sir o‘tkazadi. U jamiyatning ijtimoiy va estetik ideallarini aks ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan birini ifodalaydi. Bu esa reklamaning ta’sir (ekspressiv) funksiyasini yuzaga chiqaradi. Tadqiqotlarda reklamaning asosiy funksiyalariga yondosh bo‘lib keladigan qo‘shimcha funksiyalari xususida ham so‘z boradi. Rus olimasi E. Vasileva reklamaning 5 asosiy funksiyasi mavjudligi xususida so‘z yuritadi:

1) axborot va ta’lim funksiyasi: xaridorlarni yangi tovarlar va xizmatlar to‘g‘risida xabardor qilish;

2) ijtimoiy-madaniy funksiya: estetik xulq-atvor meyorlari va jamiyat hayotining rivojlanishi hamda mustahkamlanishiga hissa qo‘shish;

3) tashkiliy funksiya: hayotning muayyan sohalarda jamiyat tashkil etishga undash;

4) iqtisodiy funksiya: tovarlarni sotishni rag‘batlantiruvchi va foyda o‘sishiga hissa qo‘shish;

5) boshqarish funksiyasi: iste’molchilar ayrim guruhlarining turli assortimentdagi tovarlarga imtiyozlarini yaratish jarayonlarini boshqarish [Vasileva E., 2009: 10].

Y.V. Cheryachukin reklamaning huquqiy asoslarini yoritishga bag‘ishlangan tadqiqotida maxsus reklama funksiyalarini (reklama beruvchining tovarlarini raqobatchilarning o‘xshash mahsulotlari orasida ajratib ko‘rsatish, iste’molchilarga tovar to‘g‘risida ma’lumot berish, talabni rag‘batlantirish, tarqatishni rag‘batlantirish, iste’molchilarning xohish-istaklarini shakllantirish, tovarlarning reklama narxini pasaytirish) va reklamaning ijtimoiy funksiyalari (marketing, kognitiv, iqtisodiy, estetik, tarbiyaviy)ning jamiyat hayotining boshqa sohalari bilan o‘zaro ta’sirini tavsiflaydi [Черячукин Ю., 1998]. Ilgari reklamaning eng muhim vazifasi mahsulotni bozorga olib chiqish va uning sotilishini rag‘batlantirish deb hisoblangan bo‘lsa, qayd etish kerakki, bugun zamonaviy sharoitlarda reklama funksiyalari kengayib bormoqda: iqtisodiy vazifalardan tashqari g‘oyaviy, ijtimoiy jihatdan birlashtiruvchi, talabgorlarga estetik ta’sir ko‘rsatuvchi, jamiyatni boshqarish vositalaridan biriga evriluvchi, madaniyatni shakllantirish orqali tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi kabi xususiyatlarga ega bo‘lgan reklama ham ma’lum darajada o‘z vazifalarini bajarib kelmoqda.

Fransuz olimi K.Tatilon o‘zining reklama matni va uning tarjimasi muammolariga bag‘ishlangan ishida reklama matnlarining to‘rtta muhim funksiyasi mavjudligini qayd etadi: a) reklama nomi va iborasini aniqlash funksiyasi; b) mahsulot sifatini tavsiflovchi funksiya; d) reklamadagi so‘z o‘yinlari funksiyasi; e) reklamaning tushunarliligi va ahamiyatliligi funksiyasi [Tatilon K., 1990: 243]. Fikrimizcha, olim reklama matnini yaratishga xos bo‘lgan bosqich va usullarni funksiya sifatida baholagan.

O‘zbek reklamashunoslari tomonidan ham sohaga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, reklamaning, asosan, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, tarixiy va lisoniy jihatlari tadqiq etilgan. Mahsulot reklamasini tashkil etish A. Azlarova tadqiqotida, o‘zbek oilalarida reklama qilinayotgan mahsulotlar idrokining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari N. Shomurotova qarashlarida, reklamaning ijtimoiy-psixologik hamda etnopsixologik vazifalari L. Karimova talqinida atroflicha o‘rganilgan. U.Mahmudova reklama matnlari tarjimasining lingvomadaniy va uslubiy jihatlarini o‘rganar ekan, reklama diskursining asosiy yondosh vazifalari sifatida quyidagilarni belgilaydi [Mahmudova U., 2021: 133].

– xatti-harakatlardan kelib chiqib, muayyan stereotiplarni yaratish;

– shaxsning ongida azaliy qadriyatlarni qayta qurish va mustah-kamlashga qaratilgan ta’sirni berish;

– jamiyatda reklama muhitini rivojlantirish;

– turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan mahsulot yoki xizmat, uning mohiyati, tabiati, sotilish joyini yetkazish;

– targ‘ib etilayotgan mahsulot (xizmat)ni ommaviy va iqtisodiy jihatdan rag‘batlantirish.

Xullas, reklama matnlarining vazifalari xilma-xil bo‘lib, ularning funksional tavsifi tilshunosliklarda atroflicha tadqiq etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Васильева Е.А. Как сделать рекламу эффективной? 25 беспроигрышных идей. Практические пособие. – Москва: Дашков и Ко. 2009. – С. 10.
2. Шомуротова Н. Ўзбек оилаларида реклама қилинаётган маҳсулотлар идрокининг ижтимоий-психологик хусусиятлари: Психол. фан. номзоди дисс... Т., 2011;
3. Азларова А. Товарлар рекламасини ташкил қилиш ва самарадорлиги (Ўзбекистон корхоналари мисолида): Иқт. фан. ном. дисс... – Тошкент, 2005;
4. Каримова Л. Социально-психологические и этнопсихологические особенности социальных представление и устоновок личности по отношению к рекламе. Кандидатская диссертация. – Ташкент, 2003.
5. Маҳмудова У.У. Реклама матнлари таржимасининг лингвомаданий ва услубий жиҳатлари: Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс. – Қарши, 2021. – 133 б.
6. Tatilon C. Le texte publicitaire: traduction ou adaptation // Meta, 35(1), 1990. – P. 243. https://doi.org/10.7202/004326ar
7. Черячукин Ю.В. Правовое регулирование рекламной деятельности в Российской Федерации и зарубежных государствах: Опыт. Автореферат кандидат юридических наук. – Москва, 1998. https://www.dissercat.com/content/pravovoe-regulirovanie-reklamnoi-deyatelnosti-v-rossiiskoi-federatsii-i-zarubezhnykh-gosudar
8. Собирова Д.Р. Тиббий рекламаларнинг социопрагматик хусусиятлари. Филол. фан. бўй. фалс. Доктори (PhD) дисс. – Қарши, 2022.

EPITETNI YONDOSH HODISALARDAN FARQLASH MASALASI

Normurodova Zarifa Ruziqulovna
TerDu O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi.
E-mail: zarifanr2020@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada nutqiy hodisa bo‘lgan epitet, uning xususiyatlari, hosil bo‘lish asoslari va boshqa yondosh hodisalardan farqlari haqida fikr yuritilgan. Ma’lumki , epitet haqidagi fikrlar juda qadimdan tilshunoslarning e’tiborida bo‘lgan. Dunyo hamda o‘zbek tilshunosligida olimlarning qiziqishiga sabab bo‘lgan. Shuning barobarida turli – tuman bahslarga , qarashlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Ushbu maqolada epitetni boshqa hodisalardan farqlash masalasiga e’tibor qaratdik.

Kalit so‘zlar: epitet, metafora, sema, nominativ ma’no, metonimiya , lug‘aviy birliklar, tasviriy ifodalar .

Abstract: The article discusses the epithet, which is a speech phenomenon, its characteristics, the basis of its formation, and its differences from other related phenomena. It is known that thoughts about epithets have been in the attention of linguists for a long time. It has caused the interest of scientists in world and Uzbek linguistics. At the same time, it served for the formation of different views and debates. In this article, we focused on the issue of distinguishing the epithet from other phenomena.

Keywords: epithet, metaphor, sema, nominative meaning, metonymy, lexical units, figurative expressions.

Аннотация: В статье рассматривается эпитет, который является речевым явлением, его характеристики, основы формирования и отличия от других родственных явлений. Известно, что мысли об эпитетах издавна находились в поле зрения лингвистов. Это вызвало интерес ученых мирового и узбекского языкознания. В то же время оно послужило формированию различных взглядов и дискуссий. В данной статье мы остановились на вопросе отличия эпитета от других явлений.

Ключевые слова: эпитет, метафора, сема, номинативное значение, метонимия, лексические единицы, образные выражения.

Til — jamiyat boyligi, u jamiyat a’zolarining o‘zaro aloqasini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma’naviy turmushida ro‘y beradigan barcha voqea-hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi. Til ayni ma’noda asrlar mobaynida shakllanadi va mavjud bo‘ladi. Til badiiy asarlar tili ta’sirida ham rivojlanadi, sayqallanadi. Tafakkur esa tilga qaraganda birmuncha tezroq rivojlanadi va yangilanadi, lekin tilsiz tafakkurni tasavvur etib bo‘lmaydi: tilda ifodalanmagan fikr noaniq, tushunarsiz bir narsa bo‘lib, insonga borliq voqea-hodisalarini anglab yetishida fanni rivojlantirish va takomillashtirishida yordam bera olmaydi. Tafakkur tilsiz mavjud bo‘lmas ekan, til ham tafakkursiz yashay olmaydi. Biz o‘ylab turib gapiramiz va yozamiz, o‘z fikrlarimizni tilda aniqroq va tushunarliroq bayon etishga harakat qilamiz. Fikr va o‘ylarimizni

tinglovchiga, o‘quvchiga jozibali , estetikli , obrazli, ifodali yetkazishga intilamiz. Demak, fikrlar til negizida paydo bo‘ladi va unda mustahkamlanadi. Shunday ekan, biz fikrimizning yanada ta’sirchan, emotsional , ekspressiv bo‘lishi uchun nutqimizda tasviriy vositalardan foydalanamiz. Tasviriy vositalar sirasida metafora, sinekdoxa, metonimiya, perifraza va epitetlar bo‘lib, bularning har biri badiiy matnlarda va nutqimizda bajaradigan o‘ziga xos uslubiy vazifalari bor. Biroq, ba’zi hollarda bu yondosh hodisalarni birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llash yoki ularni qorishtirib yuborish , bir-biridan farqlamaslik holatlari uchraydi. Dastlab epitet , uning uslubiy vazifasi , badiiy matndagi o‘rniga to‘xtalib o‘tsak. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, epitet qadim zamonlarda ritoriklarni, keyingi davrlarda tilshunos olimlarning qator tadqiqotlarida bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. “Epitet” atamasini tushunishda turli pozitsiyalari mavjud bo‘lib, bu aniq bir ilmiy xulosaga kelishni va tushunchaning mohiyatini aniqlash o‘zbek tilshunosligidagi jiddiy masalalardan biri hisoblanadi.Epitet haqida turli xil talqinlarni berishadi. Tadqiq yo‘llarini belgilaydi. Ushbu yo‘lni o‘zbek ijodkorlari asarlari ishida o‘rganish va undan foydalanishning ko‘p qirraliligini ochib berishadi, bu nafaqat o‘z asarlarining uslubiy xususiyatlari , balki epitetlar prizmasi orqali ma'lum bir yozuvchining ma'naviy dunyosiga qarash imkoniyati haqida tasavvur imkonini beradi. “O‘zbek tilining izohli lug‘atida, epitet – narsa va hodisalarni tasvirli qilib ko‘rsatish uchun ularning nomiga qo‘shib ishlatiladigan so‘z “ deb ta’rif berilgan. [O‘TIL., 2023: 48]. Ba’zi hollarda epitetni aniqlovchi bilan almashtirish o‘rinlari kuzatiladi. M.Mukarramov sifatlash va aniqlovchilarning ma’no va grammatik jihatdan farqlanuvchi beshta xususiyatini ajratib ko‘rsatadi . Tilshunos olim M.Mukarramovning monografiyasida aniq dalillar bilan bu ikki til vositalarini farqlab beradi. . Tilshunos olim tadqiqotida epitetni ayrim tadqiqotchilar aniqlovchiga tenglashtirishlarini , holbuki, bu ikki hodisa bir-biridan farqlanishini, aniqlovchi umumnutqqa xos bo‘lib, til hodisasi sanalib, predmetning rangini, shaklini, xususiyatini, miqdor-darajasini, yoki biror predmetga qarashliligini bildiradi. Epitet esa badiiy nutqqa xos bo‘lib, tasviriy vosita sifatida predmetning belgi, xususiyatini ko‘rsatadi. [М.Мукаррамов ., 1976: 15-б] . Bunda u o‘xshatish asosisiz qo‘llangan o‘xshatish qurilmasi bilan epitetli birikmalarni solishtirib tahlil etadi va shu orqali ular o‘rtasidagi farqli tomonlarni ko‘rsatib o‘tadi. Muallifning ko‘rsatishicha, o‘xshatish qurilmasining tarkibidagi so‘zlar nominativ ma’nosi bilan qo‘llanishi unda subyektiv munosabat ifoda topmasligi; epitetli birikmalardagi epitetlar esa albatta majoziy ma’noga ega ekanligi va emotsional ekspressivlik ifodasini berishi bilan farqlanadi. Epitetli birikmalar o‘xshatish qurilmasining o‘xshatish formanti tushib qolgan ko‘rinishi hisoblanadi. Shuning uchun mana shu formant asosida o‘xshatish qurilmasini epitetli birikma, epitetli birikmani o‘xshatish qurilmasiga aylantirish imkoniyati nutqda saqlanadi. Mukarramov yuqorida aytilgan xulosasi bilan nihoyatda haqdir. Shu bilan birga, u ayrim o‘rinlarda epitetli o‘xshatish formanti vositasida qayta o‘xshatish qurilmasiga aylantirib bo‘lmasligini ham ko‘rsatib, ukki ko‘z, bodom qovoq, echki soqol kabi epitetli birikmalarni misol tariqasida keltiradi. A. Navoiy g‘azallaridan birida shunday misra bor: *Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin*. Bu misradagi *yosinmu* so‘zining o‘zagi bo‘lgan yo asli yoy_so‘zining qisqarganidir. O‘rni kelganda, epitetlar qisqargan metaforaga o‘xshab ketadi, [А. Шомақсудов ва б., 1983: 239-б] degan fikrga ham munosabat bildirishga to‘g‘ri keladi. Ko‘rib o‘tdikki, metafora ham epitet ham bir so‘z doirasida kechadi. Ya’ni shakl jihatidan olib qaralsa, epitet sifatida qo‘llangan so‘z ma’nosi bir sema orttirgandagina metaforaga aylanadi, deb aytildi.

Shunga suyanadigan bo‘linsa, ma’no hajmiga ko‘ra epitet qisqargan metafora emas, balki metafora-kengaygan epitet deb qarash masalani yana ham to‘g‘riroq tushunishga yordam beradi. Mumtoz adabiyotda ham epitet she’riy san’at , istiora nomi ostida ko‘chim sifatida qo‘llangani ma’lum. Demak, A.Navoiy g‘azalidagi mazkur yoy so‘zi o‘z ma’nosining belgi semasi bilan qo‘llangan, belgi bildiruvchi so‘z sifatida kelgan va ijobiy ta’sirchanlik ifodasiga ega. Bu epitetga xos xususiyatdir. U farqlovchi va o‘xshashlik semasini o‘z ma’nosida orttirmagani uchun ko‘chma ma’no sifatida tarkib topa olmagan. Darhaqiqat, tildagi mavjud bo‘lgan barcha lug‘aviy birliklar va tasviriy vositalar bir-biriga o‘xshash va bir-biridan farqli tomonlarga egadir. Epitetlarni yondosh hodisalardan farqlash uni yana ham to‘laqonli ochib berishga va badiiy nutqda o‘rinli qo‘llashga xizmat qiladi. Tilshunos olim T.Rasulov “Badiiy obraz va obrazli tasviriy vositalar “ nomli maqolasida g‘uncha lab birikmasidagi g‘uncha so‘zini epitet sifatida keltirib o‘tadi . Ammo maqolada o‘xshatish bilan epitetlarni bir-biridan farqi ochib berilmaydi.[Т. Расулов., 1965: 11b]. Bu esa , ushbu nutq hodisasini to‘la anglashni birmuncha qiyinlashtiradi. Tadqiqotchilar bunday masalalarga chuqur e’tibor qaratsa foydadan holi bo‘lmaydi. Tilshunos olim R. Normurodov fikriga ko‘ra, epitetlarning metafora , metonimiyaga o‘xshash tomonlari bor, ayni chog‘da ulardan keskin farq qiladi , bular o‘rtasida ma’lum chegaralar mavjud. Metafora so‘zlar va iboralarning ko‘chma ma’noda kelishi bo‘lsa , metanomiyadan boshqa nom berish degan ma’noni anglashiladi, epitet esa obraz yaratishda , uning sifatiy belgisini ifoda etuvchi vositadir . [Р.Нормуродов., 2003: 59] . Olimning fikriga qo‘shilgan holda epitet obraz vositasi, fikrning tasviriy bo‘lishida , jozibali nutq yaratishga xizmat qiladi degan fikrga to‘xtalamiz.

Men sayr etgan gul vodiylarda chechaklarga yondosh o‘sarman. Misolda keltirilgan gul so‘zi epitet bo‘lib , “chiroyli” , “ yashnagan” kabi ma’nolari anglatishi bilan boshqa hodisalardan farqli ravishda obrazli ifodalashi bilan , narsalarning belgilarini tasvirli ifodalashi bilan uslubiy tomondan farqlanadi.Epitetning nazariyasiga oid qarashlarda tilshunos olima D. Xo‘jayevaning fikrlari ham bu hodisa anglashda asoslidir. M. Mukarramovning fikrlariga qo‘shilgan holda, sifatlashish va epitetlarning bir ko‘rinishi otning sifatga ko‘chishi va shu otning ma’nosida emotsional sema yuzaga kelishi jihatidan o‘zaro bir sanaladi. Lekin ot sifatga ko‘chganda o‘z sememasi semalarini to‘la saqlab qolsa, sifatlashish hisoblanib, sememasi semalarining ayrimlari bilangina qo‘llansa, epitet deb qaraladi.[Д. Хўжаева., 1995: 51-бет] Demak, bundan xulosa kelib chiqadiki, epitet bir so‘z orqali boshqa bir yashirin ma’noni ifodalash, narsaning belgisini obrazli xarakterlashdir. Bu kabi dolzarb masalalarni o‘rganish tilshunoslik fanining istiqboliga xissa qo‘shadi. Tadqiqotchilarning til masalalariga o‘tkir nigoh bilan boqishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘TIL . T .:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa uyi .2023 II jild 48-b
2. М. Мукаррамов. Ўзбек тилида ўхшатиш. Т.: “ Фан “нашриёти. 1976 , 15-бет
3. А. Шомақсудов ва бошқалар . Ўзбек тили стилистикаси .-Тошкент.: Ўқитувчи-1983, 39-б .
4. Р. Нормуродов. Шукур Холмирзаевнинг бадиий маҳорати . Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти. 2003, 59-бет
5. Д. Хўжаева. Ўзбек тилида эпитет . Фил.фан.ном.дисс. Т.: 1995, 51-бет

TURKIY TILLARDA ALIFBO VA IMLO ISLOHOTLARI

Keldiyorova Gulchehra
O'zMU dotsenti.

Tojiyeva Muxlisa
O'zbek tilshunosligi fakulteti magistranti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada turkiy tillarda amalga oshirilgan alifbo va imlo islohotlari tahlil qilinadi. Alifbo islohotlari turli davrlarda turkiy xalqlarining madaniy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, ularning umumiy yozuv tizimini yaratishdagi harakatlari haqida fikr yuritiladi. Ushbu jarayonlarda kirill, lotin, arab yozuvlarining o'rni va ularning afzalliklari hamda kamchiliklari tahlil etiladi. Maqolada hozirgi zamon turkiy tillarining imlo qoidalari va alifbo tizimidagi muammolar ham yoritiladi. Maqsad — tilning rivojlanishi va yozuvning takomillashuvi orqali xalq madaniyatini boyitish va milliy o'zlikni saqlash masalalarini ko'rib chiqishdir.

Kalit so'zlar: turkiy tillar, alifbo islohotlari, imlo qoidalari, lotin alifbosi, kirill yozuvi, arab yozuvi, til siyosati, madaniy meros.

Annotatsiya: В данной статье анализируются реформы алфавита и орфографии, реализованные в тюркских языках. Реформы алфавита связаны с культурным, политическим и экономическим развитием тюркских народов в разные периоды, обсуждаются их усилия по созданию единой письменности. В этих процессах анализируется роль кириллицы, латиницы и арабской графики, их преимущества и недостатки. В статье также освещены правила правописания современных тюркских языков и проблемы алфавитной системы. Цель – рассмотрение вопросов сохранения национальной идентичности и обогащения национальной культуры посредством развития языка и совершенствования письменности.

Ключевые слова: тюркские языки, реформы алфавита, правила правописания, латиница, кириллица, арабская письменность, языковая политика, культурное наследие.

Abstract: This article analyzes the alphabet and spelling reforms implemented in the Turkic languages. The alphabet reforms are associated with the cultural, political and economic development of the Turkic peoples in different periods, and their efforts to create a unified script are discussed. The role of the Cyrillic, Latin and Arabic scripts, their advantages and disadvantages are analyzed in these processes. The article also highlights the spelling rules of modern Turkic languages and the problems of the alphabetic system. The goal is to consider the issues of preserving national identity and enriching national culture through the development of language and improvement of writing.

Keywords: Turkic languages, alphabet reforms, spelling rules, Latin, Cyrillic, Arabic script, language policy, cultural heritage.

Turkiy tillar turk xoqonligi davridan boshlab o‘z o‘rnini egallab kelgan. Bu tillar uchun alifbo va yozuv masalasi har doim do

lzarb bo‘lib kelgan. Har bir turkiy xalq o‘z davrida turli yozuv tizimlaridan foydalangan. XX asr boshlarida boshlanib, bugungi kunga qadar davom etayotgan alifbo islohotlari ushbu xalqlarning milliy va madaniy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi.

Turkiy xalqlar o‘rtasida dastlabki yozuvlardan runik yozuvlaridan foydalanilgan. Keyinchalik islom dinining ta’sirida arab yozuvi keng tarqaldi. XX asr boshlariga kelib, turli geosiyosiy jarayonlar natijasida turkiy xalqlar orasida kirill va lotin alifbosiga o‘tish islohotlari amalga oshirildi.

Masalan, 1920-yillarda sobiq Sovet Ittifoqidagi ko‘plab turkiy tillar lotin alifbosiga o‘tkazildi. Bu islohot o‘sha davrda turkiy xalqlarni birlashtirish va ularning madaniy aloqalarini kuchaytirish maqsadida amalga oshirildi. Biroq 1940-yillarda yana kirill yozuviga o‘tish islohoti boshlandi. Sovet ittifoqi parchalanganidan so'ng ko‘plab mustaqil davlatlar, jumladan, O‘zbekiston lotin alifbosiga qayta o‘tishni boshladilar.

Turkiy xalqlar tarixida birinchi yozuv tizimi qadimgi turk runik yozuvlarida aks etgan. Bu yozuvlar O‘rhon-Yenisey yozuvlari deb nomlanib, VIII asrda Turkiy Qoqonlik hududlarida keng qo‘llanilgan. Keyinchalik, islom dinining tarqalishi natijasida arab yozuvi turkiy xalqlar o‘rtasida keng yoyildi va asrlar davomida ilmiy va diniy asarlar shu yozuvda yozilgan.

XX asrning boshlarida turkiy xalqlar orasida yangi alifbo islohotlariga ehtiyoj tug‘ildi. Bu davrda dunyo bo‘ylab milliy davlatlar shakllanishi, sanoat inqilobi va ma’rifatchilik g‘oyalari kuchayib, milliy o‘zlikni mustahkamlash zarurati paydo bo‘ldi. Ayniqsa, 1920-yillarda sobiq Sovet Ittifoqidagi turkiy tillar uchun lotin alifbosiga o‘tish jarayoni boshlandi. Ushbu islohot zamonaviy tilshunoslik va o‘quv jarayonlarini soddalashtirish uchun amalga oshirildi.

Biroq 1940-yillarga kelib, Sovet ittifoqi rasmiylarining qarori bilan ko‘plab turkiy tillar kirill yozuviga o‘tkazildi. Bu islohotlar milliy o‘zlikni yo‘qotish va mustamlakachilik siyosatining bir qismi sifatida qaralgan bo‘lsa-da, turkiy xalqlar bu jarayonda ham o‘z madaniy meroslarini asrab qolishga intilgan.

Mustaqillik davriga kelib, 1990-yillarda ko‘plab turkiy davlatlar, jumladan O‘zbekiston, Qozog‘iston va Ozarbayjon, lotin alifbosiga qaytishga qaror qildilar. Bu islohotlar yangi milliy mustaqillikni mustahkamlash va xalqaro miqyosda o‘z o‘rnini topish maqsadida amalga oshirildi. Lotin yozuvi jahon til tizimiga kirishning qulayligi, texnologiyalar bilan integratsiya qilish imkoniyati va zamonaviy fan-texnika yutuqlarini o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega deb qaraldi.

Jadidlarning sa’y-harakati tufayli milliy o’lkalarda, jumladan, Turkistonda alifbo va imloni isloh qilish harakati boshlandi. Chunki Fitrat , Munavvar qori , Ashurali Zohiriy , Elbek, Qayum Ramazon , Shokirjon Rahimiy singari jadid ziyolilari millat tarbiyasini, taraqqiyotini yosh avlodni tarbiyalashdan boshlash kerak, deb hisoblanganlar. Shuning uchun maktab-maorif talim-tarbiyani bolalar o’z ona tilida olishlari uchun qayg’urdilar. O’sha paytdagi joriy arab alifbosi va imlosi savod chiqarishda qiyinchilik tug’dirayotgani uchun uni isloh qilishga kirishdilar. Ishning boshida Fitrat turdi. Shu tariqa Abdurauf Fitrat o’z davrining ilg’or ziyolilari, xususan, u rahbarlik qilgan uyushma a’zolari milliy yozuvimizni yaratish borasida faol ishtirok etdilar. “Ularning bu sohadagi nazriy va amaliy faoliyatini ikki davriy bosqichga ajratish mumkin:

1.Arab yozuvining islohi-milliylashtirish yo’lidagi faoliyati.

2.Lotin yozuviga asoslangan yangi o’zbek alifbosini yaratish yo’lidagi faoliyati”.

Bugungi kunda turkiy tillarning aksariyati lotin alifbosiga asoslangan yozuv tizimlariga o‘tishga harakat qilmoqda. Biroq bu jarayon ba’zi davlatlarda sekin amalga oshirilmoqda. Masalan, O‘zbekistonda 1993-yilda lotin alifbosiga o‘tish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan bo‘lsa-da, hali to‘liq o‘tish yakunlanmagan. Kirill yozuvida yozuvchi avlodning katta qismi hali ham ushbu tizimdan foydalanmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda imlo qoidalari borasida ham bir necha muammolar mavjud bo‘lib, lotin alifbosiga asoslangan yangi imlo qoidalarini yaratish zarurati tug‘ilgan.

Qozog‘iston va Turkmaniston kabi davlatlar ham lotin alifbosiga o‘tishda o‘zlarining maxsus strategiyalarini ishlab chiqdilar. Biroq bu jarayonda turli iqtisodiy va madaniy muammolar paydo bo‘lib, islohotning amalga oshirilishini qiyinlashtirmoqda. Bu davlatlarda ham o‘z xalqining yozma madaniyatini saqlab qolish va modernizatsiyalash masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Lotin alifbosiga o‘tish jarayonida imlo qoidalarining yagona tizimini yaratish ham katta ahamiyat kasb etadi. Turkiy xalqlar o‘rtasida yagona imlo tizimini yaratish orqali ularning ilmiy, madaniy va iqtisodiy aloqalarini kuchaytirish mumkin bo‘ladi. Biroq hozircha har bir davlat o‘ziga xos imlo qoidalarini ishlab chiqmoqda va bu turkiy tillarning umumiy yozuv tizimini yaratishga xalaqit bermoqda.

Albatta, alifboni almashtirish oson ish emas. Avvalo, buning uchun juda katta mablag‘ va vaqt sarflash zarur bo‘ladi. Ikkinchidan, alifboni almashtirish bilan hamma ma’lum ma’noda savodsizga aylanadi, yangitdan savod chiqaradi. Ammo shularga qaramay, o‘zbek xalqining kelajagini o‘ylab va bu istiqbolda o‘z samarasini ortig‘i bilan qaytarishini ko‘zda tutib, O‘zbekiston Respublikasi o‘zbek lotin alifbosiga o‘tishga qaror qildi. O‘zbek kirill alifbosini almashtirish haqida gap boshlangandan keyin jamoatchilikka ikki nuqtayi nazar havola qilinadi: 1) o‘zbek kirill alifbosini talab darajasida o‘zgartirib saqlab qolish; 2) o‘zbek kirill alifbosidan voz kechib, avvalgi alifbomizga qaytish. Ko‘pchilik ikkinchi nuqtayi nazarni yoqlab chiqdi, o‘zbek arab alifbosini va o‘zbek lotin alifbosini targ‘ib etish avj oldi. Nihoyat, ko‘pchilik turkiyzabon millatlar bilan bahamjihat o‘zbek lotin alifbosiga qayta o‘tish ma’qul topildi. Bunday qaror ijtimoiy-siyosiy jihatdangina emas, balki madaniy-ma'rifiy jihatdan ham to‘g‘ri.

Biz o‘zbek lotin alifbosini tanladik. Bunda juda ko‘p omillar hisobga olindi, albatta. Birinchidan, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini inobatga olib o‘zbek lotin alifbosini tanladik. Birinchidan, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotini, ayniqsa, kelajagini o‘ylab ish tutish lotin alifbosini tanlash to‘g‘ri bo‘lganini ko‘rsatdi. O‘zbekiston Respublikasi dunyo miqyosiga chiqmoqda. G‘arb sivilizatsiyasi tomon harakat qilar ekanmiz, alifboni tanlashda ham shu tomoni hisobga olindi. G‘arb dunyosidagi eng taraqqiy etgan millatlarning deyarli barchasi lotin harflari asosidagi milliy alifbolar bilan ish yuritadi. Umuman, lotin alifbosi – dunyoda eng keng tarqalgan alifbo. Ikkinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dunyo miqyosiga chiqish, xorijiy davlatlar bilan bevosita diplomatik munosabatlar o‘rnatish dunyoda eng keng tarqalgan tillarni – ingliz, ispan, fransuz, nemis tillarini bilishimizni taqozo etmoqda. Lotin alifbosiga o‘tilishi o‘zbeklarning g‘arb tillarini o‘rganishini yengillashtirdi. Uchinchidan, lotin alifbosiga o‘tish masalasini faqat o‘zbeklargini ko‘tarib chiqqani yo‘q, balki ko‘pgina turkiyzabon millatlar ham shu yo ‘lni tutdilar. Shu o‘rinda yana bir holatni alohida ta’kidlash joiz. Avvallari alifboni almashtirish yuqoridan berilgan ko‘rsatma bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, bu gal dastlab

ziyolilarimizning o‘zi tashabbus ko‘rsatdi va bu tashabbusni xalqimiz va hukumatimiz qo‘llab-quvvatladi.

Alifbo va imlo islohotlari turkiy tillar rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularning madaniy merosini saqlab qolishda va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Turli davrlardagi alifbo o‘zgarishlari turkiy xalqlar o‘rtasidagi siyosiy va madaniy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda ham bu islohotlar dolzarbligini saqlab qolmoqda. Lotin alifbosiga o‘tish jarayoni nafaqat madaniy va ilmiy taraqqiyot uchun, balki xalqaro maydonda o‘z o‘rnini topishda ham muhim qadam hisoblanadi. Shu bilan birga, imlo qoidalarining yagona tizimini yaratish va bu jarayonni samarali amalga oshirish kelajakda turkiy tillarning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi. Yozuv tizimining o‘zgarishi turkiy xalqlarning milliy o‘zliklarini anglash va mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Lotin, kirill va arab alifbolari o‘rtasidagi o'tish jarayonlari ko‘p holatlarda geosiyosiy o‘zgarishlar natijasida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda turkiy xalqlar madaniy merosni saqlab qolish va uni jahon sahnasida namoyon etish uchun lotin alifbosiga qayta o'tishga intilmoqda. Islohotlarning muvaffaqiyati turkiy tillarning jahon hamjamiyatida tutgan o‘rnini mustahkamlashga va xalqaro muloqotda samarali ishtirok etishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adib, S. Turkiy xalqlar tarixi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2010.
2. Azizov A. Lotin alifbosi islohoti va uning tarixi. Toshkent: O‘qituvchi. 2018.
3. Bekmuratov N. Til va alifbo masalalari. Samarqand. 2020.
4. Erkinov M. Sovet davridagi yozuv islohotlari. Toshkent: Yozuvchilar uyushmasi. 2016.
5. Jomonov R. Fitrat imlo qoidalarining zarurati haqida «Til va adabiyot ta'limi»,- 1998.- 6-son. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2017.

TEZAURUS TUSHUNCHASI. UNING LINGVISTIK KO‘LAMI HAMDA SHAXS OTLARINING BAZASINI YARATISH TAMOYILLARI

Israilova Saodat Turapovna
O‘zbekiston Milliy universiteti dots.v.b., f.f.f.d.
E-mail: israilovas404@gmail.com

Rayhonova Gulnoza Odilovna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti
Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi 2-kurs magistranti.
E-mail: rayhonovagulnoza83@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi o‘zbek tilshunosligidagi asosiy muammolardan biri bu – tezaurus lug‘atlar yaratish masalasi. Uning o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni va o‘zbek tili elektron lug‘atlarining lingvistik bazasini (shaxs otlari doirasida) va dasturiy ta’minotini yaratishga oid fikr va mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ot, matn shaxs otlari, so‘z turkumi, tezaurus, kompyuter leksikografiyasi, sinonim, antonim, omonim.

Аннотация: Одной из основных проблем современного узбекского языкознания является создание тезаурусных словарей. Представлено его место в узбекском языкознании, создание лингвистической базы (в рамках личных имен) и программного обеспечения электронных словарей узбекского языка.

Ключевые слова: имя существительное, текст личных имен существительных, лексика, тезаурус, компьютерная лексикография, синоним, антоним, омоним.

Ma’lumki, bugungi kunda barcha sohalarda zamonaviy rivojlanish bo‘lgani kabi lingvistika sohasida ham ko‘plab izlanishlar olib borilib ko‘plab rivojlanishlarga duch kelmoqdamiz. Mana shunday yangi va zamonaviy sohalardan biri bu elektron lug‘atlar ya’ni tezauruslar bo‘lib, uning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyi kun sayin yuksalmoqda. Tezaurus – bu informatikada axborot-qidiruv tizimlarining ajralmas qismi sifatida keng qo‘llaniladigan atama. Axborot-qidiruv tezaurusi – ma’lum bir fan sohasi uchun ma’lum qoidalarga muvofiq tuzilgan atamalar va iboralar lug‘ati bo‘lib, ushbu fan sohasida ma’lumotlarni qidirish sifatini oshirish uchun yaratilgan [28] . Tezaurus atamasini ilk bor L.V.Shcherba "Опыт теории общей лексикографии "maqolasida shunday yozadi: “Tezaurus deyishganda, hozirgi paytda ular ko‘pincha “Thesaurus linguae latinae” ni nazarda tutadilar, ular beshta nemis akademiyasining korxonasi bo‘lib, 1900-yilda boshlangan. Xarakterli xususiyati: ma’lum bir tilda ro‘y bergan barcha hal qiluvchi so‘zlarni o‘z ichiga oladi va har bir so‘z ostida, ushbu tilda mavjud bo‘lgan matnlardan misollar keltiriladi.

[28] (Aktaev, E. K. O‘quv va axborot jarayoniga avtomatlashtirilgan tezaurusning zamonaviy usullarini joriy etish / E. K. Aktaev. - Matn: bevosita // Yosh olim. 2015.

Axborot – qidiruv tezauruslarini qo‘llash sohasida ikkita asosiy yo‘nalish ajratiladi: matnning semantik ma’nosidan foydalaniladigan ma’lum qoidalardan foydalangan holda hujjatlarni indekslash va foydalanuvchilarning qidiruv so‘rovlarini qayta ishlashda ierarxik, assotsiativ va sinonimik munosabatlardan foydalanishdir. Shuningdek, tavsiflovchilar orasidagi semantik aloqalar hujjatlarni tasniflash va turkumlashtirish, so‘roqlar bilan bog‘liq so‘zlar ro‘yxatini tuzish va boshqa ba’zi ma’lumotlarni qidirish vazifalari uchun ishlatilishi mumkin. Uning atamalar to‘plami matnda qo‘llaniladigan barcha terminologik iboralarni o‘z ichiga olishi kerak. Ushbu usulni amaliy amalga oshirish uchun tezauruslarda ko‘pchilik atamalarning mavjudligi yetarli. Har qanday mavzu sohasining tabiiy til tavsifi matn konvolyutasi uchun ishlatiladigan ba’zi konstruksiyalar bilan tavsiflanadi, misol uchun, bir xil atamalar, anaforistik va elliptik konvolyutsiyalar. Bir xil so‘zlar anaforistik va elliptik konvolyutsiyalar bilan bog‘liq. Ba’zi muammolarni asl tezaurusga sinonimlarning keng bazasini kiritish orqali juda samarali hal qilish mumkin[29] . Tezaurus asosiy tushunchalardan tashkil topgan me’yorlashtirilgan lug‘at to‘plamini, ular o‘rtasida aniqlangan semantik munosabatlar to‘plamini taqdim etadi.

Lukashevich N.V o‘zining “Тезаурусы в задачах информационного поиска” kitobida quyidagi g‘oyalarini ilgari surgan: “Tezaurus yaratish oson ish emas. Tezauruslarni yaratish uchun ma’lum standartlar mavjud bo‘lsa-da, mavjud texnikani to‘g‘ridan to‘g‘ri takrorlash har doim ham mumkin emas. Buning sabablari, avvalo, leksik ma’lumot manbalarining yetishmasligi, keyingisi esa mavzu sohasi subtitilining o‘ziga xos xususiyatlari.

Birinchi muammoni o‘zingiznikiga o‘xshash leksikografik resurs yaratish orqali hal qilish mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun korpus lingvistika vositalaridan foydalaniladi.

Ikkinchi muammoni hal qilish uchun esa tezaurus strukturasini shunday loyihalash kerakki, tezaurusni istalgan sohaga moslashtirish oson bo‘lsin. Bundan ko‘rinadiki, dasturiy vosita lug‘at matnini tahlil qilish natijasida faqat ma’lum darajada ehtimollik bilan xatolarni o‘z ichiga olgan atamalar o‘rtasidagi taxminiy bog‘lanishlar haqidagi farazlarni berishi mumkin. Dasturning sifatini yaxshilashga urunishlar muqarrar ravishda uni takomillashtirish xarajatlari bunday xatolarni qo‘lda tuzatish xarajatlaridan oshib ketishiga olib keladi. Ushbu muammoni hal qilish uchun amalga oshirilgan vosita matn tahlilining birinchi bosqichida atamalarni tanlashi kerak, so‘ngra tanlangan atamalarni tahlil qilish asosida ular orasidagi munosabatlarni izlashi kerak. Ishning har bir bosqichida topilgan shartlar va munosabatlar to‘plami foydalanuvchi tomonidan tekshirilishi kerak, uni o‘z ehtiyojlariga qarab o‘zgartiradi. Ishning yakuniy bosqichida olingan to‘plam tezaurusni yaratish uchun ishlatiladi. Ishda tezaurusni tuzishni avtomatlashtirishga yordam beradigan usullar va vositalarni o‘rganish kerak. Texnologiyalarni o‘rganish va tezaurusni qo‘lda tuzish jarayonining asosiy bosqichlarini aniqlash, so‘ngra jarayonni avtomatlashtirish usullarini taklif qilish joizdir. Mavzu sohalari tezaurusini avtomatlashtirilgan yondashuvini ishlab chiqish ishning asosiy qismi bo‘lib, mavzu sohasidagi matnlar korpusini tahlil qilish usullari va mutaxassisning qo‘l mehnati kombinatsiyasiga asoslanadi.

Paradigmatikada til sistemasining struktural birliklari muayyan paradigmalarga birlashib, o‘zaro bir-biri bilan taqqoslanishiga, qiyoslanishiga ko‘ra xarakterlanadi. Demak, paradigmatika ayni vaqtda paradigmalar sistemasidir. Paradigmalar sistemasi esa, aytilganidek, til birliklariga,

[29] (Aktaev, E. K. O‘quv va axborot jarayoniga avtomatlashtirilgan tezaurusning zamonaviy usullarini joriy etish / E. K. Aktaev. - Matn: bevosita // Yosh olim. - 2015.

aniqrog‘i, ularning umumiy va xususiy ma’nolariga ko‘ra – ular asosida tashkil topadi, ya’ni paradigmalar o‘zaro mantiqiy munosabatga kirishgan qator til birliklarining umumiy ma’nolariga ko‘ra birlashib, xususiy ma’nolariga ko‘ra farqlanadi.

Professor E.Begmatovning yozishicha, tilning lug‘at tarkibidagi so‘zlar orasida muayyan sistemaviy aloqadorlik bo‘lib, uni yuzaga keltiruvchi ma’lum qonuniyatlar mavjud. Muallif ana shu qonuniyatlarni ochar ekan, so‘zlarning o‘zaro munosabatlarini quyidagicha ko‘rsatadi: So‘zlarning o‘zaro semantik munosabatlari: ma’noda yaqinlik (sinonimlar), ma’noda moslik (dubletlar), teskari ma’noga egalik (antonimlar) va mazmunan uzoqlik (omonimlar).

Ma’lum bo‘ladiki, muayyan paradigmaga birlashuvchi til birliklarining o‘zaro munosabati paradigmatik munosabat sifatida namoyon bo‘ladi. Paradigmatik munosabat bir paradigma birliklari doirasidagi – orasidagi munosabat, ichki jarayondir. Har bir leksemaga o‘xshab somatizmlarni ham paradigmatikasi o‘ziga xos va mukammaldir. Tezaurus lug‘atlar leksemalar orasidagi semantic munosabatlarni ko‘rsatuvchi, berilgan mavzu maydonini tavsiflovchi atamalar to‘plamidir. E’tiborlisi, tezaurus boshqa manbalarni tasniflashdan tashqari, mustaqil bilimlar bazasi sifatida yaratilishi va ishlatilishi mumkin, bunda, ma’lum tushunchalarning fan sohasidagi o‘rni ko‘rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова, О.С. (1960). Словарь лингвистических терминов. – М.
2. Тожиев, Ё. (2005). Ўзбек тилида гап ва гап бўлакларининг мақоми масаласига доир / Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент.
3. Базарбаева, А. (2019). Когнитивно-семантическая структура цветаообазначений в английском, узбекском и русском языках. Дисс… докт. филол. наук. – Ташкент.
4. Абдуллаева, Д. (2010). Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент. Sesli Sözlük. Online English Turkish and Multilingual Dictionary 20+ million words and idioms.
5. Ҳожиев, А. (1974). Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи.
6. Aktaev, E. K. O‘quv va axborot jarayoniga avtomatlashtirilgan tezaurusning zamonaviy usullarini joriy etish / E. K. Aktaev. - Matn: bevosita // Yosh olim. - 2015. - No 6,2 (86,2). - B. 3-6. — URL: https://moluch.ru/archive/86/16526/
7. Лукашевич Н.В." Тезаурусы в задачах информационного поиска". 2011. С. 20-50.
8. Turapovna, I. S. (2024). TEZAURUSLARDA LEKSIK-SEMANTIK MOHIYATNING IFODASI. *«CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS»*, *2*(22.04), 593-597.
9. Israilova, S. (2022). “KO ‘K” LEKSEMASI SEMANTIKASINI YORITISHDA TEZAURUS MODELIDAN FOYDALANISH. *Computer linguistics: problems, solutions, prospects*, *1*(1).
10. Turapovna, I. S. (2024). REPRESENTATION OF THE ESSENCE OF LEXEMES IN THESAURUSES. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI| JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, *3*(5), 200-205.

DRAMATIK ASARLARDA MUROJAAT IFODALOVCHI BIRLIKLARNING SOTSIAL XOSLANISHI

Masharibova Roxat Ozadovna
Xorazm Ma'mun akademiyasi erkin tadqiqotchisi.

Annotasiya: maqolada kommunikantlarning murojaat ifodalovchi lisoniy birliklarning sosiolingvistik xususiyatlari, nutqiy xoslanishni namoyon etuvchi birliklar tahlili haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: murojaat shakllari**,** kommunikant, adresat, nutq, sosiolingvistika, ijtimoiy xoslanish, nutqiy xoslanish

O'zbek mentalitetida murojaat shakllari boshqa xalqlarnikidan muayyan darajada farq qiladi. Ayniqsa, oilaviy munosabatlarda erkak va ayollar, er va xotin, rahbar va xodim o'rtasidagi kommunikativ munosabatda murojaat shakllari nutq vaziyatiga mos bo'ladi.

Ayollar va erkaklar muloqot madaniyati o'ziga xos xususiyatga ega. Ular nutqining farqli xususiyatlari borasida tilshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ayrim xalqlarda ayollar nutqi alohida tadqiqot sifatida maydonga kelgan. Bunday farqlanish muhim ahamiyat kasb etib, muloqot madaniyatida muhim o'rin tutadi. O'zbek tilshunosligida keyingi yillardagi tadqiqotlarda oz bo'lsa-da, bu haqda yoritib o'tilgan. Jumladan, S.Mo'minov, Sh.Iskandarovalarning ilmiy tadqiqotlarida buni ko'rish mumkin. Muloqotning jins jihatidan xoslanishi muhim ahamiyat kasb etib, sotsiolingvistikaning o'rganish muammolaridan biri sanaladi. Murojaat shakllarini jins jihatidan tahlil qilganda, erkak va ayol kishilarning nutqida qo'llaniladigan murojaat shakllari hamda erkak va ayol kishiga nisbatan qo'llaniladigan murojaat shakllari tarzida tahlil qilish lozim.

Murojaat shakllari obyektning aniq yoki noaniqligiga ko'ra ikki turga ajratiladi:

a) mavhum murojaat shakllari (ey, hoy, sen, siz);

b) konkret murojaat shakllari.

Murojaatning bu turida ism, laqab, taxallus, insonga xos bo'lgan belgi-xususiyat bildiruvchi leksik, insonni atovchi nominativ birliklar murojaat shakli vazifasini bajaradi[30].

M.Qurbonovaning ta'kidlashicha, "jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy va tushunarli til bo'lmasa, jamiyatdagi ishlab chiqarish to'xtaydi, jamiyat sifatida yashash tugaydi va u parchalanib ketadi[31]"

"Ruscha-o'zbekcha lug'at"da kommunikatsiya so'zining quyidagi ma'no turlari berilgan: 1. Kommunikatsiya, aloqa yo'li, yo'l; suv yo'llari; aloqa temir yo'llari; aloqa (aloqa yo'llari, kommunikatsiya)ni yo'lga qo'ymoq; dushman aloqa yo'llarini kesib qo'ymoq; 2. lingv. kommunikatsiya, aloqa, fikr almashish (almashuv)[1]. Tabiiyki, biz o'z ishimizda kommunikatsiya so'zini uning lug'atda berilgan ikkinchi ma'nosida, muloqot so'zini esa uning sinonimi sifatida qo'llaymiz.

[30] Ko'chimova P. Erkak va ayol nutqida murojaat so'zlar semantikasi// International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages" . 2022. –B. 683-688.
[31] Курбонова М. Гендеролингвистик тадқиқ янги парадигма сифатида // ЎТА, 2014. №2.

Muloqot uzvlari deganda, aloqa, fikr almashinish, so‘zlashish jarayonida bevosita va bavosita qatnashadigan tarkibiy qismlar nazarda tutiladi.

S.Muminovning ta’kidlashicha, har qanday muloqotda so‘zlovchi va tinglovchi zaruriy uzv (tarkibiy qism)lar sifatida, albatta, ishtirok etadi. Bu muammoga bag‘ishlangan ko‘pgina adabiyotlardagi kabi bizning ishimizda ham so‘zlovchi, ya’ni xabar beruvchi, gapiruvchi adresant, kommunikator deb, adresantning nutqi qaratilgan shaxs – tinglovchi adresat, kommunikant deb, muloqotda bavosita (botinan) ishtirok etuvchi yoki muloqotga bavosita ta’sir etuvchi omillar esa ta’sir birliklari (qisqacha - TB) deb yuritiladi[32]. TBni shartli ravishda quyidagi ikki guruhga bo‘lish mumkin:

I. Ichki ta‘sir birliklari.

Bunga adresant yoki adresat shaxsi bilan bevosita bog‘liq quyidagi belgi-xususiyatlar kiradi:1. Millati. 2. Jinsi. 3. Yoshi. 4. Ijtimoiy belgilari.

5. TBga yaqinlik darajasi.

II. Tashqi ta‘sir birliklari.

Bunga muloqotga bavosita ta’sir etuvchi quyidagi tashqi omillar kiradi:

1. Muloqot vaqti.
2. Vaziyat, holat.
3. Ijtimoiy holat.

Har qanday obyekt (muammo) tasnif orqali o‘rganilgani kabi muloqot ham tasnif etilganda, o‘ziga xos jihatlari yaqqolroq namoyon bo‘ladi:

N.I.Formanovskaya muloqotni turli nuqtai nazardan quyidagi turlarga bo‘ladi:

1. Kommunikantlarning makon va zamonga nisbatan holatiga ko‘ra:

yuzma-yuz (kontakt) – masofali (distant) muloqot.

2. Vositachilik qiluvchi “apparat”ning mavjud yoki mavjud emasligiga ko‘ra:

bevosita – bavosita muloqot.

3. Til birliklarining shakllanishiga ko‘ra:

og‘zaki – yozma muloqot.

4. So‘zlovchi va tinglovchi pozitsiyasiga ko‘ra:

Dialogik – monologik muloqot.

5. Muloqot ishtirokchilari miqdoriga ko‘ra:

shaxslararo – ommaviy muloqot.

6. Muloqot shart-sharoiti va kommunikantlarning o‘zaro munosabatiga ko‘ra: (xususiy) norasmiy – rasmiy muloqot[33].

N.I.Formanovskaya tasnifiga qo‘shilgan va ishimiz mohiyatidan kelib chiqqan holda quyida ularning har biri haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Yuzma-yuz muloqotda kommunikantlar bir-birlarini nafaqat eshitib, balki ko‘rib ham turganliklari bois vaziyat, imo-ishora va talaffuzga suyanib ish yuritadilar. Muloqotning bu turi aytilmoqchi bo‘lgan fikrning xatti-harakat, ko‘z va yuzlardagi ifodalar, talaffuz ohanglari yordamida adresatga tezroq va osonroq yetib borishligi bilan ajralib turadi.

[32] *Муминов* С. Ўзбек мулоқот хулкининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. докт. дисс.автореф. Т. 2000. -Б.
[33] *Формановская Н. И. Речевой этикет*. Русская речь. 1979. № 4, С. 62 - 65.

Masofali muloqotda makon va zamonga ko‘ra kommunikantlar o‘rtasida ma’lum bir masofa bo‘ladi. Muloqotning bu turiga telefon yoki xat orqali aloqa qilish (fikr almashish)lar kiradi.

Bevosita muloqot yuzma-yuz suhbat, ma’ruza kabi masofasiz muloqot bilan bog‘liq.

Bavosita muloqot turlariga telefon, telegraf, radio, televideniye kabi texnik vositalar, xat, gazeta kabi qog‘oz orqali bo‘ladigan aloqalar kiradi.

Og‘zaki muloqot o‘z belgilariga ko‘ra masofasiz, bevosita muloqot turiga kirsa, yozma muloqot masofali va bavosita muloqot hisoblanadi.

Muloqotning har ikki turi o‘ziga xos qulaylik (afzallik) va noqulaylik jihatlariga ega. Jumladan, so‘zlovchi og‘zaki muloqotda o‘z fikrini murakkab grammatik qurilishlarsiz turli nolisoniy vositalar yordamida ancha erkin bayon etish imkoniga ega bo‘lsa, yozma nutqini tahrir qilish orqali yanglish yozilgan fikrlarni to‘g‘rilash, matn ta’sirchanligini oshirish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Dialogik muloqotda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rni almashinib turadi va nisbatan qisqaligi, sintaktik jihatdan ixcham va soddaligi, kommunikantlar bilim va saviyasining umumiyligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Bunday muomalada kommunikantlarning bir-birlariga bo‘lgan munosabati, odob-axloqi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, o‘zbek muloqot xulqi me’yoriga ko‘ra yoshi, ilmi va boshqa ijtimoiy belgilari suhbatdoshinikidan quyi bo‘lgan kishilar dialogik muomalada lo‘nda va qisqa gapirishlari talab etiladi. Misol uchun “Erkin A’zamning “Farrosh kampir” dramasidan bir parcha keltiramiz:

Mazkur parchada kommunikantlar nutqini tahlil qilganda ularning ish faoliyati bilan bog‘liq muhim masala ko‘zga tashlanadi. Bu o‘rinda so‘z tartibining ham o‘rni juda muhim ekanini unutmaslik kerak.

Rahbar Rahbarovich *(tushkun ohangda). Hozircha noma’lum,* ***akaxon.*** *Harholda uzoqroqqa. Qo‘yliq tomonlarga emishmi-yey…*

Akaxon. *Qo‘yliq?! Nima, siz bozorchimisiz? Umuman, nega biz bexabar, stranno…*

O‘zbek xonadonida er-xotinini ismi bilan chaqirish odati avval bo‘lmagan, er-xotin bir-biriga katta farzandining ismi bilan murojaat qilgan. Mustaqillik davrida esa bu odatlar ancha o‘zgardi. Buni dramalarda ham ko‘rish mumkin:

Shabnam: *– (Hafsalasizlik bilan xuddi o‘ziga o‘zi gapirgandek... Bir nuqtaga tikilib) Menga sizni pulingiz emas, o‘zingiz keraksiz. Nega uyga borolmaysiz? Nega?*

Qodir: *– (O‘rnidan turib ketadi) Yana nega deysan-a!. Axir kechadan beri qulog‘ingga tanbur chertayapmanmi, ilojim yo‘q. Ishimni tashlab ketolmayman,*

Monologik nutqda so‘zlovchi (yozuvchi) uzoq vaqt o‘zining kommunikativ rolini tark etmaydi.

Monologik va dialogik nutq turlari bo‘yicha ko‘p ishlar qilinganligi uchun bu haqda boshqa to‘xtalmaymiz.

Shaxslararo va ommaviy muloqotlarning eng muhim jihatlari shundaki, shaxslararo muloqotda faqat ikki kishi ishtirok etsa, ommaviy muloqotda bir kishi bir necha kishi yoki omma bilan bir xil fikr bildirganlari holda, ommaviy muloqot to‘g‘risida turlicha fikrlarni o‘rtaga tashlaydilar. Jumladan, N.N.Bogomolova ommaviy muloqot deganda, bir kishining radio, televideniye kabi texnik vositalar orqali omma bilan bo‘ladigan bir tomonlama (monologik) muloqotini tushunadi va muloqotning bu turida texnik vositaning o‘rni muhim ekanligini alohida

ta’qidlaydi. N.I. Formanovskaya esa jamoat oldidagi ommaviy chiqish (so‘zlash), ma’ruza qilishlarni ham ommaviy muloqotga kiritadi. Biz ham uning fikriga qo‘shilgan holda dorboz va polvonlarning xalq oldidagi chiqishlarini ham ommaviy muloqotning bir turi deb hisoblaymiz.

Davlat, tashkilot, guruh rahbarlarining o‘zaro diplomatik va rasmiy muomalasi, rasmiy muloqot deyilsa, teng-to‘sh, o‘rtoq-yarim, dugonalar, sevishganlar va shu kabilar o‘rtasidagi muomalalar xususiy yoki norasmiy muloqot hisoblanadi.

Adresantlarning jonli va jonsiz, konkret va mavhum bo‘lishiga ko‘ra M.S.Kagan muloqot olamini quyidagicha tasniflaydi: Shu jihatdan olib qaraganda, bizning ishimizda, asosan, masofasiz, bevosita, og‘zaki, dialogik, shaxslararo (ba’zan ommaviy), norasmiy, shuningdek, M.S.Kagan tasnifidagi deyarli hamma muloqot turlari, ularning ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Umuman olganda, daramatik asarlarda murojaat shakllarining sotsial xoslanishi masalasi kengroq o‘rganishni taqozo etadi, zero murojaat shakllari nutq vaziyatlariga ko‘ra tinimsiz o‘zgarib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ko‘chimova P. Erkak va ayol nutqida murojaat so‘zlar semantikasi//International scientific-practical conference on the topic of "Problems and perspectives of modern technology in teaching foreign languages" . 2022. –B. 683-688.
2. Курбонова М. Гендеролингвистик тадқиқ янги парадигма сифатида // ЎТА, 2014. №2.
3. Муминов *С.* Ўзбек мулоқот хулкининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. Филол. фан. докт. дисс.автореф. Т. 2000. -Б.
4. Формановская Н. И. Речевой этикет. *Русская речь. 1*

O‘ZBEK REKLAMA MATNLARINING TILSHUNOSLIKDA O‘RGANILISHI

Qo‘shmurodova Dilafro‘z Ikromjon qizi
O‘zMU Lingvistika (o‘zbek tili) magistratura talabasi.
E-mail: dilafrozqoshmurodova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda hozirgi zamon tilshunoslarining qiziqishini tortgan reklama matnlarining o‘zbek tilshunoslari nazaridan ham chetda qolmayotganligini haqida mulohazalarimizni bildirdik. Hozirgacha o‘zbek tilshunosligida reklama matnining qaysi xususiyatlari o‘rganilganligi, haligacha qaysi jihatlari ochiq qolayotganligi haqida fikrlarimizni bildirib o‘tdik.

Kalit so‘zlar: Tilshunoslik, o‘zbek reklama matnlari, sotsiolingvistik, pragmalingvistik, lingvokulturologik, psixolingvistik, lingvistik xususiyatlar.

Annotation: In this article, we expressed our opinion that the advertising texts that have attracted the interest of modern linguists are not left out of the attention of Uzbek linguists. So far, we have expressed our thoughts about what features of the advertising text have been studied in Uzbek linguistics, and what aspects are still open.

Keywords: Linguistics, Uzbek advertising texts, sociolinguistics, pragmalinguistics, linguocultural, psycholinguistic, linguistic features.

Аннотация: В данной статье мы высказали мнение, что рекламные тексты, вызвавшие интерес современных лингвистов, не остались без внимания узбекских лингвистов. Пока что мы высказали свои мысли о том, какие особенности рекламного текста изучены в узбекском языкознании, а какие аспекты еще открыты.

Ключевые слова: Лингвистика, узбекские рекламные тексты, социолингвистика,прагмалингвистика,лингвокультурализм,психолингвистика, лингвистические особенности.

Tilshunoslikning o‘rganish obyekti kundan kunga kengayib bormoqda, bunga zamonning shiddat bilan rivojlanayotganligini va fan-texnika yutuqlarini sabab qilib keltirsak o‘rinli bo‘ladi. Tilshunoslikda matn masalasi avvaldan tadqiq qilinib kelinadi. Matnning turli xil ko‘rinishlari mavjud. U qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, albatta, til xususiyatlariga ega bo‘ladi[7]. Tilshunoslar ana shu xususiyatlarni aniqlash orqali matnni o‘rganib kelmoqda. Hozirgi zamon tilshunoslari reklama matnlarining xususiyatlarini o‘rganish, tadqiq qilishga qiziqish bildirishmoqda[12]. Shu tufayli reklama matnlari ham keng miqiyosda o‘rganilmoqda. Reklama matnlarining til xususiyatlari jahon tilshunosligida yetarlicha tadqiq etilgan. Oxirgi yillarda bu xususiyatlarni o‘zbek tilshunoslari ham o‘rganmoqda. Quyidagi tadqiqotchilarning izlanishlari bunga misol bo‘la oladi:

Q.Mustaqimova “Zamonaviy reklama tilining milliy-madaniy xususiyatlari” nomli monografiyasida reklamalarning milliy-madaniy xususiyatlarini yoritishga harakat qilgan va bunda publitsistik matnlardan foydalangan. Bu monografiyada milliy qadriyatlarni ifodalashda lingvistik vositalarning qo‘llanilishi, ular ilk bor milliy va ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra

tavsiflanishi haqida mulohazalar mavjud. Haqiqatan, milliy-madaniy xususiyatlar ifodachisi bo‘lgan birliklar xalq ruhini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Til vositalaridan o‘z o‘rnida foydalanish, u orqali xalq bilan hamnafas bo‘lishdir[Xomidova, 13]. Reklama orqali xalq ongiga ta’sir qilish uchun, albatta, uning qalbiga kirib boruvchi birliklarni qo‘llash lozim.

Quyidagi reklama matnlarida tilimizning milliy-madaniy xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz: “Ixlos. *An’analarimizga mos kolbasa va pishloq mahsulotlari*” (“Darakchi”. 03.11.2011. Mazkur gazeta reklamasi muallifi “an’analarimizga mos” degan poklik va halollik kabi millatimizga xos bo‘lgan odatlarga ishora qilgan. [Mustaqimova Q., 2022: 90]. Ko‘rinib turibdiki, milliylikni namoyon qilish ochiqdan-ochiq shaklda emas, bitta birikma orqali ifodalangan bo‘lishi mumkin. Asosiysi millatimizga xos bo‘lgan poklik va halollik xalqimiz uchun madaniy meros bo‘lganidir.

Reklama muallifi uchun metafora u reklama kompozitsiyasini quradigan, uning ma’nosini yetkazadigan vositadir. Reklamadagi metafora o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat ommaviy shaxs tomonidan amalga oshiriladi, chunki u ijtimoiy va ommaviy xususiyatga ega bo‘lib, odamlarni yaqinlashtiradi va reklama yozishda ajralmas vosita hisoblanadi. [Mustaqimova Q., 2022: 84]. Metafora reklama matnida milliylik belgisi desak yanglish bo‘lmaydi. Metaforalar xalqning an’analari, turmush tarzi va madaniyatini qamrab olgan holda vujudga keladi. Shu sababli, metaforalarni reklama matnida milliylikning unsurlari deb atasak xato bo‘lmaydi, fikrimizcha. Chunki ularning vujudga kelishiga nimadir turtki bo‘ladi, shu turtki xalq bilan omma bilan bog‘liq tarzda vujudga keladi. Monografiyada mana shu kabi xususiyatlar yaxshi yoritilgan.

B.Gafurov “Reklama diskursida tibbiyot leksikasi: funksional-semantik va lingvomadaniy jihatlar (rus va o‘zbek tillari misolida)” nomli dissertatsiyasida reklama diskursi, uning xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish, reklamadagi harakatga undash kategoriyasining verballashuvi, reklama matnlarida genderning aks etishi kabi masalalarda izlanishlar olib borgan. Tadqiqotda rus va o‘zbek tillaridagi reklama matnlarida tibbiyot leksikasining leksik-semantik guruhlarini aniqlash, tavsiflash, olingan xulosalar esa turli tizimli tillardagi reklama diskursidagi tibbiyot leksikasini o‘rganish lingvistik konsepsilarani yaratishga asos bo‘lib xizmat qiladi. Dissertatsiyada “Derivatologiya nuqtai nazaridan, reklama matnlarida aks etgan tibbiyot sohasi atamalari orasida morfologik usul orqali, ya’ni so‘z yasovchi leksemalar: suffiksal, perifiksal, perifiksal-suffiksal va murakkab so‘zlar yasashda so‘zlarni o‘zaro biriktirish produktivlik jihatidan samaradorli ekanligi aniqlangan. Lekin o‘zbek tili uchun prefiksal va prefiksal-suffiksal usullar orqali tibbiyot atamalarini yasalishi, rus tiliga qaraganda kamroq xarakterlidir” [Gafurov B., 2023: 18] degan xulosaga kelinadi. O‘zbek tili uchun bu usul orqali yasalish kam bo‘lishining sababi, uning til tabiatidir.

Tadqiqotchining dissertatsiyada “Tibbiyot leksikasi ishtirok etgan rus va o‘zbek tillarida tahlil qilingan reklama diskursi tarkibida mustaqil so‘z turkumlari bilan bir qatorda yordamchi so‘z turkumlari ham muhim o‘rin egallashini anqilaydi. Agar rus tilidagi reklama matnlarida mualliflar predloglar, yuklamalar (частицы) va bog‘lovchilardan foydalansa, o‘zbek tilida predloglarning yo‘qligi sababli, ularga ma’no jihatidan mos tushadigan otlarning kelishik qo‘shimchalari shakllari tanlanadi” [Gafurov B., 2022: 24] kabi xulosalari o‘rinlidir. Eng faol tibbiyot leksikasi birliklari ruslarda hind-yevropa tillar oilasidan, o‘zbeklarda esa turkiy, arab, fors-tojik, rus va ingliz tillaridan o‘zlashtirilganligi, reklama matnlarining til xususiyatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qo‘ymaydi.

O‘zbek tilshunosligida reklamani sotsiolingvistik aspektda D.Mamirova “O‘zbek reklama matnlarining sotsiolingvistik xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida o‘rgangan. Tadqiqotda so‘zlovchi – matn – tinglovchi uchligidan iborat so‘zlarning uslubiy chegaralanganligi, axborot yetkazishning verbal va noverbal vositalarning etnosotsiopragmatik xususiyatlari, pragmatik mazmunni ochib beruvchi ta’sir etish vositalaridan bo‘lgan fe’llarni iltimos, buyruq, va’da, minnatdorchilik, ogohlantirish kabi shakllarning perelokutiv, lokutiv va illokutiv nutqiy akt tamoyillari asosida muvaffaqiyatli bo‘lishi, reklama matnlarida shaxs omili, til birliklaridan maqsadli foydalanish, mentalitet va ijtimoiy hayotga e’tibor qaratish, milliy-madaniy xususiyatlarini inobatga olib reklama matnini yaratish kabi bir qancha masalalar yoritilgan. Tadqiqotda “Sotsiolingvistikada nutqning ixtisoslashishi umumijtimoiy imkoniyatlarning muayyan shaklda voqelanishi emas, balki qandaydir alohida bir guruh uchun me’yor vazifasini o‘taydigan umumiylik bilan xususiylik oralig‘idir. Bu jihatdan reklama matnini qabul qiladigan adresatlar auditoriyasi yoshi, jinsi, mansabi, kabi jihatlar bilan bir-biridan farqlanadi” [Mamirova D., 2022: 24] degan mulohazalar uchraydi. Haqiqatan reklama matnini qabul qiluvchilar yosh, jins, mansab jihatdan farqlanadi. Bir reklama matnini 10 yoshli bola boshqa shaklda, 30 yoshli kishi yoki 70 yoshli chol boshqa shaklda idrok qiladi. Bu ulardagi biologik va ijtimoiy farqlarga bog‘liq.

Sh.Yunusovaning “O‘zbek tilidagi reklama matnlarining sintaktik xususiyatlari va ularning pragmatik xoslanishi” nomli tadqiqotida reklamaning sintaktik xususiyatlari yaxshi tahlil qilingan. O‘zbek tilidagi reklama matnlarida nolisoniy vositalarning vazifalari aniqlangan, ularning reklama matni qurilishiga ta’siri ham o‘rganilgan. O‘zbek reklama matnlarida ta’sirchanlikni oshiruvchi vosita sifatida undalmalardan foydalanish keng tarqalganini ham aytib o‘tilgan.

Ma’lumki, o‘zbekcha matnlardagi gaplarda gap bo‘laklari muayyan bir ketma-ketlikda joylashadi. Shunga ko‘ra gap bo‘laklarining tartibi ham ikki xil bo‘ladi: 1) odatdagi tartib; 2) o‘zgargan tartib. O‘zbekcha reklama matnlaridagi gaplar sintaktik qurilishining yana bir jihati shundaki, ularda gap bo‘laklarining tartibi o‘zgargan va odatdagi tartibda bo‘lishi mumkin. Gap bo‘laklarining tartibi so‘zlovchining nutqiy maqsadi, xohishi (mantiqiy urg‘uli bo‘laklarning alohida ohang bilan aytilishini ta’minlash uchun), poetik nutq talabi (ko‘tarinkilikni ta’minlash vositasi sifatida) bilan o‘zgarishi mumkin. Reklama matnidagi ko‘tarinki nutqni ta’minlash vositalaridan biri sifatida gap bo‘laklarining o‘zgargan tartibini ko‘rsatish mumkin. Masalan:

Oling bir zumda! To‘lang bir yilda! Joyda SQB. [Yunusova Sh., 2023: 70] Reklama matnlarida gap bo‘laklarining bu tarzda joylashuvi reklamaning jalb qiluvchilik xususiyatini oshiradi. Mantiqiy urg‘u kesimga tushgan vaqtda u gapning boshida joylashadi, yuqoridagi reklama matnimizda shu holat kuzatiladi. Kesim mantiqiy urg‘u olib, gap boshida kelgan, buning natijasida esa aytilmoqchi bo‘lgan fikr diqqatni tez jalb tortmoqda.

Qo‘shma gaplar sodda gaplardan farqli reklama matnlarida kam qo‘llaniladi. Bu o‘zbek tilida nutqiy jarayonning lakonizm (“yun. Lakonismos – qisqalik – fikrni bayon qilishdagi qisqalik va aniqlik”)ga asoslanganligi bilan izohlanadi. Masalan, *100 m^3 beton sotib oling, 3 soatlik bepul avtobetonnasos xizmatiga ega bo‘ling! Fanta iching, quvonchga to‘ling!* kabi reklama matnlari o‘zbek tilida kam uchraydigan qo‘shma gap shaklidagi reklamalardir. Ma’lumki, o‘zbek tili gap qurilishida eganing ishtirok etmasligi me’yor hisoblanadi. Chunki egaga ishora qiluvchi morfologik vositalar (shaxs-son shakllari) kesimda mavjud bo‘lishi bunga imkoniyat yaratadi.

Yuqorida keltirilgan reklama matnlarida mavjud kesimlar (sotib oling, ega bo‘ling, iching, to‘ling) ham egalarning (barcha holatda siz ega vazifasida kelishi lozim edi) tushirilishiga va shu orqali matnning qisqartirilishiga imkon bergan. Tanlab olingan reklama matnlarining atigi 20 foizini qo‘shma gaplar tashkil qilishini, birinchidan, reklama narxining barcha davrlarda ham qimmatligi – iqtisodiy talablar buni taqazo qilishi; ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar rivojlangan hozirgi davrda foydalanuvchilar diqqatini jalb qiluvchi vositalar ko‘pligi (qo‘shma gaplar diqqatni uzoq vaqt band bo‘lishini talab qiladi) bilan izohlash mumkin. [Yunusova Sh., 2023: 53]. Tadqiqotchining izlanishlaridan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek reklama matnlarida qo‘shma gaplardan emas, sodda gaplardan foydalanish reklama matni samaradorligini oshiradi.

Q.Rayimovning “Reklama matnlarining lingvistik xususiyatlari”, “Reklama matnlarini lingvistik ekspertiza qilish metodlari” nomli maqolalarida reklama kommunikatsiyasining o‘ziga xos bahosi borligi, reklamada yorqin konnotatsiyalarning mavjudligi, zamonaviy reklama matnlarini yaratishda fonetik, sintaktik vositalardan faol foydalanish kabi masalalar atroflicha yoritilgan.

M.Shamsiyevaning “Reklama matnining psixolingvistik xususiyatlari” [Shamsiyeva M., 2017] maqolasida reklama matniga psixolingvistik qarashdagi asosiy narsa uning insonga ta’siri ekanligi, butun matnni o‘qimasdan kalit so‘zlar orqali umumiy mazmunini hosil qilish mumkinligi, reklama matnining funksiyalari, reklamaning ta’sir qilishiga ko‘maklashuvchi belgilar haqida ma’lumotlar uchraydi.

D.Mamaraimova “Reklama matnlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ayrim mulohazalar” maqolasida reklamaning birlamchi va asosiy vositasi til ekanligi, reklama matni peshlavha, afisha, shior matnlariga nisbatan o‘ziga xosligi, tilning ifodali vositalari mahsulotning muhim jihatlarini ko‘rsatib berishda asosiy vosita ekanligi, reklama matnlarida buyruq tarzidagi da’vat fe’llarining ko‘p qo‘llanishi kabilar aytib o‘tilgan.

Sh. Shahobiddinova va B.Abdullayevning “O‘zbek tilida reklamalar” maqolasida: O‘zbek tili izohli lug‘atida obyektimiz quyidagicha ta’riflangan: “Reklama (fr. reklame lot. reklamere – qattiq qichqirmoq). Muayyan tovar yoki xizmat turlari haqida xaridorni xabardor qilish, ularga nisbatan talab ehtiyojni yuzaga keltirish yoki kuchaytirish maqsadida ana shu tovar va xizmatlar to‘g‘risida berilgan ma’lumot. Savdo reklamasi – marketing konsepsiyasida mahsulotni sotish tadbirlari majmuasida markaziy o‘rinni reklama egallab turadi”. Bundan ko‘rinib turibdiki, reklama so‘zining lug‘aviy ma’nosi uning mohiyati bilan bog‘liq. Reklama oddiy ma’lumot emas, o‘sha narsadan foydalanishga yoki sotib olishga undovchi chaqiriqdir.

Sh.Pakirdinovaning “Zamonaviy tilshunoslikda reklama matni va uning o‘ziga xos xususiyatlari” [Pakirdikova Sh., 2023] maqolasida: Jahon tilshunosi Sedivining quyidagi fikrlari keltirilgan: “Reklama bu yaratuvchilik xususiyatiga ega, xaridorni tasavvuriga kelmagan butkul yangi istak va xohishni yaratadi. Reklamani yaratilish tarixiga nazar solar ekanmiz, u maxsulotni targ‘ib qilish va biror voqea xodisani yoki insonlarni tanishtirish uchun ishlatilgan. Hozirgi kunda esa kompaniyaning savdosini oshirishda maqsadi chegaralanmagan, juda keng ma’noda reklama targ‘ib qilinib kelinmoqda”. Hozirgi kunda reklama targ‘ibi bekordan bekorga amalga oshirilayotgani yo‘q. Shu targ‘ibot orqali mahsulot yoki xizmat haqida xabar qilish, undan foydalanishga undash kabi masalalar bilan birgalikda u orqali daromat olish bularning asosini tashkil qiladi. Bu natijaga erishish uchun reklama ommani yoki mo‘ljallangan auditoriyani o‘ziga qiziqtira olishi zarur.

M.Botirovaning “Jahon tilshunosligi va turkologiyada reklama tadqiqiga oid ishlar tahlili” va “O‘zbek tilshunosligida reklama matnlari tadqiqiga doir ishlar tahlili” nomli maqolalarida jahon tilshunosligida va turkologiyada reklamaga doir qilingan ishlar berilib, ularning xususiyatlari va qaysi aspektda reklama tahlil qilinganligi kabi ma’lumotlar, o‘zbek tilshunosligida reklama matni bilan kimlar shug‘ullanganligi, qanday tadqiqotlar amalga oshirilganligi kabi masalalar yoritilgan.

Keyingi yillarda tilshunosligimizda reklama tadqiqiga doir ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bularga D.Mamirova, Sh.Omonov, A.Xolboyeva, A.Mo’minova , D.Sobirova, S.Xudoyberdiyeva, A.Axtyamov, J.Baxadirov va h.k. larni misol tariqasida sanab o‘tish mumkin. D.Mamirova ilk bor o‘zbek tilshunosligida reklama matnlarini sotsiolingvistik jihatdan tahlil etgan bo’lsa, D.Sobirova tibbiy reklamalarning sotsiopragmatik xususiyatlarini ilmiy asoslab berdi. Tilshunos S.Xudoyberdiyeva o‘zbek marketing terminologiyasiga doir ilmiy tadqiqot olib bordi. Tadqiqotchilar A.Xolboyeva, A.Mo’minova, A.Axtyamov va J.Baxadirovlar qiyosiy aspektda reklamaning lingvomadaniy, pragmalingvistik hamda kognitiv jihatlarini o‘rgandilar. [Botirova M., 2023]. Demak, reklama matnining til xususiyatlarini o‘rganishga e’tibor hozirgi kunda kuchayib bormoqda. Uni o‘rganish orqali reklama samaradorligini oshirish maqsad qilib qo‘yilmoqda. Reklama matnlari bevosita til bilan aloqadordir. Chunki ular matnlar orqali ish ko‘radi. Reklamaning til xususiyatlarini o‘rganish uning tushunarliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Reklama matni qay darjada tushunarli, sodda, jarangdor bo‘lsa, u orqali ko‘zlangan maqsadga erishish shuncha osonlashadi. O‘zbek reklama matnlarining sotsiolingvistik, pragmalingvistik, lingvokulturologik jihatlari o‘rganilgan. Ammo haligacha reklama matnining psixolingvistik xususiyati atroflicha o‘rganilganicha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdisamatov A. Reklama matnlarida turg‘un birikmalarning lingvistik xususiyatlari// Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). 2022.
2. Бардишев С.Н. Рекламный текст. Методика составления и оформления. — Москва, 2010.
3. Eshonjonova F. Reklama haqida tushuncha va uning tarixi. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent, 2012.
4. Gafurov B. Reklama diskursida tibbiyot leksikasi: funksional-semantik va lingvomadaniy jihatlar (rus va o‘zbek tillari misolida): Avtoreferat. filol. fanlari doktori (DSc) diss. – Buxoro, 2023.
5. Mamirova D. O‘zbek reklama matnlarining sotsiolingvistik xususiyatlari: Avtoreferat. Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. – Samarqand, 2022.
6. Mustaqimova Q. Zamonaviy reklama tilining milliy-madaniy xususiyatlari. Monografiya. – Buxoro.: Durdona nashriyoti, 2022.
7. qizi Xomidova, Maxfuzaxon Farxodjon. "ERKIN VOHIDOV IJODIDA INTERTEKSTUALLIK." RESEARCH AND EDUCATION 1.9 (2022): 525-533.
8. Pakirdinova Sh. Zamonaviy tilshunoslikda reklama matni va uning o‘ziga xos xususiyatlari// Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2023-yil.
9. Репьев А.П. Язык рекламы. – Москва: МГУ, 2008.
10. Yunusova Sh. O‘zbek tilida reklama matnlarining sintaktik xususiyatlari va pragmatik xoslanishi: Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. – Guliston, 2023.

11. Shamsiyeva M. Reklama matnining psixolingvistik xususiyatlari// Metodist – I. – Toshkent, 2017.
12. Xomidova, M. (2023). INTERTEKST TUSHUNCHASI, TADQIQI VA TURLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4 SPECIAL), 902–908. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/2958
13. Xomidova, M. F. qizi. (2022). ERKIN VOHIDOV IJODIDA INTERTEKSTUALLIK. RESEARCH AND EDUCATION, 1(9), 525–533. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/re/article/view/1099

TARIXIY SHAXS NOMLARINING SHE'RIY ASARLARDA QO'LLANILISHI

Jumanova Dilnoza Abduraxmonovna
O'zbekiston Milliy universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti magistranti.
E-mail: jumanovadilnoza2023@gmail.com

Abstract: The appearance of poetic onomastics in linguistics is recognized as a new trend in modern linguistics. Poetic onomastics is considered a concept related to the literary text, and the names of the historical figures we are working with are also analyzed from the literary text. The use of onomastic units in the artistic text directly expresses the artistic goal of the creator.

Keywords: Poetonym, allusive name, linguopoetics, onomastics, stylistic figures.

Аннотация: Появление поэтической ономастики в языкознании признано новым направлением в современном языкознании. Поэтическая ономастика рассматривается как понятие, связанное с художественным текстом, а также из художественного текста анализируются имена исторических деятелей, с которыми мы работаем. Использование ономастических единиц в художественном тексте непосредственно выражает художественную цель создателя.

Ключевые слова: Поэтоним, аллюзивное имя, лингвопоэтика, ономастика, стилистические фигуры.

Annotatsiya: Poetik onomastikaning tilshunoslikda paydo bo'lishi zamonaviy tilshunoslikda yangi yo'nalishlar sifatida tan olingan. Poetik onomastika badiiy matn bilan bog'liq tushuncha hisoblanib biz ish olib borayotgan tarixiy shaxs nomlarini ham badiiy matndan olib taxlil qilinadi. Badiiy matnda onomastik birliklarning qo'llanilishi bevosita ijodkorning badiiy maqsadini ifodalaydi.

Kalit so'zlar: Poetonim, allyuziv nom, lingvopoetika,onomastika, uslubiy figuralar

Badiiy matnda poetonimlarning qo'llanilishi asarning jozibadorligini oshiradi, o'quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Chunki asarda ma'lum bir allyuziv nom keltirilsa o'quvchi nima sababdan ushbu nomning qo'llanilganligi xususida o'yga toladi. Bu esa o'quvchini nomi keltirilgan inson haqida qiziqishini oshiradi.

Badiiy asalarda qo'llangan nomlar, ya'ni poetonimlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: she'riy asarlarda qo'llangan poetonimlar, nasriy asarlarda qo'llangan poetonimlar[34]. Badiiy asarlarda poetonimlarning qo'llanilishi she'rning estetik jozibasini va badiiy qiymatini oshiradi oshiradi. Ular she'riy matn tarkibida turli badiiy san'atlar va uslubiy figuralarni paydo bo'lishida lingvopoetik vosita bo'lib kelgan. O'zbek she'riyatida shunday matnlar borki, ularda onomastik birliklar favqulodda lingvopoetik ahamiyat kasb etib, badiiyatning go'zal namunalari sifatida namoyon bo'ladi bo'lgan.

[34] Д.Худойберганова, Д.Анданиязова. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. Турони замин зиё. – Тошкент, 2016. 4-bet

Afrosiyob. Turonning mashhur hukmdori va o‘zining uzoq podshohlik sulolasiga ega bo‘lgan zot. U deyarli barcha turkiy qavmlarning eng qadimgi buyuk ajdodlaridan biridir. Uning sulolasi yaqin vaqtlarga qadar Samarqandda va Basra (Iroq)da davom yetib kelganligi haqida mashhur tarixchi Rashididdin va sharqshunos V.V.Bartold o‘z asarlarida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirganlar. Afrosiyob haqida Eron va Turonning ko‘plab allomalari va tarixchilarining ma’lumotlari mavjud. Xususan, Maxmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida: “Turklarning ulug‘ xoni Afrosiyobni To‘nga Alp Er deb atar edilar. Yo‘lbars kabi kuchli, bahodir odam demakdir[35]” deb tilga olingan.

Mashhur “Qutadg‘u bilig” kitobining muallifi Yusuf Xos Hojib Afrosiyob haqida

Bu turk beklarindan, oti belgulik,
To‘ng‘a Alp erdi, quti belgulik.
Tojiklar ayur oni Afrosiyob.
Bu Afrosiyob oldi ellarni talob[36],
-deb yozadi.

“G‘iyos-ul lug‘ot”ning muallifi ham Afrosiyobni Turonning ulug‘ shohi, g‘oyat shijoatkorva bahodir kishi bo‘lgan[37], deb xolisona baho beradi.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (973-1048) o‘rta asrlar Sharqining qomus ul-ilimi, astronomi,matematigi, geografi, ma’danshunosi, etnografi, tarixchisi, shoiri mujassamlashgan. U 17 yoshida ilk astronomik kuzatishlarni o‘tkazadi. U 150 dan ortiq ilmiy asarlar yozadi. Bizgacha ulardan 27 tasigina yetib kelgan. Beruniyning o‘sha davrda yaratgan kashfiyotlaridan biri – globus ixtiro etganligidir. U Quyosh atrofida sayyoralar aylanishini, Yer esa ana shu sayyoralardan biri ekanligini aytadi.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (873-950) matematika, geometriya, astronomiya, tarix, geografiya va boshqa fanlarga doir ko’plab risolalar yozgan. Bizgacha allomaning 20-ga yaqin asari yetib kelgan. Fan va madaniyat olamida o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lgan ulug‘ mutafakkir, zabardast olim, buyuk allomalardan biri.

Abu Nasr Forobiy(870-951) “Sharq Arastusi”, “Ikkinchi muallim” nomlari bilan O‘rta Osiyo madaniyatining asoschilaridan biri. Forobiyning sotsiologik, ijtimoiy-falsafiy, tabiiy-ilmiy, tarbiyaviy-tibbiy qarashlari, nazariy xulosalari keng qamrovli va rang-barang bo‘lib, mohiyat mazmuniga ko‘ra nafaqat o‘z zamonasi uchun, balki hozirgi davrda ham juda ahamiyatlidir.

Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, Al-Forob avlodidan,
Asli nasli balki O‘zluq, Balki Tarxon, o‘zbegim[38]. (E.Vohidov O‘zbegim)

Shoir bu o‘rinda qomusiy olimlarni tilga olish zamirida o‘zbek xalqi tarixida shunday allomalar yetishib chiqqanligi ular sharq svilizatsiyasida muhim o‘rin tutganligidan faxrlanish hissini uyg‘otadi.

Amir Temur (1336-1405) – o‘rta asrlarning buyuk turk askari va qo‘mondoni, Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O‘rda, Mamluk sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonli davlati, Kavkaz va Erondagi davlatlarni barisini yengishi ortidan musulmon olamining to‘la yetakchisi, 35 yillik

[35]Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк 3-том. 379-бет.
[36] Юсуф Хос Ҳожиб. Кутадғу билиг //Қадимий ҳикматлар. Тузувчи: Н.Раҳмонов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. 100-бет.
[37] G‘iyos-ul-lug‘ot. 1-jild. Dushanbe, 1987, 76-bet.
[38] Танланган асарлар. Э.Воҳидов. – Тошкент, 2019. 116 бет

boshqaruvi va yurishlari chog‘ida biror urushni yutqazmagan qo‘shinboshi, o‘tmishda ko‘rilgan uchta buyuk harbiy-taktik urush va yurush qo‘mondonlaridan biri, Temuriylar uyg‘onish davri yaratuvchisi, ilm-fan, me’morchilik, san’at va adabiyot homiysi.

O‘zbekiston, bo‘yi-basting ko‘rsat endi, Pahlavonim, yetdi senga navbat endi, Olam uzra hilpirasin abad endi – Sohibqiron Temur tug‘i-yashil bayroq, Inshaalloh! (M.Yusuf. Inshaalloh).

Mirzo Muhammad ibn Shohruh ibn Temur Ulug‘bek Qo‘rag‘oniy (1394-1449) – o‘z davrining atoqli allomasi, davlat arbobi, Movaraunnahrni 1441-1449 yillar boshqargan, mashhur hukmdor va sohibqiron Amir Temurning nabirasi. Buyuk astronom Ulug‘bek rahbarligi va ishtirokida rasadxonaning asosiy ishi “Zidjiy Ko‘rag‘oniy”, “Ulug‘bekning yulduzlar jadvali” tuzilgan. Kitobda 1018ta yulduz joylashuvi aql bovar qilmas aniqlikda belgilangan. Bu astronomik turkum yaratilishi jahon astronomiya fani xazinasiga qo‘shilgan ulkan hissa hisoblanadi.

Tuzdi-yu Mirzo Ulug‘bek Ko‘ragoniy jadvalin,
Sirli osmon toqiga ilk – Qo‘ydi narvon o‘zbegim[39].
(E.Vohidov O‘zbegim)

Bu misralar zamirida shoir tarixdan xalqimizning izlanuvchan va o‘ziga ishongan o‘ziga bek ekanligining yana bir dalili sifatida keltirib o‘tgan. Quyidagi satrlar zamirida ham shu fikrlarning isbotini ko‘rishimiz mumkin.

Qadim Oltin beshik avlodi maskanisan,
Alisherlar, Ulug‘beklar vatanisan.
Yashnagani-o‘z asliga qaytganisan,
Turon yurtda yonsin qayta so‘ngan chiroq,
*Inshaalloh*40*! (M.Yusuf. Inshaalloh)*

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy(1441-1501) shoir, mutafakkir, jahon adabiyotining yetuk siymolaridan biri, davlat arbobi, faylasuf. Alisher Navoiy ikki tilda mukammal ijod qilgan. Turkiy tilda “Navoiy”, forsiy tilda esa “Foniy” taxalluslarini qo‘llagan. Navoiy ijodining yuksak cho‘qqisi “Xamsa“ asaridir. Uning yaratilishi turkiy xalqlar adabiyotida muhim voqelik bo‘lgan. Shoir birinchilardan bo‘lib, turkiy tilda to‘liq “Xamsa“ yaratdi va shu bilan turkiy tilda ko‘lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi.

Mir Alisher na’rasiga Aks sado berdi jahon,
She’riyat mulkida bo‘ldi Shoh-u sulton o‘zbegim[41]. (E.Vohidov O‘zbegim)

Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon (1897-1938) – Milliy uyg‘onish davrining eng buyuk namoyondalaridan biri bo‘lgan. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg sifatida o‘zbek xalqi adabiyoti ravnaqiga salmoqli hissa qo‘shdi.

Yurtim, ko‘nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig‘latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringda ham diydoringga zor,
*Jayrondek termulgan Cho‘lponlaring bor*42.

Usmon Nosir (1912-1944) o‘zbek adabiyotining yorqin va zabardast shoirlaridan biri o‘zbekning Lermontovi, o‘zbek adabiyotining chaqmoq shoiri. Shoir atigi 32-yil umr ko‘rgan

[39]Танланган асарлар. Э.Воҳидов. – Тошкент, 2019. 116 бет
[40] Улуғимсан ватаним. М.Юсуф.– Тошкент, 2004. 10 бет
[41]Танланган асарлар. Э.Воҳидов. – Тошкент, 2019. 116 бет
[42] Уйкудаги қиз. М.Юсуф.– Тошкент, 1989. 165 бет

bo‘lsada, o‘zbek she’riyatiga ulkan meros qoldirishga ulgurgan. Quyida keltirilgan misrada shoirning qabri uzoq o‘lkalarda qolib ketganligiga ishora qiladi chunki shoir “Xalq dushmani” tamg‘asi bilan hali 25 yoshga to‘lmagan shoir Zlatousk, Vladivostok, Magadan, Mariinsk qamoqxonalarida bo‘ladi. 1943-yili Kemerovo viloyatida joylashgan Sibir lageriga jo‘natiladi. 1944-yili uzoq qiynoqlardan so‘ng shoir o‘sha yerda xastalikdan vafot etadi.

Qo‘ling qadog‘iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku, og‘ir olma so‘zimni.
Qayinbarglar yopib qaro ko‘zini,
Olislarda qolgan Usmonlaring bor[43].

Abdulla Qodiriy (1894-1938) – XX-asr yangi o‘zbek adabiyotining ulkan namoyandasi, o‘zbek romanchiligining asoschisi, 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Abdulla Qodiriy qatag‘on qilingan. 1937-yilning 31-dekabrida “xalq dushmani” sifatida hibsga olinadi, bunga aynan hasadgo‘y “qalamkash hamkasblari” sabab bo‘lganliklari keltiriladi. 1938-yilning 4 oktabr kuni yozuvchi otib tashlangan, o‘limidan so‘ng oqlangan. Toshkentdagi Xo‘ja Alambardor (Kamolon) qabristoniga dafn etilgan.

Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana, yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriyni sotib shoir bo‘lganlar,
Mehrobingdan chiqqan chayonlaring bor...[44]

Ular o‘quvchini matndan tashqari kontekstga yo‘naltirib, o‘qilayotgan asar va ishora qilinayotgan asarning dialogik aloqasini tiklaydi, natijada matn ishora qilinayotgan matn mazmuni bilan boyib, uning badiiy-estetik salmog‘i ortadi[45].

Xulosa qilib aytganda, tarixiy shaxslarning she’riy asarlarda qo‘llanishi ularning zamonidagi voqealar va ijtimoiy muhitni aks ettiradi. She’rlar orqali mualliflar o‘z zamonasidagi muhim shaxslar va ularning qahramonliklari, kuch-qudratlari yoki hayotidagi voqealarni yoritadilar. Shuningdek, tarixiy shaxslar, ko‘pincha, mifologik yoki ramziy ma’no kasb etadi. Ular she’rda ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Tarixiy shaxslarning she’riyatda tasvirlanishi, yangi avlodlarga ularning jasorati, fidokorligi va ma’naviy qadriyatlarini yetkazish imkonini beradi. She’riyatda ular orqali insonning his-tuyg‘ularini, qayg‘ularini va orzularini ifodalash, o‘quvchilarda chuqur emotsional ta’sir ko‘rsatadi, she’rda estetik jihatdan boy ma’no qatlamlarini keltirib chiqaradi. Ularning hayoti va faoliyati muallifga badiiy ifoda imkoniyatlarini ochadi.

Umuman olganda, tarixiy shaxslar she’riy asarlarning chuqur va ko‘p qirrali mazmunini boyitadi, o‘quvchilarga tarixni va uning ma’naviy merosini tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Д.Худойберганова, Д.Анданиязова. Ўзбек тили поэтонимларининг изоҳли луғати. Турони замин зиё. Тошкент. 2016.

[43] Уйқудаги қиз. М.Юсуф.– Тошкент, 1989. 165 бет
[44] Уйқудаги қиз. М.Юсуф.– Тошкент, 1989. 165 бет

2. G‘iyos-ul-lug‘ot. 1-jild. Dushanbe, 1987.
3. Қуронов Д., Мамажонова З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. Тошкент. Академия. 2013.
4. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк 3-том.
5. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг //Қадимий ҳикматлар. Тузувчи: Н.Раҳмонов. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
6. Э.Воғҳидов. Танланган асарлар. – Тошкент, 2019.
7. М.Юсуф. Улуғимсан ватаним. – Тошкент, 2004.
8. М.Юсуф. Уйқудаги қиз. – Тошкент, 1989.

TOG‘AY MUROD ASARLARINI LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTDA TAHLIL QILISH (“OTAMDAN QOLGAN DALALAR”, “BU DUNYODA O‘LIB BO‘LMAYDI” ROMANLARI ASOSIDA)

Tursinbayeva Guzal Alimbayevna
O‘zbekiston Milliy universiteti 2-bosqich magistanti.

Keldiyorova Gulchehra Saydiyevna
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya: Badiiy asarlarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish orqali ma’lum bir xalqning fikrlash tarzini, madaniyatini, qadriyatlarini anglab yetish imkoniyatini oshirish bilan birga, til boyligi imkoniyatlarini ham namoyon qiladi. Bunda yozuvchining kuchli badiiy salohiyati ham alohida o‘ringa ega. Chunki ijodkor ahli har bir yaratgan asari orqali xalqning madaniy va ma’naviy qiyofasini ko‘rsatish bilan birga, uni kelajak avlod ongiga muhrlashga tengsiz hissa qo‘shadi. Ushbu maqolada xalqlarning madaniy idrokini ochib beruvchi paremiologik birliklar bo‘lgan frazema, maqollar hamda metafora, streotiplar tanlab olingan.

Kalit so‘zlar. Lingvokulturologiya, paremiologik birliklar, maqollar, hikmatli so‘zlar, metaforalar, streotiplar.

Аннотация: Анализируя произведения искусства с лингвокультурологической точки зрения, он увеличивает возможность понимания образа мышления, культуры и ценностей определенного народа, а также показывает возможности языкового богатства. Особое место в этом занимает мощный художественный потенциал писателя. Потому что творческие люди через каждое свое творение показывают культурный и духовный образ нации, вносят ни с чем не сравнимый вклад в запечатление его в сознании будущих поколений. В данной статье отобраны фразеологизмы, пословицы, метафоры, стереотипы, являющиеся паремиологическими единицами, раскрывающими культурное восприятие народов.

Ключевые слова: Языковая культура, паремиологические единицы, пословицы, мудрые слова, метафоры, стереотипы.

Abtract: Analyzing works of art from a linguacultural point of view, it increases the possibility of understanding the way of thinking, culture and values of a certain people, and also shows the possibilities of linguistic wealth. A special place in this is occupied by the powerful artistic potential of the writer. Because creative people through each of their creations show the cultural and spiritual image of the nation, make an incomparable contribution to imprinting it in the minds of future generations. This article selects phraseological units, proverbs, metaphors, stereotypes, which are paremiological units that reveal the cultural perception of peoples.

Keywords: Language culture, paremiological units, proverbs, wise words, metaphors, stereotypes.

Har bir millat va elat madaniyati hamda qadriyatlarini o‘zlarining milliy adabiyotlari orqali butun dunyoga yoyadi. Bunda yozuvchi va ijodkorlarning roli beqiyosdir. Jumladan, Tog‘ay Murod o‘z davrining yetuk qalamnavisi bo‘lib, *“kichik”* hajmli romanlar va qissalar yaratgan bo‘lishiga qaramasdan, ularga chuqur ma’no-mazmun singdira olgan ijodkordir, boshqacha aytganda, “*qisqa so‘zda, ko‘p ma’no*”ni ifodalay olgan yozuvchidir. Tog‘ay Murodning asarlarida milliy-madaniy qarashlarimiz yorqin tarzda namoyon bo‘lgani sababli lingvokulturologik aspektda o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan xarakter xususiyatlarini o‘rganish jarayonida boy manba bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Birinchi navbatda lingvokulturologiya atamasiga to‘xtalsak, *“lingvokulturologiya”* atamasi – birinchi marta kognitiv lingvistika yo‘nalishi asoschilaridan biri bo‘lgan Ronald Lankager tomonidan foydalanilganligi taxmin qilinadi. U madaniy bilimlar va grammatika o‘rtasidagi bog‘liqlikni sharhlash uchun mana shu atamadan foydalangan [Usmonova Sh., 2019: 23]. Shu bilan birgalikda, lingvokulturologiya tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, lingvokulturologiya lotincha *lingua "til"; cultus “hurmat qilish, ta’zim qilish"dir.* Lingvokulturologiya termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi (Yu.S.Stepanov, A.D.Arutyunova, V.V.Vorobyev, V.Shaklein, V.A.Maslova tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lganligiga qaramasdan [Usmonova Sh., 2019: 24], linvokulturologiya sohasining rivojlanishida V.A.Maslovaning yaratgan qo‘llanmalarining o‘rni beqiyosdir.

Har qanday tilni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilish jarayonida, albatta, o‘sha tilda mavjud bo‘lgan paremiologik va frazeologik fondini, stereotiplarini, metaforalarini chuqur o‘rganish talab qilinadi. Sababi, bu tamoyillar ma’lum bir badiiy asarni o‘qish jarayonida uning til xususiyatlari bilan birga, til egalarining madaniyatini ham o‘zlashtirishga katta hissa qo‘shadigan vositalar hisoblanadi.

Tilning pareomiologik fondi – bu tilda mavjud bo‘lgan maqol, matal va aforizmlardir. “Paremiya” – yunoncha “*hikmatli so‘z, zarbulmasal, hikoya, maqol*” degan ma’nolarni bildirib, ma’lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa, mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal, aforizm singari hikmatli iboralar, kontekst sharoitidan tashqari hamma so‘zlashuvchilar tomonidan tushuniladigan mazmundagi fikrdir [Berdiyorov H., Rasulov R., 1984: 44]. Tog‘ay Murodning romanlarida pareomiologiyaga ko‘plab namunalar keltirilgan hamda lingvokulturologik jihatdan o‘rganish uchun noyob materiallardir. Masalan, “***Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi***” romanida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

1. *Non egasi bilan chuchuk*- “Non” o‘zbek xalq uchun eng qadrli ne’mat ekanligini ko‘rsatadi.
2. *Boshidan o‘tmaganni, qoshidan o‘tma*- Bu maqolda boshidan o‘tmagan insonga qancha dardingni anglatsang ham befoyda ekanligi, kimnidir dardini tushunish va his qilish uchun albatta, qandaydir o‘xshash hissiyotlarni boshdan kechirishga to‘g‘ri kelishi, aks holda bu devorga gapirish bilan teng ekanligini isbotlaydi. Bu maqolning turkcha variant ham mavjud bo‘lib, biroz o‘zgargan shaklda qo‘llaniladi: “*ateşten geçmeyene ateşı anlatamazsın*”.
3. *Cho‘kayotgan odam cho‘pga yopishishi tabiiy hol*- Bu paremiologik birlik ko‘plab turkiy til egalarida kichik o‘zgarishlar bilan uchraydi. Masalan, turk tilida - *“denize duşen yilanada sarılır”* shaklida qo‘llaniladi. Ma’nosi: qiyin vaziyatdagi har qanday shaxs barcha imkoniyatlardan foydalandi.

4. *Bo‘laman degan el, bir-birini botirim deydi, bo‘lmayman degan el, bir-birini etini yeydi* - “Oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagin oldirar,To‘rtovlon tugal bo‘lsa, tepadagin indirar”, - maqoli bilan sinonimdir. Tog‘ay Murod asarida bu yangicha shaklda qo‘llanilgan.

“***Otamdan qolgan dalalar***” romanida quyidagilar:

1. *Oshingni yesa-da, mard yesin. Boshingni yesa-da, mard yesin.* - Mardlik - qadimdan turkiy xalqlarning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib kelgan, mard va jasur insonlar har doim el ardog‘ida ekanligini bildiradi.
2. *Qazisan, qartasan asl zotingga tortasan* - bu maqoldagi “*qazi*” so‘zi orqali bilishimiz mumkinki, turkiy xalqlarda ot ulug‘langan va uning go‘shti tana uchun foydaliligi tufayli doimiy iste’molda bo‘lgan. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodida hayvonlar o‘xshatishlar va maqollarda foydalanilgan
3. *Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda* -Dehqonchilikka oid bo‘lgan bu maqolda, turkiy xalqlar yerdan unumli foydalana olganligi, shu bilan birga ko‘plab hosil olgan, yer tilini boshqa xalqlarga nisbata yaxshi bilishini aks ettiradi. Ma’nosi: har ish o‘z vaqtida bajarilishi lozimligi, aks holda takror va takror bu ishni qilishga majbur bo‘lishini izohlaydi.
4. *Dehqon ko‘zi tarozi bo‘ladi,*
   Dehqon ko‘ngil qozi bo‘ladi. - Bu maqol ham dehqonchillikka oid bo‘lib, qadimdan dehqonchilik yaxshi rivojlangan bo‘lib, O‘rta Osiyodagi 70% oddiy xalq XIX va XX asrlarda asosan, dehqonchilik bilan kun ko‘rganligini, shuning uchun ham bu soha boshqa sohalarga qaraganda Osiyoda har doim avvalgi o‘rinlarda bo‘lganni ko‘rsatadi.
5. *Bolamni to‘ygunimcha boqaman, nevaramni o‘lgunimcha boqaman.* - Bu paremiologik birlikda Osiyo xalqlari odatda, ayol ona bo‘lgandan boshlab farzandi uyli- joyli bo‘lguncha g‘amxo‘rlik qilishini, bu bilan cheklanmasdan farzandining farzandiga ham umrining oxirigacha g‘amxo‘rlik qilishi kabi o‘ziga xos madaniy jihatlarini tilda aks ettiradi. Bu maqol “danagidan mag‘zi shirin” paremiologik birligiga sinonimdir.
6. *O‘zbekning qoniqib mehmon kutgani podsho bo‘lgani* - Bunda o‘zbek xalqining naqadar mehmondo‘st xalq ekanligini ko‘rsatib beruvchi eng yaxshi paremiologik birlik sifatida ta’kidlashimiz mumkin.

Shuningdek, badiiy asarlarda ma’lum bir millatning dunyoqarashini yana ham kengroq tarzda namoyon qilishga xizmat qiladigan lingvokulturologik vosita bu - stereotipdir. Stereotip muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo‘yoqdor va favqulodda barqaror bo‘lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o‘ziga xosligidir. Stereotip termini (yunon. stereos - qattiq, typos - iz,tamg‘a) amerikalik sotsiolog Uolter Lippman tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U 1922-yilda nashr etilgan “Jamoat fikri” nomli kitobida stereotiplarning jamoat fikri tizimidagi o‘rni va rolini aniqlashga harakat qilgan. Umuman, madaniyatlararo muloqotda o‘zbeklar mehmondo'stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotliligi, xitoyliklar sertakallufligi, yaponlar xushmuomalaligi, estonlar sustkashligi, italyanlar qiziqqonligi, inglizlar sovuqqonligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan [Usmonova Sh., 2019: 87].

Tog‘ay Murod romanlarida ham o‘zbek millatiga xos bo‘lgan bir nechta namunalarni ko‘rishimiz mumkin. Quyida:

1. *Bolamni to‘ygunimcha boqaman, nevaramni o‘lgunimcha boqaman.* - O‘zbek xalqining g‘amxo‘r ekanligini ko‘rsatib beradi
2. *O‘zbekning qoniqib mehmon kutgani podsho bo‘lgani* - Mehnatkash, hech qachon mehnatdan qochmasligini aks ettiradi
3. *Dehqon ko‘zi tarozi bo‘ladi,*
   Dehqon ko‘ngil qozi bo‘ladi. - Mehnatkash, hech qachon mehnatdan qochmasligini aks ettiradi
4. *Oshingni yesa-da, mard yesin*
   Boshingni yesa-da, mard yesin. - O‘zbeklarning g‘amxo‘r, mehmondo‘st va mehnatkashligi bilan birga doimo mard va jasur bo‘lganligini namoyon qiladi.

Yuqorida keltirilgan namunalar, o‘zbek xalqiga tegishli bo‘lgan asosiy stereotiplardir.

Shu bilan birgalikda, metaforalar ham lingvokulturologiyaning asosiy aspektlaridan biridir. So‘z isboti bilan deganidek, “lingvokulturologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova o‘xshatishlarda muayyan xalqning milliy dunyoqarashi aks etishini ta’kidlab, bu fikrini rus, belorus va qirg‘iz tilida qo‘llanuvchi o‘xshatish qurilmalari tahlili asosida dalillaydi [Xudoyberganova D., 2013: 93-94]. V.A.Maslovaning fikricha, metafora o‘zida “…*fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, zero, u milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangandir*” [Maslova V.A., 2001: 91]. Durdona Xudoyberganova metaforalarga shunday ta’rif beradi: “*o‘zbek yozuvchilari tomonidan yaratilgan nasriy asarlarda qo‘llangan badiiy metaforalarni kuzatish asosida shuni aytish mumkinki, ular muayyan ijodkorning individual nutqiy uslubiga xos jihatlarni ko‘rsatishi bilan birga o‘zbek millatiga mansub til egalarining badiiy tafakkuri, til birliklariga bo‘lgan munosabatini ham namoyon etadi. Metafora qo‘llangan matnlar shuni ko‘rsatadiki, ularda nafaqat tushuncha, balki muayyan vaziyat ifodasi ham metaforaga asoslanishi mumkin. Shu boisdan metaforalar so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn shaklidagi metaforalar sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir*” [Xudoyberganova D., 2013: 101-102].

Durdona Xudoyberganova ilmiy ishida metaforalarning lingvokulturologiyada alohida mavqega ega ekanligini va ularning 4 ga ajratgan holatda o‘rganish lozimligini ta’kidlagan.

Tog‘ay Murod ham metaforalardan o‘z asarlarida unumli foydalagan va asosan, guvohi bo‘lamizki, so‘z birikmasi va gap shaklidagi metaforalardan keng foydalangan:

1. *O‘zimga en bo‘la olmayman-u, sizga qanday bo‘y bo‘laman.*
2. *Qasam urgan yerga o‘xshaydi (qarg‘ish urgan).*
3. *Nasib bo‘lsa, qulf urib o‘sadi.*
4. *Tuz-qalampir bola ekan.*
5. *Hali, demokratiyani… aql tishi chiqib qoladi.*
6. *Itga bitgan, bitga bitgan aql tishi … demokratiyaga bitmaydimi?!*
7. *Qadamingiz kira tilaydimi?*
8. *O‘tmishga tosh otish o‘likni tepkilash demakdir.*
9. *Demokrat- sen o‘tmishga to‘pponcha otsang, o‘tmish seni to‘pga tutadi.*

Yuqorida keltirilgan metaforalarning barchasi faqatgina Tog‘ay Murod asarlaridagina uchratish mumkin bo‘lgan noyob metaforalar sirasiga kiradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, lingvokulturologik aspektda badiiy asarlarni tahlil qilish orqali nafaqat ijodkorning badiiy mahoratini, shu bilan birga xalqning o‘ziga xos qadriyatlari va madaniyatining jozibasini va xususiyatlarini ijodkorning asarlari orqali o‘rganish mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Berdiyorov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.: 1984.
2. Mamatov A.E. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent: 1991.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Maskva: Academia,2001.
4. Маслова В.А. Человек в зеркале сравнения // htt:/www gumer. Info/ biblioter -Burs / Linguist/ maslova/ 06/php.
5. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. –T: 2019.
6. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – T.: “Fan” nashriyoti, 2013.

ULUG‘BEK HAMDAM ASARLARIDA EPIGRAFNING UNIVERSAL INTERTEKST SIFATIDA QO‘LLANILISHI

Malikova Shahlo Keldibek qizi
O‘zMU Lingvistika:o‘zbek tili 2-kurs magistri.
E-mail: ibrohimovashahlo41@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ulug‘bek Hamdam asarlarida qo‘llanilgan epigraflar lingvokulturologik tahlilga olingan. Intertekstuallikning bu turini shartli ravishda universal va milliy - madaniy intertekstlar sifatida guruhlarga ajratib, yozuvchi qo‘llagan universal epigraflarning asar g‘oyasi va mazmunidagi o‘rni xususida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturologiya, lingvokulturologik tahlil, intertekstual birlik, universal intertekstlar, milliy- madaniy intertekstlar, epigraf, assotsativ tafakkur.

Annotation: In this article, the epigraphs used in the works of Ulugbek Hamdam are analyzed linguocultural. This type of intertextuality is conditionally divided into groups as universal and national-cultural intertexts, and the role of the universal epigraphs used by the writer in the idea and content of the work is discussed in detail.

Keywords: linguoculturology, linguocultural analysis, intertextual unity, universal intertexts, national-cultural intertexts, epigraph, associative thinking.

Аннотация: В данной статье проводится лингвокультурологический анализ эпиграфов, используемых в произведениях Улугбека Хамдама. Данный тип интертекстуальности условно делится на группы как универсальные и национально-культурные интертексты, а также подробно рассматривается роль универсальных эпиграфов, используемых писателем, в идее и содержании произведения.

Ключевые слова: лингвокультурология, лингвокультурный анализ, интертекстуальное единство, универсальные интертексты, национально-культурные интертексты, эпиграф, ассоциативное мышление.

Lingvokulturologiya XX asrning 90 - yillarida tilshunoslikda mustaqil fan sifatida vujudga keldi. Bu soha til va madaniyat kesishgan nuqtada paydo bo‘lgan. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasini, o‘zaro ta’sirini, tilda o‘z aksini topgan xalq madaniyatining ko‘rinishlarini tadqiq etadi. [Usmanova Sh., 2019: 16]. Tilshunoslikning xalq tili va nutq faoliyatidagi madaniyatining namoyon bo‘lishini o‘rganuvchi bo‘limidir. Badiiy matnni lingvokulturologik tahlil qilish metadologiyasini ishlab chiqish zarurligi haqidagi savolni akademik L. Matsko ko‘tardi va uning tarkibiy qismlarini belgilab berdi. Bugungi kunda turli etnik guruhlar vakillarining o‘zaro munosabati natijasida bir - birini tushunish, o‘zaro hurmat, uzoq va yaqin etnik guruhlarning an’analari, urf - odatlari va marosimlarini o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi. Bunda bilim manbai so‘zsiz, badiiy asarlardir. Binobarin, biz nafaqat boshqa xalqlar balki o‘z madaniy merosimizni idrok etish uchun badiiy asarlarni lingvomadaniy tahlil qilib, xalq tafakkur tarzi, turmushining o‘ziga xos xususiyatlari va bosqichlarini, ma’naviy va moddiy jihatlarini bilib olamiz. So‘nggi o‘n yilliklarda tilni o‘z sohibi, uning milliy mentaliteti, milliy madaniyati bilan

birga tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Bu tilshunoslikda inson tafakkuri natijasi bo'lgan intertekstual birliklarga ham millatning milliy - mental xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vosita sifatida qarash ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Ulug'bek Hamdam asarlarida qo'llanilgan intertekstual birliklarni shartli ravishda ikki guruhga ajratib, universal va milliy - madaniy intertekstlar sifatida tahlil qilishni joiz deb bildik.

[https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=Prt47QEAAAAJ&citation_for_view=Prt47QEAAAAJ:u-x6o8ySG0sC].

Universal so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, umumiy, keng qamrovli, ko'p tomonlama degan ma'nolarni bildiradi. O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagi ma'nolarda qo'llanilishi aytiladi [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. Б. 289.]:

1. Ko'p yoki hamma narsani o'z ichiga olgan; har taraflama. Universal bilim, universal magazin.

2. Bir necha xil ishni bajarishga moslashgan. Universal stanok.

Biz o'z ishimizda ushbu atamani aynan bir xalqqa tegishli emas, balki barcha xalqlar uchun tanish, tushunarli yanayam aniqroq aytadigan bo'lsak, umumjahon bo'lgan intertekstlarga nisbatan qo'lladik.

Ulug'bek Hamdam asarlarida intertekstuallikning epigraf, iqtibos, allyuziya, reminissensiya, sarlavha kabi turlari qo'llanilgan. Shulardan ayniqsa, epigraf faol qo'llanilgan.

Epigraf yunonchadan tarjima qilganda, "ustki yozuv" degan ma'noni bildiradi. Badiiy asar yoki uning ma'lum qismi tepasiga yoziladigan, shu asar yoki qismning mazmunini ifodalaydigan, asosiy yo'nalishni ifodalab beradigan teran ma'noli ibora, maqol, matal, hikmatli so'z, qo'shiq, she'r yoki o'zga manbadan olingan parcha, shuningdek muallifning o'z izohi. XV asr boshlarida paydo bo'lgan. O'zbek adabiyotida G'.G'ulom, A. Qahhor, O.Muxtor, shuningdek, Ulug'bek Hamdam asarlarida intertekstuallikning ushbu turiga ko'p o'rinlarda murojaat qilgan. Epigraf asosiy matnga o'ziga xos kirish vazifasini o'taydi, ularsiz ba'zan badiiy asarning mohiyatini anglash mushkullashadi. Biz tahlilga olayotgan Ulug'bek Hamdam asarlarida epigraf faol qo'llanilgan intertekslardan hisoblanadi.

Ulug'bek Hamdam asarlarida intertekstuallikning epigraf, iqtibos, allyuziya, reminissensiya, sarlavha kabi turlari qo'llanilgan. Shulardan ayniqsa, epigraf anchayin faol.

Epigraf yunonchadan tarjima qilganda, "ustki yozuv" degan ma'noni bildiradi. Badiiy asar yoki uning ma'lum qismi tepasiga yoziladigan, shu asar yoki qismning mazmunini ifodalaydigan, asosiy yo'nalishni ifodalab beradigan teran ma'noli ibora, maqol, matal, hikmatli so'z, qo'shiq, she'r yoki o'zga manbadan olingan parcha, shuningdek muallifning o'z izohi. XV asr boshlarida paydo bo'lgan. O'zbek adabiyotida G'.G'ulom, A. Qahhor, O.Muxtor, shuningdek, Ulug'bek Hamdam asarlarida intertekstuallikning ushbu turiga ko'p bora murojaat qilgan. Epigraf asosiy matnga o'ziga xos kirish vazifasini o'taydi, ularsiz ba'zan badiiy asarning mohiyatini anglash mushkullashadi. Biz tahlilga olayotgan Ulug'bek Hamdam asarlarida epigraf faol qo'llanilgan intertekslardan hisoblanadi.

Adib asarlarida epigraf sifatida Qur'oni Karim oyatlari, hadislar, she'riy yoki nasriy asar parchalari, mashhur shaxslar fikri va maqollardan foydalanilgan.

Biz o'z ishimizda intertekst sifatida Qur'oni karim va hadisi sharifdan foydalanishni universal intertekstuallik hodisasi deb baholadik. Chunki bu faqatgina o'zbek millati emas, balki jami musulmon ahli uchun umummadaniy holat hisoblanadi. Ulug'bek Hamdam ijodida epigraf

sifatida Qur’oni karim oyatlaridan intertekst sifatida foydalanishga quyidagi parchani misol qilib keltirishimiz mumkin: *“U zot Yer sizlarni tebratmasligi uchun unda tog‘larni barpo qildi, daryolarni va (ko‘zlagan manzillaringgizga borishda) adashmasliklaringgiz uchun yo‘llarni paydo qildi. Va (u yo‘llarga) belgilar (qilib qo‘ydi. Kechalarda kishila) yulduzlar bilan yo‘l topurlar”.* (“Yo‘l” falsafiy romani, 10 - bet, **Qur’oni karim, “Nahl” surasi, 15- va 16-oyatlar).**

...Va, albatta, Alloh qabrlardagi kimsalarni tirilturur... **(“**Yaxshiyam, sen borsan” **Qur’oni karim, “Haj” surasi, 7-oyat).**

Asar matnida Qur’on oyatlari yoki hadislarni intertekst sifatida qo‘llash yozuvchi, shoirlardan ham matnni qabul qiluvchi (retsipient)dan ham ma’lum ma’noda diniy bilim talab qiladi, sababi intertekst orqali matn mazmunini tushunish, idrok qilishga yo‘l ochiladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, epigraf matn mazmunini ochib berishda kalit vazifasini o‘taydi, u kichik she’rdan tortib katta- katta qissa, roman, hatto drammatik asarning ham mohiyatini ochib beruvchi intertekstual birlik hisoblanadi.

Epigraf sifatida nasriy parchalarning qo‘llanilishi:

O‘ziga taqdir etilgan qismatdan voz kechishga tayyor birdan- bir mavjudot bu insondir.

A.Kamyu

(“Isyon va itoat”)

Nobel mukofoti sovrindori Alber Kamyu o‘zini faylasuf deb hisoblamagan bo‘lsada, zamondoshlari uni haqli ravishda “Yevropa vijdoni” deb atashgan. Yuqoridagidagi hajman o‘ta kichik epigrafni o‘qib, Kamyu hayotning azaliy, davrlar o‘tsa ham eskirmaydigan muammolarini o‘rtaga tashlagan ekan degan xulosaga kelamiz. Ushbu intertekst roman mohiyatini yoritishda muhim nuqtalardan hisoblanadi.

Xudo bo‘lmaganingdan keyin ko‘rgan kuning nima bo‘lardi?!

Xalqdan

(“Isyon va itoat”)

Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat” romani qahramoni — asar oxirida yoshi oltmishlarni qoralab qolgan Akbar butun ongli hayot davomida — Nahotki inson hayoti hech nimaga arzimasa? Degan savolga javob qidirib o‘tdi. Adolatli hukm chiqaraman, deb qasam ichgan hakamning yuzsizligi tufayli kesilib ketishi, ozodlikka chiqqach ham tushunmagan odamlar tomonidan kamsitilishi, oila boshlig‘i bo‘la turib, bir tishlam go‘shtga zor bolalarning ehtiyojini qondira olmayotganligi, rus mafiyasining zulmiga chidash, tibbiyot professorining “grippga o‘xshagan kasalliklarni vaqti-vaqti bilan kuchaytirish kerakligi, o‘shanda mo‘rtroqlaru zaifroqlardan tozalanib turishlik, shunda dori-darmondan ancha-muncha pul ishlab olish mumkinligi” haqidagi nazariyasi va boshqa qator-qator o‘ylab chiqarilmagan, hayotiy ziddiyatlar asar qahramonining isyoniga sabab. Akbar ma’naviyatga intiladi, tinmay kitob mutolaa qiladi, qalbida ma’rifiy inqilob yuz beradi. Insoniy qadr-qimmati toptalgan fohisha Dianani yangi, pokiza hayotga chorlaydi, himoyasiz kampir qo‘shnisiga beminnat g‘amxo‘rlik qiladi. Shu tariqa Ulug‘bek Hamdamning bu romani falsafa va adabiyotdagi taqdir va inson munosabatlari masalasiga bag‘ishlangan. O‘z taqdirining quli bo‘lgan inson qalb isyoni tufayli va o‘z ahvolini yaxshilash yo‘lidagi urinishlari oqibatida faqat soxta erkinlikka erisha oladi. Haqiqiy erkinlikka erishish uchun esa u taqdir qulligidan qutilishi lozim qabilidagi aqida bilan tanishadi kitobxon.

Ulug‘bek Hamdam ijodida Jaloliddin Rumiyga murojaat juda ko‘p uchraydi. Butun dunyoda ham Rumiy hazratlari fikrlaridan intertekst sifatida foydalanish uchraganligi uchun biz bu holatni universal intertekstuallik hodisasi deb baholadik. U. Hamdam Rumiy ijodiga boshqacha mehr bilan qaraydi, hattoki uning asarlarini o‘zbekchaga tarjima qilganligi fikrimizning yorqin isboti hisoblanadi. Adib hazrat haqida “Sharq yulduzi ” jurnalida chop etilgan maqolasida shunday degan edi:

“…u so‘z so‘zlarkan, insonni afsonalashtirib ko‘kka olib chiqib qo‘ymaydi, tanqid qilib esa yerning tagiga kirgizib yubormaydi, aksincha, boricha qabul qiladi, boridan kelib chiqadi. Uning dunyoqarashi, axloqi, ilmi… bulardan kelib chiqadigan yondashish andozasi (printsipi)ning oyoqlari biz bilgan zaminda mustahkam turadi. U qoldirgan ulkan meros shunga dalilki, hazrat olamu odamga qancha diniy bilimlar asosida yondashsa, shuncha o‘z davrining tabiiy fanlari yetib kelgan darajadan turib boqadi. Inchunun, darajoti avliyo bo‘lsa-da, Rumiy hazrat shundoq yonimizda, bani bashar bilan birgalikda yashayotgandek tuyuladi”. [https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/ulugbek-hamdam-tomchiman-bir-dengizga-tashna.html16:17, 12. 05. 2024.]

So‘nggi yillarda chop etilgan “Yo‘l” falsafiy romanida Mavlono Rumiyning mashhur fikridan epigraf sifatida foydalanganligi fikrimizni yana bir bora isbotlaydi:

*Men bir ojiz tomchiman, ammo yuragimda ummon sog‘inchi yashaydi.***(**Yo‘l” falsafiy romani ,10- bet **Mavlono Rumiy).**

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Ulug‘bek Hamdam asarlarida epigraf sifatida universal intertekstlarga ko‘p o‘rinlarda murojaat qilingan. Bu o‘quvchiga asar g‘oyasi va mazmunini assotsativ tafakkur va emotsioanal – ekspressiv bo‘yoqdor holatda yetkazishda eng samarali usul hioblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоетик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. Б. 114-121.
2. Холбеков М. Матн, интерматн ва интерматнлик. Ўзбек тили ва адабиёти журнали. 2013 йил, 6-сон. Б. 38.
3. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент, ЎзР ФА ТАИ, 2015. Б.87-93.
4. Qizi, X. M. F., & Tursunova, L. (2022, December). INTERTEXTUALITY AND ITS SOURCES IN THE CREATION OF MUHAMMAD YUSUF. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 1, No. 23.12, pp. 41-50).
5. Хомидова М. Бадиий матн перцепциясида интертекстуаллик. PhD. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2021. – Б. 29.
6. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. − Toshkent, 2019. − B. 16.
7. Ulug‘bek Hamdam. Tomchiman bir…dengizga tashna | Xurshid Davron kutubxonasi https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/ulugbek-hamdam-tomchiman-bir-dengizga-tashna.html16:17,12.05.2024.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. − Б. 289.

9. Xomidova, M. F. (2019). The problem of intertextuality in modern linguistics. *Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3*(4), 259-263.
10. Xomidova, M. (2023). INTERTEKST TUSHUNCHASI, TADQIQI VA TURLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(4 SPECIAL), 902–908. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/2958

TURK TILIDA SIFATLARNING O‘RGANILISHI

Diyorova Mohlaroyim Xamza qizi
O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti
Lingvistika(o‘zbek tili) yo‘nalishi 2-bosqich magistri.
E-mail: diyorovamohlaroyim@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada turk tilida sifat so‘z turkumi va uning xususiyatlari, turli davrlarda yaratilgan semantik tasniflari haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, sifat so‘z turkumi bo‘yicha qilingan ishlar tahlilga tortilib, turli turk olimlarning fikrlari va tasniflari o‘zaro qiyoslangan.

Kalit so‘zlar: sifat so‘z turkumi, tavsifiy sifatlar, aniqlash sifatlari, ishorat sifatlari, son sifatlari, so‘roq sifatlari, noaniqlik sifatlari.

Annotation: This article gives the information about the adjective word group in the Turkish language and its characteristics, semantic classifications created in different periods. Also, the researches done on the adjective phrase was analyzed, and the opinions and classifications of different Turkish scientists were compared.

Keywords: adjectives, descriptive adjectives, defining adjectives, indicative adjectives, numerical adjectives, interrogative adjectives, indefinite adjectives.

Аннотация: В данной статье рассказывается о группе прилагательных слов в турецком языке и ее характеристиках, семантических классификациях, созданных в разные периоды. Также была проанализирована работа, проделанная над прилагательным словосочетанием, и сопоставлены мнения и классификации разных турецких учёных.

Ключевые слова: прилагательные, описательные прилагательные, определяющие прилагательные, изъявительные прилагательные, числовые прилагательные, вопросительные прилагательные, неопределенные прилагательные.

Sifat so‘z turkumi turk tilida *sıfatlar* deb yuritiladi. Sifatlar turk tilshunosligida ko‘pincha keng ma’noda olingan ot turkumining bir turi o‘laroq ko‘rib chiqiladi, ya’ni sifatlarga predmetning belgi nomi deya qaraladi. Masalan, *ağaç, ev, çiçek* kabi so‘zlar ot turkumiga kiritilsa, *kırmızı, büyük, güzel* so‘zlari belgi nomlari, ya’ni sifatlar hisoblanadi: *güzel ev, büyük ağaç, kırmızı çiçek* kabi.

Turk tilida sifatlar nutqda ot vazifasida ham keladi (otlashgan sifatlar): *Küçük küçüklügünü hissetmeli (Kichik kichikligini his qilishi kerak). Şu güzele bir bakın! (Shu go‘zalga bir qarang!)* kabi. Demak, bu yerda so‘zning yakka holda sifat bo‘lishi emas, sifat kabi qo‘llanishi muhim. Shundan kelib chiqqan holda, turk tilshunosligida sifatlarning faqat aniqlovchi vazifasini bajarayotganda haqiqiy sifat bo‘la olishi, yakka holda uning ot bo‘lishi mumkinligi ham ta’kidlanadi. Shu bois, turk tilida sifatlar otlar kabi qo‘llana oladi. Predmetning belgisini bildirgan har qanday ot sifat vazifasini bajara oladi. Shundan kelib chiqqan holda, turk olimlari har sifatni bir ot deb qaraydilar [Xudoyberganova Z., Hamidov X., 2015: 44].

Dastlab tilshunoslar turk tilidagi sifatni otdan ajratmaganlar. Keyinchalik, bir qancha tilshunoslar sifatning otdan farqini ajratib ko‘rsatib berdilar. Masalan, Deny o‘z grammatikasida sifat va otning strukturaviy farqini ko‘rsatib bergan. Uning fikriga ko‘ra, sifatning otga nisbatan farqlovchi xususiyati uning o‘zgarmasligidir, ya’ni u shakl yasovchi qo‘shimchalarni olmaydi [Deny Jean; 1941].

XX asrning 2-yarmidan boshlab qilingan ishlarda turk tilshunosligida sifat alohida so‘z turkumi sifatida qaraladi. Masalan, 1976-yilda Dog‘an Aksan boshchiligida tuzilgan *“Sözcük Türleri” (“So‘z turlari”)* nomli asarda sifat alohida turkum sifatida sanalgan. Turk tilshunosligida ham sifatlar tasnifiga doir bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ammo turk tilshunosligida sifatlarning tadqiq etilishi va tavsiflanishi borasida bir qator tafovutlar bor.

Ayrim turk tilshunoslari sifat so‘z turkumiga quyidagicha ta’rif beradilar: “narsalarni sifatlash va ko‘rsatish orqali tasvirlaydigan so‘zlar” (“nesneleri vasıflandırma ve belirtme suretiyle karşılayan kelimelerdir”) [Muharrem E., 1993: 244] – Muharram Ergin; “bir borliqni tavsiflovchi yoki aniqlovchi so‘z” (“bir varlığı vasıflayan ya da belirleyen kelimeye sıfat demektedir”) [Banguog‘lu T., 1998: 341] – Tahsin Banguog‘lu; “ismlarning sifatlarini, holatini va ko‘pincha, sonlarni, ularning o‘lchovlarini ko‘rsatadigan ko‘rsatuvchi so‘zlardir” (“adların niteliklerin, ne durumda oldukların, çoğu kez sayıların, ölçülerini gösteren, soran ya da belirten sözcüklerdir”) – Do‘g‘an Aksan; “sifatlar borliqni tavsiflovchi yoki ko‘rsatuvchi so‘zlardir” (“Sıfatlar, varlıkları niteleyen ya da belirten sözcüklerdir”) [Genjan N., 2001: 198]– Najot Genjan.

Turk tilshunoslardan biri Muharram Ergin sifatlarni ikki guruhga ajratgan:

1. Tavsifiy sifatlar (Vasıflandırma Sıfatları) – borliqning ichki xossalarini ifoda etgan sifatlar).

2. Aniqlash sifatlari (Belirtme Sıfatları) – borliqning tashqi xossalarini ifoda qilgan sifatlar).

Tavsifiy sifatlar narsalarning rangi, shakli, bichimi, bo‘yi, tuzilishi, og‘irligi va shu kabi jihatlarni bildiradi. Masalan, *yeşil ağaç – yashil daraxt, güzel yazı – go‘zal maqola, demir kapı – temir eshik* kabilar tavsifiy sifatlardir. Ular narsa-hodisalarning xossalarini bildiradi. Muharram Ergin, shuningdek, aniqlash sifatlarining o‘zini ham to‘rt guruhga ajratadi:

1. Ishorat sifatlari (İşaret Sıfatları).
2. Son sifatlari (Sayı Sıfatları).
3. So‘roq sifatlari (Soru Sıfatları).
4. Noaniqlik sifatlari (Belirsizlik Sıfatları).

Turk tilidagi sifatlarni tasnif qilgan yana bir olim Tahsun Banguo‘g‘li hisoblanadi. U ham sifatlarni ikki guruhga: *tavsifiy sifatlar (vasıflandırma sıfatları) va aniqlash sifatlari (belirtme sıfatları)*ga bo‘ladi va sifatlarning tavsifiy turi belgining daraja ifodalovchi shakllari bilan kelishini ta’kidlaydi [Banguog‘lu T., 1998] . Shunga ko‘ra u tavsifiy sifatlarni uch guruhga ajratadi: *1. Qiyosiy sifatlar (karşılaştırmalı sıfatları). 2. Kuchaytirma sifatlari (berkitme sıfatları). 3. Ozaytirma sifatlar (küçültme sıfatları).*

T.Banguog‘luning aniqlash sifatining tasnifiga doir qarashlari M.Erginniki bilan bir xil. Har ikkala olim bu turdagi sifatlarni to‘rt guruhga ajratib o‘rgangan. Ular bu aniqlash sifatlari turlariga quyidagicha ta’rif berishgan:

1. Ishorat sifatlari (T.Banguog‘lu bu sifatlarni ko‘rsatish sifatlari (gosterme sıfatları) deb nomlagan) o‘zbek tilidagi ko‘rsatish olmoshlariga to‘g‘ri keladi. Bu sifatlar otlarning oldidan

kelib, predmetning belgisini ifodalaydi va uning makondagi, zamondagi yoki tasavvurdagi uzoqligiga ko‘ra o‘rnini ko‘rsatadi. Masalan: *bu ağaç – bu daraxt, o dağlar – o‘sha tog‘lar, şu günler – shu kunlar.*

2. So‘roq sifatlari o‘zbek tilidagi so‘roq olmoshlariga to‘g‘ri keladi. Turk tilidagi bunday sifatlar otlarni so‘rash yo‘li bilan ularning belgisini aniqlashtiradi. *Kaç gün – qaysi kun, hangi tarla – qaysi dala* kabilar so‘roq sifatlariga misol bo‘la oladi.

3. Noaniqlik yoki gumon sifatlari narsa-buyumlar belgisining mavhumligini, noaniqligini ifodalaydi. *Kimi – ba’zi, bazı – ba’zi, bir – bir, kimi zaman – ba’zi payt, birkaç – bir nechta* kabilar noaniqlik ma’nosini ifodalab keladi.

4. Son sifatlari o‘zbek tilidagi son so‘z turkumiga to‘g‘ri keladi. Turk tilidagi son sifatlari o‘z ichida yana besh turga bo‘linadi.

Tohir Najot Genjan ham o‘zining “Dilbilgisi” da sifatlar tasnifini amalga oshirgan:

A. Sifatlovchi sifatlar.

1. Son (unvon) sifatlari.

2. Kuchaytirish sifatlari.

3. Ozaytirma sifatlar.

B. Aniqlash sifatlari.

– ishora sifatlari;

– son sifatlari:

1) asl son sifatlari;

2) sira son sifatlari;

3) taqsim son sifatlari;

4) kasr son sifatlari.

Bundan tashqari, Tohir Najot Genjan sifatlarning ot vazifasida kelishi va sifatlarning shakliga ko‘ra turlari masalalariga ham to‘xtalib o‘tgan.

Turk tilidagi sifatlarning keyingi tasnifi M.Hengirmenga tegishli. Bu olimning tasnifi ham yuqoridagi olimlar tasnifidan keskin farq qilmaydi. M.Hengirmen tavsifiy sifatlar tarkibiga qiyosiy, kuchaytirma, ozaytirma sifatlari bilan bir qatorda unvon sifatlarini ham qo‘shadi. Unvon sifatlari (ünvan (san) sıfatları), olimning fikricha, atoqli otlardan oldin yoki keyin qo‘llanilgan kasb, hurmat kabi holatlarni bildirgan so‘zlardir. Masalan, *sayın Ayşen Işık – hurmatli Ayshen Ishik, Prof. Dr. Cahit Kaver – Prof. Doktor Jaxit Kaver, Hasan Efendi –Hasan afandi, Ali amca – Ali amaki [Xudoyberganova Z., 2010: 62].*

Turk tilidagi sifatlarning tasnifi Dog‘an Aksan, Zaynab Korkmaz [Korkmaz Z., 2003] kabi olimlarda ham uchraydi. Dog‘an Aksan sifatlarning ma’no jihatidan bo‘linishi yuzasidan Muharrem Ergin va Tohir Najot Genjan tasniflariga qo‘shiladi.

Zeyneb Korkmaz o‘zining *“Türkiye Türkçesi Grameri”* kitobida sifatlarning anchayin mukammal tasnifini amalga oshirgan. U dastlab sifatlarni kelib chiqishiga ko‘ra, tuzilishiga ko‘ra va vazifasiga ko‘ra uch guruhga ajratadi. Keyin kelib chiqishiga ko‘ra sifatlarni turkcha asosli, boshqa tillardan kirib kelgan va qorishiq asosli sifatlarga ajratadi. Tuzilishiga ko‘ra sifatlarni esa sodda, hosila, qo‘shma, kuchaytiruvchi va boshqa so‘z turkumidan yasalgan sifatlarga ajratadi. Zeyneb Korkmaz ham sifatlarni ma’no jihatdan tasniflashda yuqoridagi olimlar yo‘lidan borgan.

O‘z ishlarida Zeyneb Korkmaz ilmiy qarashlariga tayangan olimlardan biri Kaan Yilmaz *“Eski turk tilida sifatlar” (“Eski türkçede sıfatlar”)* mavzusida doktorlik ishi yozdi. Olim bu

doktorlik dissertatsiyasida sifatlarning turli xususiyatlarini qadimgi bitiktoshlar, ko‘kturk yozuvidagi turli manbalar, uyg‘ur va qirg‘iz davrlariga oid yozma til materiallar asosida ko‘rib chiqdi. Bu dissertatsiya uch qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi sifatlarning kelib chiqishiga ko‘ra turlari, ikkinchi qismi sifatlarning tuzilishiga ko‘ra, uchinchi qismi esa sifatlarning vazifasiga ko‘ra turlariga bag‘ishlandi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, tadqiqotning qismlarini shakllantirishda Zeyneb Korkmazning *“Türkiye Türkçesi Grameri”* kitobi asos qilib olingan.

Turk tilidagi sifat so‘z turkumi doirasida qilingan muhim ishlardan biri Murat Reis Yılmazning *“Türkiye türçesinde sıfatlar” (“Turkiya turkchasida sifatlar”)* nomli tadqiqot ishidir. Bu tadqiqot ishining ahamiyatli jihatlaridan biri shundaki, Murat Yilmaz bu ishda turk tilida o‘ziga qadar amalga oshirilgan barcha sifat tasniflarini keltiradi va ularning bir-biridan farqi hamda umumiy jihatlarini yoritib beradi. Xususan, bu tadqiqotda Muharram Ergin, Tahsin Banguog‘lu, Zeyneb Korkmaz, Dog‘an Aksan, Tohir Najot Genjen kabi olimlarning turk tilidagi sifatga doir qarashlarini, ularning tasnifidagi o‘ziga xosliklarni va e’tirofga molik o‘rinlarni alohida qayd etishga harakat qiladi. Bundan tashqari bu tadqiqotda turli universitetlar yoki universitetlarga kirish uchun yozilgan qo‘llanmalardagi (Fem Yayınları, Final Yayınları, Formül Yayınları, Körfez Yayınları ve Maltepe Yayınları) sifat so‘z turkumining tasniflari o‘rin olgan. Murat Yilmaz faqat sifatlar tasnifi bilan cheklanib qolmagan. Tadqiqotdan, bundan tashqari, sifatli so‘z birikmalari (sıfat tamlamaları), qiyosiy daraja (sıfatlarda karşılaştırma), ozaytirma daraja (sıfatlarda küçültme), orttirma daraja (pekiştirme sıfatları), sifatlarning otlashishi (adlaşmış sıfat), sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.

Turk tilidagi sifatlarning o‘rganilishida bir qancha o‘ziga xosliklar kuzatiladi. Jumladan, turk tilshunoslari so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarni ajratmagani uchun turk tilida sifat darajalari ham sifatlarning bir ma’no turi sifatida qaraladi. Bundan tashqari, turk tilshunosligida predmetning belgisini bildiruvchi so‘zlar – sifat so‘zning bosh ma’nosi emas, balki ularning so‘z birikmasi va gap tarkibida keluvchi ma’nosiga ko‘ra belgilanib kelgan. Shuning uchun ham sonlar, ko‘rsatish, so‘roq, gumon olmoshlari ham sifatlarning ma’no turlari sifatida qabul qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberganova Z., Hamidov X. Turk tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. – B. 44.
2. Deny Jean. Türk Dili Grameri (Osmanlı Lehçesi), çev. Ali Ulvi Elöve, Maarif Matbaası, İstanbul, 1941.
3. Ergin Muharrem . İstanbul, Türk Dilbilgisi,Türk Dil Kurumu, Ankara, 1993 – S. 244.
4. Banguog‘lu Tahsin. ,Türkçenin Grameri,T.D. K Yayınları, Ankara, 1998 – S. 341.
5. Gencan Tahir Nejat. Dilbilgisi, Ayraç Yayınları, Ankara, 2001. – S. 198.
6. Ergin Muharrem. İstanbul, Türk Dilbilgisi,Türk Dil Kurumu, Ankara, 1993.
7. Korkmaz Zeynep. Türkiye Türkçesi Kurumu,T. D. K. Yayınları, Ankara, 2003.

International scientific-practical conference: Vol.2 / No. 18.10 (2024).
«PROBLEMS OF RESEARCH AND EDUCATION OF THE UZBEK LANGUAGE».
Proceedings homepage: https://www.myscience.uz/index.php/language

REALIYALARNING SEMANTIK-STRUKTUR XUSUSIYATLARI
(O‘simliklar (floralar) misolida)

Qo‘ziboyeva Go‘zal Saidrasul qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti Lingvistika (O‘zbek tili) mutaxasisligi
II kurs magistri.

Anotatsiya: Ushbu maqolada har bir xalqqa tegishli bo‘lgan milliy koloritini anglatuvchi realiya tushunchasining mohiyati, uning tilshunoslikda tutgan o‘rni, ochib berilgan. Shuningdek, maqolaning asosiy obyekti sifatida o‘zbek xalqigagina tegishli florialarga xos realiyalarni tasniflash masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Realiyalar asosan, xalq turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati bilan aloqadorligi va ularning lug‘at boyligini oshirishda, milliy koloritni aks ettirishda tutgan o‘rni izohlangan. O‘simliklarning lingvomadaniyatimizda mavjud bo‘lgan realiyalarni o‘rganish va ular bilan bog‘liq tadqiqotlar doirasini kengaytirish muayyan tilning ichki taraqqiyot xususiyatlarini o‘rganishda va madaniyatlar orasidagi farqlarni keng yoritishda o‘ziga xos ahamiyat kasb etishi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: realiya, lingvokulturologiya, muqobilsiz leksika, milliy kolorit, etalon, flora,

Kirish. (Introduction) Keyingi davrlarda tilshunoslikda til birliklarining semantik-sturukturasini o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qoldi. Jahon tilshunosligida an’anaviy ravishda ketma-ket ravishda shakllangan paradigmalar katta o‘zgarishlarga: tilning avval etnografik kelib chiqishi, shakklanishiga e’tibor qaratgan bo‘lsa, keying davrlarda uning grammatik qoliplashtirilishi, ma’noviy strukturalashtirishga asosiy masala sifatida qarashgan bo‘lsa, bugungi kunda shu tildan foydalanuvchi va rivojlantirivchi insonlarning qiziqishlari, ichki ruhiy olami va har bir xalqqa tegishli ichki madaniy olami va dunyoqarashi bilan talqin qilish asosiy o‘ringa chiqdi. Bundan ko‘rinadiki, har bir davrdagi paradigmalar o‘z o‘rganish yo‘nalishi va usullariga ega. Shu bugungacha tilshunoslida uch asosiy paradigamalar mavjud bo‘lib: qiyosiy-tarixiy paradigm, system-struktur paradigma va antroposentrik paradigmalardir.

Antroposentrik paradigmaning o‘rganish obyektlari doirasida bugungi kunda tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar: lingvokulturologiya, psixolingvistika, matn tilshunosligi, pragmalingvistika, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabilardir.Uning aosoiy maqsadi til birliklarining milliy-madaniy, siyosiy-ijtimoiy xususiyatlarini aks ettirish, inson ruhiyati, milliy qadriyatlar, an’analarni ifodalash darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Dunyo tilshunosligida bu kabi tadqiqotlarga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ko‘lami tobora ortmoqda. Shunday tadqiqotlar doirasida biz o‘rganishni maqsad qilgan mavzu lingvokulturologiyaning muhim tushunchalaridan biri ***realiyalardir***. Har bir xalqning milliy tilida o‘z aksini topgan milliy realiyalarni lingvomamlakatshunoslik deb ataluvchi fan o‘rganadi. Realiyalarni lingvokulturologiyada muqobilsiz leksika tushunchasi doirasida o‘rganiladi. Muqobilsiz leksika deganda, muayyan xalqning milliy madaniyatiga xos bo‘lgan narsa va hodisalar tushuniladi. Realiya (lotincha) “realya” –“moddiy”, “haqiqiy narsalar” degan ma’noni bildirib, mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud narsalarni anglatadi. Realiyalarni boshqa

yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ham ularning aynan predmet-narsa ma’nosiga ega bo‘lganligidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. (Literature review). Realiyalarni chuqurroq tadqiq etish va ularning milliy vatarixiy koloritni aks ettirish xususiyatlarini o‘rganish harakatlari XX asrning o‘rtalaridan boshlangan. M.L.Vaysburd realiyalarga mamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan to‘xtalib, shunday ta’rif beradi: “Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxona yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko‘plab narsalar nomlaridan iborat” [46] L.S.Barxudarovning yozishicha: “Muqobilsiz leksika -bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to‘liq yoki qisman muqobilga ega bo‘lmasligidir”[47] Yuqoridagi fikrlarga muvofiq tarzda, realiya atamasini o‘zining asl ma’nosida qo‘llaymiz va uning bir qancha semantik-struktur xususiyatlarini ajratib olamiz.

1) xalq ijodi mahsuli ekanligi;

2) muayyan xalq hayotiga (turmush tarzi, madaniyati, ijtimoiy va tarixiy rivojlanishiga) oidligi;

3) boshqa madaniyat vakillari uchun notanish hisoblangan narsa-buyumlarni ifodalashi;

4) milliy va tarixiy bo‘yoqqa ega bo‘lganligi;

5) boshqa tillarda aniq ekvivalentiga ega bo‘lmasligi.

Mana shu fikrlardan kelib chiqqan holda, realiyalarni muayyan xalqning milliy, madaniy, ijtimoiy hayotini, turmush tarzini, boy urf-odat va an’analarini o‘zida yorqin aks ettiruvchi va shu xususiyatlari bilan boshqa xalqlar milliy madaniyatida takrorlanmaydigan, o‘ziga xos birliklardir.

Realiya tushunchasini dastlab madaniyatga xos obyektlar va hodisalar sifatida:

1) Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv;

2) Mamlakatshunoslik nuqayi nazaridan yondashuv.

Rus tarjimashunosligiga 1941-yili Andrey Fedorov kiritdi va ularni “realiya so‘zlar” deb atashni taklif qildi. A.V.Fedorov “realiya” deganda “ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi”, faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi yo‘q bo‘lgan so‘zlar”ni tushunadi” [48] A.D.Shveytser fikriga ko‘ra, realiyalarning o‘ziga xosligi shundan iboratki, ular boshqa til va madaniyat tashuvchilari bilim fondidan tashqaridagi, ya’ni ular uchun begona bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi.[49]

Tahlil, natijalar va metodlar (Analysis, results and method). Realiyalarning tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, biz maqolaning obyekti sifatdida olgan ***o‘simliklar (flora)*** misolida o‘zbek xalqiga tegishli milliy madaniy etalon sifatida shakllangan o‘simliklar nomlari va ular bilan bog‘liq ***frazema, maqol va badiiy asar***lardan olingan misollar yordamida: ***qiyosiy, komponent va tavsifiy metodlar*** yordamida ochib beramiz. O‘z-o‘zidan ma’lumki, muayyan xalq turmish tarzini ifoda etadigan so‘zlargina bunday tushuncha mavjud bo‘lmagan realiyalar asliyatdagi shaklini doim saqlab qolgan holatda tarjima qilinishi kerak. Har bir xalqning milliy etaloni sifatida shakllangan floriyalarni ***“andiz”, “ajriq”, “sedana”*** kabi misollarni o‘zbek turmush tarzida shakllangan tushunchalarni misol keltirishimiz mumkin.

[46] ВайсбурдМ. Л. Реалиикакэлементстрановедения// Русскийязыкзарубежом.1972No3.С. 98-100.
[47] БархударовЛ.С. Языкиперевод. М.: Междунар. отношения, 1975. Б-59
[48] ФёдоровА.В. Основыобщейтеориипереводa. М.: Высш. шк., 1983. С 160
[49] ШвейцерА.Д. Теорияперевода, статус, проблемы, аспекты. М.: Наука, 1988. С 153

Andiz. Bu o‘simlik milliy lingvomadaniy lug‘atimizda mavjud bo‘lib, bu so‘z necha asrlardan buyon mavjud ekanligini va bu so‘z bugungi kunda ham huddi shunday holatda ishlatilishini quyidagi ma’lumotlardan bilib olishimiz mumkin.

a) Mahmud Koshg‘ariy andizni “***angduz***” shaklida keltiradi. “Angduz – yerdan qazib olinadigan o‘simlik ildizi. Otlarning qorin og‘rig‘iga davo qilinadi”, –deb izohlaydi.

b) Andiz o‘sgan yerlarda, otlar bevaqt o‘lmag‘ay,

Yaxshi bo‘lsa ayollar erlar yuzi so‘lmag‘ay. Azim Suyun qalamiga mansub ushbu she’riy parchadan ham ko‘rinib turibdiki, bu o‘simlik o‘z xususiyatlari bilan bizning milliy realiyamizga aylangan.

Ajriq. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da “***ajriq***” so‘zining tub ildizi “***ajrat***” so‘ziga borib taqalishi haqida aytilgan. Ajriq nihoyatda chidamli o‘simlik, yashovchanlik borasida bunaqasini topish qiyin. Usta Jo‘ra degan qadrdonimdan eshitganmanki, ajriq aytar ekan: “Agar qirq yil laylakning uyasida yotsamda, bir kun yerga tushib, bag‘rim suvga tegsa, bas, ko‘karaman”.[50] Mahmud Koshg‘ariy ham, Alisher Navoiy ham bu so‘zga to‘xtalib o‘tganlar. Mahmud Koshg‘ariy arablar “***sil***” deydi, turklar ***“azriq”*** o‘g‘uzlarda “***ayriq***” kabi ma’lumotlarni keltirganlar.

Navoiyning “Sabbai sayyor” dostonida “***ajriq”*** shunday keladi:

Orada bo‘lg‘an o‘lsa tufroq rust,

Asrag‘an bo‘lsa ***ajrig‘*** *ani durust.*

Bu kabi ma’lumotlarni talaygina keltirib o‘tishimiz mumkin. Bu o‘simlik doimiy ravishda ishlatiladigan realiya ekanligini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Arpa. Arpa ko‘p asrlardan buyon xalqimizning naql, maqol, ibora va xalq og‘zaki ijodida faol ishlatiladigan bu donli o‘simlikni ham biz hech ikkilanmasdan realiya sifatidan olishimiz mumkin.

a) Arpa-bug‘doy bir kuningga yaraydi,

Sodiq do‘sting o‘lguningcha yaraydi.

b) Haromzoda bug‘doy ko‘rsatib, arpa sotar. Kabi maqollarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Boychechak. O‘zbek xalqida bahorning birinchi elchisi sifatida ardoqlanadi. Uni xalq qo‘shiqlarida asosiy obraz sifatida jonlantirilgan o‘simligi ham deyishimiz mumkin. Bu o‘simlik asrlar davomida lingvomadaniy jabhalarimizda asosiy kalorit vazifasini bajarib kelmoqda.

Qattiq yerdan tatalab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.

Bug‘doy. Beixtiyor bug‘doy so‘ziga to‘xtalar ekanmiz inson yaralishiga (Odam Ato) doir rivoyatlarda ham bu o‘simlikni uchratishimiz mumkin. Bundan tashqari o‘zbek xalqiga nisbatan ham bug‘doy ranggiga o‘xshash sifatlanish berish milliy qadriyatlarimizda mavjud.

a) Qoramiq donasi bo‘lguncha,

Bug‘doyning somoni bo‘l.

b) Bug‘doy noning bo‘lmasin,

Bug‘doy so‘zing bo‘lsin.

c) O‘zgani bug‘doy bilsang,

[50] Eshqobil Shukur. Bobo so’z izidan. T.: B-203

O‘zingni somon bil. Kabi maqollardan ham anglashimiz mumkinki, bug‘doy o‘zbek xalqiga tegishli realiya hisoblanadi.

Bo‘tako‘z. Ilmiy tilde “begona o‘t” talqini berilib, asosan bug‘doyzorlarda o‘sadigan bir yillik o‘simlik gul hisoblanadi. Bu o‘simlikni realiya qilib olishimzga xalq orasida ko‘zlari katta, dumaloq bo‘lgan chaqaloqlarga “Bo‘tako‘z” ismi qo‘yilishini misol qilib olishimiz mumkin. Bu o‘simlik gullagan vaqtida juda chiroyli ko‘rinishda bo‘ladi, eshitilishida biroz salbiylik bo‘lsada.

Isiriq. Xalq tabobatida bu o‘simlikdan bugungi kunga qadar barcha foydalanib kelmoqda. Bundan tashqari ins-jinsni qochirish, “yomon ko‘zdan saqlash” va shu kabi maqsadda isiriq tutatib, kishi boshi (atrofi)dan, xona ichida aylantirishadi.

a). “Kampir, mehmonlar chiqib ketishi bilan, suyukli kuyoviga isiriq soldi. Saida Zunnunova “Go‘dak hidi”,

b). “Lutfiniso dam o‘tmasdan kelib, goh “yomon ko‘zdan saqlashi uchun isi-riq tutattirar, goh qizini quchib yig‘lar.. edi. Oybek, “Tanlangan asarlar”.

c). Isiriq — grippga qarshi yaxshi narsa. Kim uni eskilik desa, xato qiladi. Mirmuhsin, “Umid”.

Javdar. Manbalarda javdar so‘zi yovvoyi qora bug‘doy deb izohlangan. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da izohlanishicha, bu so‘z “jaydari” so‘zi bilan bir xil bo‘lib, asli “mahalliy” degan ma’noni anglatadi. Demak, “jaydari” so‘zi asli “javdar”, “javdari” so‘zlaridan kelib chiqqanligini keltirib o‘tishimiz mumkin. Milliy koloritlarimizda “javdar non” kabi misollar mavjud bu “jaydari bug‘doy” kabi ma’nolarni izohlashimiz mumkin.

Tikan bilan Yantoq. Yantoq o‘simligi cho‘l hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, qadimdan bu o‘simlikni siqib suvini ichishgan. Yantoq so‘zining sinonimi tarzida xalq shevalarida “tikan” so‘zini ham uchratishimiz mumkin. Sababi bu o‘simlikning bor tanasi tikanlardan tashkil topganligidir.

a). Ahmoqning orqasida bir dasta yantog‘i bo‘lmas.

b). Yantoqdan atir chiqmas,

Qo‘rqoqdan — botir.

c). Tikan zahri uchida,

Dushman zahri ichida. Bu maqollar zamirida yantoq o‘simligining milliy realiya hisoblashimizga asosiy dalillar hisoblanadi.

Qoramiq. Bu o‘simlik g‘allazorlarda o‘sadigan, zaharli bir yillik begona o‘t hisoblanadi. Shundan ko‘rinib turibdiki uning begona kerkasiz o‘simlik bo‘lganligi uchun ham xalq og‘zaki ijodimizdagi maqollarda ham salbiy bo‘yoq bilan ishlatilmoqda.

Qoramiq donasi bo‘lguncha,

Bug‘doyning somoni bo‘l.

Zahar-zaqqum. “Do‘zaxt daraxti”, Tilimizda “zaxar-zaqqum” birikmasi tez-tez ishlatilib turadigan milliy etalon. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da izohlanishicha, zaqqum asli zaharli daraxt, o‘simlik. Ushbu so‘zni Alisher Navoiy ham “zaqqumi jahm” tarzida – “do‘zaxt daraxti” ma’nosida “Lisonut –tayr” asarida shunday qo‘llaydi:

Chun xarita boshini ochdi laim,

Kim yig‘ilmish erdi zaqqumi jahim.

Kuchala yegan joyingga borib tirish (qilig‘ingni ichgan (kayf qilgan) joyingga borib qil), kuchala yegan itdek iboralari xalqimizda qadimdan qo‘llaniladi. Masalan “Agar ichkilik ichgan

bo‘lsang, ***kuchala*** yegan joyingga borib tirish”, demoqchi bo‘ldi-yu, aytmadi. (R. Fayziy, “Hazrati inson”)

Chakidaxo‘r mulla Sodiqoxun tuzoqlariga tushadigan ahmoq topolmasdan, ***kuchala*** yegan itdek tirishib qoldilar. (“Mushtum” jurnalidan).

Kuchala yegan kabi tirishib, buzog‘i teskari kelgan sigirdek to‘lg‘anadi va ihraydi. (A.Qodiriy, Kichik asarlar)

Kuchala yegan itdek buncha tirishasan (iboradan).

Xulosa. Milliy xususiyatlarda til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘zga yaqqol tashlanadi: Jamiyatning moddiy hamda madaniy hayotida yangi milliy so‘zlarning paydo bo‘lishi tilda o‘shanga mos so‘zlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bir millatda yangi realiyalar paydo bo‘lsa va ular lug‘atlarga kiritilsa realiyalar o‘zlashtirilgan ya’ni bunday so‘zlar shu millatning milliy so‘ziga aylangan hisoblanadi. Realiyalarning ajralib turuvchi xususiyati ularning predmet-narsa ma’nosiga ega bo‘lganligidir. Realiya bu moddiy mavjud bo‘lgan yoki hozir ham mavjud predmet-narsadir. Milliy xusiyatlar esa bir millatga xos birliklar hisoblanib boshqa bir millatda bu xususiyatlar uchramaydi. Lug‘aviy izohlarga ko‘ra “realiya - moddiy-madaniy narsalardir”. Tilshunoslik hamda tarjimashunoslikda esa predmetlarni ifoda etuvchi so‘z va iboralar hamda shu so‘zlarni o‘z ichiga olgan qotib qolgan ibora - realiyalar deyiladi. Shunday qilib, milliy xususiyatlar tasnifi muammolarini, turli nuqtai nazarlarni ko‘rib chiqib, bu masala adabiyotda milliy xususiyatlarning va realiyalarning tematik tamoyil asosida guruhlarga ajratish usuli sifatida juda mustahkam o‘rnashib qoldi.

Realiyada til va madaniyat o‘rtasidagi yaqinlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotida yangi realiyalarning paydo bo‘lishi tilda realiya vujudga kelishiga olib keladi. Leksika ijtimoiy hayotning barcha o‘zgarishlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi sababli tilda yangi realiyalarning paydo bo‘lish paytini aniq aytish mumkin. Biroq bir vaqtning o‘zida eng oddiy tushunchalarni ifodalay turib, shu bilan birga mazmuniy va hissiy “fonli” nozik farqlarni ham ifodalovchi ko‘pgina so‘zlar mavjud

Shuni aytib o‘tish joizki, realiya atamasining keng qo‘llanilishiga qaramay, tadqiqotchilar na lingvistikada, na metodikada realiyani ta’riflovchi yetarlicha aniq kriteriyalarning yo‘qligini hamda ushbu realiyalarni belgilovchi til birliklarining spesifikasi umuman o‘rganilmaganini ta’kidlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бархударов Л.С. Язык и перевод. М.: Междунар. отношения, 1975.
2. Вайсбурд М. Л. Реалии как элемент страноведения// Русский язык зарубежом. 1972No3.
3. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. М.: Высш. шк., 1983.
4. Швейцер А.Д. Теория перевода, статус, проблемы, аспекты. М.: Наука, 1988.
5. Eshqobil Shukur “Boboso‘z izidan”
6. R. Fayziy. “Hazrati inson”
7. A. Qodiriy. “Kichik asarlar”
8. Alisher Navoiy “Lison ut tayr”.
9. Alisher Navoiy “Sabbayi sayyor”
10. Mahmud Koshg‘ariy “Devoni lug‘oti turk”
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.

“TA’VIZ-UL OSHIQIN” DEVONIDAGI ANTONIMIK BIRLIKLAR TAHLILI

Jumaboyeva Dilfuza Alisher qizi
O‘zMu O‘zbek filologiyasi fakulteti
Nazariy tilshunoslik yo‘nalishi magistranti.
E-mail: dilfuzajumaboyeva2@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada antonimik birliklar tabiati, tuzilishi, ularning matnda qo‘llanilishi, inversiya hodisasiga egaligi Muhammad Rizo Ogahiyning „Ta’viz-ul oshiqin” devoni misolida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, devonda qo‘llangan antonimlarning o‘ziga xosligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: antonimiya, lug‘aviy antonimlar, affiksal antonimlar, frazeologik antonimlar, kontekstual antonimiya.

Annotation: The article examines the nature and structure of antonymic units, their use in the text, and the ownership of the inversion phenomenon on the example of Muhammad Reza Ogahiy’s book “Ta’viz-ul Ashiqin”. Also, a few words are said about the uniqueness of the antonyms used in the book.

Keywords: antonymy, lexical antonyms, affixal antonyms, phraseological antonyms, contextual antonymy.

Аннотация: В статье рассматривается природа и структура антонимических единиц, их употребление в тексте, а также актуальность явления инверсии на примере книги Мухаммада Резы Огахи «Тавиз-уль Ашикин». Также говорится об уникальности антонимов, использованных в стихотворении.

Ключевые слова: антонимия, лексические антонимы, аффиксальные антонимы, фразеологические антонимы, контекстуальная антонимия.

So‘zning ma’no turlari bo‘lgan antonim, sinonim, paronim, omonimlardan foydalangan holda go‘zal badiiy san’atlar yaratish an’anasi qadimdan mavjud. Xususan, badiiy adabiyotda ikki narsani bir-biriga qarshilantirish tazod san’atini vujudga keltiradi. Borliqdagi barcha narsalar qarama-qarshilik, zidliklar asosida maydonga kelgan. Bir narsaga baho berishda, albatta, uning ziddi hayolimizdan o‘tadi. Masalan, kecha haqida o‘ylasak, kunduz tafakkurimizda namoyon bo‘ladi yoki mazali meva yeganimizda, albatta, bemaza, taxir ta’m ham xayolimizda jonlanadi. Tilshunoslikda bunday qarama-qarshilik hodisasi antinomiya deb yuritiladi. Antonimlar doimo ikki qismdan iborat bo‘ladi. “Antinomiya – mantiqan har biri isbotlanadigan ikki qonun, mulohaza yoki xulosa o‘rtasidagi ziddiyat“.[O'TIL, 2006;88] Antinomiya hodisasi ravish, sifat va fe‘l so‘z turkumlari doirasida ancha keng qo‘llanadi. Ot so‘z turkumi doirasida antonimlar, asosan, abstrakt otlarda uchraydi, masalan, qayg‘u-shodlik, boylik-kambag‘allik kabi. Predmetni nomlagani uchun konkret otlarda antinomiya kuzatilmaydi, Konkret otlar ichida tomon nomlari (sharq-g‘arb, shimol-janub), fasl nomlarida, sutkaning qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi nomlarda (kecha va kunduz, kun va tun) antonimlik munosabatini ko‘rish mumkin.[Komilova, 2021; 6]

Chun manga lutf aylab ul marg‘ub olam bo‘ldi do‘st,
Barcha olam ahli dushman bo‘lsa ne g‘amdur mango.

Yuqoridagi baytda do‘st va dushman so ‘zlari antonimiya hodisasini hosil qilmoqda va shoir bu bilan tazod badiiy san’atini qo‘llab ma’no kuchaytirishga erishgan.

Muhammad Rizo Ogahiy o ‘z ijodi davomida bunday til birliklaridan “ko‘p va xo‘p” foydalanadi. Devondagi fe’l so‘z turkumi doirasidagi antonimlarni tahlil qilar ekanmiz, ularning qanchalik mahorat bilan qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz.

Zafar suvyi bila qahri qilichin obdor aylab,
Hamul sel ofatidin kufr eli mulkini vayron et.

Baytda “*obdor aylamoq*” va “*vayron etmoq*” fe‘llari o‘zaro zidlanmoqda. “*Obdor*” so‘zi forscha so‘z bo‘lib, *ob-suv* so‘zi, *-dor-li* ya’ni biror narsa me’yoridan ortiqcha ekanligi ma’nosini beruvchi qo‘shimcha bilan birikib “suvli” ma’nosini beradi. “*Obdor qilmoq*” fe’li esa “*sug‘ormoq*” ma’nosini beradi. Bayt mazmuni esa, “***G‘alaba suvi bilan qahr qilichini suvla va kufr keltirganlar yurtini sel suvi bilan vayron et***”. Bunday fe’lli antonimik birliklarni ko‘plab keltirishimiz mumkin: vafo qilmoq-jafo qilmoq, pinjon etmoq-fosh etmoq, o‘lukni tirguzmak-tirikni o‘lturmak va boshqalar.

Ba’zi holatlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri antonimlik kuzatilmasligi mumkin, ya’ni zidlanayotgan so‘zlar matndan tashqarida zidlikni hosil qilmasligi mumkin, lekin muallif ularni kontekstda o‘zaro zidlaydi va antonimiyani hosil qiladi. Bunday antonimiya kontekstual antonimiya deb yuritiladi:

Yuz mashaqqat yeturub, oxir alifdek qaddim
Qildi xam o ‘yladi dard ostidag ‘i dol firoq. [Ogahiy, 1972;168]

Yuqoridagi misrada alif (ا)va dol (د)so‘zlari, ya’ni arab alifbosidagi ikki harf kontekstual antonimiyani yuzaga keltirmoqda. Matndan alohida ular qarama-qarshilikka ega emas, shoir ularning shakliga ishora qilgan holda qarama-qarshilik hosil qiladi. Badiiy adabiyotda arab harflaridan foydalangan holda go‘zal o‘xshatishni qo‘llash kitobat san’ati deb yuritiladi. Yana boshqa tur antonimlar ham borki, ular matndan tashqarida ham antonimik juftlik hosil qila oladi.

Jonni ishqing domig ‘a band aylabon, ozod qil
Kim, havo zanjirini nafs aylamish mahkam ango. [Ogahiy, 1972;88]

Baytda *band aylamoq* va *ozod qilmoq* fe’llari o‘zaro zidlanmoqda, bunda mutlaq antonimiya hodisasi yuz bermoqda, ya’ni bu ikki so‘z baytdan tashqarida ham antonimlik hosil qila oladi. Devonda ushbu so‘z turkumi doirasidagi antonimlar ancha salmoqlidir.

Antonimlarni leksik va affiksal turlarga bo‘lib tadqiq etish maqsadga muvofiq, chunki so‘z antonimlari singari qo‘shimchalarning ham qarama-qarshi turlari anchagina. Bundan tashqari uchinchi tur ham borki, uning ma’nosi qolgan ikki turga nisbatan kengroqdir. Demak, antonimlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1.Lug`aviy antonimiya;
2.Affiks antonimiya;
3.Frazeologik antonimiya.

Antonimlar mohiyatini yanada chuqurroq anglash uchun uni so‘z turkumlariga bo‘lgan holda tahlil qilish anchayin samarali hisoblanadi. So‘z maqomidagi antonimlar lug‘aviy (leksik) antonimlar, qo‘shimcha maqomidagi antonimlar esa affiks antonimlar sanaladi. [Nurmonov, Sobirov, Yusupova, 2015 ; 233]

Ot so‘z turkumi doirasidagi antonimlar.

a) belgi otlarida: *boylik va kambag‘allik, botirlik va qo‘rqoqlik;*

b) fasl nomlarida: *yoz va qish, kuz va bahor;*

c) sutkaning qarama-qarshi tomon-larini ifodalovchi nomlarda: *kecha va kunduz, tong va shom kabi*. [Jamolxonov, 2005; 170] Devondan bu turkum antonimlarga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin: *do‘stliq-dushmanlig‘, g‘am-shodlig‘, xurram-mahzun, shodonlig‘-andux, yorsizlik-yorlig‘*:

Yorsizlik darsdig‘a sabr aylamaklik yaxshikim,
Yorlig‘ istab vafosizlarg‘a yor o‘lmoq abas. [Ogahiy, 1972;133]

Xazon-bahor, qish-yoz:

Qish fasliki tab’ining maxsusi burudatdur,
Har nechaki o‘t yoqsang islohig‘a yoz o‘lmas. [Ogahiy, 1972;231]

Subh-shom, tun-kun, shom-sahar, zulmat-tong, shom-tong:

Zulmat obihayvonni sar-basar nihon etmish,
La ‘li ruh baxshingni tong yo ‘q etsa pinhon xat. [Ogahiy, 1972;130]

Bu turkum doirasida qo‘llanadigan antonimlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, ular turg‘un bog‘lanishga ega emas ya’ni ikkisi ham, ko‘pincha, bir-birining sinonimlari bilan qo‘llana oladi. Masalan, devon tarkibida kelgan *shoh va gado* birliklari keyingi baytlarda *sulton va gado* yoki *sulton va qul* shakllarida qo‘llangan. Shoir bunday birliklardan ko‘p o‘rinlarda foydalanadi: *subh-shom, shom-sahar, bog‘-dasht, bog‘i eram-sahro, do‘st-raqib, do‘st-dushman, tun-kun, chin so‘z-bo‘xton, ro‘z-shab, ibtido-intiho, hayot-mamot, rohat-mehnat, yorsizlik-yorlig‘, jafo-mehr:*

Na xusumat aydikim, har dam ochib shikva tilin,
Do‘stim olida aylar mani mazmun raqib. [Ogahiy, 1972;114]

Sifat so ‘z turkumi doirasidagi antonimlar turli belgilarga ko ‘ra qarama-qarshilik hosil qiladi:

Hajm belgisiga ko ‘ra: *oz-ko ‘p;*

Yosh belgisiga ko ‘ra: *qarri-yigit;*

Xarakter-xususiyat belgisiga ko‘ra: *tiyra-ravshan, dono-nodon, hushxol-xomush, oshkora-nihon, chin-yolg‘on, mushkil-oson, badxol-hushxol;*

Shakl belgisiga ko ‘ra: *alif-nun (ushbu arab harflari devonda shakl belgisiga ko‘ra antonimiyani hosil qiladi);*

Rang belgisiga ko ‘ra: qaro-oq.

Ul qaro ko‘z boqmasa, baxting qarosi bo‘lmas oq,
Bu qaro etmish oning ko‘zi qarosidin sango. [Ogahiy, 1972; 69].

Fe’ling bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllariga ayrim manbalarda antonimlar sifatida qaraladi. Tilshunos olim Sh. Rahmatullayev fikriga ko‘ra, ularni antonimlar deb bo‘lmaydi, ular bir fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllaridir, antonimik birlikda esa ikki mustaqil leksema ishtirok etishi lozim. Mazkur maqolada ham antonimik birliklar masalasiga shu pozitsiyada yondashildi. Devonda bunday birliklarni ko‘plab uchratamiz: *muborak-nomuborak* (ot so‘z turkumi doirasida ham bir leksemaga qo‘shimcha qo‘shish natijasida hosil qilingan ma’nosi zid qismlar ham antonim bo‘la olmaydi), *hunar-behunar, o‘lturdi-o‘lturmadi,yoritur-yorutmas:*

Yuzi shomi firoqim yoritur, xurshid yorutmas,

Ango demak g‘alatdur mehri rahshong‘a barobar yuz. [Ogahiy, 1972;209]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, so'zning ma'no munosabatiga ko'ra turlari,xususan, antonimlardan foydalangan holda istioralar,tashbehlar yaratish an'anasidan barcha davr shoirlari o'ziga xos uslubda foydalanib kelganlar, ayniqsa,biz yuqorida tahlil qilgan Ogahiy asarlarida bu o'ziga xoslik yaqqol namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева Д. (2010) Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореферат – Тошкент.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006
3. Jamolxonov H. Hozirgi o ‘zbek adabiy tili. – T.: “Talqin”, 2005.
4. Komilova G. Antonim so ‘zlar vositasida qadriyat va bahoning ifodalanishi. – T.: ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2021.
5. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.,1972.
6. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi ozbek adabiy tili darslik. – T.: “ILM ZIYO”, 2015.

O‘ZBEK VA TURK TILLARIDA MODAL SO‘Z-GAPLAR

Isoqulova Qunduz Nurbobo qizi
O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti
Lingvistika: o‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti.
E-mail: isoqulovaqunduz98@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada so‘z-gaplar tushunchasiga izoh berib o‘tilgan. Shuningdek, modal so‘z-gaplar, modallik tushunchasi, modal so‘z-gaplarning ma’noviy guruhlari va sintaktik xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, modal so‘z-gaplarning turk va o‘zbek tillarida ifodalanishi, o‘xshash va farqli jihatlari keng miqyosda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z-gaplar, modal so‘zlar, undov so‘zlar, tasdiq-inkor so‘zlar, taklif-xitob so‘zlar.

Annotation: The article provides an explanation of the word-sentence concept. Also, the concept of modal word-sentences, modality, syntactic features of spiritual groups and modal word-sentences are illuminated, while expressions, similarities and differences of modal word-sentences are widely revealed in Turkish and Uzbek.

Keywords: words-sentences, modal words, exclamatory words, affirmative-negative words, invitation-exclamatory words.

Аннотация: В статье дается пояснение к понятию слово-предложение. Также освещены модальные слова-предложения, понятие модальности, духовные группы и синтаксические особенности модальных слов-предложений, широко раскрыты выражения, сходства и различия модальных слов-предложений в турецком и узбекском языках.

Ключевые слова: словосочетания, модальные слова, восклицательные слова, утвердительно-отрицательные слова, восклицательные слова.

Kirish. Mamlakatimizda oqilona til siyosatini amalga oshirish eng muhim masalalardan biri hisoblanayotgan hozirgi vaqtda tilimizning o‘ziga xos jihatlarini yanada chuqur tadqiq etish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Zero, “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada ,avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”. Shu jihatdan yondashadigan bo‘lsak, miqdoran u qadar ko‘p bo‘lmagan, biroq nutqda qo‘llanilishi juda faol bo‘lgan so‘z-gaplar har bir tilning ifoda imkoniyatlarini, ma’no tovlanishlarini o‘zida aks ettiradigan o‘ziga xos tizimdir. Til ilmida e’tirof etilganidek, muayyan lisoniy tizimning mohiyati uni boshqa tilga qiyoslaganda yanada chuqurroq namoyon bo‘ladi. Bu borada so‘z-gaplarni semantik jihatdan boshqa tillar bilan qiyoslab o‘rganish ona tilimizning o‘ziga xos jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun mazkur lisoniy birliklarning mohiyati, qardosh tillar materiallaridagi struktur-semantik tipologiyasi va sotsiolingvistik xususiyatlari, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini tadqiq etish qiyosiy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Modal so‘z-gaplar tilshunoslar diqqatini doim o‘ziga tortib kelgan. *Modal ma’no, modallik* tushunchalarining mohiyati ochilgan, izohlarga aniqliklar kiritilgan. Ammo, modallik kategoriyasi va uning asosiy tushunchalari haqida tilshunoslarning fikri bir xil emas. Masalan, modal so‘zlar “so‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini”, “gapda ifodalangan fikrning voqelikka munosabatini”, “so‘zlovchining gapda ifodalangan fikr chinligiga munosabatini”, “so‘zlovchining gapda ifodalangan voqeaga bahosini” [G‘ulomov, 1940; 65] ifodalagan ma’no deb talqin qilingan. Maxsus lug‘atlarda ham bu tushunchalar turlicha talqin qilingan. Masalan, O.S.Ahmanova o‘zining lingvistik terminlar lug‘atida modal so‘zlar turli xil fonetik, leksik, grammatik vositalar orqali so‘zlovchining anglatayotgan fikriga, anglatilayotgan fikrning voqelikka munosabatini ongimizda gavdalantiradigan tushuncha kategoriyasi deb izohlasa, M.V.Lyapon qomusiy lingvistik lug‘atida chop etilgan maqolasida esa modallikni anglatilayotgan fikrning voqelikka bo‘lgan turli xil munosabatlarini hamda anglatilayotgan fikrga beriladigan turli xil subyektiv baholarni ifodalaydigan funksional-semantik kategoriya deb talqin qiladi.

Modallik (lot. modalis - o‘lchov, usul) - fikrning voqelikka bo‘lgan munosabatlarining turli xil ko‘rinishlarini, shuningdek, bildirilayotgan narsalarning subyektiv tarzda tasniflanishining turlicha ko‘rinishlarini ifodalovchi funksional-semantik kategoriya. “Modallik” tushunchasini fanga Aristotel olib kirgan. “Modallik” termini ma’naviy hajmi, grammatik xususiyatlari hamda til qurilishining turli sathlarida shakllanganligi darajasiga ko‘ra xilma xil bo‘lgan hodisalarni ifodalash uchun qo‘llanadi. Modallik shaxs va zamon ma’nolari bilan birgalikda predikativlik kategoriyasini hosil qiladi. Modallik obyektiv va subyektiv bo‘lishi mumkin. Obyektiv modallik bildirilayotgan fikrning voqelikka munosabati (real va noreal, imkoniyat va imkonsizlik, zaruriyat va ehtimollik kabi)ni anglatadi hamda grammatik va leksik vositalar (mayl, modal so‘z, yuklama, intonatsiya) yordamida ifodalanadi. Subyektiv modallik esa so‘zlovchining aytilayotgan fikr (ishonch yoki ishonchsizlik, rozilik yoki norozilik, ekspressiv baho)ga munosabatini ko‘rsatadi va so‘z tartibi, intonatsiya, leksik takror, modal so‘z, yuklama, undov, kirish so‘z, so‘z birikmasi va kirish gaplar bilan ifodalanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘z-gapning ma’noviy guruhlariga kiruvchi modallar “So‘zlovchining bayon etilayotgan fikriga munosabati qat’iy ishonch, gumon, taxmin kabi ma’nolarni ifodalab keladi” va ularga albatta, shubhasiz, xullas, demak, chamasi, tabiiy, ehtimol, shekilli kabilar misol bo‘la oladi. Ularning ko‘pchiligi boshqa so‘z turkumidan tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘ziga xos nutqiy qo‘llanish natijasida shakllangan va rivojlangan. Chunonchi, so‘zsiz, tabiiy so‘zi sifatdan, albatta ravishdan o‘sib chiqqan bo‘lsa, har qanday, har holda modal so‘z-gapi so‘z birikmasidan, nasib bo‘lsa, xudo xohlasa kabilar gapdan kelib chiqqan. O‘zbek substansial tilshunosligida modal so‘z-gap [W^]-lashgan (modallashgan) so‘zlar, [W^] –lashayotgan (modallashayotgan) so‘zlar va [W^] –simon (modalsimon) so‘z-gapga ajratilib o‘rganilgan. [Bobokolonov,2000;74] [W^]–lashgan (so‘z-gaplashgan) so‘z o‘z semantik-funksional xususiyati bilan har xil guruhning markaziy leksemasiga yaqin turadi, lekin o‘z aloqasini boshqa so‘z turkumlaridan to‘la-to‘kis uzmagan bo‘ladi. Jumladan, modallashgan so‘zga chamasi, chog‘i, ehtimol kabi leksemalar misol bo‘ladi.[W^] –lashayotgan (so‘z-gaplashayotgan) so‘z so‘z-gapga to‘la to‘kis o‘tgan bo‘lmaydi va o‘tish yo‘lida turgan bo‘ladi. Bu o‘rinda modallashayotgan so‘zlarga balki, hatto, aftidan kabi so‘zlarni misol keltirish mumkin. 1.Balki, siz aytarsiz nima bo‘lganini? (P.Tur) Nafsi uchun emas, balki qadri

uchun yig‘laydi-da. (O‘. Usm) [W^] –simon (so‘z-gapsimon) deganda mohiyatan so‘z-gap bo‘lmagan lug‘aviy birlikning so‘z-gap vazifasida kelishi tushuniladi. Jumladan, modalsimonga shunday qilib, baxtga qarshi, tavba, xudo saqlasin ko‘rinishli so‘zlar misol bo‘ladi. Qisqacha izohlaganda, so‘z-gapning leksik semantik turi bo‘lmish sof modal so‘z-gap o‘zi tarixan kelib chiqadigan so‘z turkumidan batamom uzilgan bo‘lib, uning ko‘pchiligi sifat, ravish, ot sifatida aslo qo‘llanilmaydi. So‘z-gaplashgan modal so‘z-gaplar esa o‘zi tarixan kelib chiqqan so‘z bilan shakldoshlik munosabatida bo‘lib, boshqa turkum bilan o‘z aloqasini butunlay uzmagan holda bo‘ladi. So‘z-gaplashayotgan modal so‘z-gap o‘zi asli boshqa so‘z turkumi (sifat, ravish, son, olmosh, ot) ga tegishli, ammo so‘z-gaplarga xos bo‘lgan mohiyat va vazifada qo‘llana oladigan birliklardir va ularning so‘z-gapsimon modallardan farqi shuki, ushbu qatlamga oid birlik tarixiy taraqqiyot natijasida to‘la-to‘kis so‘z-gapga o‘tib ketishi mumkin. So‘z-gapsimon modal esa, o‘z turkumi doirasida qoladi.

Kononov modal so‘zlarni quyidagicha guruhlaydi:

1. Afsus, quvonch, ajablanish kabi modal harakatlar: afsuski, nahotki,
2. Aniqlik, ikkilanish, taxmin ifodalovchi modal so‘zlar: shubhasiz, albatta, mutlaq, menimcha, ehtimol,
3. O‘rtaga qo‘yilgan fikrning kelib chiqishi: nazarimda, so‘zingizga ko‘ra,
4. O‘rtaga qo‘yilgan fikrning oldingi fikr bilan bog‘lanishi: aytgancha, ya’ni,
5. Fikrning tartibi; birinchi navbatda, avvalo,
6. Qiyoslash: go‘yo, xuddi shunday, go‘yoki,
7. Ma’qullash va rad etishni ifodalovchi modal so‘zlar: ha, yo‘q [Kononov, 1956; 346].

Bizning nazarimizda, modal so‘zlar so‘zlovchining aytilayotgan gap mazmuniga va gapning voqelikka munosabatini anglatuvchi ma’nolar kategoriyasidir. Shuningdek, u so‘zlovchining obyektiv borliqqa munosabati bo‘lib, shu obyektiv borliqni so‘zlovchi o‘z ongida aks ettiradi va o‘z munosabatini har xil semantik kategoriyalar yordamida bayon etadi. Shunga asoslangan holda hozirgi zamon tilshunosligida modallik avvalo obyektiv va subyektiv turlarga ajratiladi. Obyektiv modallik subyektiv modallikka zidlanadi va bunday zidlanish orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.*Obyektiv modallik*, tilshunoslarning ta’kidlashlaricha, aytiladigan barcha fikrlarga tabiatan xos predikativlik, *gap* tuzilishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan kategoriyalardan biri. Obyektiv modallik anglatiladigan xabarning voqelikka bo‘lgan munosabatini real (amalga oshganligi, oshayotganligi, oshajakligi) va irreal (amalga oshmaganligi, oshmayotganligi, oshmayajakligi) nuqtai nazaridan ifodalaydi. So‘zlovchining anglatiladigan voqeaga munosabati tilshunoslikda *subyektiv modallik* deb yuritiladi. Obyektiv modallikdan farqli o‘laroq, subyektiv modallik aytiladigan gapning fakultativ belgisidir. Subyektiv modallikning semantik ko‘lami obyektiv modallik ko‘lamidan kengroq. Subyektiv modallikdagi ma’nolar tabiatiga ko‘ra turli xil bo‘ladi va uning semantik asosini keng ma’noda anglashiladigan *baho* tushunchasi tashkil qiladi. Bu tushuncha xabarga beriladigan mantiqiy (intellektual , ratsional) va turli xil emotsional (irratsional) ma’no qirralarini o‘z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. Modal so‘z-gapning sintaktik xususiyati kesimlik qo‘shimchasini qabul qilmasligi, bog‘lamalar bilan birika olmasligida. Modal so‘z-gapning yana bir sintaktik xususiyati shundaki, [WPm] qurilishi gapda kesimlik kategoriyasi va ma’nosi [W] ga [Pm] orqali kiritiladi, (m)ning o‘zbek tilida juda ko‘p ko‘rsatkichi mavjud. Shakl o‘zgarishi bilan kesimlik kategoriyasining ma’nosi o‘zgaradi. Masalan, bo‘ladi-bo‘lmaydi-bo‘lsa-bo‘ldi. Biroq

so‘z-gapda bunday emas. Har bir so‘z-gap shu gapga xos bo‘lgan ma’noni ifodalashga xoslangan bo‘ladi. Shubhasiz, albatta modal so‘zlari qat’iy ishonch va tasdiqni ifodalasa, aslo, mutlaqo kabi modallar inkor ma’nosini bildiradi. Modal so‘z-gapda zamon va shaxs ma’nosi matn orqali muayyanlashadi. O‘zbek tilida gap (kesimlik) zamon va shaxs ma’nosidan holi bo‘la olmaydi. Jumladan, modal so‘z-gaplarning asosiy sintaktik xususiyati shundaki, kesimlik qo‘shimchasini qabul qilmay turib ham gap bo‘lib kela oladi. Uning yana bir sintaktik xususiyati gap tarkibida alohida o‘rinda bo‘lishi, ya’ni boshqa bo‘laklar bilan bog‘lanmasligi va o‘zi gap sifatida bo‘la olishi, doimo lisoniy alohidalikni saqlab qolishi bilan belgilanadi [Sayfullayeva,2009;214]. Masalan: Bugun uchrashamizmi? –Albatta!

Turk tili boshqa turkey tillarda bo‘lgani kabi so‘z-gaplar jihatidan ham juda xilma-xil tildir. Vaziyatga javob sifatida ishlatilishi mumkin bo‘lgan so‘z-gaplar har doim turk tilida uchraydi. So‘z-gaplar kundalik hayotimizdagi ko‘plab vazifalarda o‘ziga xos ma’nolari bilan maslahat, ta’ziya, xayrixohlik, iltimos, ma’qullash kabi muhim vaziyatlarda qo‘llanilishi mumkin. So‘z-gaplarning to‘rtta guruhga ajratilib, ulardan biri modal so‘z-gaplardir.

Modal so‘z-gap (Modal kalıp sözler): Bu so‘zlovchining aytilgan fikr-holatga munosabati, e’tiqodi, shubha va bashoratlarini ifodalovchi so‘z-gaplar guruhidir [xullas] “Kısacası”, [demak] “demek ki”, [shubhasiz] “şüphesiz” kabilarni modal so‘z-gaplariga misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Demak (Demek/Yani) Ko‘nglimdagi gapni Gulasalga ochiq aytishga jur’atim yetmadi o‘shanda, demak, hammasiga o‘zimning landovurligim sabab!.. (İçimdekileri Gülasal’e açıkça söylemeye cesaret edemedim. Demek ki, bütün bu olanlara benim beceriksizliğim neden oldu!..) [Ayizov, 2011; 10].

Ushbu modal so‘z-gap aytilgan yoki o‘ylangan mavzuni yakunlash va aniqlashtirish uchun ishlatiladi. Ushbu so‘z ikkala tilda bir xil tarzda qo‘llaniladi va bir xil ma’noga ega.

Nazarimda (Bence, Nazarımda)

Nazarimda, anovi chol ham behuda gap boshlab qolmadi-yov... (Bence, o yaşlı adam, bu sözleri boşuna söylemedi...) [Ayizov, 2011; 3].

Suhbat yoki fikr davomida o‘z nuqtai nazarini ifodalash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan so‘z-gaplardan biridir.

Bilasizmi (Biliyor musunuz?)

“Bilasizmi, o‘sha kuni Otageldi-og‘am bilan uchrashuvimiz oldidan menga Ingliztondan sim qoqishdi...” (Biliyor musunuz, o gün amcam Otageldi ile görüşmeden evvel İngiltere’den bir telefon geldi. (birisi aradı.)” (İsmoil, ?;84)

Ma’ruzachi tinglovchiga nima demoqchi ekanligini tushuntirishdan oldin, bilasizmi? U tushuntirish ma’nosiga ega bo‘lgan iborani ishlatishi mumkin, masalan: Bu frazema tarkibida tinglovchiga yetkazilgan xabarni diqqatni jalb qilish va qiziqish uyg‘otish orqali yetkazish istagi ham ko‘rinadi. U ikkala tilda ham bir xil.

Rostini Aytsam (Doğrusunu söylersem/Doğrusunu söylemek gerekirse...)

Rostini aytsam u emas meni tashvishlantirgan. (Doğrusunu söylersem, o değil beni endişelendiren.) (İsmoil, ?: 5)

Bu so‘zlovchining har qanday mavzudagi haqiqat va haqiqatni ifodalash uchun ishlatishi mumkin bo‘lgan so‘zdir. O‘zbek tilida ham, turk tilida ham xuddi shunday qo‘llaniladi.

Xulosa va takliflar. Til foydalanuvchilari uchun so‘zlashish jarayonida eng muhim unsur so‘z-gaplardir. So‘z-gaplar muloqot paytida eng ko‘p qo‘llaniladigan, yuqori ta’sir kuchiga ega

bo‘lgan jumlalar hisoblanadi. Yuqorida aytilgani kabi, kun davomida tez-tez duch kelinadigan salomlashish, tanishish, xayrlashish kabi vaziyatlar qarshisida his qilinadigan hissiy intensivlikni bitta jumla yoki cheklangan miqdordagi so‘zlar bilan amaliy tarzda osongina ifodalashimiz so‘z-gaplar soyasida amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобокалонов Р.Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 33.
2. Gökdayı, H. (2008). Türkçede Kalıp Sözler. *Bilig*, Kış, S. 44, s. 89-110.
3. Ғуломов А. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент, 1948.
4. Кононов А.Н. Грамматика узбекского языка. – Тошкент, 1948.
5. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. – Тошкент:Фан,, 1974. – Б. 91
6. Шодмонов Э. Ҳозирги замон ўзбек тилида сўз-гаплар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1970. – Б. 50–61.

O‘ZBEK AYOLLAR NUTQIDA NUTQIY AKTNING VOQELANISHI

Mirobidova Nilufar Murodjon qizi
O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi 1-kurs tayanch doktoranti.
E-mail: nilufarmirobidova19@gmail.com

Annotatsiya: Tilshunoslikda bugungi kun dolzarb masalalaridan biri antroposentrik paradigmadir. Bu paradigmaning bir tarmog‘i bo‘lgan pragmalingvistika bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida ham ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Pragmalingvistika tilni nutq vaziyati, kontekst, kommuniyativ maqsad, nutqni nutq egalari bilan bog‘liq tendensiyada o‘rganishni maqsad qiladi. Ushbu maqolada o‘zbek ayollar nutqida pragmatik birlik bo‘lgan nutqiy aktning voqelanishi, ifodalanishi haqida so‘z boradi. Ayollar nutqida uchraydigan aktlarning turlarini farqlab, tahlil etish tilshunoslik oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.
Kalit so‘zlar: Pragmalingvistika, nutqiy akt, illokutiv akt, lokutiv akt, perlokutiv akt.

Annotation: One of the current issues in linguistics today is the anthropocentric paradigm. Scientific research is also being conducted in Uzbek linguistics on pragmalinguistics, which is a direction of this paradigm. Pragmalinguistics aims to study the language in the speech situation, context, communicative purpose, speech in relation to the speakers. This article talks about the realisation and expression of the speech act, which is a pragmatic unit in Uzbek women's speech. Distinguishing and analyzing the types of acts found in women's speech is one of the urgent problems facing linguistics.
Keywords: Pragmalinguistics, speech act, illocutionary act, locative act, perlocutionary act.

Аннотация: Одним из актуальных вопросов лингвистики сегодня является антропоцентрическая парадигма. В узбекском языкознании также проводятся научные исследования по прагмалингвистике, которая является направлением этой парадигмы. Прагмалингвистика направлена на изучение языка в речевой ситуации, контексте, коммуникативной цели, речи по отношению к говорящим. В данной статье говорится о реализации и выражении речевого акта, который является прагматической единицей в речи узбекских женщин. Выделение и анализ типов актов, встречающихся в женской речи, является одной из актуальных задач, стоящих перед лингвистикой.
Ключевые слова: Прагмалингвистика, речевой акт, иллокутивный акт, локативный акт, перлокутивный акт.

Tilshunoslikda pragmalingvistik tadqiqiotlar rivojlanishi natijasida tilshunoslar oldida pragmatikaga oid bir qancha masalalar yuzaga keldi. Ulardan biri nutqiy akt tushunchasi edi. Nutqiy akt haqida Vilgelm Gumboldt, Sharl Balli, Mixail Baxtin kabi bir qator tilshunoslar to‘xtalib o‘tgan bo‘lsada, aniq bir ta’limot sifatida mavhumligicha qolmoqda edi. Faylasuf va mantiqshunos Jon Ostin o‘z qarashlarida nutiq aktni grammatikada foydalaniladigan “gap” tushunchasidan boshqa ekanligini izohlashga kirishgan. U o‘z qarashlarida “gap’” va gapdan

anglashiladigan “hukm” aynan nutqiy aktga teng emasligini ilgari suradi. Nutqiy aktda xabar mazmunidan tashqari so‘roq, undov, chorlov, iltimos qilish, istak-xohish kabi bir qator mazmunlar ham o‘rin egallashini takidlagan. Shunday qilib “ Nutqiy akt – ma’lum bir gapning aniq bir muloqot ,uloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma’nosining so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan “boyitilishi”, idrok etilishi natijasidir.”[Safarov Sh., 2008:78]. Nutqiy aktning yuzaga kelishi bevosita so‘zlovchining kommunikativ maqsadi va istagiga bog‘liqdir. Nutqiy faoliyatni so‘zlovchi maqsad va istagi bilan bog‘lab intensional tahlil qilinadi. Bu qarash tarafdori Jon Syorlning har bir nutqiy harakatni ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu qarash tarafdorlari nutqiy akt hosil bo‘lishida 3 xil harakat bajarilishini aytadilar. Bular: lokutiv, illokutiv, perlikutiv haraktlardir.

Sh.Safarovning fikricha, “nutqiy akt so‘zlovchining ma’lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir”, “nutqiy akt – ma’lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir”, “nutqiy akt – muloqot uchun “qurilish materiali”dir, u kommunikativ jarayon mantiqiy davomliligini aks ettirmaydi”.[51]

M.Hakimov nutqiy aktga quyidagicha ta’rif bergan: “Nutqiy akt tushunchasi odamlar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonida sodir etiluvchi o‘zaro ma’no aktlari munosabatining bayonidir”. [Safarov Sh., 2008:71-72].

Tilshunos olimlarimiz tomonidan jumlalarni mazmun anglatadigan tarzda tanlab, ularni fonetik-leksik me’yorlar asosida talaffuz etib kommunikativ aloqaga kirishish jarayoni lokutiv akt sanab kelinadi. Fonetik me’yorlarga asoslangan holda talaffuz qilingan nutq fonetik lokutsiyani yaratsa, leksik-grammatik me’yor asosida yuzaga kelgan nutq esa fatik lokutiv aktni hosil qiladi. Odatda, ayollar nutqida ishlatiladigan so‘z va jumlalar barcha me’yorlarga xos tarzda talaffuzz etiladi. Ammo ba’zan lingvistik yoki ekstralingvistik omillar ta’sirida me’yordan chekinish holatlari ham ko‘zga tashlanadi.

*“**Movju**ning to‘yiga aqalli bir jo‘ra “sim atlas” olib qo‘ymasak uyat bo‘ladi.” (O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”)*

Ushbu gapda tinglovchi ismni qisqartirib talaffuz qilishi natijasida talaffuz me’yori buzilgan bo‘lsa-da, gap o‘z lokutiv ma’nosini saqlab qoladi.

Ayollar nutqi jarayonida propozitsional akt faol qo‘llaniladi. Propozitsional aktda nutq predmeti haqida fikr yuritiladi va uning tasdiq yoki inkor shaklda bo‘lishiga e’tibor qaratiladi. Masalan,

Muborak chevar desangiz hamma taniydi. “Zinger” mashinalari bor. *(O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”)*

Yuqoridagi gapda chevarning tikuv mashinasi borligi tasdiq shaklda propozitsional aktda o‘z aksini topgan. Inkor shaklda ham xabar mazmuni berilishini kuzatishimiz mumkin: ***Qurib ketsin, so‘raydigan odam ham yo‘q.*** *(O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”)*

Mazkur nutq ko‘rinishlari nutq obyekti haqidagi ma’lumotni xabar yo‘li bilan ifoda etishiga ko‘ra propozitsional akt hisoblanadi. Biroq propozitsional akt ifodasida talaffuz akti sodir etilganligi uning lokutiv akt bilan bir nuqtada kesishuvini ko‘rsatadi. Xuddi shunday,

propozitsional akt orqali nutq egasining kommunikativ niyati – voqelik haqida xabar berish niyati amalga oshganligi ushbu aktning illokutiv akt ham sanalishini anglatadi. Boshqacha aytganda, propozitsional akt murakkab tuzilishga ega bo‘lib, unda bir necha akt turlarining qorishuvini kuzatish mumkin bo‘ladi. [Qurbonova M., 2018:28].

So‘zlovchining muayyan maqsadini o‘zida ifoda etgan akt turi illokutiv aktdir. Bunda nutq egasi o‘z maqsadini bevosita ochiq va bilvosita yashirin tarzda bayon qilishi mumkin. Ayollar kommunikativ niyatini oshkora bayon qilishadi ammo nutq jarayonida yashirin illokutsiyani ham kuzatishimiz mumkin. O‘zbek ayollariga xos bo‘lgan jihat, aslida, axborotning yashirin ifodalanishi hamdir.

Oyim uning ko‘ziga tikilib qaradi-da, ko‘nglida umid uyg‘ondi shekilli, ovozi dadillashdi:

- ***Kerak edi-da. Ertalabdan beri qidiramiz, aylanay. Bilmagan joyning ko‘chasi ko‘p deb shuni aytar ekan-da.***
- ***Siz… Siz kimi bo‘lasiz? – dedi sekin.***
- ***Onasiman, aylanay, onasiman.*** ***(****O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”)*

Ushbu matnda so‘roq gaplar orqali hosil qilingan aktda so‘zlovchining kommunikativ maqsadi ham o‘z aksini topgan. Chunki bu savolni berishdan maqsad o‘zining shaxsini ochiqlamasdan turib, izlayotgan insonning kim ekanligiga oydinlik kiritish edi. Bunda biz so‘roq shakl orqali illokutiv aktni kuzatishimiz mumkin.

O‘zbek ayollari nutqida illokutiv aktning so‘roq, undov, istak, buyruq, maslahat, xushomad, iltimos kabi maqsadlarini uchratishimiz mumkin.

Undash akti: *Qani kela qoling, - dedi oyim ayvon tomonga yurib.* ***(****O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”)*

Buyruq akti: *Bor, bolam o‘ynab kel, - dedi oyim meni hamon qo‘rqib turganimni ko‘rib.*

Nolish akti: *kechasi bilan tishim o‘lgur shundoq og‘ridi, shundoq og‘ridi, jonimni qo‘yishga joy topolmadim.*

Iltimos akti: *- Ukangiz eshitmay qo‘yaqolsinlar, topilib qolar – oyim yana yalindi.* ***(****O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”)*

Maslahat akti: *Shahnoza ayasi olib kelgan bir banka quyultirilgan sutni berdi, – issiq choyga qo‘shib ichsangiz o‘tib ketadi****(****O‘tkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”) “ Tushda kechgan umrlar”)*

Tabrik akti: *- Endi kuyavlik muborak bo‘lsin, begim. (Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”)*

Va’da akti: *Nima qilay ont ichaymi! Non ursin! Kutmasam, non ko‘r qilsin, Kimsan aka!* ***(****O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi ”)*

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, ayollar kommunikativ jarayonda nutqiy aktning bir qancha mazmuniy turlaridan faol foydalanib kelishadi. O‘zbek ayollari nutqida muayyan axborotni bayon qilishning o‘ziga xos usullari mavjud. Ba’zan ular kommunikativ niyatni oshkora ifodalamaydilar, ular suhbatdoshiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida ifodaning yashirin ko‘rinishlaridan foydalanadilar. Masalan, - *Albatta, senlar o‘qimishlisan, hamma narsani bilasan… - oyim bir zum jimib qoldi-da, o‘ziga- o‘zi gapirayotgandek qo‘shib qo‘ydi. - Onasida nima gunoh? Qon bosimi bo‘lsa, ertaga puf etib dumalab ketsa, shunga suyunasanmi? Ona-ku bu… Shunaqa qahring qattiqmi?*

Ushbu gapda illokutiv aktning habar mazmunidagi ya’ni farzandidan norozi ona nutqidan aytilgan parchada so‘roq gap orqali norozilik, qayatrish kabi mazmunlar ifodalanib kelingan.

Bugungi kun rus tilshunosligida I.A. Sharonov nutqiy aktning iltifot va maqtov mazmunini tadqiq etib, ularni bir-biridan ajratish va farqlash kerakligini ta’kidlab o‘tadi. Iltifot va maqqtov aktlarining ikkalasi ham insonga ijobiy baho berishni ifodalaydi, shuning uchun yoki boshqa yo'l bilan nutqning adresatiga bog'liq bo'lgan ijobiy his-tuyg'ularni aks ettiradi. Bu ularning tasdiq nutq aktlaridan umumiy farqidir. Iltifot aktida ijobiy baho adresatning tashqi va ichki go‘zalligiga, xarakteriga, ijobiy hislatlariga bo‘lgan konnotatsiyani ifodalaydi. Maqtov akti esa nisbatan aniq va sharoitga moslashgan, qoliplashgan bo‘ladi. Maqtov ko‘pincha adresatning biror-bir ijobiy xatti-harakatiga, erishgan yutuqlariga nisbatan ishlatilishini ta’kidlaydi I. Sharonov.

O‘zbek ayollari o‘z nutqlarida nutqiy akt ko‘rinishlkaridan biri bo‘lgan perlokutiv aktdan ham keng foydalanishadi. Bilamizki, perlokutiv aktda so‘zlovchi tinglovchiga nutqiy ta’sir o‘tkazishga harakat qiladi, ya’ni uni biror-bir harakatni bajarishga undaydi. Nutqiy ta’sir ko‘rsatish ayollar nutqiga xos xususiyatlardan. Ona farzandlariga, ayol do‘stlariga, ustoz shogirdlariga nutqiy ta’sir o‘tkazishiga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin.

- *Sutchoy tayyor bo‘ldi, suzib kiraymi?*
- *Ikki kosani kelinlik **uyga ber**, men bilan Hasanalinikini shu yerga **keltir.***

Ushbu namunada ayol ya’ni nutq egasi tinglovchiga nisbatan buyruq aktini ifodalashi aks etgan. Bu orqali adresat adresantga ma’lum harakat bajarishga undashni maqsad qiladi. Natijada suhbatdosh ushbu harakatni bajarishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, suhbatda nutqiy aktning qaysi turidan foydalanish so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga bog‘liq bo‘lsa-da, insonning psixologik-emotsional holati, gender xususiyati, yoshi kabilar ham nutqiy akt turining tanlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat, ayniqsa, ayollar nutqiy faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri. diss. – Toshkent, 2011.
3. Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiya.T,2018.
4. Sharonov, I.A., 2024, Speech acts and speech genres: the case of the compliment, Slovo.ru: Baltic accent, Vol. 15, no. 3, pp. 234—246. doi: 10.5922/2225-5346-2024-3-14.

MEDIAMATNLARDAGI INTERTEKSTUAL BIRLIKLARNING TIL XUSUSIYATLARI

(reportaj va intervyu janrlari asosida)

Abdullayeva Madinabonu Qurbonali qizi
O‘zMU Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi
2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Ushbu bu maqolada mediamatnlarning janr jihatdan turlari, tilshunoslarning turli xil qarshlari ochib berilgan. Bundan tashqari, mediamatnlarda so‘z va gap shaklidagi intertekstual birlikning til xususiyatlari tahlil qilingan. Maqolada reportaj va intervyu matnlarida sarlavha, maqola kabi intertek haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Mediamatn, intertekstuallik, matn, gap, reportaj, intervyu, sarlavha, maqol, aforizm, so‘z birikmasi.

Abstract: In this article, the types of media texts in terms of genres, various objections of linguists are revealed. In addition, linguistic features of intertextual units in the form of words and sentences were analyzed in media texts. In the article, the text of the report and interview contains information about Intertek, such as the title and article.

Keywords: Media text, intertextuality, text, sentence, reportage, interview, title, proverb, aphorism, phrase.

Аннотация: В данной статье раскрываются типы медиатекстов с точки зрения жанров, различные возражения лингвистов. Кроме того, в медиатекстах были проанализированы лингвистические особенности интертекстуальных единиц в виде слов и предложений. В статье текст репортажа и интервью содержит информацию об Интертеке, такую как название и статья.

Ключевые слова. Медиатекст, интертекстуальность, текст, предложение, репортаж, интервью, заголовок, пословица, афоризм, фраза.

Matn-mazmun va lisoniy birliklar yordamida mantiqiy va grammatik ketma-ketlikda bir-biri bilan bog‘langan gaplardan iborat tuzilma. Matnlar uslubiy jihatdan xoslangan bo‘ladi. Masalan, og‘zaki, rasmiy, publitsistik, ilmiy, badiiy va boshqa turlari bo‘lishi mumkin. Publitsistik usuldagi matnlarni mediamatnlar sifatida qabul qilamiz va unday matnlar ham og‘zaki yoki yozma shaklda axborot yetkazib berish vazifasini bajaradi. Bunday matnlar turli xil til xususiyatlariga va til xodisalariga ega bo‘ladi. Shunday belgilardan biri mediamatnlardagi intertekstual birlik hisoblaniladi.

Mediamatnlarning janrlari sifatida quyidagilar belgilanadi:

- Yangiliklar- og‘zaki va yozma shakllari mavjud
- Reportaj- voqeiy reportaj, sport reportajlari
- Matbuot reklamalari- feleton, pampflet, taqriz
- Informatsiya

- Hisobot
- Sharh
- Maqola

Mediamatnlarning bunday janrga ajralishi tilshunoslar tomonidan turlicha izohlangan. Tilshunos Saodat Shamaqsudova o‘z ilmiy ishlarida mediamatnlar toifalanishini turli yondashuv asosida tiplarga bo‘lib chiqadi. Ya’ni:

- Mediamatnlarning tuzilishiga ko‘ra
- Qabul qilish usuliga ko‘ra
- Faoliyat turlariga ko‘ra
- Mediamatnlarning uslubiga ko‘ra
- Diskursiga ko‘ra

Demak, mediamatnlarning turlari o‘zining til xususiyatlariga ega. Bunday matnlar ham og‘zaki va yozma ko‘rinishda mavjud bo‘ladi. Mediamatnlarda matn kategoriyalaridan biri “intertekstuallik” alohida ahamiyatga ega.

“Intertekst − bu matnlarning asrlar osha rivojlanib kelayotgan majmuasidir; bu majmua yo ideal yo virtual saviyada yo kitob darajasida mavjud bo‘lib, o‘ziga xos doirani tashkil qiladi. Ahamiyatli tomoni shundaki, doira ichida matnlar yaratilishi vaqti, o‘z janri, ma’no va mazmun yetkazish usuli, qo‘llanish yoxud tatbiq qilinish sohasi, eng muhimi, tillar bo‘yicha guruhlarga ajratiladi” − deydi N.N.Belozerova [Belozerova, 1999]. Intertekstuallik haqida M.Xomidova o‘z ilmiy ishida rus olimasi N. Fateevaning badiiy matndagi intertekst turlari sifatida keltirgan birliklarni izohlab beradi. Ularga quyidagilar kiradi [Xomidova, 2023]:

1. Allyuziya
2. Reminissensiya
3. Epigraf
4. Sarlavha
5. Havola (sitata)
6. Aforizmlar
7. Maqol, matal [Xomidova, 2021]

Maqolada quyida keltirilgan intertekstual birliklarning reportaj va intervyu matnlaridagi o‘rni haqida fikr yuritamiz.

Reportaj –fransuz tilidan olingan bo‘lib, “xabar bermoq”, “xabardor qilmoq” degan ma’nolarni anglatadi [Shomaqsudova, 2018]. Ushbu janr nutqiy qurilish shakllariga nihoyatda boy. Reportajda voqea tasviri muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham voqeani tasvirlaganda bo‘yoqdor so‘zlar, o‘xshatish va sifatlashlardan keng foydalaniladi. Janrning xususiyatlaridan biri shuki, ta’sirchan, ko‘p ma’noli so‘zlar, so‘z birikmalari ko‘p ishlatiladi. Ushbu holatlarni ifodalashda, asosan, gap shaklidagi intertekstual birliklardan foydalanishimiz mumkin. Misol uchun, so‘z va gap shaklidagi sarlovha misolida reportaj janridagi intertekstual birliklarni quyidagicha izohlash mumkin.

So‘z shaklida	So‘z birikmasi shaklida	Gap shaklida
“Xitoyda”	“Virus iskanjasi”	Barchamiz bir oiladek bo‘lib qoldik
“Koronovirus”	“2019 yil”	Noma’lum kasallik tarqalmoqda

Ushbu misollar reportaj janrida sarlovha vazifasini bajargan va ularning umumiy mazmuni “Virus”ni ifodalagan. Bunday sarlovhalar reportaj janriga xos bo‘lgan til xususiyatlarini ochib bera oladi. Reportaj matnlarda gap shaklidagi interteskstual birliklarga maqollarni misol qila olamiz. Bu birliklar bo‘yoqdorlikni, ta’sirchanlikni ifodalaydi. Misol uchun, “Toshlar orasida o‘sayotgan gul”, “Bo‘zchi belboqqa yolchimaydi” kabi birlik Jizzaxning G‘allaorod tumanidagi toshlar orasidagi uy haqida tayyorlan reportajda uchraydi. Matnda birlik bir- biriga bevosita ishora qilib kelgan.

Mediamatn janrlariga kiruvchi intervyu matnlari ham o‘zining til xususiyatlariga ega. Dilfuza Shonazarova “Intervyu matnning diskursiv tahlili” nomli nomzodlik ishida janr xususiyatlarini izohlab bergan.

Intervyu - inglizchadan olingan bo‘lib, “uchrashuv” degan ma’noni ifodalaydi. Matnlar asosan dialog shaklda tashkil qilinadi [Shonazarova, 2024]. Bunday mediamatnlarda havola, aforizm, maqol, matal kabi interteks birlik ko‘p qo‘llaniladi. Misol uchun, Alisher Qodirov o‘z intervyusida til haqidagi “Til- millat ko‘zgusi” kabi maqolini qo‘llaydi, bu birlik Muhammad Raufxon bilan tashkil qilingan intervyu uchun sarlavha vazifasini bajargan (2019-yil 14- may). Intertekstual birliklar mediamatnlarda kam uchraydi, asosan, badiiy matnlarda asar g‘oyasini ochish, qahramon holatini tasvirlash, voqeani oldindan taxmin qilish uchun qo‘llaniladi. Mediamatnlar uchun maqol, aforizm, sarlavhadan foydalanish orqali fikrni dalillash, isbotlash, ketma-ketlik, matn uslubini saqlash kabi belgilarni isbotlash uchun qo‘llasak xato bo‘lmaydi.

Demak, xulosa qilib aytganimizda intevyu va reportaj matnai o‘ziga xos til belgilariga ega. Ular o‘zlarida ma’lum belgilarni saqlab qolgan. Intervyu matnlarida to‘g‘rilik, aniqlik, dalillarning ishonarli bo‘lishi muhim ahamiystga ega. Bundan tashqari matnlarning ta’sirchanligini, so‘zlarning emotsional jihatlarini intertekstlar orqali ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хомидова М. Бадиий матн перцепциясида интертекстуаллик. PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2021.
2. Xomidova, M. (2023). INTERTEKST TUSHUNCHASI, TADQIQI VA TURLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4 SPECIAL), 902–908. Retrieved from http://erus.uz/index.php/er/article/view/2958
3. Xomidova, M. F. (2019). The problem of intertextuality in modern linguistics. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3(4), 259-263.
4. qizi Xomidova, M. F. (2019). INTERTEXTUALITY AND LITERARY TRANSLATION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 309-311.
5. Toshaliev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborot vositalarining tili va uslubi. – T.: Universitet, 2006.
6. Shonazarova D. Intervyu matnning diskursiv tahlili. PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – T., 2024.
7. Shomaksudova S, Israil M. OAV da yozma matn. – Toshkent, 2018.
8. Белозерова Н.Н. Интегративная поэтика. – Тюмень,1999.

FONOPOETIK VOSITALARNING OMON MATJON SHE'RIYATIDA QO'LLANILISHI

Sharofova Sevinch Jamoliddin qizi
O'zMU O'zbek filologiyasi fakulteti
Lingvistika mutaxassisligi 2-kurs magistranti.
E-mail: sharofovasevinch801@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Omon Matjon she'riy matnlaridagi fonopoetik vositalarning ahamiyati o'rganilib, ushbu vositalardan bir nechtasining shoir she'riyatida tutgan o'rni tahlillar orqali ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: fonopoetika, fonostilistika, poetik matn, alliteratsiya, takror, konsonans, dissonans, assonans.

Аннотация: В данной статье изучено значение фонопоэтических средств в поэтических текстах Омона Маджона, а также посредством анализа рассмотрена роль некоторых из этих средств в поэзии поэта.

Ключевые слова: фонопоэтика, фоностилистика, поэтический текст, аллитерация, повтор, созвучие, диссонанс, ассонанс.

Abstract: In this article, the importance of phonopoetic tools in Omon Matjon's poetic texts was studied, and the role of some of these tools in the poet's poetry was examined through analysis.

Keywords: phonopoetics, phonostylistics, poetic text, alliteration, repetition, consonance, dissonance, assonance.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan boshlab ma'lum bir davriga qadar nutq tovushlari fonetika bo'limidagina o'rganib kelingan, ammo keyingi davrda tilshunoslikning yangi sohalari tadqiq etila boshlagach, nutq tovushlari faqatgina fonetikaning emas, balki fonologiya, fonostilistika va fonopoetika singari sohalarning ham o'rganish obyektiga aylanib ulgurdi. Nutq tovushlarining har jihatdan keng tadqiq etilishi ushbu sohalarning taraqqiyotiga xizmat qildi, ularning kuzatish obyekti, maqsad va vazifalarini aniqlashtirib berdi.

Fonopoetika sohasi lingvistikaning yangi sohalaridan biri sifatida hozirgi kunda asosan lingvopoetik tadqiqotlarning bir qismi sifatida so'nggi yillarda tadqiqni talab etib kelmoqda. Bizga ma'lumki, biror bir badiiy matn lingvopoetik tahlilga tortilar ekan tilning biror adabiy kategoriyalari, masalan, leksik, fonetik, morfologik yoki sintaktik birliklardan muallifning qay darajada foydalanganligi nuqtayi nazaridan o'rganadi. Shu jihatdan badiiy matnning talaffuz xususiyatlarini o'rganuvchi fonopoetika sohasi lingvopoetikaning uzviy bir qismi, deya bemalol fikr yurita olamiz. Biroq o'zbek tilshunosligida ham, xalqaro miqyosda ham fonopoetika sohasi yetarli darajada monografik planlarda tadqiq etilmagan. Ushbu sohani tadqiq etgan jahon tilshunosligi vakili Jason Camlotning "Phonopoetics the making of early literary recordings", rus tilshunosligida B.P.Goncharovning "Звукавая оргазатция стиха и проблемы рифмы" monografiyalarini olishimiz mumkin. O'zbek tilshunosligida esa ushbu soha ko'plab

fonostilistika, fonetikaga bag‘ishlangan monografiya va dissertatsiyalar tarkibida o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar sirasiga S.Karimovning “O‘zbek tilining fonetik stilistikasi”, “O‘zbek tilida tinish belgilari stilistikasi”, “O‘zbek tilining badiiy uslubi” monografiyalarini, M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi”, A.Haydarovning “Konnotativ ma’noning fonetik vositalarda ifodalanishi”, M.Qurbonova, M.Yo‘ldoshevlarning “Matn tilshunosligi”, X.Doniyorovning “Fonetik stilistikaga doir ba’zi bir mulohazalar”, A.Abdullayevning “Hozirgi o‘zbek tilida ma’no kuchaytirishning fonetik va morfologik usuli”, S.Umirovaning “O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik” kabi ilmiy manbalarini kiritishimiz mumkin. Ushbu ilmiy tadqiqotlarning har birida fonopoetika, fonopoetik tahlil, fonetik vositalarning uslubiy imkoniyatlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan, keng doirada yortib berilgan.

O‘zbek she’riyatida keng qo‘llaniluvchi fonopoetik vositalar sirasiga alliteratsiya, assonans, geminatsiya, tovush orttirish, tovush tushirish singari hodisalarni kiritish mumkin. Jumladan, she’riy asarlarda ifodalilikning fonetik vositalari sifatida I.R.Gal’perin quyidagilarni ko‘rsatadi:

1.Onomatopeya;
2.Alliteratsiya;
3.Qofiya;
4.Ritm [Гальперин И.Р., 1981:113].

Tilshunos olim M.Yo‘ldoshev o‘zining “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili” o‘quv qo‘llanmasida fonopoetik tahlil masalasiga to‘xtalib, quyidagilarni bayon etadi: “She’riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she’rda o‘ziga xos jozibador ohang bo‘ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo‘llash natijasida erishiladi. She’riyatda asosan quyidagi fonetik usullardan foydalaniladi:

1) alliteratsiya (undoshlar takrori);
2) assonans (unlilar takrori);
3) geminatsiya (undoshlarni qavatlash).

Bu borada S.Karimovning “O‘zbek tilining fonetik stilistikasi” monografiyasida yuqoridagi fikrlardan ham farqli xususiyatga guvoh bo‘ldik. Jumladan, tilshunos olim ushbu monografiyasida quyidagi vositalar fonopoetik vositalar sirasiga kiritilgan:

1. Takror:
a)alliteratsiya;
b)assonans;
d)dissonans\konsonans.
2. Rifma.
3. Onomatopeya.
4. Paronomaziya [Каримов С., 2016:86].

Yuqorida sanab o‘tilgan fonopoetik vositalar tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan Omon Matjon she’riyatida ham keng qo‘llanilgan va ularning poetik imkoniyatlari shoir she’rlarida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

O‘zbek adabiyotining buyuk shoiri, so‘z ustasi, zamonaviy o‘zbek adabiyotida o‘zining yorqin o‘rniga ega ijodkor Omon Matjon she’rlari o‘zining beadad samimiy tuyg‘ularga boyligi va xalqchilligi bilan she’riyat shaydolariga birdek manzur bo‘lib kelmoqda. Shoirning so‘z qo‘llash mahorati, individual uslubi va badiiy nutqining o‘ziga xosligi uning til vositalaridan

foydalanish mahoratining yuksak ekanligidan darak beradi. Biz ushbu maqolada Omon Matjon she'riyatining talaffuz xususiyatini ifoda etuvchi fonopoetik vositalarning adib ijodida tutgan o'rni haqida so'z yuritamiz.

Fonopoetik vositalarning eng keng tarqalgan turi sifatida alliteratsiya hodisasini ko'rsatishimiz mumkin. Alliteratsiya hodisasining Omon Matjon she'riyatida tutgan o'rni ham beqiyos. Ushbu hodisaga turli tilshunos olimlar har xil ta'rif beradilar. Jumladan, Azim Hojiyev alliteratsiya "Misralar, undagi so'zlar boshidagi bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishinigina alliteratsiya hodisasi deb hisoblaydi [Hojiyev A., 2002:12]. Ushbu ta'rifga ko'ra tilshunos olim faqatgina so'zlar boshidagi bir xil undoshlarning takror qo'llanishinigina alliteratsiya hodisasi deb biladi. Ammo rus olimasi O.S.Axmanova yuqoridagi ta'riflardan ko'ra farqli ta'riflar beradi: "Bir xil yoki o'xshash tovushlar yoki tovush birikmalarining takrorlanishi:

a) bo'g'in boshida, odatda, taqlidiy so'zlarda;
b) turg'un birikmalar hosil qiluvchi so'zlar boshida;
c) v)qadimgi german she'riyatida satrdagi urg'uli bo'g'inni ajratish maqsadida" [Каримов C., 2016:40].

Demak, rus olimasi O.S.Axmanovaning fikriga ko'ra, alliteratsiya faqatgina so'z boshidagi tovushlar takrori emas, balki bo'g'in boshidagi takrori ham hisoblanadi.

Shoir Omon Matjon she'rlarida yuqoridagi ta'riflarning barchasiga to'g'ri keladigan alliteratsiya namunalarini uchratishimiz mumkin:

She'riyat!
Shu ishonch tinchitmas takror,
Sirli kashflar **s**ari **s**udrar **s**olimni,
Senga sodiqligim bayrog'i shulki,
Har gal,
Har she'rimda
Har tepganda qalb-
O'zim o'z qalbimning bo'lsam Kolumbi [Omon Matjon, 2021:4].

Ushbu "She'riyat" nomli she'rdan olingan parchada "she'riyat" va "shu", "sirli" va "senga so'z-shakllarida sh va s tovushlari misra boshida takrorlanayotgan bo'lsa, uchinchi misradagi "sirli", "sari", "sudrar" va "solimni" so'zlaridagi s tovushining takrori so'z boshida uchramoqda. Bunda alliteratsiya hodisasiga uchragan tovushlar ham vertikal, ham gorizontal joylashmoqda. Omon Matjon she'rlarida alliteratsiya hodisasining so'z boshida uchraydigan quyidagi namunasida esa bir xil takrorlanuvchi tovushlar gorizontal holatda joylashganligiga guvoh bo'lamiz:

Asli sendan zo'rroq qanday kishi bor ?!
Bugun Sayyorada "O'zbek ishi" bor!
Hali o'zbekning bir hayqirishi bor,
Qara, **t**omirlaring **t**itrashga **t**ushdi! [Omon Matjon, 2021:115]

Ushbu misralarda tomir, titramoq, tushmoq leksemalaridagi "t" tovushining takrori alliteratsiyani hosil qilmoqda.

Shoir she'rlarida, shuningdek, ohangdorlikni ta'minlaydigan bir xil bo'g'inlarning ham takrorlanishi kuzatiladi:

Vaqtim yetib chiqsa bu jonim,

Dardlarimga **ya**salsa **ya**kun,
Qabristonga tobut ichra jim
Eshigidan o‘turman bir kun [Omon Matjon, 2021:8].

Yuqoridagi parchada “yasalsa”, “yakun” so‘z-shakllaridagi birinchi bo‘g‘inning aynan bir xilligi misraga o‘zgacha ohangdorlik baxsh etmoqda.

Shoir she’rlarida alliteratsiya hodisasining so‘z o‘rtasi va oxiridagi variantiga qaraganda so‘z boshida kelishi ko‘p kuzatiladi. Quyidagi misralarda ham alliteratsiyaning ushbu namunasini kuzatishimiz mumkin:

Lekin sen men tomon boqmaysan,
Bilmadim nelar g‘ov yo‘lingga.
Yo Sukut ismli yulduzdan
Bir og‘ir tot tushgan tilingga? [Omon Matjon, 2021:87]

Shuningdek, Omon Matjon she’rlarida undosh tovushlarning so‘z oxirida ham takrorlanishi hodisasi ham kuzatiladi. Bunday hodisa tilshunoslik fanida dissonans yoki konsonans atamasi bilan yuritiladi:

Ko‘kda yo‘q Ulug‘bek ochgan yulduzlar,
Ko‘hna Urganchingni yemoqda tuzlar.
Yer osti ganjlaring begona ko‘zlar,
Izlab, kovlab, tashib, gizlashga tushdi [Omon Matjon, 2021:111].

Shoir Omon Matjon she’riyatida faqatgina undosh tovushlar takrori emas, balki unli tovushlar takrori ham unumlidir, unli tovushlarning ohangdorlikni ta’minlash maqsadidagi takrori assonans hisoblanadi. Ushbu fonopoetik vosita she’riy matnlarda ohangdorlikni ta’minlovchi, ekspressivlik, cho‘ziqlik imkoniyati kuchli bo‘lgan unli tovushlar takroridir. Assonans hodisasi o‘zbek she’riyatida keng uchraydi. Bu hodisaga ham berilgan ta’riflar anchagina. Masalan, S.Karimovning “O‘zbek tilining fonetik stilistikasi” monografiyasida assonans hodisasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “She’riyatda uchraydigan assonans esa faqatgina unli tovushlar takrori bilan chegaralanadi. Shuning uchun ham I.V.Arnold assonansni vokal alliteratsiya deb nomlagan [Каримов С., 2016: 56]. A.Hojiyev assonansning ohangdorlik ma’nosini berishini va aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanishi natijasida yuzaga kelishini aytadi”. Ushbu assonansga berilgan ta’rifga ko‘ra assonans bu unli tovushlarning takrori, lekin bunda faqat bir xil unlilarning emas, balki bir-biriga yaqin unli tovushlarning ham takrori ham assonans hodisasini yuzaga keltirishi mumkin, chunki she’riy matnlarda [o-o‘], [a-o], [i-e], [u-o‘] kabi bir-biriga yaqin talaffuz jihatdan yaqin bo‘lgan tovushlar ham ohangdorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahlil usullari keng ochib berilgan M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlil asoslari” o‘quv qo‘llanmasida esa assonans hodisasiga bir muncha keng ta’rif berilgan: “Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag‘ishlash maqsadida qo‘llaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir. Adabiyotlarda assonans aynan yoki yaqin unlilarning takrorlanib kelishidan hosil bo‘ladigan ohangdoshlik ekanligi bayon qilingan” [Юлдошев М., 2007: 59]

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan Omon Matjon she’riyatida assonans hodisasining aynan bir xil unlilar takrorining ham, bir-biriga yaqin unlilar takrorining ham namunalarini uchratamiz:

Yurtimdagi bir holatni ko‘rib ko‘z hayron,
Ne bozor bu, yo ne savdo karvoni kelmish?!

O‘z joyida muqim narsa qolgani gumon,
Alish-**a**lmash, **a**yirboshlash zamoni kelmish [Omon Matjon, 2021:100].

“Bozor hazili” nomli ushbu she’rning to‘rtinchi misrasida “a” tovushining ketma-ket uchta so‘zda takrorlanishi gorizontal assonansga yorqin misol bo‘la oladi.

Gorizontal joylashgan bir xil unlilarning takrorini shoirning quyidagi misralarida ham kuzatishimiz mumkin:

Ungacha ancha yo‘l bor-da, ustozim,
b**u u**r-s**u**rda y**u**rmang salang-bo‘sh bo‘lib [Omon Matjon, 2021:46].

Yuqoridagi ikkinchi misrada “u” tovushining takror kelishi ohangdorlikni yuzaga keltirishga xizmat qilgan. Shoirning kishi qalbiga yetib boruvchi nolalari tarkibida unlilarning vertical; holatda ham takrorlanib, ohangdorlikni yuzaga keltirishiga guvoh bo‘lamiz:

Oqqan daryo tindimi,
Oltin toring sindimi.
Otga boshqa mindimi,
O‘rtadagi do‘st qani?! [Omon Matjon, 2021:52]

„Otajonni eslab” nomli ushbu she’rda uchta misrada ketma-ket „o” tovushining takrori she’rning o‘qishliligini oshirmoqda.

Ijodkorning she’riy misralarida assonans hodisasi faqatgina bir xil tovushlarning takrori bilan chegaralanib qolmaydi, balki bir-biriga talaffuzi yaqin unlilarning ham takrori she’rning musiqiyligini oshirishga xizmat qiladi:

Yig‘ladingu… kulding,
Bo‘ron bosildi.
K**u**mush k**o‘**l yuzida
Qalqdi ikki oy [Omon Matjon, 2021:20].

Ushbu misralarda bir-biriga talaffuz jihatdan yaqin bo‘lgan [u-o‘] tovushlarining o‘zaro takrori assonans hodisasini yuzaga keltirmoqda.

Gulim, “o‘sha”larga o‘chma-o‘ch ochil,
sening uchun bugun bog‘lar bo‘sh, ochil [Omon Matjon, 2021:29].

Yuqoridagi misrada esa [o‘-o] tovushlarining takrori assonans hodisasining yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Omon Matjon she’riyatida shuningdek bir-biriga talaffuzi yaqin bo‘lgan unli tovushlar, jumladan, [i-u], [o‘-u], [a-o], [o‘-o] kabi tovushlarning ham takrori keng ekanligining guvohi bo‘ldik.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, lingvopoetik tahlillarning bir qismi sifatida tadqiq etilayotgan fonopoetik vositalarning badiiy matndagi o‘rni beqiyos. Chunonchi, lirik qahramonning ichki dunyosini ochib berishga, poetik matnning yanada tasviriyligi, ohangdorligi va ekspressivligini oshirishga xizmat qiladigan, badiiy matnlarda juda keng qo‘llaniladigan alliteratsiya, assonans hodisalari Omon Matjon she’riyatida alohida o‘rin tutadi. Shoir ijod mahsulining musiqiyligini oshirishga xizmat qiladigan ushbu hodisalar muhim fonopoetik hodisalar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.—Toshkent: “O‘zME”, 2002. — 168b.
2. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. –М.: 1981.

3. Karimov S. O‘zbek tilining fonetik stilistikasi. Monografiya.—Samarqand: SamDU nashri, 2016. — 160 b.
4. Omon Matjon. Maqsudam. — Toshkent: Adabiyot, 2021. — 128 b.
5. Qurbonova M. Yo`ldoshev M. Matn tilshunosligi.—Toshkent: Universitet, —2014. — 116b.
6. Umirova S. M. O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik. Monografiya. — Samarqand: Ipak Yo‘li nashriyoti, 2021. —117 b.
7. Юлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. —Ўқув қўлланма. Ташкент, 2007. —147 б.

XURSHID DAVRON PUBLITSISTIKASINING LEKSIK O‘ZIGA XOSLIKLARI

Keldiyorova Gulchehra Saydiyevna
O‘zbekiston Milliy Universiteti dotsenti, f.f.n.

Sultanova Xurshida Uktamjanovna
O’z.MU lingvistika: o’zbek filologiyasi 2-bosqich magistranti.
E-mail: sultanovakhurshida323@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada yozuvchi, publitsist Xurshid Davron ijodiga mansub maqolalar tahlilga tortilgan hamda ulardagi leksik o‘ziga xosliklar yoritib berilgan. Shuningdek, maqola mavzusiga doir tegishli adabiyotlar o‘rganilib, tahlil natijalari keltiriladi. Natijada Xurshid Davron publitsistikaning tahliliy maqola, esse va unga yondosh badia janrlarida ijod qilgani misollar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: publitsistika, publitsistik uslub, badiiy uslub, sarlavha, leksik birlik, maqola.

Аннотация: В данной статье анализируются статьи писателя, публициста Хуршида Даврона и выделяются их лексические особенности. Также изучена актуальная литература по теме статьи и представлены результаты анализа. В результате на основе примеров была проанализирована деятельность Хуршида Даврона в публицистике в аналитических статьях, очерках и смежных жанрах.

Ключевые слова: публицистика, публицистический стиль, художественный стиль, название, лексическая единица, статья.

Annotation: In this article, the articles of the writer, publicist Khurshid Davron are analyzed and their lexical peculiarities are highlighted. Also, relevant literature on the topic of the article is studied and analysis results are presented. As a result, Khurshid Davron's work in journalism in analytical articles, essays and related genres was analyzed on the basis of examples.

Keywords: journalism, journalistic style, artistic style, title, lexical unit, article.

O‘zbek adabiyotining yirik vakili, O‘zbekiton xalq shoiri, yozuvchi, dramaturg, ustoz jurnalist, tarixchi olim hamda publitsist Xurshid Davron ijodi serqirraligi, takrorlanmas ohanglarga boyligi va mavzular rang-barangligi bilan boshqa ijodkorlardan o‘ziga xoslik kasb etadi. O‘tgan asrning “80- yillar avlodi” deya atalgan bir guruh ijodkorlar qatorida Xurshid Davron ham tengdoshlari singari til, adabiyot, san’at va millat ravnaqi yo‘lida samarali ijod qildi desak yanglishmaymiz. Har bir ijodkorning kelajak avlod uchun o‘z aytar so‘zi bo‘lgani kabi Xurshid Davronning ham “deganlari” bisyor. Ijodkor suhbatlaridan birida shoirlik, yozuvchilikdan tashqari publitsistika sohasida ham samarali faoliyat yuritganini aytib o‘tgan edi. Bugungi kungacha respublikamizning bir qator gazeta va jurnallarida o‘z chiqishlari bilan bo‘y ko‘rsatayotgan publitsist jamiyatimizda va dunyoda bo‘layotgan voqea-hodisalarga, ijtimoiy-madaniy jarayonlarga munosabat bildirib, jamiyatning bir a’zosi sifatida o‘quvchini bugungi shiddatli zamonda sergak bo‘lishga, atrofimizda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy

voqea-hodisalarga befarq bo‘lmaslikka da’vat qiladi. Buning yorqin dalili sifatida Xurshid Davron tomonidan tashkil qilingan https://kh-davron.uz. saytini aytishimiz mumkin.

Global tarmoq imkoniyatlaridan keng foydalanayotgan adib suhbatlaridan birida ushbu elektron kutubxonasi to‘g‘risida shunday deydi: “…*Vaqt o’tib, “Xurshid Davron kutubxonasi” veb-saytini ochdim. Bu veb-sahifada o’z asarlarim va ularga bag’ishlangan maqolalar, ustozlarim va tengdoshlarim haqidagi xotiralar bilan bir qatorda o’zbek va jahon adabiyotining sara asarlari, bugungi adabiy jarayon, yangi nashr etilgan kitoblar haqida ma’lumot olish mumkin.”* https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-bilan-suhbat.html 26.08.2019*]*. Tadqiqotimizda publitsistning turli mavzuga oid maqola, esse va suhbatlari tahlilga tortildi.

Publitsistika-ijtimoiy hayotning ko‘zgusi. Ushbu janrga xos bo‘lgan tezkorlik va hozirjavoblik, keng qamrovlilik hamda erkinlik hamma ijodkor singari Xurshid Davronni ham o‘ziga tortmasdan iloji yo‘q. Publitsist ijodi davomida esse, maqola va badihaning yuksak namunalarini yaratmoqda, radio, televideniya va gazeta muxbirlari bilan bo‘lgan uchrashuv va suhbatlarda Vatan taqdiri, til, ma’naviyat, ijod sehri, shonli o‘tmishimiz hamda hayotiy haqiqatlar haqida jonkuyarlik bilan so‘zlaydi.

Yurtimizda o‘zbek va jahon media- arxivini yarata olgan ijodkor publitsistikasidagi asosiy yo’nalishlarni quyidagicha guruhga bo‘lish mumkin:

a) tarixiy shaxslar haqidagi maqola, esse va suhbatlar
b) ijtimoiy-siyosiy mavzudagi maqola, esse va suhbatlar
c) adabiy-badiiy muammolar haqidagi maqola, esse va suhbatlar

Publitsistik asar tilini tadqiq qilishda tilshunoslar turli tasnifiy va tavsifiy tamoyillarga tayanib ish ko‘rishadi. Xususan, o‘zbek tili publitsistik tilini ilk bor monografik aspektda o‘rgangan T.Qurbonov tahlil jarayonida stilistik va statistik usullarga tayangan holda publitsistik nuqtda namoyon bo‘luvchi lingvistik, intralingvistik va ekstralingvistik tamoyillarga bog‘liq ravishda leksik vositalar tanlanishiga e’tibor qaratadi. Olimning ta’kidicha, publitsistik uslubning leksik strukturasi shakllanishida omil va vositalarni farqlash muhim. Bunday faktor ikkita:

a) informativ omil;
b) ekspressiv omil;

Shunga ko‘ra, leksik vositalarni quyidagi uch guruhga bo‘lish an’anasi mavjud:

a) konseptual leksika;
b) emotsional leksika;
c) betaraf leksika [Хамраева Х., 2012: 61].

Har bir ijodkorning ijodiga baho berish uchun avvalambor uning so‘z qo‘llash mahorati, mavzuga mos faktik material tanlay olishi, tilning barcha imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda emotsional-ekspressiv vositalarni to‘g‘ri qo‘llay olishi tadqiq qilinishi lozim. Tadqiqotimizda tahlil qilish uchun yozuvchining bir necha maqola, esse va suhbatlari tanlab olindi. Quyida tahlillar bilan tanishamiz.

Publitsistik uslubda yaratilgan asarlarda muallif boshqa uslub xususiyatlariga tayangan holda ish ko‘radi, ya’ni turli sohalarga oid terminlar, emotsional bo‘yoq, obrazli ifodalardan o‘rniga ko‘ra foydalanadi. Bu jihatdan ushbu uslubda badiiy, ilmiy, rasmiy-idoraviy hamda so‘zlashuv uslubi elementlarini ko‘rishimiz mumkin. Badiiy va so‘zlashuv uslubining o‘zaro bir kontekstda qo‘llanishi publitsistik nutqning ifodaviyligini ta’minlaydi, o‘quvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Matnlarga murojaat qilamiz:

1. a) *Go‘yo u chizayotgan suratlarga ko‘chmagan yurakning* ***botiniy sadolarini*** *jaranglatishga imkon topganday, go‘yo u yana* ***bo‘yoqlar sukunati****ga qaytishdan qo‘rqayotganday* ***baqirib-baqirib****,* ***iztirob bilan*** *she’r o‘qiydi. b).****Daraxtlar gulxani*** *borliqni chulg‘agan. Hali* ***yog‘ib ulgurmagan yomg‘irlar*** *osmonda. Hali daraxt* ***sehrgarlik bilan ovora****. c).Cholning sallasi* ***oyning bir bo‘lagidek suzib borayotir*** [https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-musavvir.html, 28.12.2022].

2. a)Butun vujudim bilan o‘z zamonamdan nafratlanaman.Bu zamonda inson ***tashnalikdan halok bo‘lishga mahkum…****b)Ularda faqat katta odamlarga xos fazilatu kamchiliklar* ***mujassam edi. c****)Ana shunda ko‘rasiz- olam ko‘z o‘ngingizda butkul boshqacha* ***jilvalana boshlaydi.[***https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-eng-hayotiy-ertak.html***, 26.04.2022]***

Yuqorida keltirilgan misollardagi *botiniy sadolari, bo‘yoqlar sukunati, iztirob bilan, daraxtlar gulxani, yog‘ib ulgurmagan yomg‘irlar, sehrgarlik bilan ovora, oyning bir bo‘lagidek suzib borayotir, tashnalikdan halok bo‘lishga mahkum, mujassam edi, jilvalana boshlaydi* kabi badiiy uslubga xos so‘zlardan mohirona foydalanganki, natijada matnning emotsional-ekspressivligi oshgan. Bu esa o‘quvchi ko‘z o‘ngida voqeani badiiy-estetik gavdalanishiga olib keladi. Bir qo‘shma gap tarkibida badiiy uslubga xos so‘zlar bilan birgalikda qo‘llangan so‘zlashuv uslubiga oid *baqirib-baqirib* so‘zi matn mazmundorligini ta’minlagan.

Yana quyidagi parchaga diqqat qilaylik: *“****Falonchi*** *(onam yaqin dugonasining ismini aytdi) bir oydan beri kasalxonada yotgan bo‘lsa, sen uni “pilla topshirish rejasini ikki baravar qilib bajardi”,-deb yozibsan. Hozir u emas, boshqa kishi brigadir bo‘lgan. Nega meni sharmanda qilasan, borib so‘rasang,* ***o‘lasanmi?****” Xullas,* ***uyatchanligim tufayli*** *pillaxonaga bormay, uzoqdan so‘rab-surishtirib yozgan kichkina xabarim* ***e’lon qilingan*** *kunning ertasiyoq onam jurnalistikaning va albatta, adabiyotning ham asosiy talabi - yolg‘on yozmaslik kerakligi haqida bir umrlik* ***saboq bergan edilar.*** https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/bolalikning-oppoq-ranglar-ixurshid-davron-bilan-suhbat.html***, 18.12.2021]***

Chingiz Aytmatov yuragida bolaligini saqlay olgan ijodkorgina iste’dodli bo‘lishini ta’kidlagan. Xurshid Davron ana shunday kattalarday yashab, boladay yoza oladigan ijodkordir. Adib ushbu suhbatda bolaligida onasi tomonidan hayotiy saboq berilganini eslab, haddan tashqari uyatchanlik insonga zarar keltirishi mumkinligini aytadi. Matnda qo‘llangan *falonchi, o‘lasanmi?* kabi so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlar ta’sirchanlikni oshirib, uni jonli muloqot tiliga yaqinlashtirgan. Bir matn tarkibida badiiy (*uyatchanligim tufayli,e’lon qilingan, saboq bergan edilar)* hamda so‘zlashuv uslubiga xos birliklarni yonma-yon qo‘llash natijasida nutqda soddalikka erishgan, shu bilan bir qatorda bo‘yoqdorlik ta’minlangan.

Odatda sarlavha publitsistikaning muhim vositalaridan biridir. Sarlavha matnning mag‘zini tashkil qilishi bilan ahamiyatli. Xurshid Davronning elektron kutubxonasidagi adib ijodiga mansub maqola,esse, suhbatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tanlangan sarlavhalar ixcham, badiiy jihatdan puxta, har bir so‘zning yuki bor. Adib aytmoqchi bo‘lgan fikrining qaymog‘i sarlavhada mujassamdir. O‘quvchi sarlavhani o‘qir ekan, shu mavzu yuzasidan assotsiativ bilimlari yuzaga chiqadi, natijada matnni tushunishi osonlashadi.

Iroda Azimova o‘zining “O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi” nomli monografiyasida [И.Азимова., 2019: 88] sarlavhaning matn

mazmunini tushunishdagi ahamiyati haqida tahlillar asosida ma'lumotlar keltirgan. Tadqiqotchi sarlavhani 4 guruhga bo'lib o'rganishni taklif qiladi:

1. So'zlar asl ma'nosida qo'llangan darak gap shaklidagi sarlavhalar
2. So'roq gap shaklidagi sarlavhalar
3. So'z yoki so'z birikmasi shaklidagi sarlavhalar
4. G'ayrioddiy lisoniy vositalar qo'llangan sarlavhalar

Yuqoridagi guruhlashga asoslanib adib publitsistikasi tahlil qilinganda so'z birikmasi shaklidagi sarlavhalar miqdor jihatdan ko'pchilikni tashkil qildi: *"Ustoz ibrati", "Tarix-bobolar bog'i", "Musavvir bo'lmoq ersang", "Toki she'r tirik ekan", "Bobolarim, bolalik, Samarqand", "Eng hayotiy ertak", "Mirzo Bobur pirlari", "Menkim, Bobur…", "Kibriyo opani eslab", "Quloq anglag'oni ilm…", "Ma'rifat-shijoatdir", "Qog'ozga yozg'ulik qolg'ay", "Yolg'on emas, g'araz", "Tabiatga oshufta ko'ngil", "Mansura haqida", "Oy menga hamqadam", "Ibratga aylangan maskan", "Yozish mashaqqati", "Millat ruhiga e'tiqod", "Olis bolalikdan qolgan xotira", "Adabiyot-oinayi millatdir", "Men bilgan haqiqatlar", "Umrni ma'noga to'ldirmoq zavqi", "Bolalikning oppoq ranglari", "Ikki qit'a sharhi", "Osmonga talpingan shoir", "Amir Temur saboqlari", "Kashf et sen o'zingni…", "Tarix mezoni haqiqatdir", "Ma'rifat-farosatdir", "Feruza osmonlik shoir", "Sezgi ila anglangan falsafa", "Onamning bir umrlik sabog'i", "Mehr va she'r haqida", "Ma*saoka *Shiki haqida", "Ishq yog'dusi yoritgan satrlar", "Shavkat Rahmonga maktub", "Takiboku va tanka haqida", "Sohibqiron o'gitlari", "Bir parcha xotira"*. Alohida maqola, esse va suhbatlarni aks ettirgan 40 sarlavhadan 7 tasi ikki so'zdan, 24 tasi uch so'zdan, 9 tasi to'rt so'zdan iborat. Demak, sarlavhalarning 77 foizi ikki va uch so'zdan iborat.

Psixolingvistik tadqiqotlarga tayanib shuni aytish mumkinki, gap, qo'shma gap shaklidagi sarlavhalardan so'z yoki so'z birikmasi shaklidagi sarlavhalar o'quvchida katta qiziqish uyg'otadi va matnning o'qilishiga sabab bo'ladi. So'zga "ziqnalik" yoyinki kam so'z ishlatish orqali o'z fikrini o'quvchiga yetkaza olish mahorati adibga ustoz Abdulla Qahhor va Ozod Sharofiddinovdan meros desak yanglishmaymiz.

Publitsistik uslub tilining asosiy xususiyatlaridan biri unda badiiy uslub elementlarining mavjudligidir, ya'ni xuddi badiiy uslub singari undagi tasvirlash vositalarining estetik vazifa bajarishidir. Mana shu jihati bilan u badiiy uslubga juda yaqinlashadi. Ushbu uslubda muallif hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, hozirjavoblik, dalil va asoslar bilan tushuntirishda, isbotlashda, o'quvchini bunga ishontirishda, his-tuyg'ularga ta'sir etishda tarixiy va arxaik so'zlarga, ko'chma ma'noli so'zlarga, emotsional bo'yoqdor so'zlarga, ma'nodosh, shakldosh va zid ma'noli so'zlarga, shuningdek, ibora, maqol va matal kabi birliklarga murojaat qiladi. Keyingi tadqiqotlarimizda publitsist maqolalarini yuqorida sanab o'tilgan birliklar asosida lingvokulturologik jihatdan tahlil qilishni maqsad qildik.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Xurshid Davronning serqirra publitsistikasi hali ochilmagan buloq kabidir. Uni har tomonlama tahlil qilish, o'rganish ilm ahli oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki publitsistik uslubga xos nutq adabiy tilning funksional rang-barangligini aks ettiradi, ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohasini qamrab oladi. Bu esa uning leksikasi boshqa uslublarga nisbatan rang-barang va keng qamrovli ekanligini ko'rsatadi. Xurshid Davron publitsistikasining leksik xilma xilligi ham fikrimizning isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-bilan-suhbat.html 26.08.2019
2. https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-musavvir.html , 28.12.202
3. https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/xurshid-davron-eng-hayotiy-ertak.html , *26.04.2022*
4. https://kh-davron.uz/ijod/maqolalar/bolalikning-oppoq-ranglar-ixurshid-davron-bilan-suhbat.html , *18.12.2021*
5. И.Азимова. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний персепсиясининг психолингвистик тадкики. Монография. – Т., 2019.
6. Хамраева Хулкар Хамидуллаевна. Озод Шарофиддинов публицистикасининг тили ва услуби. Филол. Фан. Ном. Дисс.– Т., 2012.

QASHQADARYO VILOYATI QIPCHOQ LAHJASIGA OID BA'ZI LEKSEMALAR LISONIY TAHLILI

Ergashova Shahlo Shokir qizi
O'zbek filologiyasi fakulteti
Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich magistranti
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.
E-mail: sergashova015@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyatida yashovchi aholi shevasida faol qo'llanuvchi o'zbek tilining qipchoq dialektiga oid ayrim so'zlar adabiy tildagi va mavjud shevalardagi so'zlar bilan fonetik va leksik jihatdan qiyoslanib, tahlilga tortilgan hamda bu to'g'rida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, dialektdagi leksik birliklar "Devonu lugotit turk" va o'zbek shevalariga qiyoslangan. Misollar tahlilida taqqoslash, qiyosiy-tarixiy kabi bir qator lingvistik usullardan samarali foydalangan.

Kalit so'zlar: dialektologiya, qipchoq, qarluq, o'g'uz lahjasi, fonetik, leksik xususiyatlar, so'zlashuv nutqi.

Annotation: In the article, some words of the Kipchak dialect of the Uzbek language, actively used in the dialect of the population living in the Kashkadarya region, are phonetically and lexically compared with the words of the literary language and existing dialects, analyzed, and comments are made about it. Also, lexical units in the dialect are compared to "Devonu Lugotit Turk" and Uzbek dialects. In the analysis of examples, a number of linguistic methods, such as comparison, comparative-historical are effectively used.

Keywords: dialectology, Kipchak, Qarluq, Oghuz dialect, phonetics, lexical features, colloquial speech.

Аннотация: В статье фонетически и лексически сравниваются некоторые слова кипчакского диалекта узбекского языка, активно употребляемые в говоре населения, проживающего в Кашкадарьинской области, со словами литературного языка и существующих диалектов, анализируются, даются комментарии. сделал по этому поводу. Также лексические единицы диалекта сравниваются с «девону-луготит-тюркским» и узбекским диалектами. При анализе примеров он эффективно использовал ряд лингвистических методов, таких как сравнение, сравнительно-исторический.

Ключевые слова: диалектология, кипчак, карлук, огузский диалект, фонетика, лексические особенности, разговорная речь.

Millatimiz g'ururi va iftixori bo'lgan ona tilimizning sofligini saqlash, dunyo miqyosida rivojlantirish uchun muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan qarorlarning ahamiyati kattadir. Har bir xalqning o'zligini namoyon etuvchi milliy va umuminsoniy qadriyatlari bo'ladi. Til shaxs va jamiyat salohiyati hamda madaniyati saviyasining o'ziga xos belgisidir. Ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniyning "Har bir millatning dunyoda

borlig‘ini ko‘rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak - millatning ruhini yo‘qotmakdur” degan hikmatli so‘zlari yurtning istiqboli tilda ekanligini chiroyli isbotlaydi. Darhaqiqat, millatning yuzi, yurtning istiqboli uning tilida, unga bo‘lgan hurmatda o‘z aksini topadi. Tilimizni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar, o‘quv qo‘llanmalar, yangi-yangi lug‘atlar va darsliklar ko‘plab nashr etilayotgani jamiyatimizning ziyoli insonlarini, kelajak avlodning tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ma’lumki, mutaxassislar tomonidan e’tirof etilgan jonli xalq tili - bu sheva. Shevada shu xalqning hayoti va madaniyati to‘liq o‘z aksini topadi. Shevadagi jozibadorlik va ta’sirchanlikni ba’zan adabiy tilda yetkazib berish qiyin.

Dunyoda mavjud barcha tillarning deyarli barchasi o‘ziga xos ichki sheva yoki shevachalardan iborat. Turkiy tillarning har biri bir necha sheva va dialektlardan iboratligi ma’lum. Biroq o‘zbek tili turkiy tillar ichida o‘zining ko‘p shevaliligi va dialektliligi bilan farqlanadi. Dialektolog olimlardan biri professor E. D. Polivanov: “… turkiy tillarning birortasi ham shevalararo o‘zbek tili singari bu qadar keskin farqlanmaydi, demak, birorta turkiy til ham shu qadar spetsifik, dialektal xilma-xillik xususiyatiga ega emasdir. Bu esa, tabiiy, adabiy til uchun biror dialektni asos qilib olish masalasini nihoyat darajada og‘irlashtiradi”, – degan edi.

Albatta, adabiy til uchun qaysi dialektni (lahjani) asos qilib olish qiyin tuyulishi mumkin, lekin o‘z navbatida, bir vaqtning o‘zida mamlakatimiz bo‘ylab uchta lahjaning qo‘llanilishi tilimizning boy ekanligidan darakdir.

Bilamizki, sheva materiallari adabiy tilimizni fonetik, leksik va grammatik jihatlardan boyituvchi asosiy boyish manbai sanaladi. Qashqadaryo hududidagi bir qator tumanlarda aholining katta qismi qipchoq lahjasida so‘zlashadi. Biz o‘rgangan Qamashi va Yakkabog‘ tumani shevalari ham qipchoq dialektiga oiddir. Biz dialektal materiallarimizni shu tumanlarda yashovchi sheva egalari tilidan yozib oldik.

Qipchoq lahjasi asosan fonetik va leksik o‘zgarishlarga juda boy lahjadir. Bu lahjaning ba’zi fonetik xususiyatlari quyidagicha ko‘rinishga ega:

So‘z boshida: y>j: yer – jer, yo‘q - jo‘q, yo‘l - jo‘l, yur - jur, yuz-juz;

So‘z oxirida: q>g‘: quloq – qulog‘, o‘rtoq - o‘rtog‘; **g‘> v**: sog‘- sov, tog‘-tov, bog‘-bov, tug‘ – tuv; **q>v**: bo‘yoq-bo‘yov; **p>b,v**: gap-gab, top-tov.

So‘z oxirida ba’zi so‘zlarda undoshlari tushib qoladi: sariq - sori, kichik -kichchi, tag‘in - tog‘i, atayin - atay.

X - Q undoshiga o‘tadi: xotin - qotin, tuxum - tuqum, xayol - qiyol, xat-qat, axir -oqir.

Qamashi tumani shevasini kuzatishlarimiz natijasida shunga guvoh bo‘ldikki, “Devonu lug‘otit turk” asari leksikasi bilan bugungi o‘zbek shevalarida qo‘llanilgan ba’zi so‘zlar o‘rtasida yaqinlik va ba’zi farqlar borligini, lekin bu ularni bir-biridan ayiruvchi emas, balki yaqinligini ifodalovchi tafovutlar ekanini ko‘rsatdi. Buni quyidagi misollarning qiyosiy tahlilida ham kuzatish mumkin. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati, Qamashi shevasiga oid ba’zi so‘zlarda ham fonetik va leksik o‘zgarishlarni kuztishimiz mumkin:

Qamashi tumanida istiqomat qilayotgan aholining shevalari j–lovchi shevalariga kiradi. Ular asosan “Y” harfi qatnashgan yoki ushbu harflar gaplarning boshida kelgan so‘zlarda tovush almashish fonetik hodisasi sodir bo‘ladi. Masalan, **“yo‘q”** leksemasi o‘rniga **“Jo‘q”** tarzida

talaffuz qilinadi. Qamashi tumani aholisi shevalarida tovush tushishi, orttirilishi va tovush almashishi hodisalari ko‘p uichraydi. Masalan:

“Olma” so‘zida ham tovush almashish hodisasi sodir bo‘lib,**“alma”**tarzida talaffuz qilinadi. **“Bodring”** leksemasi “**badring”** tarzida “o” unlisi “a” tarzida o‘zgaradi. Sheva egalari **“pamidor”**ni **“pamadir”,** “to‘g‘ramoq” so‘zini “to‘vramoq” tarzida talaffuz qilishadi.

Jir - leksemasi ham o‘rganilayotgan shevada **yog‘**(shevada **moy** leksemasi ham ishlatiladi) ma’nosida faol qo‘llanadigan shevaga xos so‘zlardan biri hisoblanadi. A. Rustamovning “So‘z xususida so‘z” kitobida ta’kidlanishicha, **“jir”**so‘zi tilimizda “ yog‘”, “moy” ma’nosini anglatadi. Ozg‘in kishiga nisbatan “Bunga hech jir bitmayapti” yoki “ Buning hech jiri yo‘q” degan iboralar shu mazmundan kelib chiqqan (O‘zbek tilidagi “jir” da “jurnal” so‘zidagi kabi “j” talaffuz qilinadi) [Shukurov, 2018:312]. Shunisi qiziqki, rus tilidagi **“жир”**so‘zi asli bizning tilimizdagi ayni shu **“jir”** so‘zining o‘zidir. Chunki **“jir”** so‘zining turkiy so‘z ekanligi Mahmud Koshg‘ariyning lug‘atida qayd etilgan: ***ashichta jir yo‘q***-qozonda yog‘ yo‘q [DLT,I,313].

Kirpi - shevada adabiy tildagi **tipratikon** so‘zi o‘rnida faol qo‘llanadi. Mazkur leksema bugunda Xorazm shevasida **tipratikon** so‘zi o‘rnida **kirpi** so‘zi ishlatilib, bu so‘z turkiy tillarda ham ayni ma’noda qo‘llaniladi. [N.Axmedova, 2021:187] “Devonu lug‘otit turk” asarida ham ushbu uchraydi: kirpi- tipratikon, kirpi: oqlug‘ kirpi-tipratikonning juda katta xili [M.Koshg‘ariy,2017:167]. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da **kirpi** so‘zi qadimgi turkiy tilda mavjudligi hozirda sheva so‘zi ekani, **kirpi** - ko‘p tikan ma’nosini bildirishini aytib o‘tiladi [Sh.Rahmatullayev, 2000:210].

Qöniq(***qönäq***)- so‘zi ham shevada “mehmon, to‘yda keladigan mehmon, to‘ylarda beriladigan kichik ziyofat” kabi ma’nolarda faol qo‘llanadi. Mazkur leksema DLT, QB asarlarida ham ayni ma’noda qo‘llanganligini kuzatish mumkin. “Qutadg‘u bilig” doston matnida ***qonuq (qon+(u)q)*** so‘zi “mehmon” ma’nosini bildirgan:

Nelük arsïqar sen aya öldäči
Özüŋ iki künlük qonuq boldačï .
Nimaga mag‘rurlanasan, ey o‘luvchi,
O‘zing ikki kunlik mehmon bo‘luvchi(san) (QBN, 1972: 3482).

Bu so‘z “Devonu lug‘otit turk”da *“mehmondorchilik, ziyofat”* ma’nosida qo‘llangan. O‘g‘uzlardan boshqa qabilalar tilida bu so‘z “uy egasi yoqtirmagani holda, birov uyida turish” ma’nosida qayd etilgan (DLT, III, 351). Hozirda Qashqadaryo, Surxondaryo shevalarida “mehmondorchilik, to‘ylarda beriladigan kichik ziyofat” ma’nolarida qo‘llaniladi.[M.Xolmurodova, 2021:194]

Kön - leksemasi shevada ***teri*** ma’nosida ishlatiladi: *patinkaning köni jomon ekan.* M.Koshg‘ariyning “ishlov berilmagan teri”ning **kön,** aksincha, “ishlov berilgan teri”ning esa **qoɣuš** istilohi bilan ifodalanishi xususidagi ta’kidi muhim ilmiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etishini ta’kidlash lozim (M.Koshg‘ariy, 1963: 154)[H.Dadaboyev, 2021: 160]

Jrçi (jarchi) - odamlar ko‘p to‘planadigan joylarda rasmiy e’lonlar eshittirib yuruvchi kishi, qishloq joylarida to‘y va ma’rakalarga mahallalarda yurib qichqirib aytib chiqadigan kishi [Begmatov E. 2006:42].

***Çeça:*(checha)**- shevada qo‘llaniladigan so‘z, u yanga, kelinoyi [Abdullayev F.A,1961:97] ma’nosini beradi, u kelinga nozik munosabatlarda maslahat berib, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi. Odatda bo‘lg‘usi kelinlar o‘zi ishongan yaqin qarindoshlari ichidan bitta kelinni tanlab o‘ziga yanga qiladi.

Çeça: qipchoq lahjasida uzoq davrlardan buyon ishlatiladi, hozirda bu so‘z keksalar nutqidagina saqlanib qolgan bo‘lib, yosh avlod ***yeňňa*** (yanga – nikohning ikkinchi kuni kechasi kelin bilan kuyov xizmatida qoluvchi ikki xotindan biri [O‘TIL, 2013: 112-113] so‘zidan foydalanishadi. Ayrim manbalarda ushbu so‘z ***egä:t*** deb berilgan. ***Egä:t***– nikoh kechasi kelin yonida xizmat qiluvchi xotin, yanga [M.Koshg’ariy,1980:85] ma’nosini bildiradi.

Dastrxo:nçi (dasturxonchi) – to‘y, katta ziyofat va boshqa marosimlarda dasturxon tayyorlash va kelgan-ketganlarni kutish uchun belgilangan ayol[O‘TIL, 2013: 574].

Mölla: **(mulla) - o‘qimishli, taqvodor odam. O‘rta Sharq, Markaziy Osiyo mamlakatlarida madrasa ta’limini olgan shaxs.**

Yuqorida biz birgina M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asaridagi ba’zi leksemalarnigina keltirib o‘tdik, bularning o‘zi ham tilimizning ya’ni shevalarimizning boyligini hamda ular bugungi kunga qadar ayrim hudud shevalarida saqlanib qolganligining yaqqol misolidir. Quyida esa Yakkabog‘ va Qamashi tumanlari dialektiga xos so‘zlardan ba’zilarini misol keltiramiz.

Qamashi va Yakkabog‘ shevasida	Ma’nosi
Ummik	sovliq sutini emmagani bois o‘sishdan qolgan qo‘zi
Do‘rji	ko‘tarasiga, hammasini birdaniga savdo qilish, olish
Do‘kan	uy-ro‘zg‘or buyumlariga yasalgan sopning uchuni tutunga toblaydigan tandir
Ko‘nargi	sutni uyutish uchun qo‘shiladigan qatiq. “Oqliq” ham deb aytiladi
Ko‘ktirnoq	ziqna, xasis kishi
Kuya	ichi qora odam (ko‘chma ma’noda)
Mukki	qo‘nji kalta etik
Naymit	pishiq-puxta kishi
To‘dakash	ko‘pkarida to‘da ichidan uloqni halol ayirib chiquvchi chavandoz
Chakkagir (chetkir)	to‘dakash halol ayirib chiqqan uloqni ilib ketish uchun chetda poylab turadigan chavandoz
Chibich	echki suti kamligi bois o‘sishdan qolgan uloq
En	chorva mollarining qulog‘ini kesib, teshib belgi qo‘yish
O‘la(ha)t	yer maydoni sug‘oriladigan, suvot tekislikdagi joy, qishloq
Shardoz	juvoldiz teshigidan o‘tadigan yo‘g‘on ip
Inak	Sigir
Övüshtä	oldi-berdi
Jävlük	hamma, barcha, yoppasiga
Gajir	gajir-jangari, qaysar, o‘jar
Jupqa	yupqa, xamirli taom
Oxmoy	paxta yog‘i
Arqayin	bamaylixotir, bemalol
Ottaba	oftoba, suv idish
Tutandiriq	quruq o‘tin

Taxtay	sabzi to‘g‘raydigan taxta
Siyir	Sigir
Siyirmoq	Shilmoq

Misollardan ko‘rinadiki, o‘rtada uzoq muddat bo‘lishiga qaramay qiyosiy tahlilga tortilgan so‘zlarning aksariyati bugun o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmasa-da, mavjud shevalarimizda faol ishlatilib kelinmoqda. Ushbu leksemalarning ba’zilari ma’no o‘zgarishiga uchragan bo‘lsa, ayrimlari fonetik o‘zgarishlar bilan hozirgi adabiy tilda istifoda qilinmoqda. Bu esa, tilimiz, shevalarimiz va xalqimizning tarixiga borib tutashadi. Bugun yoshlarimiz deyarli o‘zaro shevada emas, balki, adabiy tilda muloqot qiladilar. Sheva so‘zlarining o‘ziga xos go‘zalliklarini shahar va viloyatdan ancha uzoqda bo‘lgan chekka qishloqlarda uchratish mumkin. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Qamashi tumani shevasi viloyat va tumanlararo qiyoslanganda, leksik jihatdan ham o‘ziga xos bo‘lib, shakliy tuzilishidan rang-barangdir. Shevadagi leksemalarning ayrimlari bir xil ma’noda ishlatilsa, ayrimlari ma’no kengayishi yoki torayishiga uchragan holda hozirgi kungacha yetib kelganligi ma’lum bo‘ldi. Tilimiz boyligi sanalgan sheva va lahjalarimizdagi so‘zlarni yozib olib, bu orqali adabiy tilimizni yanada to‘ldirib, boyitib borish dialektologiya fani oldida turgan dolzarb masalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent. 2021. -B. 8.
2. Jumashov Davlatyor. Yakkabog‘ shahri ayg‘irko‘l dialekti xususida “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari (Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan),- Toshkent, ToshDO‘TAU, 2021-yil, 22-may. 369-bet.
3. R.Suvonova. Qipchoq shevalariga xos so‘zlar lug‘ati. -Samarqand: 2019.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 5-jildlik, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”– Toshkent, 2013.Ш.Раҳматуллаев.
5. Ўзбек тилининг этимологик луғати(туркий сўзлар) Университет. -Тошкент, 2000.
6. Маҳмуд Қошғарий, Девону луғотит-турк / Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М. Муталлибов. Т. I-III. – Тошкент: ФАН,1960-1963.
7. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: ФАН, 1971.
8. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 28.
9. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент: Фан,1966. -Б.160-249.
10. Шерматов А. Қуйи Қашқадарё ўзбек шевалари. -Тошкент, 1972.

International scientific-practical conference: Vol.2 / No. 18.10 (2024).
«PROBLEMS OF RESEARCH AND EDUCATION OF THE UZBEK LANGUAGE».
Proceedings homepage: https://www.myscience.uz/index.php/language

MADANIYATLARARO MULOQOTDA BILINGVIZMNING O‘RNI

Mo‘ydinova Hadyaxon
O‘zMU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi 1-kurs magistranti.
E-mail: moydinovahadyabonu@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada bilingvizmning shaxsning intellektual rivojlanishining turli jihatlariga, shuningdek, uchinchi tilni o‘rganish jarayoniga ta’siri bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar asosida umumiy fikrlar berilgan. Tilshunoslikda til hodisalarini boshqa ijtimoiy hodisalar bilan bog‘liq holda yorituvchi lingvistik tadqiqotlar XX asr boshlarida Fransiya, Rossiya, Chexiya, AQSH kabi mamlakatlarda vujudga kela boshladi. Tilni ijtimoiy institutlar va jamiyat evolyutsiyasi bilan birga o‘rganish, til va jamiyat, lingvistik vaziyat, ijtimoiy va kommunikativ tizim, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kod, kodni o‘zgartirish, ikkitillilik, ko‘ptillilik, til siyosati, adabiy til, milliy tillar, til taraqqiyoti modellari masalalari olimlarning diqqat markazida bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: bilingvizm, ikki tillilik, kognitiv tilshunoslik, tabiiy til, koordinativ, psixolingvistik, uchinchi tilni o‘rganish.

Abstract: The article provides general opinions based on foreign research on the influence of bilingualism on various aspects of the intellectual development of a person, as well as on the process of learning a third language. In linguistics, linguistic studies that shed light on language phenomena in connection with other social phenomena began to appear in countries such as France, Russia, the Czech Republic, and the United States at the beginning of the 20th century. Study of language along with social institutions and society evolution, language and society, linguistic situation, social and communicative system, communicative competence, linguistic code, code switching, bilingualism, multilingualism, language policy, literary language, national languages, the issues of models of language development have become the focus of attention of scientists.

Keywords: bilingualism, bilingualism, cognitive linguistics, natural language, coordinative, psycholinguistic, third language learning.

Tillar – zehnimizni ochishga, uni yanada rivojlantirishga, fikrlarimizni tartibli va aniq shaklda yetkazishga yordam beradi. Hozirda tez fursatlarda rivojlanib borayotgan dunyoda o‘zingizni bir ona tilingiz bilan chegaralash jadallik bilan rivojlanyotgan davrda yangiliklardan bexabar yashash bilan tengdir. Ona-tilingiz hozirda eng ko‘p tarqalgan ingliz tili yoki rus tili bo‘lsa ham, ikkita tilda gaplashadigan insonlar bilan solishtirish yokida ustun bilishingiz aslida bu borada sizning noto‘g‘ri fikrda ekaningizni ko‘rsatadi.

Bilingvizim – ikkita tilda bemalol muloqot qila oladigan, erkin fikrlay oladigan, ikki tilni ham bir xil egallaganlik tushuniladi. “Bilingvizm” tushunchasidan lingvistik atama sifatida birinchi bo‘lib U. Vaynraxx foydalangan. Ikki tilda o‘zaro kommunikativ munosabatga kirishuvchi shaxslar bilingvlar hisoblanadi. Bu atamaning kelib chiqishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, miloddan avvalgi III-II asrlarda rimliklar Iberiya (bugungi Ispaniya) hamda Galliyani

(bugungi Fransiya) bosib olishgan. Mazkur hududlarda mahalliy til – lotin tili bilingvizmi vujudga keladi.

Miya- shakl beriladigan organdir. Tug‘ilishdan to qarigunga qadar rivojlanadi, moslashadi, o‘rganadi. Bilingvist odam miyasi bir nechta sezilarli afzalliklarga ega bo‘ladi. Ikki tillilik hodisasi ma’lum bir ehtiyojlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bolalarning ikki tilliligi – bu bolaning ikki tilda gaplashishi va tillardan foydalnish jarayoni bir-biriga xalaqit bermaydigan hodisa. Tilda ravonlik so‘z va grammatika o‘rganishdan ko‘ra ko‘proq narsani anglatadi. So‘zlovchining til mantiqi mentaliteti va tafakkur tarzini o‘zlashtirib olish, madaniyatni, tarixni o‘rganish zarur. Uzoq vaqt davomida tillarni ravon bilish ikki tillilikning asosiy mezoni hisoblangan.

Ikkita tilda muloqot qila oladigan insonlar har taraflama fikrlashi keng, miya faoliyati yaxshi ishlashini ko‘rsatadi. Olimlar izlanishlar olib borarkan, ikki tillilik miya faoliyatini hali hamon ohirigacha yechilmmagan bir qismi o‘laroq qolib kelmoqda. Bir qancha yillar davomida ilgari surilgan fikrga ko‘ra, ikki tilli insonlar ko‘proq shizofreniya va aql yetishmovchiliga uchraydi, degan fikrga ishonib kelishgan, ammo yillardir mobaynida qilingan izlanishlar buning aksini ko‘rsatmoqda. Kitoblar va maqolalarda bilingvizm bilan katta qilingan bolalardan har taraflama mukammal daho insonlar chiqishini yozishni boshladi. Bir qancha ilmiy izlanishlarda ikki tilni o‘rganish orqali katta bo‘lgan bolalarda fikr bildirish va miya faoliyati tez funksiya almashtirishi, xotira mustahkamligi kabi qobilyatlarga ega bo‘lishi bilan boshqa bolalardan farq qilishini ko‘rsatmoqda. Har tana a’zoyimiz kabi miya ham harakatda bo‘lishini yoqtiradi. Bir qator qilingan izlanishlarda ikki yoki undan ko‘p tilda muloqot qilish imkoniga ega bo‘lgan insonlar, turli miya faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklarning oldini olishini ko‘rsatmoqda. Ikki yoki ko‘p tilli insonlar bir tilda muloqot qiladigan insonlarga qaraganda, 5 yil keyin Altsgeymer kasaliga duchor bo‘lishi kuzatildi.

Bilingvist insonlarning eng qiziqarli aspektlaridan biri, ular muntazam ravishda ikkala til ham miyada aktiv holatda turadi. Miyangiz so‘zlarning hatto bir parchasini eshitishi bilanoq so‘zlarni taxmin qilishni boshlaydi. Ingliz tilida so‘zlashuvchilargina “can” so‘zini eshitishi mumkin va uning miyasi “candy” va “candle” so‘zlarini faollashtiradi. Ikkita tilda so‘zlashuvchi odam ikkita tilda o‘xshash jarangli so‘zlarni faollashtiradi. Xo‘sh, nima uchun bilingual bo‘lish pianina bilan shug‘ullanishdan ko‘ra samaraliroq. Javob sizni qoniqtirmasligi mumkin,lekin bu fakt biz tildan muntazam ravishda foydalanamiz. Hamma qiyin mashg‘ullotlar miya uchun foydali. Matematik masalalarni yechish, musiqa asboblarini chalishni o‘rganish, shaxmat o‘ynash kabi. Ammo ushbu faoliyatlarning istalgani bilan shug‘ullanish tildan foydalanadi, chunki u fikrlashni talab qiladi. Aslida, ikki tilli bo‘lsangiz, ikki marta o‘ylaysiz.

Yangi tilni o‘rganish yangi madanyatga sohib bo‘lish demaktir. Ikkita tilda gaplashadigan insonlar dunyoga boshqacha nazar bilan qaraydi. Dr.Panos Athanasopoulos, buni shunday izohlaydi: “til, madanyat va bilishlik orasida uzilmas bir bog‘ bor”. Birdan ortiq tilda gaplashdigan insonlar bilan test o‘tkazishganda voqea-hodisalarga farqli shaklda baho berishda yuqori natijalarni ko‘rsatishmoqda.

Yangi tilni o‘rganganda nafaqat til, balki uning madanyatini ham anglamagan shaklda o‘rganishni boshlaydi. O‘z ona tili holatiga yetkanda ikkita farqli madanyatga,dunyoqarashga ega bo‘ladi. Misol tariqasida hozirda yoshlar orasida keng tarqalgan koreys tilini olsak,bu tilni o‘rganishni boshlagan bolalarda sezilarli ravishda o‘zgarishlar kuzatiladi.dastlab,ularning kiyinish

uslubi,so‘zlash ,insonlar muloqot shakli ham o‘zgaradi. Koreys millating urf-odatlarini anglamagan holda o‘zida takrorlaydi va o‘zining madanyati bilan taqqoslash yuz beradi. O‘zi uchun qulay bo‘lgan shaklda madanyatlar qorishmasini shakllantiradi.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

1.Bilingvallik shaxs ongida dunyoning adekvat tasviriga erishishga yordam beradi. Bilingvizm ijtimoiy va siyosiy hayotda muloqot qilish, jamoada ishlash, kommunikatsiya; xalqlar o‘rtasida keng madaniy almashinuvni yoyishga hissa qo‘shadi.

2.Bundan tashqari, bilingvizm turli millat vakillarining muloqotida til to‘siqlarini minimallashtirish, xalqlarning o‘zaro izolyatsiyasi ehtimolini istisno qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi; millatlararo muloqot tilining keng tarqalishiga hissa qo‘shadi; umumiy va birlashgan jarayonda ishtirok etuvchi har bir tilning lug‘at boyligini o‘zaro boyitish va o‘zaro ta’sir qilish, to‘ldirish va kengaytirishga ham hissa qo‘shadi.

3. Umuman olganda, ikki tillilik ijtimoiy hodisa sifatida tillarning boyishi, rivojlanishi, umumbashariy madaniy saviyaning oshishiga muhim ta’sir etuvchi omildir. Tillarning bir-biriga har qanday ta’sir ko‘rsatishi bilingvist odamlar bo‘lishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bogus M.B. Vliyaniye bilingvizma na intellektualnoye razvitiye lichnosti obuchayemix / M.B. Bogus // Vestnik Adigeyskogo gosudarstvennogo universiteta. Seriya «Pedagogika i psixologiya». – Maykop: Izd-vo AGU. – Vip.7, 2008. – S. 47-53.
2. Vereshagin Ye.M. Psixologicheskaya i metodicheskaya xarakteristika dvuyazichiya (bilingvizma) / Ye.M. Vereshagin. – M.: Izd-vo MGU, 1969. – 160 s.
3. Vigotskiy L.S. Umstvennoye razvitiye detey v protsesse obucheniya [Tekst] / L.S. Vigotskiy. – M.: Nauka, 1935. – 134 s.
4. Baker C. Foundations of bilingual education and bilingualism / C. Baker. – Multilingual Matters Ltd, 1993. – 492 p.
5. Bialystok E. Language processing in bilingual children/ E. Bialystok. – Cambridge University Press, 1991. – 251 p.
6. Bialystok E., Hakuta K. In other words / E. Bialystok, K. Hakuta. – Basic Books, 1994. – 246 p.
7. Cenoz J. The additive effect of bilingualism on third language acquisition: a reviyew / J. Cenoz // International Journal of Bilingualism. – Vol. 7. – No. 1. – March 2003. – pp. 71-87.
8. Saodat, I., & Ma’suda, E. (2023, April). Bilingvizm Turlari Va Ikkinchi Til Leksik Bazasi. In international scientific conferences with higher educational institutions (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
9. Turapovna, I. S. (2024). TEZAURUSLARDA LEKSIK-SEMANTIK MOHIYATNING IFODASI. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 593-597.
10. Turapovna, I. S. (2023, April). TIL BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 238-241).

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA MATNNING AHAMIYATI

Tolibova Gulhayo Oqil qizi
O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi
Lingvistika yo‘nalishi birinchi bosqich magistranti.
E-mail: tolibovagulhayo584@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘nggi yillarda o‘zbek tiliga doir ta’limda olib borilayotgan islohotlar va kamchiliklar, o‘zbek tilini o‘qitishdagi yondashuv va metodlar yoritib beriladi. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda matnning ahamiyati borasida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Kompetensiya, kommunikatsiya, matn, o‘qish, o‘qib tushunish.

Annotation: This article highlights the reforms and shortcomings in Uzbek language education in recent years, as well as the approaches and methods in teaching the Uzbek language. It discusses the importance of texts in teaching Uzbek as a second language.
Keywords: Competence, communication, text, reading, comprehension.

Har bir xalq o‘z tili, madaniyati, qadriyatlari bilan barhayotdir. Bu uch omil– jamiyatning birlamchi mezoni, jamiyat ular vositasida shakllanadi, ravnaq topadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan taraqqiyot asrida yashayotgan ekanmiz, hech narsa o‘zgarmasdan qolmaydi. Millatning ko‘zgusi bo‘lmish tilimiz ham bundan mustasno emas. Barcha yangi g‘oyalar va fikrlar til bilan ifodalangani uchun aynan til o‘zgarishga, takomillashishga majbur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqesini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 5850-sonli Farmoni[52] ona tilimizni asrash, uning o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlarini saqlab avlodlarga yetkazish mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash, ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilganligi bilan o‘zbek tilining taraqqiyotida alohida hodisa bo‘ldi. Farmonda o‘zbek tilining mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlar tomonidan o‘rganilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Farmonning ijrosini ta’minlash uchun o‘zbek tili dasturlarini takomillashtirish, o‘quv materiallarini mazmuniy va metodik jihatdan yaxshilash taqozo etiladi.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilini o‘qitishning yangi davri boshlandi. Uzoq yillar o‘zbek tili faqat grammatik qoidalarni mustahkamlashga, nazariy bilimlarni yodlashga asoslangan bo‘lib, o‘rganuvchilar faqat til tuzilishi qoliplarini o‘rganishgan, xolos. Ammo ularda o‘rganilgan qoidalarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi yetarli darajada rivojlanmagan edi. O‘z navbatida bu holat o‘zbek tilini o‘rganuvchilar uchun salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ularning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirmadi va kommunikatsiyaga olib kelmadi. Chunki mazkur yondashuvda til o‘rganuvchiga o‘zbek tili grammatikasi o‘rgatildi, ammo grammatik qoliplar asosida muloqotga

[52] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. https://lex.uz/docs/-4561730

kirishish ko‘nikmalari shakllantirilmadi. Natijada yillar davomida (to‘qqiz yil) haftada ikki soat o‘zbek tilini o‘qigan o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalari shakllantirilmadi. Biz bu o‘rinda lingvistik qoidalar bilan qurollantirilib, nutqiy ko‘nikmalari deyarli shakllantirilmagan o‘quvchilarni nazarda tutyapmiz.

Keyingi yillarda tuzilgan o‘quv dasturi va darsliklar o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish va takommilashtirishga yo‘naltirilganligi bilan diqqatga sazovordir. Uzoq yillar o‘zbek tili ta’limida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar yangi uslub, yangi darslik va yangi zamonaviy vositalar orqali to‘ldirib borilyapti.

Ma’lumki, respublikamizda Umumiy o‘rta ta’lim o‘zbek tilidan boshqa yana 6 ta tilda olib boriladi. Bu umumta’lim maktablarida va uzluksiz ta’lim tizimining keyingi bosqichlarida o‘zbek tili davlat tili sifatida, shuningdek, xorijdagi bir qator OTMlarda: Xitoy Xalq Respublikasi, Moskva Davlat Universiteti, Ukraina Davlat Universiteti, Janubiy Koreya va AQSH dagi bir qancha oliy ta’lim muassasalarida chet tili sifatida ham o‘qitiladi.

O‘zbek tilining Davlat tili sifatida o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad shundaki, mamlakatimizda yashovchi turli millat vakillarining o‘zbek tilini kundalik ishlar va ijtimoiy faoliyat uchun yetarli darajada amaliy egallashlarini ta’minlashdan tashqari bu tilda huquqiy-me’yoriy hujjatlarni yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda faoliyat yuritish jarayonida og‘zaki va yozma tarzda erkin nutqiy muloqot yuritish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Ikkinchi tilni o‘qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli va unumli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, madaniyatlararo muloqotning lingvistik ta’minotini yaratishdan iborat.

O‘zbek tilini o‘qitishning takomillashtirilishining yana bir muhim jihati shundaki, u orqali ikkinchi tilni o‘rganishning turli o‘quv mahsulotlarini tizimli ravishda yaratish mumkin bo‘ladi. Darslik, mashq daftari, o‘qituvchi kitobi, o‘quv lug‘atlari, mediaqo‘llanmalar, turli tillardagi so‘zlashgichlarning vujudga kelishi shular jumlasidandir.

Kompetensiya – u yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlikdir. Kompetensiya (lot. “compete” – erishyapman, loyiqman) – fan bo‘yicha egallangan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo‘llay olishdir. Faqat ilmiy-nazariy bilimlar bilan emas, balki ularning mohiyatini tushungan holda, avtomatik qo‘llay olishni amalga oshirish ma’lum bir kompetentlikning belgisidir.[53]

Til ta’limi ikki muhim kompetensiyani qamrab oladi: nutqiy va lingvistik. Nutqiy kompetensiya til ta’limining to‘rt amalini: tinglab tushunish (eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni tushunish); gapirish (monologik, dialogik og‘zaki nutq turlarida so‘zlasha olish, o‘z shaxsiy qarashlari va fikrlarini og‘zaki tarzda ifodalay olish); o‘qib tushunish (biror mavzuga oid adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni elon, yorliq, hujjat, gazeta, badiiy asar, shaxsiy va elektron xatlarni o‘qib mulohaza yuritish); yozish (diktant, bayon, insho, biror ma’lumot, rasmiy ish qog‘ozlarini yoza olish, ijodiy matnlar tuza olish ko‘nikma-malakalarini shakllantirish) ko‘zda tutadi.[54]

[53] Temirova K.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. ‘‘Pedagogik mahorat’’ // ilmiy-nazariy va metodik jurnal, № 6/2022.
[54] Muxitdinova X. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi, – Toshkent., 2023 – 34-b.

Nutqiy kompetensiyalar ahamiyatiga ko‘ra:

– faol (gapirish va yozish);

– nofaol (o‘qib va tinglab tushunish) shaklga ega.

Nutqiy kompetensiyalar ana shu ikki ko‘rinishda bo‘linsa-da, nofaol nutqiy kompetensiyalar ham aslida faoldir. Bu nutqiy kompetensiyalar orasida o‘qib tushunish boshqalariga qaraganda yetakchi desak ham xato bo‘lmaydi. Negaki o‘qib tushunish yangi axborot olish va lug‘at boyligini oshirishning muhim vositasidir.

O‘qish va o‘qib tushunish mohiyatan bitta hodisani anglatsa-da, zimdan bu atamalar zamirida ikki xil holat mavjuddir. O‘qish – biror tilga oid matnni shu tilning talaffuz me’yorlariga, intonatsion qoidalariga, sintagmatik prinsiplariga amal qilishdir. O‘qish ham o‘qib tushunish kabi muntazam davom etib, tadrijiy rivojlanib boradi. Bunda so‘zlarni qo‘shib jumlalarni to‘g‘ri va ravon o‘qish, uyushiq bo‘laklar va umumlashtiruvchi so‘zga diqqat qilish, gapning ajratilgan bo‘laklari, kiritma va undalmalarni e’tibor bilan o‘qish tushuniladi. Ya’ni tilni o‘rganishning quyi (A) bosqichidan yuqori (C) bosqichigacha davom etadi va matnlarning hajman ortib borishi, mazmunning esa tizimli murakkablashiblashishi orqali shakllanib boradi.

O‘qib tushunish esa undan keyingi murakkab bosqich hisoblanadi. Ikkinchi tilni o‘qitish metodikasida o‘qish va o‘qib tushunishni takomillashtirishning muhim shartlari mavjud. O‘qish, eng avvalo, adabiy talaffuzni normaga soladi. O‘qib tushunish esa o‘rganilayotgan tilda nutq o‘stirishdan tashqari fikrlashni ham shakllantiradi. O‘qib tushunishning ikkinchi tilni o‘rganishda quyidagi muhim vazifalari mavjud:

– o‘qib tushunish jarayonida duch kelgan gap qoliplarini o‘zi yaratayotgan nutqda aks ettiradi;

– o‘qib tushunish jarayonida o‘rganilgan yangi so‘zlar gapirish va yozish ko‘nikmasida aks etadi. Bu esa og‘zaki nutqning tushunarliligi, chiroyliligi, yozma nutqning ta’sirchanligini, savodxonlikni ham ta’minlaydi;

– insonda ko‘z xotirasi ham mavjud bo‘lib, o‘qib tushunish bosqichida ba’zi so‘zlar xotirada saqlanadi va bu tinglab tushunish jarayonida so‘zlarni tushunishga yordam beradi;

– o‘qib tushunishning muntazam ma’lum bir maqsadni ko‘zlagan holda amalga oshirilishi o‘z-o‘zidan gapirish va yozish bosqichlarini shakllantiradi;

– o‘qish mashqlari orqali lingvistik ko‘nikmalar rivojlanadi;

– til sathlariga oid nazariy bilim va ko‘nikmalar mustahkamlantiriladi;

– o‘qib tushunish o‘rganilayotgan tilning lingvomadaniy bilimlarini mantiqiy tafakkurga yo‘naltiradi;

– o‘qib tushunish orqali turli matn tiplari (faktologik, argumentativ, ilmiy, rasmiy, axboriy, badiiy, tasvirlovchi matn) yuzasidan prognoz qilish qobiliyati shakllanadi.

O‘zbek tilida o‘qish va o‘qib tushunishni shakllantirish uchun tilni o‘qitish metodikasida mavjud bo‘lgan metodlarning deyarli barchasidan foydalanilgan. Bu bosqichda, asosan, turli matnlardan ajratib olingan qisqa jumlalar, yig‘iq va yoyiq sodda gaplar ustida ishlangan. Ammo o‘qib tushunishning psixolingvistik jarayon ekanligi, so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish bilan birga ularning lug‘aviy ma’nosini, matnda anglatayotgan ma’nosini sezish, gapning sintaktik strukturasini bilib olish kabi bosqichlarda shakllantirilmagan.

Chet tillarini o‘qitishning zamonaviy metodlarida o‘qib tushunishni takomillashtirish uchun eng ilg‘or metodlardan foydalaniladi va ular turlicha ilmiy asoslanadi.

Matnni tushunishning dastlabki darajasi assotsiativ daraja bo‘lsa, unda o‘quvchida matn mavzusi, matn uslubi va matndagi so‘zlarga assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Keyingi daraja leksik-morfologik daraja bo‘lib, bunda o‘quvchi matndagi so‘zlari va ularning ma’nosini tushunadi. Uchinchi daraja kontekstual daraja bo‘lib, unda so‘zlarning kontekstual ma’nolari anglashiladi.[55] Bu jarayon davomida matnni tushunish uchun uchinchi bosqichga ko‘proq e’tibor berilishi kerak, chunki unda so‘zlarning matnda qanday ma’noda kelayotganini tushunish mumkin. Va bu orqali o‘quvchida matnni diqqat bilan o‘qib, uning mohiyatini tushunish, anglashilgan mazmun asosida fikr bildira olish ko‘nikmalari shakllanadi. O‘quvchida o‘qib tushunish ko‘ikmasining shakllanishiga erishish uchun uni faqat bir marta o‘qish bilan kifoyalanmaslik zarur. Chunki bu bilan ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Matnni to‘laqonli tushunish uchun uni besh marotaba o‘qish texnikasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Dastlab, o‘rganuvchi matnni shunchaki o‘qib, u bilan tanishib chiqadi. Ikkinchi bosqichda bilmagan, yangi so‘zlarni belgilab chiqiladi. Uchinchi marta belgilangan yangi so‘zlar lug‘at yordamida tarjima qilinadi. To‘rtinchi bosqichda yangi, tushunarsiz so‘zlarning tarjimasi bilan matn qayta o‘qiladi. So‘nggi bosqichda esa matn to‘liq tarjima qilinib, tushunish bosqichiga o‘tiladi. Bu texnika matnning mazmunini anglash, matndagi yangi bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, lingvistik va til sathlariaro bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Ona tili darslari davomida o‘quvchilarga tushunishni ta’minlaydigan topshiriqlar mavjud. Bular savollarga javob berish, test, nuqtalar o‘rniga kerakli so‘zlarni topib yozish, matn qismlariga sarlavha qo‘yish, jadval ichida berilgan ma’lumotlarni to‘g‘ri, noto‘g‘ri, unday ma’lumot umuman berilmaganligini aniqlab belgilangan bo‘sh katakka belgi qo‘yish (True, false, not given), matnda tasvirlangan yoki urg‘u berilgan narsalar) rasmini chizish, matnlarni qismlarga bo‘lib, har biriga sarlavha qo‘yish, matnda urg‘u olgan so‘zlarning izohini topish, raqamli izohlarga ma’nosi to‘g‘ri keladigan abzastni topish, matnda belgilangan ma’lumotlarni jadvaldagi savollar asosida tasniflash, boshlangan gaplarni matn ma’nosi asosida davom ettirish, matnga o‘z sarlavhasidan tashqari yana qanday sarlavha qo‘yish mumkinligini o‘rganish, matnning eng muhim o‘rinlarini o‘z so‘zingiz bilan to‘ldiring kabilar. Mazkur topshiriqlar matnni har tomonlama mukammal tushunishga yordam beradi. Bu kabi savol va topshiriqlar matn mazmunini yorqinroq ifodalashga yordam beradi. Mazkur usul tushunish uchun yo‘llanma bo‘lishi mumkin.

Demakki, o‘zbek tilini o‘qitish faqatgina ilgarigi an’analar asosida davom etmasligi, o‘qitish tizimida nutqiy kompetensiyalarga rioya qilgan holda ta’limning mohiyatini yaxshiroq anglash, bu jarayon davomida matnga alohida e’tibor qaratib, uni o‘qitish bilangina chegaralanmay, o‘quvchida matnni o‘qib tushunishni to‘laqonli shakllantirishga e’tibor qaratishimiz kerak. Negaki, til o‘qitish tizimi matnlardan iborat. Aynan matn orqali tilning boshqa kompetensiyalari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni. 2019-yil 21-oktabr. https://lex.uz/docs/-4561730

[55] Azimova I. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent., 2020 – 45-b.

2. Azimova I. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. – Toshkent., 2020.
3. Muxitdinova X. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi, – Toshkent – 2023.
4. Temirova K.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. ‘‘Pedagogik mahorat’’ // ilmiy-nazariy va metodik jurnal, № 6/2022.

SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA PRESUPPOZITSIYA

Qurbonova Shodiya Shihnazar qizi
O‘zMUO‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi Lingvistika yo‘nalishi
birinchi bosqich magistranti.
E-mail: shodi2026@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada presuppozitsiya tushunchasi, tarixi, uning tilshunoslik sohasida tutgan o‘rni, asosiy turlari, presuppozitsiya bilan bog‘liq nazariyalar va ular orqali qilingan xulosalar haqida ma’lumotlar batafsil bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: Presuppozitsiya, kontekst, lingvistika, pragmatika, keng presuppozitsiya, tor presuppozitsiya, lingvistik presuppozitsiya.

Annotation: This article provides a detailed explanation of the concept of presupposition, its history, its role in the field of linguistics, the main types of presupposition and the theories related to it, as well as conclusions drawn from these theories.
Keywords: Presupposition, context, linguistics, pragmatics, broad presupposition, narrow presupposition, linguistic presupposition.

Insoniyat yaratilgan beri uning asosiy muloqot vositasi til hisoblanadi. Biroq til insonlar o‘rtasida faqatgina muloqot vositasi bo‘libgina qolmay, insonning dunyoni anglashi, tushunganlarini o‘zgalarga erkin anglatishlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan noyob hodisa sanaladi. Tilda undan foydalanuvchi har bir insonning dunyoqarashi, olamni idrok etishi ham namoyon bo‘ladi. Til o‘ziga xos jihatlarga ega murakkab hodisadir.

Yangi davr tilshunosligida bir hodisaning turlicha nomlanishi yoki ikki hodisaning umumiy ko‘rinishlari, xossalari, mohiyatining o‘xshashligi tufayli ularni o‘zaro farqlay olmaslik holatlari ham uchramoqda. Xususan, atamalarning omonimik, sinonimik, polisemantik xususiyatlarini yoritishda xilma-xillik yuzaga kelmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan o‘rganila boshlagan presuppozitsiya hodisasi tadqiqida ham ana shunday hodisa mavjud.

Presuppozitsiya hodisasi hozirgi zamon lingvistikasi bilan mantiqiy semantika o‘rtasidagi ko‘prik hisoblanadi. Bu hodisa gapning to‘g‘ri anglanishi uchun eng zarur komponentdir. Chunki presuppozitsiya gapning vaziyat, kontekst hamda so‘zlovchi va tinglovchilarning oldindan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlari kabi elementlarni o‘z ichiga oluvchi hodisadir. Shuning uchun har qanday gap presuppozitsiyasi hodisasi asosida tahlil etilishi kerak. ‘‘Presuppozitsiya’’ hodisasi muloqot qatnashchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo‘shimcha, ikkilamchi ma’lumot berish imkoniyatiga egaligi, suhbat qatnashchilarining bo‘lib o‘tgan yoki bo‘lajak jarayon haqidagi oldindan ma’lum bilimlari kabi omillar ta’sirida nutqiy maydonga chiquvchi hodisasidir. Propozitsiyaning til sathidagi ahamiyati tilning mohiyatini belgilaydigan qisqalik, tejamlilik tamoyillari bilan izohlanadi. “Propozitsiyaning” yashirin hukm, tagma’no bilan bog‘liq ekanligini bundan yuz yillar oldin Olmon mantiqshunosi X.Frege aytgan edi. ‘‘Propozitsiyaning’’ o‘rganilish tarixi o‘ziga xos bo‘lib, uni o‘rganish bilan dastlab tilshunoslar emas, balki mantiqshunoslar shug‘ullanib, hayotga tadbiq

etganlar. Jumladan, presuppozitsiya tushunchasi mashhur mantiqshunos olim G.Frege g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lib, uning fikricha, presuppozitsiya hukmning tabiiy asosi sifatida o‘rganilishi lozim. Bugungi kunga qadar presuppozitsiya, prezumptsiya, tagbilim, ichki ma’no, monema, pragmatik ma’no, sintagmatik ma’no, hukmning tabiiy asosi so‘zlovchining bilish fondi, ularning oldindan kelishuvi, sintaktik strukturaning ikkilamchi ma‟nosi, oldindan ma’lum bilimlarning jami atamalar ostida o‘rganib kelinmoqda.

‘‘Presuppozitsiya’’ tushunchasi kontekst (ushbu til birligining lingvistik qurshovi) va vaziyat (ushbu jumlaning ekstralingvistik, substrati yuzaga chiqish shart - sharoiti) tushunchalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, “Etigimni sug‘urib, tagini olovga qaratib qo‘ydim. Pidjagimni yechib, tizzamga yoydim”. (Sh. Xolmirzayev) jumlasidagi axborot kontekst va PqA(B1+B2+Bp) ushbu formula bilan bog‘liq. Axborot temasi bo‘lgan “yomg‘ir” konteksdan ma’lum. Oldingi jumlada gap

yomg’ir haqida boradi, shuning uchun yuqoridagi gap “yomg‘’irda shalabbo bo’lgani bilan bog’liq” presuppozitsiyaga ega. Konteksdan tashqarida presuppozitsiya uchun yo’l yopiladi. Kishilarning o’zi qurshab turgan olam haqidagi universal bilimlari va til haqidagi ko’nikmalari natijasida ayrim so’zlarning leksik ma’nolarida ham presuppozitsiyaga yo’l ochishi mumkin. Masalan, “Bahor ham keldi” jumlasida, " “qish qattiq o’tganligi, dalada ishlar boshlanganligi, intiqlik bilan kutilayotgan qandaydir maqsadning mavjudligi” presuppozitsiyasi mavjud. “Keldi”so’zining leksik ma’nosi va til haqidagi umumiy bilish fondi so‘zlovchilar uchun presuppozitsiya yo’l ochadi.

Bugungi kunda tadqiqotchilar presuppozitsiyani turlicha tasniflaydilar, masalan, Rus tilshunos olimi V.G.Gak presuppozitsiyani quyidagi turlarga bo‘ladi:

1. Keng presuppozitsiya
2. Tor presuppozitsiya.
3. Lingvistik presuppozitsiya.

Keng presuppozitsiya ostida kishilarning o‘zini qamrab turgan obyektiv reallik haqidagi umumiy bilimi tushuniladi. Obyektiv borliqdagi har bir predmetning o‘ziga xos xarakterli xususiyati ma’lum narsalarga moslanishi hisoblanadi. Predmetlarning ana shunday xususiyatlarini tavsiflashda konkret ma’noli so‘z umumiyroq so‘z bilan almashinishi yoki butunlay tushib qolishi mumkin. Lekin so‘zlovchi va tinglovchi bir-birini to‘g‘ri tushinishi uchun tushib qolishining hech qanday ahamiyati yo‘q, masalan ‘‘Yondi isina bering’’ gapida “olov “ so‘zi tushib qolgan bo‘lsada, ma’noga hech qanday ta’sir qilmagan.

Tor presuppozitsiyada esa faqat ma’lum bir vaziyat doirasidagina ro‘y beradi.

Linvistik presuppozitsiya esa so‘zlovchilarning shu tilni bilish tajribasi natijasida kelib chiqadigan presuppozitsiya hisoblanadi.

Har bir tilning lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi o‘z tashqi signallari mavjud. U.Rahimov lingvistik presuppozitsiyaning o‘zbek tilidagi tashqi signallarini quyidagicha tasniflaydi:

1. Leksik vositalar.
2. Morfologik vositalar.
3. Sintaktik vositalar.

U. Rahimov presuppozitsiyaga yo‘l ochuvchi leksik vositalarga omonim, sinonim va antonim so‘zlarni, morfologik vositalarga ma’lum so‘z turkumlaridagi kategoriyalarni hamda

ko‘makchi va yuklamalarni kiritadi. Sintaktik vositalar sifatida so‘roq gaplar, o‘xshatishli qurilmalar hamda so‘z tartibini ko‘rsatadi. Uning boshqa ishida ‘‘presuppozitsiyaning lisoniy ko‘rsatkichlari – fonema, morfema, leksema, so‘z shakl, so‘z birikmasi, gaplar ishorasi’’ tarzida belgilanadi.[56]

D.Lutfullayeva tasdiq gapda inkor presuppozitsiyaga ishora qiluvchi leksik-grammatik vositalar sifatida ko‘makchi, yuklama va ayrim bog‘lovchilarni kiritadi.

Lingvistik presuppozitsiyaning shakllanishida unga ishora qiluvchi til vositalarining lisoniy-belgi xususiyatlari muhim o’rin tutadi. Masalan, faqat ayiruv-chegaralov yuklamasi gapda o‘z qurshovidagi bo‘laklarni ajratib ko‘rsatish bilan birga, ularning ma’nosiga zid xarakterdagi presuppozitsiyani shakllantiradi. [57]SHu sababli nutqda faqat yuklamali sintaktik birikmalardan doimo zid mazmundagi xabarlar tushuniladi. Masalan, “Bugun faqatgina notanish odamning ovi baroridan keldi” tasdiq gapida faqatgina yuklamasi orqali inkor ma’nosi, ya’niki notanish odamdan boshqa hech kim ov qilolmaganligi ma’nosi anglashiladi.

Shunisi ahamiyatga molikki, ba’zan gapda lingvistik presuppozitsiya bilan bir vaqtda ekstralingvistik presuppozitsiya ham yonma-yon aks etadi. Bunday holatda tilning maxsus ishora vositalari orqali yuzaga chiquvchi lingvistik presuppozitsiyani turli ekstralingvistik omillar – nutq vaziyati, nutq egalarining voqelikka munosabati, nutq ob’ekti haqidagi oldindan ma’lum bilimlar asosida yuzaga keladigan presuppozitsiyalardan farqlash lozim bo‘ladi. U.Rahimov ham ‘‘Ahmadning katta o‘g‘li keldi’’ gapini tahlil qilar ekan, bu gapda leksik antonimiya asosida shakllangan presuppozitsiyadan (Ahmadning kichik o‘g‘li ham bor.) tashqari, ekstralingvistik omillar – nutqiy vaziyat, oldindan ma’lum bo‘lgan xabar, nutq momenti asosida ‘‘Ahmadning kichik o‘g’li kelishi kerak edi ’’, ‘‘Ahmadning kichik o‘g‘li kelmagan’’, -‘‘Ahmadning katta o‘g‘li kelmasligi kerak edi’’ mantiqiy presuppozitsiyalarining shakllanishini ham qayd etadi.[58]

Presuppozitsiyalar vositasidagina ayni gap tiplarining semantikasi va kommunikativ qimmatini konkret va haqqoniy baholash mumkin[59]. Presuppozitiv jihatdan, ayniqsa, darak gaplar va ritorik so‘roq gaplarning presuppozitsiyasi mazmun jihatdan bir-biriga yaqin bo‘ladi. Misol uchun Kim onani sevmaydi?(Hamma onasini yaxshi ko’radi)

Har bir propozitsiyada bir nechta presuppozitsiya mavjud bo‘ladi. Bu presuppozitsiyani yuzaga chiqarishda grammatik vositalar ko’maklashadi. Masalan, *Ertalab men ham choy ichmadim.* Uning propozitsiyasi: *choyni faqat u ichmay kelmaganini* ham yuklamasi orqali qo‘shimcha mazmun ifodalaniladi.

Presuppozitsiya gap tashqi strukturasida moddiy ko‘rinishini to‘liq namoyon qilmaydi. Ammo uning tashqi signallari – ishora vositalari, tabiiyki, sintaktik strukturadan o‘rin oladi[60]. Matndagi propozitsiyani mantiqiy tahlil qilish asosida presuppozitsiyani aniqlab olish mumkin bo‘ladi. Masalan, *Boqchaning kunbotari bilan xarobazor imoratlarni yonlab yurdi. (A.Qod.*

[56] Раҳимов У. Лисоний пресуппозиция / Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги: Илмий мақолалар тўп. - Тошкент. 2004. - Б.58.
[57] Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Самарқанд, 1994. - Б. 11-14.
[58] Раҳимов У. Тагмаъно ва пресуппозиция // Ўзбек тил ва адабиёти. - Тошкент. 2005. - №5. - Б.32.
[59] Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1986. №6. – Б. 28-42.
[60] Бурханов З. Б. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси. Филол. фанлари д-ри…..дис. автореф. – Т., 2008.

“O‘tkan kunlar”). Ushbu sodda gap bir nechta presuppoziyaga ega: 1. *Imoratlar boqchaning kunbotarida joylashgan*; 2. *Imoratlar –xarobazor*[61]

Ma’lum bo‘ladiki, presuppozitsiya gapda nutqiy vaziyat bilan bog‘liq holda yashirin tarzda reallashuvchi hodisa, uning to‘g‘ri tushunilishida nolisoniy omillar – nutqiy vaziyat, kontekst, so‘zlovchi va tinglovchiga oldindan ma’lum bo‘lgan umumiy bilimlar hamda nutq egalarining til ko‘nikmalari yordamga keladi. Bu nolisoniy omillar gap sintaktik strukturasida aks etmagan, yashirin ifodalanuvchi presuppozitsiyaning oson tushunilishiga yordam beradi. Jumladan, tadqiqotimiz ob’ekti hisoblangan ko‘makchili qurilmalar va ularga vazifadosh kelishikli so‘zshakllari ishora qilgan presuppozitsiyaning to‘g‘ri tushunilishida ham ushbu nolisoniy omillar muhim o‘rin tutadi. Agar suhbat egalari nutq vaziyatidan bexabar bo‘lsalar, nutq ob’ekti haqida tasavvurga ega bo‘lmasalar yoki qo‘llanishdagi tilni mukammal bilmasalar, u holda presuppozitsiyani to‘liq anglab etmasliklari mumkin. Anglashiladiki, presuppozitsiya tilning pragmatik aspektini namoyon etuvchi hodisa sifatida kontekst, nutq vaziyati, til egalarining nutq ob’ekti haqidagi umumiy bilimlari tushunchalari bilan zich bog‘lanadi va gapning semantik tuzilishi bilan bog’liq hodisa sifatida maxsus tadqiqotlarni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Раҳимов У. Лисоний пресуппозиция / Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги: Илмий мақолалар тўп. - Тошкент. 2004. - Б.58.
2. Раҳимов У. Ўзбек тилида юкламалар пресуппозицияси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. - Самарқанд, 1994. - Б. 11-14.
3. Раҳимов У. Тагмаъно ва пресуппозиция // Ўзбек тил ва адабиёти. - Тошкент. 2005. - №5. - Б.32.
4. Маҳмудов Н. Пресуппозиция ва гап. Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1986. №6. – Б. 28-42.
5. Бурханов З. Б. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси. Филол. фанлари д-ри…..дис. автореф. – Т., 2008.
6. Xujamqulova M. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatik munosabat. – T., 2024.
7. Xolmirzayev Sh. Notanish. . – T., 1960
8. https://ru.ziyo.com/

[61] Xujamqulova M. Sodda gapda kommunikatsiya va pragmatik munosabat. – T., 2024.

O‘ZBEK TILI MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARDA ADABIY O‘QISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Turakulova Okila Amirkulovna
Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti
